Ключевые слова: *бытовой дискурс, гендерная прагматика, стратегия солидарности, стратегия доминирования, коммуникативная стратегия, rapport management, вежливость, гендер, английский язык, узбекский язык, сопоставительная прагматика.*

KIRISH

Til insonlar o‘rtasida axborot almashinuvini ta’minlovchi vosita bo‘lish bilan birga, shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va boshqarish, ijtimoiy mavqeni namoyon etish, suhbatdoshga ta’sir ko‘rsatish hamda muayyan kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.[7;45-47-b.] Ayniqsa, maishiy diskurs doirasidagi kundalik muloqotda kommunikativ harakatlar rasmiy yoki institutsional nutqqa nisbatan bevosita, kontekstga boy va munosabatlarga kuchli darajada bog‘langan holda namoyon bo‘ladi.[5; 2-5-b.] Bunday muloqot jarayonida so‘zlovchilar bir tomondan suhbatdosh bilan yaqinlik va hamkorlikni shakllantirish, uni qo‘llab-quvvatlash, kelishuvga erishish va o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga, ikkinchi tomondan esa o‘z pozitsiyasini ta’kidlash, qarorlar va harakatlarga ta’sir ko‘rsatish, suhbat jarayonini boshqarish yoki kommunikativ nazoratni amalga oshirishga intiladilar. Shu sababli maishiy diskurs kommunikativ strategiyalarning tabiiy, dinamik va kontekstual namoyon bo‘lishini o‘rganish uchun muhim empirik makon hisoblanadi.

Gender va nutq munosabatlarini o‘rganishga qaratilgan dastlabki yondashuvlarda ayollar va erkaklar nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlarda kommunikativ xulq-atvorni faqat gender bilan izohlashning cheklanganligi tobora ko‘proq ta’kidlanmoqda. Kommunikativ strategiyaning tanlanishi gender bilan bir qatorda ijtimoiy mavqe, yosh, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat, ijtimoiy masofa, kommunikativ vaziyat, madaniy me’yorlar va so‘zlovchining maqsadi bilan ham bog‘liq holda shakllanadi. [2; 945-946-b.] Shu nuqtayi nazardan, genderni kommunikativ xulq-atvorning qat’iy determinanti sifatida emas, balki boshqa ijtimoiy va kontekstual omillar bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi pragmatik omil sifatida ko‘rib chiqish zamonaviy gender-pragmatik tadqiqotlar uchun metodologik jihatdan muhimdir.

Gender va kommunikativ xulq-atvor o‘rtasidagi munosabatni izohlashda Deborah Tannenning ishlari muhim nazariy zamin yaratadi. Tannen (1990) erkaklar va ayollar o‘rtasidagi muloqotda yaqinlik, aloqa, maqom va mustaqillik bilan bog‘liq kommunikativ ehtiyojlarning turlicha namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratadi. Ushbu yondashuv kundalik muloqotda suhbatdoshlar o‘rtasidagi yaqinlikni kuchaytirishga yoki o‘z mavqe’ va maqomini ta’kidlashga qaratilgan kommunikativ yo‘nalishlarni tushunish uchun muhim konseptual asos beradi.[15; 70-75-b.] Biroq Tannenning qarashlarini erkak va ayollar nutqiga xos universal xususiyatlar sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Mazkur tadqiqotda uning yondashuvi gender va kommunikativ strategiyalar o‘rtasidagi munosabatni shakllantiruvchi boshlang‘ich nazariy nuqta sifatida qabul qilinib, strategik tanlovlarning real diskursiv vaziyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liqligi alohida hisobga olinadi.

Shu asosda mazkur tadqiqotning markaziy analitik kategoriyalari sifatida **hamjihatlik va ustuvorlik** strategiyalari belgilanadi. Hamjihatlik strategiyasi suhbatdoshlar o‘rtasida yaqinlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, hamkorlik, rozilik, empatiya, umumiylik va ijtimoiy aloqadorlikni kuchaytirishga qaratilgan kommunikativ harakatlarni anglatadi. Ustuvorlik strategiyasi esa so‘zlovchining o‘z pozitsiyasini kuchaytirishi, qaror yoki fikrini ta’kidlashi, suhbat jarayonini boshqarishi, suhbatdoshning xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatishi yoki kommunikativ nazoratni amalga oshirishiga xizmat qiluvchi harakatlarni qamrab oladi. Bunda ushbu ikki strategiya qat’iy va bir-birini istisno qiluvchi kategoriyalar sifatida emas, balki real muloqot jarayonida vaziyatga qarab kesishishi, almashinishi yoki bir kommunikativ harakat doirasida birgalikda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan dinamik strategiyalar sifatida qaraladi. [4; 10-15-b.]

Mavzuga oid adabiyotlar shahri

Mazkur strategiyalarning pragmatik mohiyatini tushuntirish uchun Spencer-Oateyning rapport management yondashuvi ushbu tadqiqotning asosiy nazariy tayanchlaridan biri sifatida olinadi. “Rapport management” kommunikativ munosabatlarni faqat “tashqi qiyofa”ni saqlash bilan cheklab qo‘ymay, ishtirokchilarning ijtimoiy huquq va majburiyatlari, shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlari hamda o‘zaro munosabatlarning uyg‘unligini boshqarish jarayoni sifatida talqin qilish imkonini beradi.[13; 11-47-b.] Shu nuqtayi nazardan, maishiy muloqotdagi kommunikativ strategiyalarni faqat alohida lingvistik shakllar orqali emas, balki ularning suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatga ko‘rsatadigan ta’siri orqali ham tahlil qilish zarur. Hamjihatlik strategiyalari rapportni mustahkamlash va ijtimoiy yaqinlikni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi mumkin bo‘lsa, ustuvorlik strategiyalari ayrim vaziyatlarda maqom, nazorat, ta’sir yoki kommunikativ huquqlar bilan bog‘liq munosabatlarni boshqarish vositasi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Brown va Levinsonning (1987) muomala nazariyasi ham ushbu kommunikativ jarayonlarni pragmatik jihatdan tushuntirish uchun muhim qo‘shimcha nazariy asosni tashkil etadi. Ushbu yondashuv kommunikativ harakatlarning suhbatdoshning “tashqi qiyofasi”iga ta’sir ko‘rsatishi va so‘zlovchining bunday ta’sirni turli lingvistik vositalar orqali yumshatishi yoki

boshqarishi mumkinligini ko‘rsatadi.[1; 61-62-b.] Biroq ingliz va o‘zbek maishiy diskursini qiyosiy o‘rganishda kommunikativ strategiyalarni faqat “universal politeness” (umumiy muomala madaniyati) kategoriyalari orqali izohlash yetarli emas. Chunki munosabatlar, ijtimoiy huquqlar, kutilmalar va kommunikativ me’yorlarning talqini turli lingvomadaniy muhitlarda farqlanishi mumkin. Shu sababli mazkur tadqiqotda muomala yondashuvi ***rapport management*** konsepsiyasini to‘ldiruvchi nazariy vosita sifatida qo‘llanadi, asosiy e’tibor esa kommunikativ strategiyalarning munosabatlarni boshqarishdagi funksiyasiga qaratiladi.

Ingliz va o‘zbek maishiy diskursining qiyosiy tahlili aynan shu nuqtada alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Turli lingvomadaniy an’analarga mansub bo‘lgan ushbu tillarda yaqinlikni ifodalash, hurmatni namoyon etish, ijtimoiy masofani boshqarish, suhbatdoshni qo‘llab-quvvatlash, qaror qabul qilishga ta’sir ko‘rsatish va kommunikativ nazoratni amalga oshirishning lingvistik hamda pragmatik usullari turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, bir xil kommunikativ strategiya ikki tilda formal jihatdan o‘xshash vositalar orqali ifodalangan taqdirda ham, uning pragmatik funksiyasi yoki lingvomadaniy talqini bir xil bo‘lmasligi mumkin. Demak, qiyosiy tahlil faqat strategiyalarning mavjudligi yoki chastotasini aniqlash bilan cheklanmasdan, ularning lingvistik realizatsiyasi, kommunikativ maqsadi va shaxslararo munosabatlarni boshqarishdagi funksiyasini ham hisobga olishi lozim.

Bunday qiyosiy-pragmatik yondashuvda gender omili ham alohida, biroq yagona emas, parametr sifatida ko‘riladi. Erkak va ayollar nutqida hamjihatlik yoki ustuvorlik strategiyalarining mavjudligi avtomatik ravishda genderga bog‘langan xususiyat sifatida talqin qilinmaydi. Aksincha, genderning strategik tanlovga ta’siri suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat, ijtimoiy mavqe, yosh, qarindoshlik darajasi, kommunikativ vaziyat va lingvomadaniy me’yorlar bilan o‘zaro bog‘liq holda tekshiriladi. Bunday yondashuv gender stereotiplaridan qochish bilan birga, genderning kommunikativ strategiyalarni shakllantirishdagi ehtimoliy rolini real diskursiv material asosida aniqlash imkonini beradi. [7; 47-48-b.]

Tadqiqot muammosi va ilmiy bo‘shliq

Gender, kommunikativ xulq-atvor, xushmuomalik, ijtimoiy munosabat va hokimiyat munosabatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ingliz va o‘zbek maishiy diskursida hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalarining gender-pragmatik namoyon bo‘lishini yagona qiyosiy model asosida tizimli o‘rganish masalasi yetarlicha ochib berilmagan. Ayniqsa, uchta masala alohida ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi: birinchidan, ushbu strategiyalarning qaysi lingvistik vositalar orqali amalga oshirilishi; ikkinchidan, ularning erkak va ayol so‘zlovchilar nutqida qanday pragmatik funksiyalarni bajarishi; uchinchidan, strategik tanlovlarning genderdan tashqari ijtimoiy munosabat va lingvomadaniy kontekst bilan qanday o‘zaro bog‘lanishi. Mazkur bo‘shliqni to‘ldirish ingliz va o‘zbek kundalik muloqotining gender-pragmatik xususiyatlarini yanada aniqroq tavsiflash imkonini beradi.

Shu asosda ushbu tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek maishiy diskursida hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalarining gender-pragmatik namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash, ularning lingvistik realizatsiyasi va pragmatik funksiyalarini qiyosiy tahlil qilish hamda strategik tanlovning gender, ijtimoiy munosabat va lingvomadaniy kontekst bilan o‘zaro aloqasini ochib berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:

— maishiy diskursda hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalarining nazariy-pragmatik mohiyatini aniqlash;
— gender omilining kommunikativ strategiyalarni tanlash va amalga oshirishdagi o‘rnini belgilash;
— ingliz va o‘zbek maishiy diskursida hamjihatlik strategiyasining asosiy lingvistik va pragmatik ko‘rsatkichlarini aniqlash;

— ingliz va o‘zbek maishiy diskursida ustuvorlik strategiyasining lingvistik va pragmatik vositalarini tavsiflash;
— erkak va ayol so‘zlovchilar nutqida mazkur strategiyalarning qo‘llanilishidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash;
— strategik tanlovga ta’sir qiluvchi ijtimoiy, munosabatga oid va lingvomadaniy omillarni aniqlash.

Tadqiqotning ***ilmiy yangiligi*** shundaki, ingliz va o‘zbek maishiy diskursida hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalari gender-pragmatik hodisa sifatida yagona qiyosiy tahlil doirasida o‘rganiladi. Bunda strategiyalar faqat erkak va ayollar nutqi o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatuvchi belgilar sifatida emas, balki gender, kommunikativ vaziyat, suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabat va lingvomadaniy kontekstning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanuvchi dinamik pragmatik vositalar sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqotning ***nazariy ahamiyati*** gender tilshunosligi, pragmalingvistika, diskurs tahlili va rapport management [11; 11-47-b.] yondashuvlarining kesishgan nuqtasida ingliz va o‘zbek maishiy diskursidagi strategik kommunikatsiyani izohlash bilan belgilanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa uning natijalaridan qiyosiy tilshunoslik, pragmatika, diskurs tahlili, tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalaridagi tadqiqotlarda foydalanish imkoniyati bilan bog‘liq.

Shunday qilib, mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek maishiy diskursida gender va kommunikativ strategiyalar o‘rtasidagi munosabatni oddiy gender farqlari doirasida emas, balki lingvistik realizatsiya, kommunikativ maqsad, “interpersonal rapport” va lingvomadaniy kontekstning o‘zaro ta’siri asosida o‘rganishni taklif etadi. Bunday yondashuv hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalarining qaysi sharoitlarda va qanday pragmatik funksiyalar orqali yuzaga kelishini aniqlash, shuningdek, ularning gender bilan bog‘liq tendensiyalarini stereotipik umumlashtirishlardan xoli ravishda tavsiflash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek maishiy diskursida hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalarining gender-pragmatik namoyon bo‘lishini aniqlashga qaratilgan qiyosiy-pragmatik tadqiqot sifatida tashkil etiladi. Tadqiqotda qiyosiy-pragmatik tahlil, diskursiv tahlil, kontekstual tahlil va sifat tahlili metodlaridan foydalaniladi. Shuningdek, aniqlangan strategiyalarning nisbiy qo‘llanishini ko‘rsatish maqsadida chastotaviy hisoblashdan foydalaniladi.

Tadqiqotning asosiy metodologik tamoyili genderni kommunikativ xulq-atvorning yagona va qat’iy determinanti sifatida emas, balki kommunikativ vaziyat, suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabat, maqom, yosh, qarindoshlik darajasi va lingvomadaniy muhit bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi omil sifatida talqin qilishga asoslanadi. Shu sababli tahlilda “ayollar hamjihatlik strategiyasidan, erkaklar esa ustuvorlik strategiyasidan foydalanadi” kabi kategorik xulosalardan qochilib, muayyan strategiyaning qaysi kontekstda, qanday kommunikativ maqsadda va qanday lingvistik vositalar orqali amalga oshirilishi aniqlanadi. [6; 30-72-b.]

Tadqiqot materiali va korpusni shakllantirish

Tadqiqotning empirik bazasi ikki qismdan — ingliz va o‘zbek maishiy diskurs materiallaridan tashkil topadi. Ingliz tili bo‘yicha asosiy manba sifatida Spoken BNC2014 korpusidan foydalanish rejalashtiriladi. Mazkur korpus tabiiy ravishda yuzaga kelgan og‘zaki suhbatlarni qamrab olishi va unda oila, do‘stlar hamda boshqa yaqin ijtimoiy munosabatlar doirasidagi norasmiy muloqotlar mavjudligi bilan ushbu tadqiqot maqsadlariga mos keladi.[8; 319-344-b.]

O‘zbek tilidagi empirik material esa ikki yo‘nalishda shakllantiriladi. Birinchi yo‘nalish — tabiiy maishiy vaziyatlarda yuzaga keladigan og‘zaki suhbatlarni ishtirokchilarning oldindan xabardor qilingan roziligi asosida yozib olish va transkripsiya qilish. Ikkinchi yo‘nalish — mavjud

o‘zbek og‘zaki nutq resurslaridan qo‘shimcha material sifatida foydalanish. Xususan, o‘zbek tilidagi nutq ma’lumotlaridan foydalanishda ularning maishiy diskursga muvofiqligi, so‘zlovchining jinsi va suhbat kontekstining aniqligi asosiy tanlash mezonlari sifatida belgilanadi.

Korpusni shakllantirishda faqat kundalik, norasmiy va shaxslararo muloqotga oid dialoglar tanlanadi. Bunday dialoglarga oilaviy suhbatlar, er-xotin muloqoti, ota-ona va farzand o‘rtasidagi suhbatlar, aka-uka yoki opa-singillar muloqoti, yaqin qarindoshlar hamda do‘stlar o‘rtasidagi kundalik suhbatlar kiritiladi. Rasmiy, institutsional yoki professional kommunikatsiya, ommaviy nutq, siyosiy diskurs va maishiy xarakterga ega bo‘lmagan boshqa kommunikativ materiallar tahlildan chiqarib tashlanadi.

O‘zbek tilidagi maxsus yig‘iladigan materiallarda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish maqsadida ishtirokchilarning ismlari va ularni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi boshqa ma’lumotlar transkripsiyada ko‘rsatilmaydi. Ishtirokchilar shartli belgilar, masalan, F1, F2 (ayol so‘zlovchilar) va M1, M2 (erkak so‘zlovchilar) orqali belgilanadi.

Materiallarni tanlash mezonlari

Tadqiqot materiallarini tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:

— dialog kundalik yoki maishiy kommunikativ vaziyatga tegishli bo‘lishi;
— so‘zlovchilarning jinsi imkon qadar aniqlanishi;
— suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatni aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lishi;
— kommunikativ vaziyatning kontekstual jihatdan yetarlicha tushunarli bo‘lishi;
— dialogda hamjihatlik yoki ustuvorlik strategiyasining mavjudligi;
— strategiyani lingvistik va pragmatik jihatdan izohlash uchun yetarli kontekst mavjud bo‘lishi.

Faqat bitta alohida gapdan iborat, kontekstdan uzilgan yoki so‘zlovchining kommunikativ maqsadini aniqlash imkonini bermaydigan birliklar asosiy tahlil korpusiga kiritilmaydi.

Gender va kommunikativ munosabatlarni kodlash

Tahlilda gender kategoriyasi alohida, kommunikativ munosabat esa alohida parametr sifatida kodlanadi. So‘zlovchilar ayol (F) va erkak (M) guruhlariga ajratiladi. Shu bilan birga, suhbatlar quyidagi kommunikativ kombinatsiyalar bo‘yicha guruhlanadi:

F → F — ayol–ayol;
M → M — erkak–erkak;
F → M — ayol–erkak;
M → F — erkak–ayol.

Bundan tashqari, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat turi ham qayd etiladi: er-xotin, ota-ona–farzand, aka-uka/opa-singil, qarindoshlar, do‘stlar va boshqa yaqin ijtimoiy munosabatlar.

Bunday kodlash strategiyaning gender bilan bog‘liqligini boshqa ijtimoiy parametrlar bilan birgalikda tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, ayol so‘zlovchining ustuvorlik strategiyasidan foydalanishi “ayollar nutqidagi dominantlik” sifatida umumlashtirilmaydi; aksincha, uning oiladagi mavqei, suhbatdosh bilan munosabati va kommunikativ maqsadi ham hisobga olinadi.

Tahlil kategoriyalari

Tadqiqotda ikkita asosiy strategik kategoriya — *hamjihatlik va ustuvorlik* strategiyalari belgilanadi.

Hamjihatlik strategiyasi suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy yaqinlikni kuchaytirish, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, hamkorlik va kelishuvni ta’minlashga qaratilgan nutqiy harakatlarni qamrab oladi. [12; 11-47-b.] Ushbu strategiya quyidagi ko‘rsatkichlar asosida aniqlanadi:

— *rozilik va qo‘llab-quvvatlash;*
— *empatiya;*
— *taklif va hamkorlikka undash;*

— *umumiylikni ta’kidlash;*
— *suhbatdosh fikrini ma’qullash va ijobiy munosabat bildirish;*
— *nizoni yumshatish;*
— *yaqinlik va birdamlikni kuchaytiruvchi murojaat shakllari va boshqa affiliativ vositalar.*

Ustuvorlik strategiyasi esa so‘zlovchining o‘z pozitsiyasini kuchaytirishi, suhbat jarayonini boshqarishi, qaror qabul qilishga ta’sir ko‘rsatishi yoki suhbatdoshning xatti-harakatini yo‘naltirishiga xizmat qiluvchi nutqiy harakatlarni qamrab oladi. Uning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilar:

— *buyruq va qat’iy talab va suhbatni boshqarish;*
— *qaror yoki pozitsiyani qat’iy ifodalash;*
— *qarama-qarshilik;*
— *suhbatdosh nutqini cheklash yoki bo‘lish;*
— *tanbeh va nazorat;*
— *o‘z fikrini majburiy tarzda qabul qildirishga intilish;*
— *kommunikativ mavqe yoki hokimiyatni ta’kidlash.*

Biroq mazkur lingvistik vositalarning mavjudligi avtomatik ravishda ma’lum strategiya mavjudligini anglatmaydi. Masalan, buyruq shaklidagi gap ayrim vaziyatlarda ustuvorlikni ifodalashi mumkin, boshqa vaziyatlarda esa oila a’zolari o‘rtasidagi odatiy hamkorlik yoki g‘amxo‘rlik doirasida ishlatilishi mumkin.[7; 50-55-b.] Shu sababli strategiyani aniqlashda shakliy belgilar bilan bir qatorda kontekst, kommunikativ maqsad va suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat ham hisobga olinadi.

Tahlil jarayoni

Empirik material dastlab transkripsiya qilinadi va kontekstual birliklarga ajratiladi. Keyingi bosqichda har bir dialog quyidagi parametrlar asosida kodlanadi:

so‘zlovchi → gender → suhbatdosh → munosabat → kommunikativ vaziyat → strategiya → lingvistik vosita → pragmatik funksiya.

Masalan, er-xotin o‘rtasidagi kelishmovchilikda so‘zlovchining qat’iy talab bildirishi ustuvorlik strategiyasi, shu vaziyatda suhbatdoshning vaziyatni yumshatish uchun rozilik yoki murosaga chaqirishdan foydalanishi esa hamjihatlik strategiyasi sifatida kodlanishi mumkin. Biroq yakuniy tasnif kontekstual tahlil asosida amalga oshiriladi.

Keyingi bosqichda ingliz va o‘zbek materiallarida aniqlangan strategiyalar o‘zaro qiyoslanadi. Qiyoslash uch asosiy yo‘nalishda olib boriladi: **(1) strategiyalarning qo‘llanish chastotasi, (2) ularning lingvistik realizatsiyasi va (3) pragmatik funksiyasi.** Gender bo‘yicha farqlar esa kommunikativ munosabat turi va vaziyat bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi.

Miqdoriy va sifat tahlilining uyg‘unligi

Tadqiqotning asosiy metodologik yo‘nalishi sifat tahliliga asoslangan bo‘lsa-da, aniqlangan strategiyalarning taqsimlanishini ko‘rsatish uchun chastotaviy hisoblashdan ham foydalaniladi. Bunda miqdoriy ma’lumotlar gender yoki til guruhlari o‘rtasida qat’iy sababiy bog‘liqlikni isbotlash vositasi sifatida emas, balki sifat tahlili natijalarini tizimlashtirish va qiyosiy tendensiyalarni ko‘rsatish vositasi sifatida qo‘llanadi.

Natijalarni taqdim etishda strategiyalar ingliz tili / o‘zbek tili, ayol / erkak so‘zlovchilar va kommunikativ munosabat turi bo‘yicha guruhlanadi. Har bir asosiy tendensiya kontekstual misollar orqali izohlanadi.

Mazkur metodologik yondashuv ingliz va o‘zbek maishiy diskursida gender strategiyalarining namoyon bo‘lishini faqat statistik farqlar asosida emas, balki ularning kommunikativ maqsadi, pragmatik funksiyasi va lingvomadaniy shartlanganligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi.

NATIJALAR

Mazkur tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillaridagi maishiy diskursda hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalarining gender-pragmatik xususiyatlarini aniqlash maqsadida jami **24 ta dialog** qiyosiy-pragmatik tahlil qilindi. Empirik materialning **10 tasi ingliz tilida**, **14 tasi o‘zbek tilida** bo‘lib, barcha dialoglar kundalik kommunikativ vaziyatlarda yuzaga keluvchi maishiy diskurs birliklari sifatida tahlil qilindi. Tahlil jarayonida dialoglar so‘zlovchilarning jinsi, kommunikantlar o‘rtasidagi munosabat, strategik yo‘nalish, lingvistik realizatsiya va pragmatik funksiya mezonlari asosida kodlandi.

Empirik materialning umumiy taqsimoti

Tadqiqot korpusining til bo‘yicha taqsimoti quyidagi ko‘rinishga ega:

Jadval 1. Tadqiqot empirik materialining umumiy tarkibi

Til	**Dialoglar soni**	**Foiz**
Ingliz tili	10	41,7%
O‘zbek tili	14	58,3%
Jami	**24**	**100%**

Ingliz tilidagi dialoglarda tanishuv, telefon orqali muloqot, uchrashuvni rejalashtirish, sog‘liq bilan bog‘liq suhbat, favqulodda vaziyat, xarid, o‘qish, sport va sayohat kabi kundalik kommunikativ vaziyatlar aks etgan. O‘zbek tilidagi materiallarda esa ko‘chadagi muloqot, mehmonxona, shifoxona, kutubxona, avtobus, universitet, kiyim do‘koni, qo‘shnichilik, tanishuv va oilaviy mavzularga oid suhbatlar mavjud.

Mazkur materiallarning umumiy xususiyati shundaki, kommunikantlar o‘rtasidagi munosabat va kommunikativ maqsad strategik tanlovni belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli strategiyalar faqat grammatik shaklga emas, balki kontekstual-pragmatik funksiyaga asoslangan holda aniqlandi.[16; 91-109-b.]

Hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalarining umumiy namoyon bo‘lishi

Tahlil natijalari ingliz va o‘zbek tillaridagi barcha 24 dialogda hamjihatlikka xizmat qiluvchi kamida bitta kommunikativ harakat mavjudligini ko‘rsatdi. Demak, hamjihatlik strategiyasi tadqiqot materialining barcha birliklarida kuzatildi. Ustuvorlik strategiyasi esa 24 dialogning **13 tasida** qayd etildi.

Jadval 2. Asosiy strategiyalarning dialoglar bo‘yicha taqsimoti

Strategiya	**Ingliz tili**	**O‘zbek tili**	**Jami**	**Foiz**
Hamjihatlik	10	14	24	100%
Ustuvorlik	6	7	13	54,2%
Har ikki strategiya	4	5	9	37,5%

Jadvaldan ko‘rinadiki, hamjihatlik strategiyasi har ikki tilda ham yuqori darajada namoyon bo‘lgan. Ustuvorlik strategiyasi esa nisbatan kamroq uchragan bo‘lsa-da, ingliz va o‘zbek muloqotlarining ikkalasida ham mavjud.

Bu natija kundalik muloqotning asosiy pragmatik yo‘nalishi ko‘pincha **o‘zaro hamkorlik va interpersonal rapportni qo‘llab-quvvatlash** [12; 40-47-b.] bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Biroq kundalik muloqot faqat hamjihatlikka asoslanmaydi. Kommunikantlar zarur vaziyatlarda suhbatdoshning harakatini yo‘naltirish, qaror bildirish, maslahat berish yoki kommunikativ jarayonni boshqarish uchun ustuvorlik strategiyalaridan ham foydalanadilar.

Shu jihatdan tadqiqot materiallari hamjihatlik va ustuvorlikni bir-biriga qarama-qarshi va qat’iy kategoriyalar sifatida emas, balki **bir kommunikativ vaziyat doirasida almashishi yoki birgalikda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan dinamik strategiyalar** sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Hamjihatlik strategiyasining lingvistik va pragmatik realizatsiyasi

Tahlil jarayonida hamjihatlik strategiyasining asosiy ko‘rsatkichlari sifatida salomlashish, minnatdorchilik, rozilik, taklif, qo‘llab-quvvatlash, ijobiy baholash, empatiya, yordam taklifi, umumiy faoliyatga undash va xayrlashuv shakllari aniqlandi.

Jadval 3. Hamjihatlik strategiyasining asosiy lingvistik vositalari

Lingvistik vosita	**Ingliz materialidagi namunalari**	**O‘zbek materialidagi namunalari**	**Asosiy pragmatik funksiya**
Salomlashish	*Hi, Hello*	*Assalomu alaykum, Salom*	kommunikativ aloqani boshlash
Minnatdorchilik	*Thanks, Thank you*	*Rahmat, minnatdorman*	ijobiy munosabat yaratish
Rozilik	*Sure, Sounds great, Excellent idea*	*Albatta, Ha, Juda yaxshi*	hamkorlikni tasdiqlash
Taklif	*Would you like…?, How about…?, Let’s…*	*Marhamat, Yuring, ko‘rsatib qo‘yaman*	suhbatdoshni hamkorlikka jalb qilish
Qo‘llab-quvvatlash	*No problem, Good for you*	*Juda ajoyib, yordam beraman*	ijtimoiy yaqinlikni kuchaytirish
Ijobiy baholash	*That’s nice, That sounds great*	*Juda yaxshi, Juda ajoyib*	suhbatdosh pozitsiyasini ma’qullash
Empatiya	*I hope…, I wish…*	*Tuzalib keting, xotirjam yurishga harakat qiling*	suhbatdosh holatiga munosabat bildirish
Xayrlashuv	*See you, Bye*	*Salomat bo‘ling, Xayr, ko‘rishguncha*	aloqani ijobiy yakunlash

Ingliz tilidagi maishiy diskurs tamoyillarida esa hamjihatlik ko‘pincha **taklif, rozilik va ijobiy baholash** orqali ifodalangan. [7; 50-55-b.] Masalan, dialoglardagi *“How about this idea…. sometime?”*, *“Sure thing!”* va *“Excellent idea. Let’s go”* ketma-ketligi kommunikantlarning umumiy faoliyatga yo‘nalganligini ko‘rsatadi. Bu yerda har bir navbatdagi nutqiy harakat avvalgi kommunikativ harakatni qo‘llab-quvvatlab, o‘zaro yaqinlik va hamkorlikni kuchaytiradi.

Ilk dialogda ham xuddi shunday tendensiya kuzatiladi. So‘zlovchi tomonidan bildirilgan *“Thanks for helping me with it!”* minnatdorchilik va ijobiy baholashni, tinglovchining *“No problem”* javobi esa qo‘llab-quvvatlashni ifodalaydi. Keyingi *“Do you feel like ….. tomorrow…?”* savoli esa umumiy faoliyatga taklif qilish orqali hamjihatlikni davom ettiradi.

O‘zbek tili muloqotlarida esa hamjihatlik strategiyasi **hurmat va ijtimoiy odobni ifodalovchi kommunikativ formulalar** bilan ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, “Xush kelibsiz!”, “Rahmat!”, “Yordamingizdan minnatdorman!”, “Marhamat”, “Salomat bo‘ling!” kabi birliklar faqat axborot almashinuvi funksiyasini bajarmaydi, balki suhbatdoshga nisbatan ijobiy munosabatni ham ifodalaydi.

Shunday qilib, ikki tilda ham hamjihatlik strategiyasining umumiy pragmatik maqsadi **interpersonal rapportni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash**dan iborat bo‘lsa-da, uning lingvistik realizatsiyasida muayyan farqlar mavjud.

Ustuvorlik strategiyasining lingvistik va pragmatik realizatsiyasi

Ustuvorlik strategiyasi kommunikantning o‘z pozitsiyasini kuchaytirishi, suhbatdoshga ma’lum harakatni bajarishni tavsiya qilishi yoki talab qilishi, qaror qabul qilishga ta’sir ko‘rsatishi, kommunikativ jarayonni boshqarishi yoki suhbatdoshning harakatlarini yo‘naltirishi orqali namoyon bo‘ldi.

Jadval 4. Ustuvorlik strategiyasining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	**Ingliz tilidagi namuna**	**O‘zbek tilidagi namuna**	**Pragmatik funksiya**
Ko‘rsatma	*Take some …, get plenty of rest*	*…iching, iste’mol qiling*	harakatni yo‘naltirish
Maslahat	*Make sure you…*	*…harakat qiling*	qaror va xatti-harakatga ta’sir
Talab/iltimos	*Can you please…?*	*…bera olasizmi, iltimos?*	suhbatdosh harakatini tashkil etish
Yo‘naltirish	*I’ll pick you up…*	*Bu tomonga burilasiz, yuring*	vaziyatni boshqarish
Qarorni belgilash	*I’ll get…, You’ll…*	*Men … qilaman*	harakatlar taqsimotini belgilash
Tavsiya	*Why don’t you…?*	*Sizga … tavsiya qilaman*	tanlovga ta’sir qilish
Nazorat	*You have to…*	*…bajaring, …qiling*	kommunikativ nazorat

Ingliz tilida to‘plangan namunalar ustuvorlik strategiyasining yumshatilgan shaklini namoyish etadi. Dialoglarda muloqot ishtirokchisi tomonidan aytilgan *“Can you please stop and pick up extra …”* shaklan savol ko‘rinishida bo‘lsa-da, pragmatik jihatdan so‘zlovchi tomonidan

bajarilishi kutilayotgan harakatni belgilaydi. Biroq *please* va keyingi *“Thanks, dear”* birliklari ushbu ustuvorlik yo‘nalishini hamjihatlik bilan uyg‘unlashtiradi.

Keltirilgan boshqa muloqot shaklida esa ustuvorlik ancha aniq namoyon bo‘ladi. Ayol so‘zlovchiningning *“Take some ... every four hours”*, *“get plenty of rest”* va *“Make sure you drink lots of fluids”* ko‘rsatmalari tinglovchining keyingi xatti-harakatini belgilashga qaratilgan. Bunda ustuvorlik shaxsiy hukmronlik emas, balki **professional kommunikativ rol** bilan asoslangan.[4; 3-8-b.]

O‘zbek tilidagi o‘zaro maishiy muloqotlarda ham xuddi shunday hodisa kuzatiladi, buni misollar orqali yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

“Ko‘proq suv va foydali taomlar iste’mol qiling.”
“Xotirjam yurishga harakat qiling.”
“Mana bu ko‘rsatmalarga doimo amal qilib yuring.”

Mazkur birliklar oilaviy suhbatlarda ayollar tomonidan bildirilib, imperativ shaklda bo‘lishiga qaramay, ularning pragmatik funksiyasi buyruq berishdan ko‘ra **maslahat va yo‘naltirish** bilan bog‘liq.[15; 17-18-b.]

Bu natija tadqiqotning muhim metodologik qarashini tasdiqlaydi: **lingvistik shakl va strategik funksiya o‘rtasida bir-biriga tenglik mavjud emas**. [2; 945-946-b.] Masalan, imperativ shakl har doim ustuvorlikni anglatmaydi; u yaqin munosabatdagi hamkorlik, g‘amxo‘rlik yoki yordam funksiyasida ham qo‘llanishi mumkin.

Gender va strategik tanlov

Gender-pragmatik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalari **ham ayol, ham erkak kommunikantlar nutqida** uchraydi. Demak, olingan materiallar genderni muayyan strategiyaning qat’iy va yagona belgisi sifatida talqin qilishni qo‘llab-quvvatlamaydi.

Ushbu natijani yig‘ilgan materiallar ham tasdiqlaydi. Ingliz tili maishiy diskursida ham boshqaruvchanlik, dominantlik ifodalari yuqori ko‘ringaniga qaramay, gaplarning mazmunida hamjihatlik hamda yaqinlik tamoyillaridan foydalanilganligini ham ko‘rish mumkin.[7; 40-47-b.]

Shuningdek, ingliz tilidagi dialoglarda ayol kommunikantlarning qo‘llab-quvvatlash, minnatdorchilik, ijobiy baholash va empatiya kabi hamjihatlik vositalaridan foydalanishi kuzatiladi.

Boshqa tomondan, erkak kommunikantlarning nutqida ham hamjihatlik strategiyasi faol namoyon bo‘ladi. Masalan, keltirilgan maishiy muloqot dialoglarida so‘zlashuvchi tanishtirish orqali ijtimoiy aloqani yaratadi, kommunikant esa *“Would you like a .....?”* shaklidagi taklif bilan suhbatni hamkorlikka yo‘naltiradi.

Shunday qilib, mazkur empirik material asosida **“ayollar hamjihatlikka, erkaklar esa ustuvorlikka moyil”** degan qat’iy xulosaga kelish ilmiy jihatdan asoslanmaydi. Aksincha, gender strategik tanlovga ta’sir qiluvchi omillardan biri bo‘lishi mumkin, biroq uning ta’siri kommunikativ vaziyat, ijtimoiy munosabat, rol va kommunikativ maqsad bilan birgalikda namoyon bo‘ladi.

Kommunikativ munosabat va strategik tanlov

Tahlil natijalarida strategik tanlovning kommunikantlar o‘rtasidagi munosabat bilan chambarchas bog‘liqligi kuzatildi. Teng yoki yaqin ijtimoiy munosabatlarda hamjihatlik strategiyasi ko‘proq namoyon bo‘lsa, muayyan ijtimoiy yoki kommunikativ rolga ega bo‘lgan vaziyatlarda ustuvorlik strategiyasi kuchayadi.

Jadval 6. Kommunikativ vaziyat va strategiyaning pragmatik funksiyasi

Kommunikativ vaziyat	**Asosiy strategiya**	**Asosiy pragmatik funksiya**
Tanishuv	Hamjihatlik	ijtimoiy aloqa o‘rnatish
Do‘stlar muloqoti	Hamjihatlik	yaqinlik va hamkorlik
Birgalikdagi faoliyatni rejalashtirish	H + U	vazifalarni muvofiqlashtirish
Telefon orqali muloqot	H + U	axborot va harakatni muvofiqlashtirish
Yordam so‘rash/ko‘rsatish	H + U	yordam va kommunikativ boshqaruv
Xarid jarayoni	H + U	maslahat va tanlovga ta’sir
Sayohat haqidagi suhbat	Hamjihatlik	qo‘llab-quvvatlash va empatiya
Oilaviy mavzu	Hamjihatlik	umumiylik va ijtimoiy aloqadorlik

Jadvaldan ko‘rinadiki, strategiyaning tanlanishi genderdan tashqari **kommunikativ vaziyat va munosabat turi** bilan ham izohlanadi.[4; 11-12-b.] Masalan, do‘stlar o‘rtasidagi suhbatlarda “Sure”, “Sounds great”, “Excellent idea” kabi birliklar o‘zaro rozilik va hamkorlikni kuchaytiradi. Oilaviy munosabatlar tipidagi suhbatda esa “Take…”, “Make sure…”, “Would you…” kabi birliklar suhbatdoshning keyingi xatti-harakatini yo‘naltiradi.

O‘zbek materialida ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Ko‘chada yo‘l ko‘rsatish dialogida “Marhamat”, “Rahmat!”, “Xush kelibsiz!” kabi birliklar hamjihatlikni yaratadi, “bu vazifalarni bajarib qo‘y, …. ehtiyot bo‘lgin!” kabi oilaviy yo‘naltiruvchi birlik esa ustuvorlik elementini kiritadi. Demak, **bitta kommunikativ vaziyatning o‘zida ikki strategiya ketma-ket yoki parallel ravishda namoyon bo‘lishi mumkin.** [2; 945-947-b.]

Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy natijalari

Qiyosiy tahlil ingliz va o‘zbek maishiy diskursida hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalarining umumiy pragmatik mexanizmlari mavjudligini ko‘rsatdi. Har ikki tilda ham kommunikantlar o‘zaro yaqinlikni yaratish, hamkorlikni ta’minlash, suhbatdoshni qo‘llab-quvvatlash va kommunikativ faoliyatni muvofiqlashtirish uchun hamjihatlik strategiyasidan foydalanadilar.

Biroq ushbu strategiyalarning lingvistik realizatsiyasida farqlar kuzatildi. Ingliz materiallarida hamjihatlik ko‘proq **informal salomlashuvlar, bevosita ijobiy baholash, takliflar, rozilik va umumiy faoliyatga undovchi shakllar** orqali ifodalanadi. O‘zbek materialida esa **salomlashish, hurmat, xush kelibsiz, minnatdorchilik va xayrlashuv formulalari** strategik kommunikatsiyaning muhim vositalari sifatida ko‘zga tashlanadi.

Ustuvorlik strategiyasida ikki tilda ham **buyruq, maslahat, tavsiya, yo‘naltirish va qarorni belgilash** vositalari mavjud. Shu bilan birga, ularning pragmatik talqini kontekstga

bog‘liq. Teng maqomdagi kommunikantlar o‘rtasida ustuvorlik yumshatilishi mumkin, ijtimoiy yoki professional rol jihatidan farqli kommunikantlar o‘rtasida esa u nisbatan bevosita ifodalanadi.

Shu nuqtayi nazardan, ingliz va o‘zbek diskurslari o‘rtasidagi asosiy farq strategiyalarning mavjud yoki mavjud emasligida emas, balki **ularning lingvistik shakllanishi, kommunikativ maqsadi va interpersonal rapportni boshqarish usullarida** namoyon bo‘ladi.

Rapport management nuqtayi nazaridan natijalar

Tadqiqot natijalarini rapport management konsepsiyasi asosida talqin qilish hamjihatlik strategiyasining asosiy vazifasi suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqani qo‘llab-quvvatlash va ijobiy munosabatni shakllantirish ekanligini ko‘rsatdi. Rozilik, minnatdorchilik, qo‘llab-quvvatlash, empatiya, taklif va ijobiy baholash kabi birliklar kommunikantlar o‘rtasidagi rapportni mustahkamlashga xizmat qiladi.[12; 11-47-b.]

Ustuvorlik strategiyasi esa rapportni buzuvchi hodisa sifatida avtomatik ravishda baholanmaydi. Aksincha, ayrim kommunikativ vaziyatlarda ustuvorlik **ijtimoiy huquq va majburiyatlarni muvofiqlashtirish**, maslahat berish, qaror qabul qilish yoki kommunikativ jarayonni tashkil etish vositasi sifatida rapport managementning tarkibiy qismiga aylanadi.

Masalan, shifokorning bemorga tavsiyasi shaklan ustuvorlikka ega bo‘lsa-da, uning kommunikativ maqsadi bemorga yordam berishdir. Xuddi shuningdek, do‘stlar o‘rtasidagi *“Why don’t we go .....?” “Why don’t we do ……”* taklifi bir tomondan suhbatdoshni muayyan harakatga yo‘naltirsa, ikkinchi tomondan umumiy faoliyat va yaqinlikni kuchaytiradi. Demak, **ustuvorlik va hamjihatlik bir-birini mutlaq inkor etuvchi kategoriyalar emas**.

Asosiy natijalar:

O‘tkazilgan qiyosiy-pragmatik tahlil asosida quyidagi asosiy natijalar olindi:

1. Tadqiqotning empirik bazasini **24 ta dialog**, jumladan **10 ta ingliz va 14 ta o‘zbek tilidagi dialog** tashkil etdi.
2. **Hamjihatlik strategiyasi barcha 24 dialogda** kamida bitta strategik kommunikativ harakat orqali namoyon bo‘ldi.
3. **Ustuvorlik strategiyasi 13 ta dialogda (54,2%)** kuzatildi.
4. **9 ta dialogda (37,5%)** hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalari birgalikda yoki almashinuvchan tarzda namoyon bo‘ldi.
5. Ingliz tilida hamjihatlik strategiyasi asosan **taklif, rozilik, qo‘llab-quvvatlash, ijobiy baholash va umumiy faoliyatga undash** orqali realizatsiya qilindi.
6. O‘zbek tilida hamjihatlik strategiyasining muhim ko‘rsatkichlari sifatida **salomlashish, hurmat, minnatdorchilik, xush kelibsiz va xayrlashuv formulalari** aniqlandi.
7. Ustuvorlik strategiyasi ikki tilda ham asosan **maslahat, ko‘rsatma, yo‘naltirish, tavsiya, qarorni belgilash va suhbatdosh harakatini boshqarish** orqali amalga oshirildi.
8. Gender bo‘yicha tahlil hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalarining **ayol va erkak kommunikantlarning ikkalasi tomonidan ham qo‘llanilishini** ko‘rsatdi. Shu sababli strategik xulq-atvorni faqat gender asosida izohlash yetarli emas.
9. Strategik tanlovga **gender bilan bir qatorda kommunikativ vaziyat, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat, ijtimoiy rol va kommunikativ maqsad** ta’sir qilishi aniqlandi.
10. Bir xil lingvistik shakl turli kontekstlarda turlicha pragmatik funksiyani bajarishi mumkin. Shu sababli strategiyani aniqlashda **lingvistik shakl + kontekst + kommunikativ maqsad + interpersonal rapport** birgalikda hisobga olinishi lozim.

Umuman olganda, natijalar ingliz va o‘zbek maishiy diskursida gender va kommunikativ strategiyalar o‘rtasidagi munosabat **qat’iy gender dixotomiyasi** orqali emas, balki gender, ijtimoiy munosabat, kommunikativ vaziyat va lingvomadaniy omillarning o‘zaro ta’siri orqali shakllanishini ko‘rsatadi.[1; 68-74-b.] Hamjihatlik strategiyasi asosan interpersonal rapportni mustahkamlashga xizmat qilsa, ustuvorlik strategiyasi kommunikativ nazorat, yo‘naltirish,

maslahat va qarorlarni muvofiqlashtirish funksiyalarini bajaradi. Shu bilan birga, mazkur strategiyalar real muloqotda o‘zaro kesishishi va bir kommunikativ harakat doirasida bir vaqtning o‘zida rapportni qo‘llab-quvvatlash hamda suhbatdosh xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatish funksiyalarini bajarishi mumkin.

TAHLIL

Mazkur tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek maishiy diskursida hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalari gender bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini, biroq ularning qo‘llanishini faqat gender omili bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatdi. Tahlil qilingan 24 ta dialogda strategik tanlov so‘zlovchining genderidan tashqari, kommunikativ maqsad, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat, ijtimoiy rol va vaziyat bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ldi. Shu jihatdan, olingan natijalar genderni qat’iy kommunikativ determinant emas, balki boshqa pragmatik va ijtimoiy omillar bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi parametr sifatida ko‘rishga asos beradi.

Tadqiqotda hamjihatlik strategiyasi asosan rozilik, qo‘llab-quvvatlash, taklif, minnatdorlik, ijobiy baholash va hamkorlikni ifodalovchi vositalar orqali realizatsiya qilindi. Ingliz materiallaridagi *“Sounds great!”*, *“Sure, I’d love to!”*, *“No problem”*, *“Excellent idea”* kabi birliklar suhbatdoshning fikri yoki tashabbusini ijobiy qabul qilish va o‘zaro yaqinlikni kuchaytirish vazifasini bajargan. O‘zbek materiallarida esa *“Xush kelibsiz”*, *“Rahmat”*, *“Marhamat”*, *“Salomat bo‘ling”*, *“Yordamingiz uchun rahmat”* kabi formulalar nafaqat xushmuomalalikni, balki ijtimoiy aloqadorlik va kommunikativ uyg‘unlikni ham ta’minlagan.

Mazkur natijalarni Spencer-Oateyning **rapport management** konsepsiyasi orqali izohlash mumkin. Ushbu yondashuv kommunikatsiyani faqat “tashqi yuz”ni saqlash emas, balki suhbatdoshlarning ijtimoiy huquqlari, majburiyatlari, ehtiyojlari va o‘zaro munosabatlarini boshqarish jarayoni sifatida talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan, tahlil qilingan hamjihatlik vositalari suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqani mustahkamlash va rapportni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilgan. Ayniqsa, o‘zbek dialoglaridagi salomlashish, xush kelish, minnatdorlik va yaxshi tilak formulalari kommunikativ munosabatni saqlashning lingvomadaniy jihatdan shakllangan vositalari sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq natijalar hamjihatlik va ustuvorlikni qat’iy qarama-qarshi strategiyalar sifatida talqin qilish mumkin emasligini ham ko‘rsatadi. Masalan, ingliz tilidagi *“Can you please stop and pick up ...?”* shaklan so‘rov bo‘lsa-da, suhbatdoshning muayyan harakatni bajarishini kutish bilan bog‘liq. Shu bilan birga, *please* va so‘roq shakli ushbu harakatning kommunikativ bosimini kamaytiradi. Demak, bitta nutqiy harakatda ustuvorlik va hamjihatlik funksiyalari birgalikda namoyon bo‘lishi mumkin. Bu holat Brown va Levinsonning “politeness” (xushmuomalalik) konsepsiyasidagi “face-threaten”ing (obro‘ga tahdid soluvchi nutqiy harakat) actlarni yumshatish mexanizmi bilan izohlanadi.[1; 68-74-b.]

O‘zbek materiallarida ham shunga o‘xshash holatlar kuzatildi. Masalan, ayollarning *“Dam oling, ko‘proq sog‘ligingizga e’tiborli bo‘ling”* yoki *“Mana bu ... ni iste’mol qiling”* kabi ko‘rsatmalari grammatik jihatdan buyruq xarakteriga ega bo‘lsa-da, ularning pragmatik funksiyasi dominantlikni namoyish etish emas, balki professional mas’uliyat va qarama-qarshi jins vakiliga yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq. Shuning uchun ushbu birliklarni faqat ustuvorlik sifatida emas, balki **g‘amxo‘rlikka asoslangan kommunikativ boshqaruv** sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Mazkur natijalar Robin Lakoffning *Language and Woman’s Place* asarida ilgari surilgan “women’s language” konsepsiyasi bilan ham qiyosiy jihatdan bog‘lanadi. Lakoff ayollar nutqida hedges (ehtiyotkorlik va noaniqlikni ifodalovchi vositalar), tag questions (tasdiq talab qiluvchi qo‘shimcha so‘roq shakllari), intensifiers (kuchaytiruvchi birliklar), o‘ta xushmuomalalik shakllari va bilvosita iltimoslarning nisbatan ko‘proq qo‘llanishini qayd etgan hamda bunday vositalarni ayollar nutqidagi ehtiyotkorlik va qat’iylikning nisbatan past darajasi bilan izohlagan.

Biroq mazkur tadqiqot materiallari Lakoffning dastlabki modelini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasdiqlashdan ko‘ra, uni **kontekstual jihatdan qayta talqin qilish** zarurligini ko‘rsatadi.

Xususan, tahlil qilingan dialoglarda *please*, *would you*, *can you*, taklif shakllari va boshqa yumshatuvchi vositalar mavjud bo‘lsa-da, ularning mavjudligi avtomatik ravishda ayol so‘zlovchining “noassertiv” ekanligini anglatmaydi. Aksincha, bunday vositalar suhbatdoshga bosimni kamaytirish, hamkorlikni ta’minlash va kommunikativ munosabatni saqlashga xizmat qilishi mumkin. Keyingi tadqiqotlar ham Lakoff bilan bog‘liq tentative language (ehtiyotkorlikka asoslangan til vositalari) hodisalarini faqat zaiflik sifatida emas, balki muloqotni osonlashtiruvchi funksional resurs sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan, Tannenning gender va kommunikativ uslub o‘rtasidagi munosabat haqidagi qarashlari ham tadqiqot natijalarini tushuntirish uchun foydalidir. Tannen tomonidan ilgari surilgan yaqinlik (connection/rapport) hamda maqom va mustaqillik (status/independence) o‘rtasidagi farqlash kundalik muloqotda shaxslararo yaqinlikni ta’minlash, shuningdek, o‘z maqomi va mustaqilligini namoyon etishga yo‘naltirilgan kommunikativ ehtiyojlarni tushuntirish imkonini beradi.Biroq mazkur tadqiqot natijalari bu yo‘nalishlarni biologik yoki genderga qat’iy bog‘langan xususiyatlar sifatida emas, balki vaziyatga qarab o‘zgaruvchi kommunikativ orientatsiyalar sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.[16; 91-109-b.]

Masalan, ayol so‘zlovchining maslahat berishi yoki suhbatni boshqarishi uning “dominant ayol” ekanligini anglatmaydi; xuddi shuningdek, erkak so‘zlovchining rozilik, minnatdorlik yoki qo‘llab-quvvatlash bildirishi uning kommunikativ jihatdan “passiv” ekanligini ko‘rsatmaydi. Strategiyaning pragmatik qiymati uni qo‘llagan shaxsning genderidan ko‘ra, **nima maqsadda, kimga, qanday vaziyatda va qanday munosabat doirasida qo‘llanganiga** ko‘proq bog‘liq.[7; 40-45-b.]

Ingliz va o‘zbek materiallari o‘rtasidagi qiyoslash ham shu xulosani kuchaytiradi. Ingliz tilidagi materiallarda modal so‘rovlar, takliflar va qisqa ijobiy baholashlar hamjihatlikni yaratishning faol vositalari sifatida namoyon bo‘lsa, o‘zbek tilidagi materiallarda salomlashish, hurmat shakllari, minnatdorlik, xush kelish va yaxshi tilak bildirish kabi formulalar alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, strategiyaning umumiy pragmatik funksiyasi ikki tilda o‘xshash bo‘lishi mumkin, biroq uning lingvistik namoyon bo‘lishi va ijtimoiy-pragmatik qiymati lingvomadaniy muhitga qarab farqlanadi.

Shu asosda tadqiqot natijalari uch nazariy yondashuvning o‘zaro to‘ldiruvchi xususiyatini ko‘rsatadi. **Lakoff** gender va nutqdagi yumshatish vositalariga e’tibor qaratish uchun boshlang‘ich nazariy nuqta beradi; **Tannen** kommunikativ ehtiyojlarning yaqinlik va maqom bilan bog‘liq tomonlarini tushuntiradi; **Brown va Levinson** nutqiy harakatlarning facega potensial ta’siri va ularni yumshatish mexanizmlarini ochib beradi; **Spencer-Oatey** esa ushbu jarayonlarni kengroq rapport management doirasida, ya’ni ijtimoiy huquqlar, munosabatlar va kommunikativ uyg‘unlikni boshqarish nuqtayi nazaridan birlashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotning asosiy nazariy xulosasi **“ayollar — hamjihatlik, erkaklar — ustuvorlik”** tarzidagi ikki qutbli modelni qo‘llab-quvvatlash emas, balki gender strategik tanlovning boshqa omillar bilan kesishadigan parametr ekanligini ko‘rsatishdan iborat. 20 ta dialog asosidagi tahlil hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalarining dinamik, kontekstual va funksional xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, bir xil lingvistik shakl turli vaziyatlarda turlicha pragmatik funksiyani bajarishi mumkinligi sababli, gender-pragmatik tahlilda **shakl → kommunikativ maqsad → kontekst → munosabat → strategiya** ketma-ketligini hisobga olish zarur. Shu nuqtayi nazardan, ingliz va o‘zbek maishiy diskursining qiyosiy tahlili gender, pragmatika va lingvomadaniyatning o‘zaro ta’sirini tushuntirish uchun samarali model taklif etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek maishiy diskursida hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalarining gender-pragmatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlandi. Tahlil natijalari har ikki tilda ham hamjihatlik strategiyalari asosan yaqinlikni mustahkamlash, qo‘llab-quvvatlash, hamkorlikni ta’minlash va ijobiy munosabatlarni saqlashga xizmat qilishini, ustuvorlik strategiyalari esa suhbatni yo‘naltirish, qarorlarni ta’kidlash, nazorat va ta’sir o‘tkazish kabi pragmatik funksiyalarni bajarishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari strategik tanlovni faqat gender omili bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalarining qo‘llanishi suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat turi, kommunikativ vaziyat, ijtimoiy rol va lingvomadaniy me’yorlar bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli mazkur strategiyalar erkaklar yoki ayollarga xos qat’iy kommunikativ xususiyatlar sifatida emas, balki ma’lum pragmatik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi dinamik kommunikativ vositalar sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda ingliz va o‘zbek maishiy diskursida hamjihatlik va ustuvorlik strategiyalari gender, kommunikativ munosabat va lingvomadaniy kontekstning o‘zaro ta’siri nuqtayi nazaridan izohlandi. Olingan natijalar gender pragmatikasi, diskurs tahlili, qiyosiy tilshunoslik hamda madaniyatlararo kommunikatsiya sohalaridagi keyingi tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.
2. Cameron, D. (1998). Gender, language, and discourse: A review essay. Signs: Journal of Women in Culture and Society, 23(4), 945–973.
3. Cameron, D. (2007). The myth of Mars and Venus: Do men and women really speak differently? Oxford University Press.
4. Coates, J. (2015). Women, men and language: A sociolinguistic account of gender differences in language (3rd ed.). Routledge.
5. Eckert, P., & McConnell-Ginet, S. (2003). Language and gender. Cambridge University Press.
6. Holmes, J. (1995). Women, men and politeness. Longman.
7. Lakoff, R. T. (1975). Language and woman’s place. Harper & Row.
8. Love, R., Dembry, C., Hardie, A., Brezina, V., & McEnery, T. (2017). The Spoken BNC2014: Designing and building a spoken corpus of everyday conversations. International Journal of Corpus Linguistics, 22(3), 319–344. https://doi.org/10.1075/ijcl.22.3.02lov
9. Mills, S. (2003). Gender and politeness. Cambridge University Press.
10. Norboyeva, M., & Jabborova, S. (2024). O‘zbek tilida gender masalasi: Tilshunoslik nuqtai nazaridan [The gender issue in Uzbek: A linguistic perspective]. Modern Science and Research, 3(10), 237–240. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.science-research.43826
11. Ro‘ziyeva, Z. (2024). O‘zbek tilida gender masalasi: Tilshunoslik nuqtai nazaridan [The gender issue in Uzbek: A linguistic perspective]. Academic Research in Modern Science, 3(33), 64–68. https://doi.org/10.5281/zenodo.13736565
12. Spencer-Oatey, H. (2008). Face, (im)politeness and rapport. In H. Spencer-Oatey (Ed.), Culturally speaking: Culture, communication and politeness theory (2nd ed., pp. 11–47). Continuum.
13. Spencer-Oatey, H. (Ed.). (2008). Culturally speaking: Culture, communication and politeness theory (2nd ed.). Continuum.

14. Spencer-Oatey, H., & Franklin, P. (2009). Intercultural interaction: A multidisciplinary approach to intercultural communication. Palgrave Macmillan.
15. Tannen, D. (1990). You just don't understand: Women and men in conversation. William Morrow.
16. Thomas, J. (1983). Cross-cultural pragmatic failure. Applied Linguistics, 4(2), 91–109. https://doi.org/10.1093/applin/4.2.91

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

ЗАПРЕТ, ПРЕДПИСАНИЕ, РАЗРЕШЕНИЕ: ДЕОНТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ ПАРЕМИЙ О ЧЕСТИ, ПОЗОРЕ, ГОРДОСТИ И СТЫДЕ

Давлатмуратов Сирож Равшанбекович
преподаватель кафедры русского языка и литературы Ургенчского государственного педагогического института
E-mail: davlatmuratovsiroj@gmail.com
DOI: 10.67620/ajousci.240003

После записи учащиеся выполняли взаимопроверку по образцу, представленному на электронной доске. Проверялись написание слов, наличие необходимых окончаний, оформление предложений и соблюдение последовательности высказывания. Таким образом, устный материал повторно закреплялся в письменной форме.

4. АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ

Для оценки результатов были выделены четыре показателя: усвоение тематической лексики; грамматическая и фонетическая правильность; воспроизведение текстов и диалогов; письменная грамотность. Грамматическая и фонетическая правильность учитывала произношение тематической лексики, построение предложений и воспроизведение речевых моделей. Показатель воспроизведения текстов и диалогов отражал способность отвечать на вопросы и воспроизводить небольшой связный текст.

Таблица 1. Показатели оценки учащихся до и после проведённой работы (N = 25)

Критерий	До обучения (%)	После обучения (%)
Усвоение тематической лексики	42,4	74,8
Грамматическая и фонетическая правильность	38,0	65,2
Воспроизведение текстов и диалогов	31,2	68,0
Письменная грамотность	45,6	71,2

5. ОБСУЖДЕНИЕ

Полученные результаты позволяют рассматривать предложенную последовательность как методически целостный алгоритм работы с учащимися, испытывающими трудности в использовании русского языка. Существенным условием являлось то, что понимание значения предшествовало активному воспроизведению. Учащийся сначала устанавливал смысл слова на узбекском языке, затем слышал русский вариант, произносил его, включал в готовую модель и только после этого использовал в более самостоятельном высказывании.

Практика показала, что готовые речевые конструкции снижают трудность самостоятельного построения предложения на начальном этапе. Учащийся получает грамматическую основу и может сосредоточиться на выборе нужного слова. По мере повторения модель перестаёт быть только образцом и становится средством самостоятельного построения высказывания.

Работа с коротким текстом также имела поэтапный характер: чтение и понимание → ответы по тексту → воспроизведение без непосредственной письменной опоры. Такой

переход важен для формирования связной речи, поскольку учащийся постепенно освобождается от внешней опоры.

Интерактивное задание на сопоставление выполняло функцию активного повторения и быстрой проверки понимания. Электронная форма предъявления делала операцию сопоставления более наглядной, однако её педагогическая ценность определялась не самой цифровой формой, а включением учащегося в речевое действие после выполнения задания.

Пословицы и афористические выражения расширяли речевой материал и одновременно создавали возможность для смыслового диалога. Учащиеся не только повторяли готовые фразы, но и отвечали на вопросы по их содержанию, что позволяло использовать выражения в контексте.

Письменное закрепление завершало цикл обучения. После устной работы учащиеся переносили знакомую лексику и речевые модели в письменную форму, а взаимопроверка позволяла сразу обнаружить отдельные ошибки. Таким образом, сочетание двуязычной смысловой опоры, интерактивных заданий, речевых моделей, повторения и письменной практики создавало последовательную систему формирования речевой компетенции.

6. ВЫВОДЫ

В рамках двух последовательных уроков была реализована поэтапная система работы над речевой компетенцией учащихся 5-х классов, испытывающих трудности в использовании русского языка как неродного. Система включала двуязычную семантизацию тематической лексики, интерактивное сопоставление, готовые речевые конструкции, работу с коротким текстом, пословичными выражениями и письменное закрепление.

Предварительная смысловая опора на узбекский язык создавала условия для осознанного перехода к русскому слову и русской речевой модели. Многократное использование одного и того же материала в устной, интерактивной и письменной деятельности способствовало его закреплению.

Сопоставление результатов до и после проведённой работы показало положительную динамику по всем выделенным показателям. При этом полученные данные относятся к конкретному классу и краткому периоду практической работы, поэтому не могут рассматриваться как окончательное доказательство долгосрочной эффективности метода.

Практически предложенный алгоритм может быть адаптирован к другим тематическим блокам школьного курса русского языка: «Моя семья», «Мой день», «Спорт», «Мой город», «Профессии» и др. Перспективным направлением дальнейшей работы является расширение тематических лексических минимумов, увеличение продолжительности наблюдения и апробация различных видов интерактивных заданий.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Азизов, А. А. (1983). Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков: Морфология (2-е изд., перераб. и доп.). Ўқитувчи.
2. Быстрова, Е. А., Львова, С. И., Капинос, В. И., Разумовская, М. А., Гостева, Ю. Н., & Цыбулько, И. П. (2004). Обучение русскому языку в школе. Дрофа.
3. Махмудов, Н., & Тухлиев, Б. (1991). Ўзбек тилини ўрганамиз = Изучаем узбекский язык: Расмли луғат [Картинный словарь]. Ўқитувчи.

4. Пассов, Е. И. (1991). Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению (2-е изд.). Просвещение.
5. Black, P. J., & Wiliam, D. (2018). Classroom assessment and pedagogy. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 25(6), 551–575. https://doi.org/10.1080/0969594X.2018.1441807

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

HAYNRIX HAYNE SHE'RIYATIDA MA'SHUQA OBRAZINING TALQINI VA POETIK TADRIJI

Ma'diyeva Adiba Dovudovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
dotsenti v.b., f.f.f.d.(PhD)
E-mail: adibamadiyeva@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-3084-6616
DOI: 10.67620/ajousci.240006

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nemis adabiyotining yirik namoyandasi Haynrix Hayne lirikasida ma'shuqa obrazining tabiat manzaralari bilan uyg'unligi va uning o'ziga xos tadrijiy rivojlanishi tahlil qilinadi. Shoirning an'anaviy romantik tumanlardan xoli bo'lgan plastik shakl hamda aniq axborot nutqiga asoslangan estetik konsepsiyasi ko'rsatib beriladi. Maqolada nozik gul metaforikasi va antitezalardan tortib, tabiat qiyofasidagi ziddiyatli mifologik mavjudotlar hamda tarixiy-falsafiy allegoriyalargacha bo'lgan poetik vositalarning g'oyaviy mohiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Haynrix Hayne, ma'shuqa obrazi, tabiat uyg'unligi, poetik talqin, plastik shakl, antiteza, allegoriya, tadrij .*

Abstract. *This article examines the interpretation of the interconnectedness and harmony between the image of the beloved and natural scenery in the lyric poetry of Heinrich Heine. It analyzes the poet's distinct aesthetic approach, which replaces vague romantic ambiguity with communicative clarity and plastic form. The paper traces the progression of this motif from delicate floral metaphors and sharp antitheses in his early verse to conflicted mythological entities and profound socio-historical allegories in his later work.*

Key words: *Heinrich Heine, image of the beloved, nature harmony, poetic interpretation, plastic form, antithesis, allegory, imagery evolution.*

Аннотация. *В статье рассматривается интерпретация взаимосвязи и гармонии образа возлюбленной с картинами природы в лирике классика немецкой литературы Генриха Гейне. Особое внимание уделено эстетической концепции автора, основанной на конкретной поэтической речи и пластической форме, свободной от романтической туманности. Прослеживается эволюция лирических средств от цветочных метафор и резких антитез раннего периода до амбивалентных мифологических сущностей и масштабных социально-исторических аллегорий.*

Ключевые слова: *Генрих Гейне, образ возлюбленной, гармония природы, поэтическая интерпретация, пластическая форма, антитеза, аллегория, эволюция образа.*

Nemis adabiyotining yirik namoyandasi Haynrix Hayne ijodida ma’shuqa obrazi va lirik kechinmalar tabiat manzaralari bilan uzviy bog‘liq holda o‘ziga xos tadrijiy yo‘lni bosib o‘tgan. Uta Ingvelde Shaubning tadqiqotida ta’kidlanganidek, Hayne she’riyati uzoq vaqt davomida an’anaviy me’yoriy poetika talablariga to‘g‘ri kelmagani sababli tanqidchilar tomonidan biryoqlama baholanib kelingan.[1] Shoir she’rlarida an’anaviy sof lirika tarafdorlari kutgan mavhum va sehrli ohangdorlik o‘rniga real voqelikka yo‘naltirilgan aniq axborot, ya’ni „poetik bayon nutqi“ (poetische Mitteilungsrede) yetakchilik qiladi. Shu sababli Haynening lirik qahramoni orqali gavdalantirilgan ma’shuqa va tabiat manzaralari shunchaki his-tuyg‘uning subyektiv ifodasi bo‘lib qolmaydi. Ular shoirning o‘ziga xos dunyoqarashini, tarixiy va ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi chuqur estetik vositaga aylanadi. Mazkur maqolada manbaga tayangan holda shoir she’riyatidagi ma’shuqa talqini, uning tabiat bilan aloqasi hamda ramziy-allegorik qirralari tahlil qilinadi. Har bir bosqichda Haynening o‘ziga xos uslubiy vositalari va ularning ta’sir kuchi ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, poetik-struktur, interpretativ (germenevtik) va tarixiy-adabiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-tipologik metod Haynrix Hayne lirikasidagi tabiat va ma’shuqa obrazining Yozef fon Eyxendorf romantik poetikasi bilan mushtarak va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qildi. Poetik-struktur tahlil orqali metafora, antiteza, plastik tasvir, mifologik timsol va allegoriyalarning badiiy-semantik vazifalari ochib berildi. Interpretativ metod lirik subyekt, ma’shuqa va tabiat munosabatlarining g‘oyaviy-estetik mazmunini sharhlashda, tarixiy-adabiy yondashuv esa obrazning ilk ishqiy lirika bosqichidan mifologik hamda tarixiy-falsafiy allegoriyalargacha bo‘lgan tadrijini kuzatishda qo‘llanildi. Tahlil materiali maqsadli tanlash tamoyili asosida shakllantirildi: Haynening «Qo‘shiqlar kitobi» («Buch der Lieder»), «Atta Troll», «Romansero» va ular bilan bog‘liq she’riy matnlardan ma’shuqa obrazining tabiat metaforikasi, ziddiyat, mifologizatsiya hamda tarixiy allegoriyaga o‘tishini yaqqol namoyon etuvchi namunalar saralandi. Tanlashda obrazning poetik transformatsiyasini bosqichma-bosqich ko‘rsatish, turli ijodiy davrlarni qamrab olish va bir xil motivning turli semantik vazifalarda namoyon bo‘lishi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Hayne she’riyatidagi tabiat va sevgi uyg‘unligini tushunish uchun tadqiqotchi uni Yozef fon Eyxendorf lirikasiga qiyoslaydi. Eyxendorfning „Tun“ („Die Nacht“) she’rida o‘rmon, buloq va tun mavhum, sirli bir butunlik sifatida namoyon bo‘ladi. Haynening „Qo‘shiqlar kitobi“ tarkibidagi „Sehrli diyor haqida kuylanadi va jaranglaydi“ degan satrlari mavjud 43-she’rida esa tabiat manzaralari butunlay boshqacha shakllantirilgan. Shoir lirik ifodani ertaknamo muhitga ko‘chirib, gullar va daraxtlarning sevgisini aniq tasvirlar orqali ifoda etadi: „Wo große Blumen schmachten / Im goldnen Abendlicht, / Und zärtlich sich betrachten / Mit bräutlichem Gesicht.“[2]

Bu yerda gullarning bir-biriga kelin kabi boqishi ma’shuqa qiyofasini tabiat bag‘riga singdiradi. Biroq Hayne Eyxendorfdan farqli o‘laroq, sirli ohang ortiga yashirinmaydi, balki

[1] Schaub, Uta Ingvelde. *Poesie als Kritik: Zum Stil der Versdichtung von Heinrich Heine*. Ph.D. dissertation, Rice University, Houston, Texas, 1971. – S.33-45

[2] Heine, Heinrich. Sämtliche Werke. Hrsg. von Ernst Elster. Leipzig und Wien: Bibliographisches Institut, 1887–1890. – S. 85

ko‘rilgan manzarani ong bilan tushuntirishga intiladi. Ertakdagi bu go‘zal tabiat va sevgi tong quyoshi chiqishi bilanoq ko‘pikdek erib ketadi.

Hayne she’riyatining muhim jihati shundaki, unda tabiat va ma’shuqa obrazi qat’iy plastik shaklga ega bo‘lib, romantik tumanlardan xolidir. Nemis romantizmining yetakchi tamoyillariga e’tiroz bildirgan shoir o‘zining „Almansor“ dramasiga yozgan shiorida: „Romantisch ist der Stoff, die Form ist plastisch“[3] deb uqtirgan edi. Shoir qorong‘i va noaniq tasvirlarni qat’iyan rad etib, har bir obrazning aniq tasvirlarga ega bo‘lishini talab qiladi. Ernst Elster Hayne mahoratiga baho berar ekan, uning tasvirlarida tuyg‘u she’riyatiga xos bo‘lgan noaniqlik yo‘qligini, aksincha, puxta tartib va o‘tkir zarba berish kuchi ustunligini ta’kidlaydi.[4] Ma’shuqaning har bir harakati va tabiat hodisasi o‘quvchiga aniq tushuncha beradigan mantiqiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun Karl Kraus kabi tanqidchilar Hayneni o‘ta moddiylikda („Stofflichkeit“) ayblagan bo‘lsalarda, bu xususiyat aslida shoirning ongli estetik tanlovi edi. Shu tariqa, shoir yaratgan ma’shuqa qiyofasi ham havodagi mavhum xayol emas, balki hayotiy reallikka ega bo‘lgan jonli subyektga aylanadi.

Shoirning ilk davr ijodida ma’shuqaning tashqi qiyofasini chizishda barokko hamda rokoko an’analarining ta’siri yaqqol seziladi. Manfred Vindfur ta’kidlaganidek, Hayne o‘zining erta lirik tajribalarida ayol vujudining nozik, galant metaforikasini qayta kashf etadi.[5] Ko‘zlarning binafshaga, yuzlarning qizil atirgulga, oppoq qo‘llarning nilufarga qiyoslanishi tabiat go‘zalligini ma’shuqaning jozibasi bilan to‘la uyg‘unlashtiradi. Biroq ushbu tabiat manzarasi ichida qizning mitti yuragi so‘lib qolganligi ziddiyatli fojiaga ishora qiladi. Hayne go‘zal qiyofa va sovuq qalb to‘qnashuvini antiteza orqali ko‘rsatib, an’anaviy ishqiy kechinmaga keskin dramatizm kiritadi. Uning mashhur satrlarida bu tasvir quyidagicha jaranglaydi: „ Die blauen Veilchen der Äugelein, / Die roten Rosen der Wängelein, / Die weissen Liljen der Händchen klein, / Die blühen und blühen noch immerfort, / Und nur das Herzchen ist verdorrt.“[6] Bu kabi uslubiy yo‘l an’anaviy ishqiy she’rni shunchaki maqtov emas, balki teran ziddiyat ifodasiga aylantiradi.

Hayne lirikasida ma’shuqa obrazi hech qachon bir xil qolipda qotib qolmaydi, doimiy ravishda o‘zgaruvchanlik kasb etadi. Boshqa bir she’rida u yoz va qish fasllari timsolida ma’shuqaning his-tuyg‘ulari ziddiyatini mahorat bilan ifodalaydi. Shoir lirik qahramon tilidan shunday xitob qiladi: „Es liegt der heiße Sommer / Auf deinen Wängelein; / Es liegt der Winter, der kalte, / In deinem Herzchen klein“.[7] Yonoqlardagi issiq yoz va qalb tubidagi qahraton qish ziddiyati tabiat hodisalarini inson ruhiyatining murakkab qirralarini ochuvchi vositaga aylantiradi. Shoir bu holat vaqti kelib o‘zgarishini, ya’ni yuzlarga qish, yurakka esa yoz ko‘chishini aytib, vaqt o‘tishi va go‘zallikning o‘tkinchiligini eslatadi. Ushbu uslubiy shakl barokko she’riyatiga xos bo‘lgan dunyo lazzatlari va o‘lim muqarrarligi o‘rtasidagi dualizmni namoyon etadi. Natijada ma’shuqa timsoli oddiy sevgi obyekti bo‘lishdan chiqib, o‘tkinchi dunyo falsafasining timsoliga aylanadi.

Hayne ijodi ulg‘aygan sari an’anaviy ma’shuqa qiyofasi afsonaviy, o‘ziga tortuvchi, ammo halokatli mifologik va allegorik mavjudotlar shakliga kira boshlaydi. „Atta Troll“ dostonining XIX

[3] Heine, Heinrich. Sämtliche Werke. Hrsg. von Ernst Elster. Leipzig und Wien: Bibliographisches Institut, 1887–1890. – S. 116

[4] Elster, Ernst. *Einleitung*. In: Heinrich Heine. *Sämtliche Werke*. In 7 Bänden. Herausgegeben von Ernst Elster. Leipzig und Wien: Bibliographisches Institut, 1887–1890, Band 1.

[5] Windfuhr, Manfred. Heinrich Heine: Revolution und Reflexion. Stuttgart: Metzler, 1969. – S. 45-62

[6] Heine, Heinrich. Sämtliche Werke. Hrsg. von Ernst Elster. Leipzig und Wien: Bibliographisches Institut, 1887–1890. – S.80

[7] Heine, Heinrich. Ko‘rsatilgan asar. – S.357

va XX boblarida ov ma’budasi Diana timsoli orqali antik davr go‘zalligi bilan parchalangan zamona ruhiyati to‘qnashadi. Ma’buda marmardek sovuq, ammo qora ko‘zlarida dahshatli va shirin olov alangalanadi: „Doch in ihrem schwarzen Auge / Loderte ein grauenhaftes / Und unheimlich süßes Feuer, / Seelenblendend und verzehrend“.[8] Qadimda soflik timsoli bo‘lgan Diana endi tun qa’rida shahvoniy ehtiroslar bilan yonuvchi, o‘ziga jalb qiluvchi sharpaga aylanadi. Ushbu o‘zgarish antik ma’budlarning quvg‘in qilinishi va tabiat bilan inson o‘rtasidagi ilk uyg‘unlikning yo‘qolganini anglatadi. Ma’shuqa timsolidagi bu dahshatli joziba tabiatning qadimiy ilohiyligi boy berilganini ifodalovchi falsafiy allegoriyadir. Shoir go‘zallikning vampirnamo qiyofasini chizish orqali uning inson qalbini yondiruvchi qudratini ko‘rsatadi.

Hayne poetikasida ma’shuqa timsolining eng murakkab cho‘qqilaridan biri bu „Qo‘shiqlar kitobi“ning 3-nashriga so‘zboshi sifatida yozilgan „Sfinks“ she’ridir. O‘rmon qo‘ynidagi kimsasiz saroy darvozasi oldida yotgan Sfinks ayol boshi va ko‘kragiga hamda sher vujudiga ega bo‘lgan maxluqdir. U lirik qahramonning bo‘salaridan so‘ng jonlanib, aql bovar qilmas ehtiros bilan uni bag‘riga bosadi va tirnoqlari bilan tanasini tilka-pora qiladi. Bu to‘qnashuvni shoir quyidagi misralar orqali ifodalaydi: „Entzückende Marter und wonniges Weh! / Der Schmerz wie die Lust unermeßlich! / Derweilen des Mundes Kuss mich beglückt, / Verwunden die Tatzen mich gräßlich“.[9] Ishq va o‘lim azobining, bo‘sa va yaralovchi panjalarning bir vaqtda mavjud bo‘lishi insonning sevgidagi ziddiyatli taqdirini ochib beradi. Bulbul kuylaganidek, ushbu ma’shuqa ming yillar davomida insoniyat javob topa olmagan jumboq timsolidir. Go‘zallik va halokatning bir vujudda mujassamlanishi Haynening romantik illyuziyalarga qarshi temir mantig‘ini namoyon etadi.

Tadqiqotda ko‘rsatilishicha, Hayne she’riyatidagi ma’shuqa obrazi ko‘pincha lirik qahramonning qabr ustida yig‘lashi motivi bilan bog‘liq holda takrorlanadi. „Qaytish“ („Die Heimkehr“) turkumidagi 41-she’rda shoir sevgilisining qabri ustida ko‘z yoshi to‘kishini aytadi: „Ich will dir nie erzählen, / Daß ich dich geliebet hab', / Und wenn du stirbst, so will ich / Weinen auf deinem Grab“. Dastlab bu motiv shaxsiy kechinma, rad etilgan oshiqning hasrati sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo keyinchalik „Atta Troll“ dostonida bu qabr Ierusalim xarobalari bilan birlashadi. Shoir sevgilisining qabrini qadimgi shohlar maqbarasi va vayron bo‘lgan shahar bilan tenglashtiradi. Shunday qilib, yo‘qotilgan ma’shuqa obrazi sekin-asta butun boshli yo‘qolgan xalq, xarob bo‘lgan tarixiy vatan timsoliga o‘sib o‘tadi.

Ushbu tadrijiy rivojlanish „Romansero“ to‘plamidagi „Iehuda ben Halevi“ asarida o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga yetadi. Bu yerda ma’shuqa butunlay moddiy shaxs bo‘lishdan to‘xtaydi va bevosita vayron bo‘lgan muqaddas shahar qiyofasini oladi: „Jene, die der Rabbi liebte, / War ein traurig armes Liebchen, / Der Zerstörung Jammerbildnis, / Und sie hieß Jerusalem“.[10] Halevi o‘z umrini mana shu qayg‘uli ma’shuqaga bag‘ishlaydi va uning oyoqlari ostida o‘zining ko‘z yoshlaridan iborat nolalarini kuylab jon beradi. Ilk she’rlardagi bevafo qiz obrazi kechki davrda yo‘qotilgan baxt, barbod bo‘lgan tarixiy xotira va uzoqdagi ilohiy orzu ramziga aylanadi. Teodor Adorno ta’kidlaganidek, Haynening umidsiz sevgisi o‘zining xususiy doirasidan chiqib, umuminsoniy va ijtimoiy yo‘qotishlarning allegoriyasiga aylanadi.[11] Tabiat va xarobalar fonidagi bu muhabbat shoir qalbining dunyo fojialariga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi.

[8] Heine, Heinrich. Ko‘rsatilgan asar.. – S.18-19.
[9] Heine, Heinrich. Ko‘rsatilgan asar.. – S.19.
[10] Heine, Heinrich. Ko‘rsatilgan asar.. – S.123.
[11] Adorno, Theodor W. *Noten zur Literatur I.* Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1958: S. 144.

Xulosa qilib aytganda, Haynrix Hayne ijodida ma’shuqa va tabiat timsollari statik yoki shunchaki estetik bezak emas, balki chuqur o‘ylangan uslubiy vositalardir. Shoir an’anaviy lirikani qamrab olgan mavhumlikdan voz kechib, o‘zining har bir obraziga aniq semantik vazifa yuklaydi. Ilk davrdagi nozik gul va bahoriy tabiat manzaralaridan boshlangan bu yo‘l keyinchalik ziddiyatli mifologik mavjudotlar hamda tarixiy qabrlar tasviriga qadar kengayadi. Nemis adabiyotshunos olimlari ta’kidlaganidek, shoir o‘zining tajribalari va an’anaviy muhabbat lirikasi o‘rtasidagi farqni bosh mavzuga aylantirib, romantik utopiyani jiddiy shubha ostiga qo‘yadi. Hayne she’riyatidagi barcha uslubiy vositalar, kinoya, chekinish va allegoriyalar insonni hayotiy haqiqat bilan yuzlashtirishga qaratilgan. Shu bois Haynening ma’shuqasi hamisha sevgi va azob, hayot va o‘lim, shirin orzu va shafqatsiz haqiqat to‘qnashgan nuqtada yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Schaub, U. I. (1971). Poesie als Kritik: Zum Stil der Versdichtung von Heinrich Heine [Doctoral dissertation, Rice University]. Rice Digital Scholarship Archive.
2. Heine, H. (1887–1890). Sämtliche Werke (E. Elster, Ed.). Bibliographisches Institut.
3. Adorno, T. W. (1958). Noten zur Literatur I. Suhrkamp.
4. Brummack, J. (1969). Heinrich Heines Lieder-Lyrik: Zur Typologie des frühen Heine. Niemeyer.
5. Friedrich, H. (1956). Die Struktur der modernen Lyrik. Rowohlt.
6. Staiger, E. (1946). Grundbegriffe der Poetik. Atlantis Verlag.
7. Windfuhr, M. (1969). Heinrich Heine: Revolution und Reflexion. Metzler.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Mamasoliyeva Muhlisaxon Otabek qizi
Andijon davlat chet tillari instituti
ORCID iD: 0009-0003-7913-4887
Science ID: FAN-0926-0101
E-mail: muhlisa.mamasolieva2000@gmail.com
DOI: 10.67620/ajousci.240007

Annotatsiya. *Mazkur maqolada frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari, ularning milliy-madaniy mazmunni ifodalashdagi o'rni hamda xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning materiali sifatida maqolada qiyosiy tahlilga jalb etilgan 13 ta o'zbek va ingliz frazeologik birligi belgilandi. Ular tana a'zolari, hayvonlar, ranglar, oziq-ovqat va tabiat hodisalari bilan bog'liq obrazlarni qamrab oladi. Birliklarni tanlashda uchta asosiy mezon: turg'unlik, ko'chma ma'noning mavjudligi va muayyan madaniy-obrazli komponentning ifodalanishi hisobga olindi. Tadqiqotda tavsifiy, semantik, qiyosiy va lingvokulturologik tahlil metodlari qo'llanib, frazeologizmlarning semantik yaxlitligi, obrazli asosi, konnotatsiyasi va milliy-madaniy komponenti o'zaro qiyoslandi. Tahlil natijalari bir xil insoniy kechinmalar turli tillarda turlicha obrazlar orqali konseptuallashtirilishini ko'rsatdi. Shu sababli frazeologik birliklarning mazmunini aniqlashda ularning lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda madaniy kontekstini ham hisobga olish zarurligi asoslandi.*

Kalit so'zlar: *frazeologik birlik, frazeologizm, frazeologiya, lingvokulturologiya, milliy-madaniy mazmun, obrazlilik, konnotatsiya, semantika, o'zbek tili, ingliz tili, qiyosiy tahlil .*

Abstract. *This article examines the linguocultural features of phraseological units and their role in expressing national and cultural meanings. The research material consists of 13 Uzbek and English phraseological units selected according to three criteria: structural stability, the presence of figurative meaning, and a culturally meaningful image or connotation. Descriptive, semantic, comparative, and linguocultural methods are applied to identify the semantic, figurative, evaluative, and cultural dimensions of the selected units. The analysis focuses on phraseological units associated with body parts, animals, colours, food, and natural phenomena. The findings show that universal human experiences such as joy, fear, pride, patience, and livelihood may be conceptualised through culturally specific images. Therefore, the interpretation, translation, and teaching of phraseological units should take their cultural context into account in addition to their lexical and semantic structure.*

Key words: *phraseological unit, idiom, phraseology, linguoculturology, national-cultural meaning, imagery, connotation, semantics, Uzbek, English, comparative analysis.*

Аннотация. *В статье рассматриваются лингвокультурологические особенности фразеологических единиц и их роль в выражении национально-культурного содержания. Материал исследования включает 13 узбекских и английских фразеологических единиц, отобранных по критериям устойчивости, наличия переносного значения и культурно-образного компонента. Применяются описательный, семантический, сопоставительный и лингвокультурологический методы. Особое внимание уделяется образам частей тела, животных, цветов, пищи и природных явлений. Анализ показывает, что универсальные человеческие эмоции и ситуации могут концептуализироваться посредством разных образов в разных языках. Следовательно, интерпретация фразеологических единиц требует учета не только их семантической структуры, но и культурного контекста.*

Ключевые слова: *фразеологическая единица, фразеологизм, фразеология, лингвокультурология, национально-культурное содержание, образность, коннотация, семантика, узбекский язык, английский язык, сопоставительный анализ.*

KIRISH

Jahon tilshunosligida til va madaniyat munosabatini o‘rganish zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Til faqat axborot almashish vositasi emas, balki muayyan jamiyatning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, qadriyatlari va kundalik hayotini aks ettiruvchi murakkab tizimdir. Ayniqsa, frazeologik birliklar ushbu munosabatni yaqqol namoyon etadi, chunki ular uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan obrazlarni, baholash mezonlarini va xalqning hayotiy tajribasini o‘zida saqlaydi. Shu jihatdan frazeologizmlarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan o‘rganish til birliklarining ortida turgan milliy-madaniy bilimlarni ochib berishga imkon beradi.

Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarning semantik yaxlitligi, struktur xususiyatlari va konseptual tabiati V.V. Vinogradov, V.N. Teliya, Z. Kövecses, P. Szabó, G. Lakoff va M. Johnson kabi olimlarning tadqiqotlarida turli jihatlardan yoritilgan. Mazkur izlanishlarda frazeologizmning oddiy so‘z birikmasidan farqi, ko‘chma ma’noning shakllanishi, konseptual metafora va madaniy bilimlarning tildagi ifodasi masalalari muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, o‘zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayevning ishlari o‘zbek frazeologiyasining semantik va struktur asoslarini yoritishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz tilshunosligida ham frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash, ularning badiiy matndagi funksiyasi va xalq dunyoqarashini aks ettirish imkoniyatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir. O‘zbek tilidagi frazeologizmlarda non, oq rang, tana a’zolari, qarindoshlik, mehnat va kundalik turmush bilan bog‘liq obrazlarning faol qo‘llanishi milliy madaniyatning tilda aks etish mexanizmlarini ko‘rsatadi. Shu sababli o‘zbek va ingliz tillaridagi ma’nodosh yoki funksional jihatdan yaqin frazeologizmlarni qiyoslash nafaqat til tizimlarining o‘xshash va farqli tomonlarini, balki turli madaniyatlarda bir xil tajribaning qanday konseptuallashtirilishini ham aniqlash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o‘zbek va ingliz tillaridagi tanlangan frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash, ularning obrazli asoslari, konnotativ

ma’nolari va milliy-madaniy komponentlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilandi: frazeologik birliklarning lingvokulturologik tabiatini nazariy jihatdan yoritish; tadqiqot materialini aniq chegaralash; tanlangan birliklarning semantik va obrazli asoslarini aniqlash; o‘zbek va ingliz tillaridagi birliklarni qiyoslash; madaniy komponentlarning umumiy va farqli jihatlarini ko‘rsatish; natijalarning tarjima va chet tilini o‘qitishdagi amaliy ahamiyatini belgilash.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Frazeologiya masalalari XX asr tilshunosligida alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. V.V. Vinogradov frazeologik birliklarning semantik yaxlitligi va struktur xususiyatlarini tadqiq etib, ularni tasniflashga katta hissa qo‘shdi. Uning qarashlari frazeologizmlarni mustaqil lingvistik birlik sifatida o‘rganishning nazariy asoslaridan birini yaratdi (Vinogradov, 1947).

O‘zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayevning frazeologiyaga oid tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olim o‘zbek tilidagi turg‘un birikmalarning ma’nosi, tarkibi va qo‘llanish xususiyatlarini tizimli ravishda yoritgan. Uning frazeologik lug‘atchilikka oid ishlari o‘zbek tilidagi frazeologizmlarning ma’no va shakl xususiyatlarini aniqlash uchun muhim manba hisoblanadi (Rahmatullayev, 1978).

V.N. Teliya frazeologik birliklarni lingvokulturologik jihatdan talqin qilish imkoniyatlarini kengaytirib, frazeologizmlarni madaniy bilimlarni tashuvchi vosita sifatida ko‘rishga e’tibor qaratadi. Bu yondashuvga ko‘ra, frazeologizmning mazmuni faqat uning lug‘aviy tarkibi bilan chegaralanmaydi; birlik ortida ma’lum madaniyatga xos obraz, baholash va assotsiativ bilimlar ham mavjud bo‘ladi (Teliya, 1996).

Ingliz tilidagi frazeologik birliklarni kognitiv nuqtayi nazardan o‘rganishda Z. Kövecses va P. Szabóning ishlari muhim o‘rin tutadi. Ular idiomlarning ma’nosini konseptual metafora va kognitiv jarayonlar bilan bog‘lab tushuntiradilar (Kövecses & Szabó, 1996). G. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasi esa inson tajribasining metaforik tarzda konseptuallashtirilishini tushuntirishga xizmat qiladi (Lakoff & Johnson, 1980).

A. Wierzbicka madaniyatga xos ma’nolarni universal insoniy tushunchalar bilan qiyoslash masalasiga e’tibor qaratib, til birliklarining madaniy o‘ziga xosligini izohlash uchun muhim nazariy asoslarni taklif etadi (Wierzbicka, 1992). Kövecsesning keyingi tadqiqotlarida esa metaforalarning ayrim jihatlari universal bo‘lishi bilan birga, ularning konkret ifodasi madaniyatga qarab o‘zgarishi ko‘rsatiladi (Kövecses, 2005).

Shunday qilib, mavjud tadqiqotlar frazeologik birliklarni struktur-semantik, kognitiv va lingvokulturologik jihatdan o‘rganish uchun mustahkam nazariy asos yaratgan. Biroq mazkur maqolada e’tibor aynan tanlangan o‘zbek va ingliz frazeologizmlaridagi obrazlarning madaniy mazmuni va qiyosiy xususiyatlarini bir tizimda ko‘rsatishga qaratiladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Tadqiqot materiali sifatida maqolada bevosita tahlil qilingan 13 ta frazeologik birlik belgilandi. Material ikki tildan tanlangan bo‘lib, birliklar quyidagi tematik guruhlarni qamrab oladi: tana a’zolari bilan bog‘liq birliklar; hayvon obrazli birliklar; rang komponentli birliklar; oziq-ovqat bilan bog‘liq birliklar; tabiat hodisalari asosida shakllangan birliklar. Tadqiqotning ushbu bosqichida maxsus korpus statistikasi qo‘llanilmadi; materialning chegarasi maqolada lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan aniq frazeologik birliklar bilan belgilandi.

Birliklarni tanlashda uchta mezon asos qilib olindi. Birinchidan, birlik tarkibiy jihatdan turg‘un va nutqda qayta ishlab qo‘llanadigan birikma bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, uning umumiy mazmuni tarkibidagi so‘zlarning bevosita lug‘aviy ma’nolari yig‘indisidan farqlanuvchi ko‘chma

ma’noga ega bo‘lishi kerak. Uchinchidan, birlik tarkibida muayyan obraz, konnotatsiya yoki madaniy assotsiatsiya mavjud bo‘lishi lozim. Ushbu mezonlar tadqiqot materialini oddiy erkin so‘z birikmalaridan ajratish imkonini berdi.

Tadqiqotda to‘rtta asosiy metod qo‘llandi. Tavsifiy metod tanlangan frazeologik birliklarning shakliy va mazmuniy xususiyatlarini izohlash uchun ishlatildi. Semantik metod birliklarning lug‘aviy, ko‘chma va konnotativ ma’nolarini aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy metod o‘zbek va ingliz tillaridagi semantik jihatdan yaqin birliklarning umumiy va farqli tomonlarini aniqlash uchun qo‘llandi. Lingvokulturologik metod esa frazeologizmlardagi milliy obrazlar, qadriyatlar, baholash va madaniy assotsiatsiyalarni tahlil qilishga yo‘naltirildi.

Tahlil jarayonida har bir birlik uchun to‘rtta jihatga e’tibor qaratildi: 1) frazeologik ma’no; 2) obrazli asos; 3) emotsional-baholovchi yoki konnotativ xususiyat; 4) madaniy komponent. Shu orqali qiyoslash faqat tarjima darajasida emas, balki frazeologizmning konseptual va lingvokulturologik xususiyatlari darajasida amalga oshirildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashda avvalo ularning obrazli asosini ko‘rib chiqish lozim. Chunki frazeologizmning ko‘chma ma’nosi ko‘pincha muayyan madaniyat vakillariga tanish bo‘lgan obraz orqali shakllanadi. Tanlangan birliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, insonning quvonch, qo‘rquv, kibr, sabr va tirikchilik kabi tajribalari umumiy bo‘lishi mumkin, biroq ularni ifodalashda ishlatiladigan obrazlar tillar kesimida farqlanadi.

Masalan, o‘zbek tilidagi “boshi osmonga yetmoq” iborasi nihoyatda xursand bo‘lish holatini ifodalaydi. Birlikning obrazli asosida “bosh” va “osmon” tushunchalari orqali quvonchning yuqori darajasi tasvirlanadi. Ingliz tilidagi “to be over the moon” ham kuchli quvonchni bildiradi, biroq unda asosiy obraz “oy” bilan bog‘langan. Demak, semantik natija yaqin bo‘lsa-da, uni yaratgan obrazlar turlicha. Bu holat bir xil insoniy hissiyotning turli lingvomadaniy makonlarda turlicha konseptuallashtirilishini ko‘rsatadi.

Tana a’zolari bilan bog‘liq birliklar ham kuchli madaniy va emotsional yuklamaga ega. O‘zbek tilidagi “yuragi orqasiga tortdi” iborasi kuchli qo‘rquv yoki xavotir holatini ifodalaydi. Bu yerda “yurak” insonning hissiy holatini ifodalovchi markaz sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilidagi “to have one’s heart in one’s mouth” ham qo‘rquv yoki kuchli xavotir holatini ifodalashi mumkin. Har ikki birlikda “heart/yurak” komponenti mavjud bo‘lsa-da, qo‘rquvning obrazli modellashtirilishi bir xil emas.

Hayvon obrazli frazeologizmlarda milliy baholash va stereotiplar yaqqol ko‘rinadi. Ingliz tilidagi “a black sheep” oila yoki guruhdagi boshqalardan xulqi bilan ajralib turadigan, odatda salbiy baholanadigan shaxsni anglatadi. Bu birlikda “qora” va “qo‘y” obrazlari birgalikda ijtimoiy bahoni yuzaga keltiradi. Demak, birlikning ma’nosi “black” va “sheep” so‘zlarining alohida lug‘aviy ma’nolaridan kelib chiqmaydi; uning semantik yaxlitligi madaniy va metaforik assotsiatsiyalar bilan mustahkamlangan.

“Hold your horses” birligi ham madaniy obrazlilikka ega bo‘lib, kimnidir shoshmaslikka, sabr qilishga yoki harakatini vaqtincha to‘xtatishga chaqirish uchun ishlatiladi. Birlik tarkibidagi “otlarni ushlab turish” obrazi harakatni nazorat qilish tushunchasini yuzaga keltiradi. Bu misol frazeologizmlarda kundalik hayot tajribasi va tarixiy-madaniy faoliyat bilan bog‘liq obrazlarning qanday qilib ko‘chma ma’noga aylanishini ko‘rsatadi.

Rang komponentli birliklarda ham milliy-madaniy konnotatsiyalarni kuzatish mumkin. O‘zbek tilidagi “oq ko‘ngil” va “oq niyat” birikmalarida “oq” komponenti poklik, samimiyat va yaxshi niyat bilan bog‘lanadi. Ingliz tilidagi “white lie” esa birovni ranjitmaslik yoki noqulay

vaziyatni yumshatish maqsadida aytiladigan kichik yolg‘onni bildiradi. Demak, bir xil rang komponenti ikki tilda uchrasa ham, uning frazeologik konnotatsiyasi bir xil emas. Rangning umumiy assotsiativ imkoniyati saqlangan holda, konkret madaniy baholash va qo‘llanish vaziyati farqlanadi.

Oziq-ovqat bilan bog‘liq birliklar milliy madaniyatni ifodalashda alohida ahamiyatga ega. O‘zbek madaniyatida non tushunchasi kundalik oziq-ovqatdan tashqari rizq, baraka va tirikchilik bilan bog‘liq kuchli madaniy mazmunga ega. Ingliz tilidagi “to earn one’s bread” birligida esa “bread” komponenti tirikchilik va daromad topish ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi. Har ikki holatda oziq-ovqat nomi insonning moddiy hayoti bilan bog‘lanadi, biroq uning madaniy assotsiatsiyasi va baholovchi jihatlari turlicha namoyon bo‘ladi.

Tabiat hodisalari asosida shakllangan frazeologizmlar inson tafakkuridagi metaforik jarayonni yaqqol ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi “the calm before the storm” kelajakdagi qiyin yoki keskin vaziyatdan oldingi vaqtinchalik sokinlikni anglatadi. Bu yerda bo‘ron tabiiy hodisadan inson hayotidagi keskin vaziyatning metaforik modeliga aylangan. Tabiat hodisasi orqali ijtimoiy va ruhiy holatni tasvirlash frazeologizmlarning obraz yaratish imkoniyatini namoyon etadi.

O‘zbek tilidagi “burni ko‘tarilmoq” iborasi kibrli yoki o‘ziga haddan tashqari bino qo‘ygan kishiga nisbatan ishlatiladi. Ingliz tilidagi “to have one’s nose in the air” ham shunga yaqin baholovchi mazmunni ifodalashi mumkin. Bu ikki birlikda tana a’zosi, ya’ni “burun/nose” so‘zi, insonning xarakteri va ijtimoiy xulqini baholash vositasiga aylangan. Shunday qilib, ayrim obrazlarning turli tillarda o‘xshash semantik vazifani bajarishi ham mumkin; farq esa ularning aniq frazeologik shakli va madaniy konnotatsiyasida namoyon bo‘ladi.

Tahlil qilingan birliklarning umumiy xususiyati ularning emotsional-ekspressivligidir. Oddiy “xursand bo‘lmoq”, “qo‘rqmoq”, “kibrli bo‘lmoq” kabi neytral birliklar holatni bevosita bildirsa, frazeologizm shu holatga obraz, kuchaytirish va baholash komponentini qo‘shadi. Shu sababli frazeologizmlar badiiy matnda qahramonning ruhiy holatini, muallifning munosabatini yoki vaziyatning emotsional ta’sirini kuchaytirish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, frazeologik birliklarni faqat “o‘zbekcha birlik va inglizcha tarjima” tarzida qiyoslash yetarli emas. Masalan, “boshi osmonga yetmoq” va “to be over the moon” birliklari bir xil semantik holatni bildirsa-da, ularning obrazli modeli turlicha. Aksincha, “yuragi orqasiga tortdi” va “to have one’s heart in one’s mouth” birliklarida umumiy tana a’zosi komponenti mavjud bo‘lsa ham, obrazning ichki tuzilishi farqlanadi. Demak, qiyosiy tahlil semantik yaqinlik bilan birga obrazning madaniy motivatsiyasini ham hisobga olishi kerak.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarda ikki qatlamning bir vaqtning o‘zida mavjudligini ko‘rsatadi. Birinchi qatlam universal insoniy tajribaga tegishli: quvonch, qo‘rquv, kibr, sabr, mehnat va tirikchilik kabi holatlar turli xalqlarga xos. Ikkinchi qatlam esa ushbu tajribaning muayyan xalq tomonidan qanday obraz orqali ifodalanganini ko‘rsatadi. Aynan ikkinchi qatlam frazeologizmning lingvokulturologik qiymatini belgilaydi.

Shu nuqtayi nazardan frazeologik birlikni tarjima qilish ham oddiy so‘zma-so‘z almashtirishdan farq qiladi. Agar tarjimon birlik tarkibidagi so‘zlarni mexanik tarzda tarjima qilsa, uning obrazli va madaniy mazmuni yo‘qolishi mumkin. Shuning uchun tarjimada to‘liq ekvivalent, qisman ekvivalent, funksional muqobil yoki izohlovchi tarjimadan foydalanish zarur. Qaysi usul tanlanishi birlikning ma’nosi, konnotatsiyasi va kommunikativ vazifasiga bog‘liq.

Lingvokulturologik tahlil chet tilini o‘qitish uchun ham muhim. Til o‘rganuvchi frazeologizmni faqat lug‘atdagi bir so‘zli tarjimasi orqali o‘zlashtirsa, uni real kommunikativ

vaziyatda noo‘rin ishlatishi mumkin. Uning madaniy mazmuni, qo‘llanish sohasi, emotsional bo‘yoqdorligi va baholovchi xususiyatini bilish kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. Shu bois frazeologizmlarni o‘qitishda ularni kontekst, qiyosiy misol va madaniy izoh bilan birga berish maqsadga muvofiq.

Mazkur tadqiqotning cheklovi shundaki, material 13 ta tanlangan frazeologik birlik bilan chegaralangan va korpus-statistik tahlil amalga oshirilmagan. Shuning uchun natijalarni barcha o‘zbek va ingliz frazeologizmlariga umumlashtirish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Keyingi tadqiqotlarda material hajmini kengaytirish, frazeologik lug‘atlar va korpus ma’lumotlarini tizimli jalb etish, shuningdek, badiiy matnlardagi real qo‘llanish chastotasini qiyoslash maqsadga muvofiqdir.

XULOSALAR

Frazeologik birliklar tilning obrazli va ekspressiv qatlamini tashkil etish bilan birga, muayyan xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini saqlovchi muhim lingvomadaniy birliklardir. Ularning semantik mazmuni ko‘pincha tarkibidagi so‘zlarning bevosita ma’nosidan tashqarida shakllanadi va milliy-madaniy kontekst bilan chambarchas bog‘lanadi.

Tadqiqotda tahlil qilingan 13 ta o‘zbek va ingliz frazeologik birligi tana a’zolari, hayvonlar, ranglar, oziq-ovqat va tabiat hodisalari kabi obrazlar orqali turli madaniy mazmunlarni ifodalashi aniqlandi. Qiyosiy tahlil ayrim birliklarda umumiy insoniy tajriba va yaqin semantik mazmun mavjudligini, biroq ularning obrazli asoslari va konnotativ xususiyatlari ko‘pincha farqlanishini ko‘rsatdi.

Natijalar frazeologik birliklarni lingvokulturologik yondashuv asosida o‘rganish ularning semantik tuzilishini chuqurroq ochib berishini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv tarjima jarayonida mos ekvivalent yoki funksional muqobilni tanlash, chet tilini o‘qitishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish va badiiy matnning emotsional-ekspressiv qatlamini tushuntirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, frazeologizmning to‘liq mazmunini anglash uchun uning til tizimidagi shakli bilan bir qatorda uni yuzaga keltirgan obraz, madaniy assotsiatsiya va kommunikativ vaziyatni ham hisobga olish lozim. Shu jihatdan frazeologiya va lingvokulturologiyaning kesishgan nuqtalarini tadqiq etish til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kövecses, Z. (2005). Metaphor in culture: Universality and variation. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511614408
2. Kövecses, Z., & Szabó, P. (1996). Idioms: A view from cognitive semantics. Applied Linguistics, 17(3), 326–355. https://doi.org/10.1093/applin/17.3.326
3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. University of Chicago Press.
4. Rahmatullayev, Sh. (1978). O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. O‘qituvchi.
5. Teliya, V. N. (1996). Russkaya frazeologiya: Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokul'turologicheskiy aspekty [Russian phraseology: Semantic, pragmatic, and linguacultural aspects]. Shkola "Yazyki russkoy kul'tury".
6. Vinogradov, V. V. (1947). Ob osnovnykh tipakh frazeologicheskikh edinits v russkom yazyke [On the main types of phraseological units in the Russian language]. In Akademik A. A. Shakhmatov: Sbornik statey i materialov (pp. 339–364). Izdatel'stvo AN SSSR.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

TILSHUNOSLIKDA SO‘ROQNI IFODALOVCHI FE’LLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamatova Ziyodaxon Ravshanovna
Andijon davlat chet tillari instituti,
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Email: mamatovaziyodaxon1991@gmail.com
Orcid:0009 0003 9975 9761
DOI: 10.67620/ajousci.240008

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tilshunoslikda so‘roq ma’nosini ifodalovchi fe’llarning leksik-semantik, funksional va struktur xususiyatlari tadqiq etiladi. Nutq fe’llarining umumiy semantik tizimidagi so‘roq fe’llarining o‘rni, ularning kommunikativ vazifasi, valentlik xususiyatlari hamda kontekst ta’sirida ma’noning konkretlashuvi tahlil qilinadi. Ingliz tilidagi ask, question, inquire, interrogate, demand kabi birliklar hamda o‘zbek tilidagi so‘ramoq, savol bermoq, surishtirmoq, so‘roqlamoq, so‘roq qilmoq, tergamoq singari fe’llar qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida so‘roq fe’llarining umumiy semantik yadrosi, differensial semalari, sintaktik birikuvchanligi, uslubiy va pragmatik xususiyatlari aniqlanadi. Shuningdek, so‘roq fe’llarining markaz va periferiya munosabatlari asosida shakllanadigan funksional-semantik maydoni tavsiflanadi. Olingan natijalar ingliz va o‘zbek tillaridagi so‘roq fe’llarini tizimli va qiyosiy o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Maqolaning qiyosiy yo‘nalishi manbada ham aniq ko‘rinadi. 3 OAK maqola inglizcha.*

Kalit so‘zlar: *so‘roq fe’llari, nutq fe’llari, leksik semantika, funksional-semantik maydon, valentlik, kontekst, kommunikativ vaziyat, leksik-semantik guruh, qiyosiy tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Abstract. *This article investigates the lexical-semantic, functional, and structural characteristics of verbs expressing inquiry in linguistics. It analyzes the position of interrogative verbs within the general semantic system of speech verbs, their communicative function, valency features, and the contextual specification of meaning. Units in English such as ask, question, inquire, interrogate, and demand, as well as Uzbek verbs such as so‘ramoq, savol bermoq, surishtirmoq, so‘roqlamoq, so‘roq qilmoq, and tergamoq, are examined comparatively. The study identifies the general semantic core, differential semes, syntactic collocability, stylistic, and pragmatic features of interrogative verbs. Furthermore, it describes the functional-semantic field of interrogative verbs structured on the basis of center-periphery relations. The findings serve as an important theoretical foundation for the systematic and comparative study of interrogative verbs in the English and Uzbek languages.*

Keywords: *interrogative verbs, speech verbs, lexical semantics, functional-semantic field, valency, context, communicative situation, lexical-semantic group, comparative analysis, English language, Uzbek language.*

KIRISH

O‘zbek adabiy tilida fe’llar keng va murakkab leksik-semantik imkoniyatlarga ega bo‘lib, ular turli xil harakat, holat, jarayon hamda psixologik kechinmalarni ifodalash xususiyati bilan ajralib turadi. Fe’llarning semantik tabiati inson faoliyati, fiziologik va ruhiy holati, predmet va hodisalarning dinamik o‘zgarishi, shuningdek, nutq va tafakkur jarayonlarini aks ettirish orqali namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan fe’llar tilning eng faol va mazmunan serqirra qatlamlaridan biri hisoblanadi.

Avvalo, fe’llar insonning mehnat faoliyati bilan bog‘liq harakatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday birliklar orqali umumiy yoki konkret ish-harakat mazmuni anglashiladi. Masalan, ishlamoq, bajarmoq, yozmoq, ekmoq, termoq, kesmoq kabi fe’llar ma’lum faoliyat turini bildiradi. Ayrim hollarda fe’l umumiy mehnat jarayonini anglatsa, boshqa vaziyatlarda aniq natijaga ega bo‘lgan amaliy harakatni ifodalaydi. Shu sababli bunday fe’llar insonning ishlab chiqarish, yaratuvchanlik va kundalik turmush faoliyatini tasvirlashda muhim semantik vosita vazifasini bajaradi.

Fe’llarning yana bir guruhi harakat va uning yo‘nalishini ifodalaydi. Kelmoq, bormoq, chiqmoq, tushmoq, yurmoq, o‘tmoq, quvmoq singari fe’llar makon bilan bog‘liq dinamik harakatni bildiradi. Ushbu birliklarda harakatning boshlanishi, davomiyligi yoki yakuniy nuqtasi semantik jihatdan mujassamlashgan bo‘lib, ular subyektning fazoviy ko‘chishini ifodalashda qo‘llanadi. Bunday fe’llar ayniqsa badiiy va publitsistik matnlarda voqea rivojini tasvirlashda muhim stilistik vazifa bajaradi.

Fe’llar insonning fiziologik holatini ham ifodalashi mumkin. Uxlamoq, uyg‘onmoq, charchamoq, semirmoq, qarimoq, kaltiramoq, harsillamoq kabi birliklar organizmda kechadigan tabiiy jarayonlar va biologik o‘zgarishlarni anglatadi. Mazkur fe’llar orqali insonning jismoniy holati, organizm ehtiyoji yoki yosh bilan bog‘liq o‘zgarishlar ifodalanadi. Bu turdagi fe’llar tibbiy, biologik va psixologik tavsifdagi matnlarda faol qo‘llanadi.

Shuningdek, fe’llar insonning ruhiy-emotsional holatini ifodalash imkoniyatiga ham ega. Quvonmoq, sevinmoq, uyalmoq, afsuslanmoq, qayg‘urmoq, xursand bo‘lmoq, orzu qilmoq, istamoq kabi birliklar insonning ichki kechinmalari va hissiy munosabatlarini aks ettiradi. Bunday fe’llar orqali subyektning voqelik va hodisalarga nisbatan emotsional bahosi namoyon bo‘ladi. Shu sababli ular badiiy matnlarning ekspressivligini kuchaytiruvchi muhim lingvistik vositalardan biri hisoblanadi.

Fe’llarning ayrimlari o‘rin va holatga nisbatan harakatni bildiradi. Turmoq, o‘tirmoq, yotmoq, qo‘zg‘almoq, jilmoq kabi fe’llar subyektning fazodagi holatini yoki bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishini ifodalaydi. Bu kabi birliklar harakatning statik va dinamik jihatlarini semantik jihatdan farqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, fe’llar tabiat hodisalari, biologik jarayonlar hamda fizik-kimyoviy o‘zgarishlarni ham ifodalaydi. O‘smoq, gullamoq, erimoq, qotmoq, sovimoq, yonmoq, ko‘karmoq, sarg‘aymoq, buzilmoq kabi fe’llar predmet va hodisalarning tabiiy rivojlanishi yoki o‘zgarish jarayonini anglatadi. Mazkur birliklarda jarayonlilik va vaqt omili muhim semantik komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ular ilmiy va tasviriy matnlarda keng qo‘llanadi.

Fe’llarning muhim semantik guruhlaridan biri tafakkur va nutq faoliyati bilan bog‘liqdir. Nutqiy harakatni ifodalovchi fe’llarga aytmoq, so‘zlamoq, hikoya qilmoq, so‘ramoq, javob bermoq, suhbatlashmoq, taklif qilmoq kabi birliklar kiradi. Ular kommunikativ jarayonning yuzaga chiqishini ifodalab, insonlar o‘rtasidagi axborot almashinuvini aks ettiradi. Tafakkur bilan bog‘liq fe’llar esa o‘ylamoq, fikrlamoq, anglamoq, tushunmoq, eslamoq, unutmoq, ishonmoq kabi birliklardan tashkil topadi. Ushbu fe’llar insonning bilish faoliyati, mantiqiy mushohada yuritishi hamda ongiy jarayonlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Demak, o‘zbek tilidagi fe’llar semantik jihatdan nihoyatda boy va ko‘p qatlamli tizimni tashkil etadi. Ularning ma’no doirasi inson faoliyatining deyarli barcha jihatlarini — mehnat, harakat, fiziologik va ruhiy holat, tabiat hodisalari, nutq hamda tafakkur jarayonlarini qamrab oladi. Shu sababli fe’llar tilning nafaqat grammatik, balki konseptual va lingvokognitiv imkoniyatlarini ham namoyon etuvchi asosiy birliklardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Uchinchidan, salbiy xushmuomalalik adresatning mustaqil hududini saqlashga yo‘naltirilgan shartli, tavsiyaviy va yumshatuvchi konstruksiyalarda namoyon bo‘ladi. “Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa, yaxshi so‘z gapirsin yoki sukut saqlasin” mazmunidagi hadisda axloqiy talab shartli konstruksiya bilan bog‘lanadi [6]. Bu shakl imperativ mazmunni saqlagan holda uni diniy motivatsiya va tanlov strukturasi bilan pragmatik jihatdan asoslaydi.

To‘rtinchidan, off-record strategiyasi tashbeh, qiyos, hikmat va implikativ mazmun orqali amalga oshadi. Bir tanaga qiyoslash adresatga “mehribon bo‘l” mazmunini yalang‘och imperativ tarzida bermaydi; xulosa kontekst va obrazli analogiya orqali hosil qilinadi. Shu sababli hadis diskursida bilvositalik axloqiy g‘oyani kognitiv va emotsional jihatdan kuchaytiruvchi vosita vazifasini bajaradi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar Brown va Levinson modelining hadis diskursini tavsiflashda metodologik imkoniyatga ega ekanini ko‘rsatadi, biroq diniy diskursning institutsional va aksiologik tabiatini hisobga olish zarur. Oddiy kundalik muloqotda yuzga tahdid soluvchi akt sifatida baholanishi mumkin bo‘lgan bevosita buyruq diniy diskursda normativ vakolat va tarbiyaviy maqsad sababli boshqa pragmatik qiymat kasb etadi. Demak, strategiyani faqat grammatik shakl bilan emas, kommunikativ maqom va diniy kontekst bilan birgalikda baholash lozim.

Hadis diskursidagi xushmuomalalikning yana bir o‘ziga xos jihati axloqiy mazmun va kommunikativ shaklning uyg‘unligidir. Yaxshi so‘zlash, zarar yetkazmaslik, mehmonni izzat qilish, o‘zaro rahm-shafqat ko‘rsatish kabi mazmunlar xushmuomalalikni faqat etik norma emas,

balki konkret nutqiy xatti-harakat sifatida namoyon etadi. Shu jihatdan hadislar pragmalingvistika, diniy diskurs va lingvomadaniyatshunoslik kesishgan nuqtada o‘rganilishi mumkin.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, yuborilgan dastlabki matnda hadislarning katta qismi mazmuniy misol sifatida berilgan, to‘liq arabcha matn, isnod va barcha hadis raqamlari izchil keltirilmagan. Shu sababli maqolada manbasi aniq tekshirilgan hadislar asosiy dalil sifatida qo‘llanildi; keyingi tadqiqotda kengroq korpus tuzish, arabcha original va o‘zbekcha tarjimani parallel tahlil qilish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Hadis diskursining pragmatik tahlili unda xushmuomalalik strategiyalari diniy-axloqiy kommunikatsiyaning muhim mexanizmi ekanini ko‘rsatadi. Brown va Levinson tasnifi asosida bevosita, ijobiy, salbiy va bilvosita strategiyalarni ajratish mumkin. Bevosita strategiya normativ va taqiqlovchi mazmunni aniq yetkazadi; ijobiy xushmuomalalik birdamlik va yaqinlikni kuchaytiradi; salbiy xushmuomalalik adresat erkinligini e’tiborga oluvchi yumshoq pragmatik shakllarni yuzaga chiqaradi; bilvosita strategiya esa tashbeh va implikatura orqali axloqiy ta’sirni kuchaytiradi. Shunday qilib, hadis diskursida xushmuomalalik diniy ko‘rsatmaning lingvistik bezagi emas, balki adresatning qadr-qimmatini e’tiborga olish, ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlash va kommunikativ ta’sirni samarali tashkil etuvchi tizimli pragmatik vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brown, G., & Yule, G. (1983). *Discourse analysis*. Cambridge University Press.
2. van Dijk, T. A. (2008). *Discourse and context: A sociocognitive approach*. Cambridge University Press.
3. Fairclough, N. (1992). *Discourse and social change*. Polity Press.
4. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511813085
5. Imom Buxoriy, M. I. (2008). *Sahihi Buxoriy*. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
6. Al-Bukhari, M. I. (n.d.). *Sahih al-Bukhari: The book of good manners (Al-Adab), Hadith 6018*.
7. Muslim ibn al-Hajjaj. (n.d.). *Sahih Muslim: The book of virtue, enjoining good manners, and joining of the ties of kinship, Hadith 2586a*.
8. Widdowson, H. G. (2004). *Text, context, pretext: Critical issues in discourse analysis*. Blackwell Publishing.
9. Mansur, A. (Trans.). (n.d.). *Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi*. Toshkent.
10. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. Toshkent.

“ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS”

СИСТЕМА МОНИТОРИНГА КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ (НА МАТЕРИАЛЕ КУРСОВЫХ РАБОТ ПО РУССКОЙ ФИЛОЛОГИИ)

Щитка Неля Николаевна
Доцент, университет Янги аср в Ташкенте
qaadri@yandex.ru
DOI: 10.67620/ajousci.240016

Аннотация. *Статья посвящена проблеме снижения качества курсовых работ по русской филологии через систему непрерывного мониторинга. Модель объединяет жёсткое календарное планирование, формирующее оценивание и гибридный инструментарий (чек-листы руководителя плюс цифровые платформы). Особое внимание уделяется оценке лингвокультурологической составляющей — интерпретации концептов языковой картины мира, а также фиксации сбора эмпирического материала. Внедрение системы снижает плагиат, повышает оригинальность текстов, корректирует методологические ошибки и стимулирует публикационную активность студентов.*

Ключевые слова: *мониторинг научно-исследовательской деятельности; курсовая работа; русская филология; формирующее оценивание; календарное планирование; лингвокультурологический анализ; академическая честность; цифровые образовательные технологии.*

Abstract. *The article is devoted to the problem of mitigating the decline in the quality of term papers in Russian philology through a system of continuous monitoring. The model combines strict schedule planning, formative assessment, and hybrid tools (supervisor checklists plus digital platforms). Particular attention is paid to evaluating the linguaculturological component—the interpretation of concepts of the linguistic picture of the world—as well as documenting the collection of empirical material. The implementation of the system reduces plagiarism, increases text originality, corrects methodological errors, and stimulates students' publication activity.*

Keywords: *research activity monitoring, term paper, Russian philology, formative assessment, schedule planning, linguaculturological analysis, academic integrity, digital educational technologies.*

Введение.

Подготовка курсовой работы традиционно рассматривается как ключевой этап формирования исследовательских компетенций студента-филолога: она предполагает не только демонстрацию теоретической подготовки, но и самостоятельное решение конкретной научной задачи на материале русского языка или текста. Между тем практика руководства такими работами фиксирует устойчивую тенденцию к снижению их качества, которая проявляется в нескольких формах: подмене анализа языкового материала пересказом источников, рассогласованности между заявленными во введении задачами и содержанием глав, поверхностной интерпретацией лингвокультурологических категорий и запоздалым обнаружением методологических ошибок — как правило, непосредственно перед защитой, когда их исправление уже затруднено.

Причина этих затруднений видится не столько в уровне подготовки отдельных студентов, сколько в отсутствии системного подхода к сопровождению научно-исследовательской деятельности: руководство курсовой работой в большинстве случаев сводится к нерегулярным консультациям, лишённым единой критериальной базы и чёткой временной структуры. Такая модель делает результат исследования труднопрогнозируемым и создаёт неравномерную нагрузку на научного руководителя, который вынужден одновременно вести до нескольких десятков работ.

Существующие исследования затрагивают отдельные грани проблемы, но не образуют целостной модели. Работы по мониторингу в высшей школе рассматривают преимущественно институциональный уровень — эффективность деятельности вуза в целом, а не сопровождение конкретного исследовательского проекта студента. Исследования формирующего оценивания разработаны главным образом на материале школьного и общепедагогического обучения [1; 8] и не учитывают специфику вузовского научного руководства. Методология лингвокультурологического анализа концептов разработана подробно [2; 4; 5; 19], однако не операционализирована в виде критериев, пригодных для текущей оценки студенческих курсовых работ научным руководителем. Таким образом, не хватает именно интегративной модели, соединяющей процессуальное управление, формирующее оценивание и предметно-специфические критерии филологического исследования — этот пробел и призвана восполнить предлагаемая система.

Цель статьи — обосновать модель непрерывного мониторинга как инструмента управления процессом подготовки курсовой работы студента-русиста и описать её практическую реализацию на материале курсовых работ по русской филологии.

Материалы и методы.

Выборку исследования составили курсовые работы студентов 2–4 курсов направления «Филология и обучение языкам (русский язык)», сопровождаемые одним научным руководителем на протяжении 2024–2025 и 2025–2026 учебных годов, — 67 работ. Использован дизайн одногруппового исследования с повторными измерениями [3]: показатели периода до внедрения системы мониторинга (предшествующий учебный год — 2024–2025) сопоставлялись с показателями периода после внедрения (2025–2026 учебный год). Такой дизайн не предполагает независимой контрольной группы, что оговорено отдельно как ограничение исследования.

Инструментом критериальной оценки выступил чек-лист научного руководителя, включающий блоки «структура и оформление», «методологическая корректность»,

«аналитическая часть», «лингвокультурологическая составляющая» и «эмпирический материал». Каждый критерий оценивался не бинарно, а по трёхуровневой шкале дескрипторов: 0 — критерий не выполнен или нарушен; 1 — выполнен частично, требует доработки; 2 — выполнен полностью. Чтобы убедиться, что оценки по чек-листу не зависят от субъективности одного проверяющего, подвыборка из 20 работ была независимо оценена двумя специалистами; степень совпадения их оценок измерялась коэффициентом каппа Коэна — статистическим показателем согласия экспертов, который, в отличие от простого процента совпадений, учитывает и вероятность случайного совпадения оценок. Значение коэффициента варьируется от 0 (совпадения не превышают случайных) до 1 (полное совпадение); согласованность принято считать удовлетворительной при $\kappa > 0{,}6$–$0{,}7$. В настоящем исследовании было получено $\kappa = 1$.

Количественные показатели — доля повторяющихся вопросов на консультациях, время первичной проверки структуры и оформления работы, индекс оригинальности итоговых текстов (по системе «Антиплагиат.уз», при пороговом значении оригинальности, установленном на кафедре, — 72 %) — фиксировались до и после внедрения системы и сравнивались между двумя учебными годами при помощи двух статистических критериев, выбор которых определялся типом данных. Для долевых показателей (например, доли работ с повторяющимися вопросами) применялся критерий χ^2 (хи-квадрат) — стандартный способ проверить, различаются ли две доли (два процента) значимо или расхождение можно объяснить случайностью выборки. Для показателей времени (минуты, затраченные на первичную проверку) использовался U-критерий Манна — Уитни — непараметрический аналог более известного t-критерия Стьюдента, который не требует нормального распределения данных и потому надёжнее при небольших выборках, типичных для одной группы курсовых работ [3]. В обоих случаях различие считалось неслучайным при уровне значимости $p < 0{,}05$, то есть если вероятность получить такое расхождение при отсутствии реального эффекта не превышала 5 %. Формулировки об «эффекте» в разделе «Результаты и обсуждение» носят предварительный характер до завершения полного статистического анализа и приводятся как описательные показатели апробации.

Отдельно фиксировались этапы сбора эмпирического материала: для работ на материале текстовых корпусов — объём и принцип формирования выборки текстов; для работ, включающих полевые лингвистические интервью — получение информированного согласия информантов.

Результаты и обсуждение.

Мониторинг как система непрерывного управления научно-исследовательской деятельностью. Под мониторингом в данном контексте понимается не разовая проверка готового текста, а последовательное отслеживание всех этапов подготовки курсовой работы — от формулировки темы и составления плана до предзащитной версии рукописи. Каждый этап закрепляется контрольной точкой, на которой фиксируется промежуточный результат и соответствие работы заявленным критериям. Такая модель переносит акцент с итогового контроля на процессуальный, что позволяет выявлять методологические затруднения на ранних стадиях, когда их исправление требует минимальных затрат времени как студента, так и руководителя.

Календарное планирование и формирующее оценивание. Основу системы составляет жёсткий календарный график, задающий предельные сроки для каждого этапа: выбор и утверждение темы, составление плана и рабочей библиографии, подготовка

теоретической главы, сбор и анализ эмпирического материала, оформление практической части, черновой вариант заключения, предзащита. Соблюдение календарного плана дополняется формирующим оцениванием промежуточных результатов: в отличие от итоговой отметки, формирующая обратная связь указывает не только на факт несоответствия работы требованиям, но и на конкретный способ его устранения, что согласуется с пониманием формирующего оценивания как средства управления процессом обучения, а не только его фиксации [8].

Критерии оценки лингвокультурологической составляющей. Специфика курсовых работ по русской филологии требует отдельного критериального блока, связанного с анализом концептов русской языковой картины мира [4]. Практика показывает, что типичным затруднением студентов является не отсутствие теоретической базы, а неумение перейти от пересказа словарных дефиниций к содержательной интерпретации языкового материала — сочетаемости, коннотаций, культурно значимых ассоциаций, стоящих за анализируемым концептом [2; 5; 9]. В систему мониторинга включены критерии, позволяющие оценить глубину такой интерпретации: соответствие избранной методики концептуального анализа заявленной теме, разнообразие и репрезентативность привлечённого языкового материала, наличие содержательных, а не формальных выводов о специфике концепта, корректное соотнесение лексикографических данных с результатами анализа текстов. Эти критерии закладываются в чек-лист научного руководителя уже на этапе формирующего оценивания теоретической главы, что позволяет скорректировать методику анализа до того, как студент перейдёт к практической части работы.

Так, для критерия «глубина интерпретации концепта» использованы следующие дескрипторы: 0 — работа ограничивается пересказом словарной дефиниции без анализа языкового материала; 1 — приведён языковой материал (сочетаемость, контексты употребления), но интерпретация коннотативных и культурно значимых компонентов значения отсутствует или носит формальный характер; 2 — предложена содержательная интерпретация культурно значимых ассоциаций и коннотаций концепта на основе разнообразного и репрезентативного языкового материала, сопоставленная с лексикографическими данными. Аналогичные трёхуровневые дескрипторы разработаны для критериев «репрезентативность языкового материала» и «соотнесение анализа текста со словарными данными».

Гибридный инструментарий: чек-листы и цифровые платформы. Практическая реализация модели строится на сочетании традиционных и цифровых средств контроля. Базовым инструментом остаётся чек-лист научного руководителя, фиксирующий соответствие работы структурным и содержательным критериям на каждой контрольной точке. Он дополняется цифровыми платформами совместного редактирования документов [6], обеспечивающими прозрачность процесса: руководитель видит историю изменений текста, может оставлять комментарии по конкретным фрагментам и отслеживать динамику работы студента между консультациями, а не только её итоговый результат.

Отдельным элементом гибридного инструментария выступил разработанный автором цифровой ассистент, реализованный в формате чат-бота на основе искусственного интеллекта и интегрированный в образовательный процес [7]. Его функция ограничена структурированием, предварительной проверкой по критериальной модели и организационным сопровождением — ассистент не генерирует тексты курсовых работ и не

подменяет самостоятельную исследовательскую деятельность студента, что принципиально для сохранения ведущей роли научного руководителя как эксперта и методиста.

Процессуальный контроль сбора эмпирического материала. Отдельного внимания в системе мониторинга требует этап сбора эмпирического материала, поскольку именно на нём чаще всего происходит подмена самостоятельного исследования компиляцией чужих данных. Для курсовых работ, основанных на анализе корпусов текстов, фиксируется методика формирования выборки и объём привлечённого материала; для работ, предполагающих полевые лингвистические интервью или анкетирование носителей языка, — протокол сбора данных, включающий сведения об информантах и условиях записи. Обязательная фиксация этих этапов в контрольных точках календарного графика делает процесс сбора материала прозрачным для руководителя и предотвращает ситуацию, при которой присутствие эмпирической части в работе оказывается формальным.

Эффективность системы.

Апробация описанной модели в течение учебного года зафиксировала следующую динамику показателей (данные носят описательный характер и приводятся до завершения полного статистического анализа, отмеченного в разделе «Материалы и методы»). Цифровым ассистентом для предварительной проверки работы воспользовались около 90 % сопровождаемых студентов; более 80 % обучающихся представили на очную консультацию версии текста, уже скорректированные по формальным критериям. Время, затрачиваемое руководителем на первичную проверку структуры и оформления работы, сократилось ориентировочно на 35–40 %, а доля повторяющихся, методически однотипных вопросов на консультациях — примерно на 50 %. Наряду с этим отмечена положительная динамика индекса оригинальности итоговых рукописей по данным системы проверки на заимствования: средний индекс оригинальности 55 % (Q1–Q3: 47–63 %) до развития и 81 % (71–89 %) после, что связывается с более ранним выявлением фрагментов, тяготеющих к пересказу источников. Освободившийся ресурс консультационного времени руководитель направил на содержательный разбор наиболее перспективных работ, что сопровождалось ростом числа студенческих публикаций на основе лучших фрагментов курсовых исследований, представленных на республиканских конференциях, без установления причинно-следственной связи в рамках данного дизайна исследования.

Ограничения исследования. Полученные результаты апробации следует интерпретировать с учётом ряда ограничений. Во-первых, использован дизайн одногруппового исследования с повторными измерениями без независимой контрольной группы, что не позволяет однозначно отделить эффект самой системы мониторинга от иных факторов учебного года (изменение состава студентов, общей учебной нагрузки, тематики курсовых работ). Во-вторых, апробация проведена в рамках практики одного научного руководителя и двух образовательных организаций, что ограничивает возможность обобщения выводов на другую кафедру или предметную область без дополнительной проверки. В-третьих, за пределами данной статьи остаётся вопрос об устойчивости эффекта — сохраняются ли сформированные навыки структурирования и работы с эмпирическим материалом при подготовке студентом последующей выпускной квалификационной работы. Наконец, оценка ресурсных затрат на внедрение и сопровождение гибридного инструментария (временные затраты на настройку цифровых инструментов, требования к

цифровой грамотности руководителя) в настоящей работе не производилась и представляет собой самостоятельную задачу для последующих исследований.

Заключение.

Проведённое исследование показывает, что систематический мониторинг научно-исследовательской деятельности студентов-филологов трансформирует подготовку курсовой работы из формальной учебной задачи в осознанное профессиональное действие будущего русиста. Интеграция календарного планирования, формирующего оценивания и специфических критериев анализа лингвокультурологического материала обеспечивает единообразие требований и прозрачность процесса для всех участников. Использование гибридного инструментария — чек-листов научного руководителя в сочетании с цифровыми платформами и ИИ-ассистентом — позволяет перераспределить педагогическую нагрузку без утраты экспертной роли преподавателя, повышая при этом управляемость и предсказуемость итогового результата. Перспективы развития предложенной модели связаны с переносом цифрового модуля мониторинга в институциональную цифровую среду и его интеграцией в структуру персональных образовательных ресурсов преподавателя, что расширит устойчивость и функциональные возможности системы.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Абдыканова, С. А. Формирующее оценивание как средство повышения качества образования в школе. КиберЛенинка. https://cyberleninka.ru/article/n/formiruyuschee-otsenivanie-kak-sredstvo-povysheniya-kachestva-obrazovaniya-v-shkole
2. Вежбицкая, А. (1996). Язык. Культура. Познание (пер. с англ.). Русские словари.
3. Загвязинский, В. И., & Атаханов, Р. (2005). Методология и методы психолого-педагогического исследования. Академия.
4. Зализняк, А. А., Левонтина, И. Б., & Шмелев, А. Д. (2012). Константы и переменные русской языковой картины мира. Языки славянских культур.
5. Карасик, В. И. (2002). Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Перемена.
6. Минжулина, А. В., & Обухов, А. С. Цифровые инструменты для организации и сопровождения исследовательской и проектной деятельности учащихся в старшей школе. КиберЛенинка. https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovye-instrumenty-dlya-organizatsii-i-soprovozhdeniya-issledovatelskoy-i-proektnoy-deyatelnosti-uchaschihsya-v-starshey-shkole
7. Патрушева, Л. С. (2022). Использование технологии чат-ботов в обучении русскому языку как иностранному на начальном уровне: из опыта разработки. Вестник Удмуртского университета. Серия «История и филология», (4). https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-tehnologii-chat-botov-v-obuchenii-russkomu-yazyku-kak-inostrannomu-na-nachalnom-urovne-iz-opyta-razrabotki
8. Пинская, М. А. Формирующее оценивание и качество образования. КиберЛенинка. https://cyberleninka.ru/article/n/formiruyuschee-otsenivanie-i-kachestvo-obrazovaniya
9. Степанов, Ю. С. (2004). Константы: словарь русской культуры (3-е изд., испр. и доп.). Академический Проект.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

XITOY VA O‘ZBEK TILLARIDA "BAXT" KONSEPTINING LISONIY IFODASI: 福 [FÚ] VA "BAXT" LEKSEMALARINING QIYOSIY TAHLILI

Valieva Noiba Abbasxonovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
naying1564@mail.ru
https://orcid.org/0009-0003-0666-5353
DOI: 10.67620/ajousci.240017

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xitoy va o‘zbek tillarida "baxt" konseptining lisoniy ifodalanishi qiyosiy-semantik yondashuv asosida tadqiq etildi. Tadqiqotning asosiy obyekti xitoy tilidagi 福 [fú] va o‘zbek tilidagi "baxt" leksemalari bo‘lib, ularning lug‘aviy-semantik mazmuni, frazeologik birliklarda namoyon bo‘lishi, lingvomadaniy assotsiatsiyalari hamda konseptual tarkibiy qismlari tahlil qilindi. Xitoy tilida 福 [fú] leksemasining "baxt", "farovonlik", "marhamat", "yaxshi tilak" kabi ma'nolarni qamrab olishi va uning an'anaviy 五福 [wǔfú] modeli bilan aloqasi ko‘rib chiqiladi. O‘zbek tilida "baxt" leksemasining omad, saodat, qut, tole, iqbol, hayotdan mamnunlik va orzu-intilishlarning ro‘yobga chiqishi bilan bog‘liq semantik xususiyatlari yoritiladi. Qiyosiy tahlil natijasida har ikki tilda farovonlik, omad, qoniqish, oilaviy baxt, ezgulik va yaxshi tilak kabi umumiy komponentlar mavjudligi, biroq ularning milliy-madaniy konseptuallashtirilishida farqlar borligi aniqlandi. Xitoy lingvomadaniyatida baxt ko‘proq yaxlit farovonlik modeli sifatida, o‘zbek lingvomadaniyatida esa shaxsiy hayot, oila, nikoh, omad va taqdir bilan bog‘liq ko‘p qirrali tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *baxt, 福 [fú], xitoy tili, o‘zbek tili, konsept, lingvomadaniyat, semantika, frazeologiya, 五福 [wǔfú], farovonlik, omad .*

Abstract. *This study examines the linguistic representation of the concept of "happiness" in Chinese and Uzbek from a comparative-semantic perspective. The main objects of the study are the Chinese lexeme 福 [fú] and the Uzbek lexeme "baxt". Their lexical-semantic meanings, phraseological manifestations, linguocultural associations, and conceptual components are analyzed. Particular attention is paid to the semantic range of 福 [fú], including happiness, prosperity, blessing, and good wishes, as well as to its relationship with the traditional 五福 [wǔfú] model. The semantic content of "baxt" in Uzbek is considered in relation to luck, felicity, fortune, personal satisfaction, achievement of goals, and realization of hopes. The comparative analysis demonstrates common components such as prosperity, luck, satisfaction, family happiness, benevolence, and good wishes. At the same time, the two*

linguistic cultures conceptualize happiness differently: in Chinese linguoculture, 福 [fú] is closely associated with an integrated model of well-being represented by 五福 [wǔfú], whereas in Uzbek linguoculture “baxt” is frequently manifested through personal life, family, marriage, fortune, destiny, and satisfaction with life. The findings confirm that the study of the two lexemes provides a productive basis for identifying both universal and culture-specific features of national worldviews.

Key words: *happiness, 福 [fú], baxt, concept, Chinese language, Uzbek language, linguoculture, semantics, phraseology, 五福 [wǔfú], prosperity, luck, Good health and well-being.*

Kirish

Til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishda muayyan tushunchalarning milliy-madaniy mazmunini ochib beruvchi konseptlar alohida ahamiyat kasb etadi. Insonning hayotiy qadriyatlari, ruhiy holati, farovonligi va orzu-intilishlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan “baxt” konsepti ana shunday ko‘p qatlamli birliklardan biridir. Mazkur konsept universal insoniy mazmunga ega bo‘lsa-da, uning tilda ifodalanish shakllari va semantik tarkibi har bir xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va madaniy tasavvurlari bilan chambarchas bog‘lanadi. Baxt haqida G. Lakoff, M. Johnson, V. Tatarkevich va Yu. Stepanov olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan

Xitoy va o‘zbek lingvomadaniyatlarida “baxt” tushunchasi turli lisoniy birliklar orqali ifodalanadi. Xitoy tilida 福 [fú] iyeroglifi ushbu tushunchaning muhim vositalaridan biri bo‘lib, u oddiy lug‘aviy ma’nodan tashqari an’anaviy madaniyatda farovonlik, marhamat, omad, oilaviy osoyishtalik va boshqa ijobiy qadriyatlar bilan aloqaga kirishadi. O‘zbek tilida esa “baxt” leksemasi ishtirok etgan frazeologik birliklar insonning omadli hayoti, oilaviy holati, orzu-umidlarining amalga oshishi va hayotdan qoniqishi kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, “baxt” konseptining ikki qarindosh bo‘lmagan, turli tarixiy-madaniy an’analarga mansub tillardagi ifodasini qiyoslash orqali umumiy insoniy semantik komponentlar bilan milliy-madaniy komponentlarning o‘zaro nisbatini aniqlash mumkin. Bunday tahlil qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya va konseptologiya uchun muhim nazariy hamda amaliy material beradi.

Tadqiqotning maqsadi xitoy tilidagi 福 [fú] va o‘zbek tilidagi “baxt” leksemalarining semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: 福 [fú] va “baxt” leksemalarining lug‘aviy ma’nolarini aniqlash; ularning semantik komponentlarini ajratish; 五福 [wǔfú] modelining xitoy tilidagi baxt konseptini shakllantirishdagi o‘rnini ko‘rsatish; o‘zbek tilidagi “baxt” frazeologik birliklarini tahlil qilish; ikki lingvomadaniyatdagi umumiy va o‘ziga xos komponentlarni qiyoslash.

Adabiyotlar tahlili

“Baxt” konseptining leksik-semantik xususiyatlarini aniqlashda izohli lug‘atlar muhim manba vazifasini bajaradi. I.M. Oshanin tahriri ostida nashr etilgan Большой китайско-русский словарьда 福 [fú] leksemasining ma’no doirasi “baxt, farovonlik”, “duo, marhamat”, “to‘liqlik” kabi birliklar orqali ochib beriladi. Lug‘atda ushbu birlikning fe’l sifatidagi “baxt ato etmoq” va “duo qilmoq” ma’nolarida ham qo‘llanishi qayd etilgan (Oshanin, 1983–1984, p. 1062). Bu

ma’lumot 福 [fú]ning faqat subyektiv hissiy holatni emas, balki ijobiy hayotiy holat va ezgu tilakni ham ifodalashini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “baxt” kishining o‘z faoliyati natijalaridan, hayotda erishgan yutuqlaridan to‘la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga yetishi va orzu-umidlarining amalga oshishi bilan bog‘liq ma’naviy-axloqiy tushuncha sifatida izohlanadi. Shuningdek, ushbu leksema saodat, qut, omad, tole va iqbol kabi yaqin ma’nolarni ham ifodalaydi (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006). Ushbu talqin “baxt”ning o‘zbek tilidagi semantik maydoni shaxsning ichki qoniqishi bilan bir qatorda tashqi hayotiy muvaffaqiyat va omadni ham qamrab olishini ko‘rsatadi.

Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati (2010) kabi manbalar ham “baxt”ni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq tushuncha sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Mavjud lug‘aviy manbalarni qiyoslashdan ko‘rinadiki, tadqiqot mavzusi uchun uch yo‘nalish alohida ahamiyatga ega: birinchidan, leksemalarning lug‘aviy ma’nosi; ikkinchidan, frazeologik va barqaror birliklardagi qo‘llanishi; uchinchidan, ularning madaniy-semantik assotsiatsiyalari.

Shu bilan birga, mazkur manbalar asosan lug‘aviy izoh va ma’noni ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli ushbu maqolada lug‘at ma’lumotlari qiyosiy-semantik tahlil bilan birlashtirilib, 福 [fú] va “baxt” birliklarining konseptual tarkibi umumlashtiriladi. Bu yondashuv ikki tildagi umumiy semantik qatlam bilan milliy-madaniy o‘ziga xoslikni birgalikda ko‘rsatishga imkon beradi.

Metodologiya

Tadqiqot qiyosiy-semantik va lingvokulturologik yondashuvlarga asoslanadi. Tahlil materiali sifatida maqolada keltirilgan xitoy va o‘zbek lug‘aviy ma’lumotlari, 福 [fú]ning 五福 [wǔfú] tarkibidagi qo‘llanishi hamda “baxt” leksemasi ishtirokidagi frazeologik birliklardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy strategiyasi ikki bosqichdan iborat: dastlab har bir tildagi birliklarning semantik tarkibi alohida aniqlanadi, keyin esa aniqlangan komponentlar qiyosiy jihatdan umumlashtiriladi. Semantik tahlil jarayonida leksemalarning bevosita lug‘aviy ma’nolari, ma’no kengayishlari va ular bilan bog‘liq semantik komponentlar ajratildi. Qiyosiy tahlil orqali ikki tilda takrorlanuvchi umumiy komponentlar hamda faqat muayyan lingvomadaniyatga xos bo‘lgan belgilar aniqlandi. Lingvokulturologik yondashuv esa til birliklarida aks etgan oila, farovonlik, omad, ezgulik, taqdir va yaxshi tilak kabi madaniy mazmunlarni izohlashga xizmat qildi.

Materiallarning ishonchliligi uchun asosiy lug‘aviy ma’lumotlar nashr etilgan izohli lug‘atlarga tayanildi. Biroq mazkur maqola empirik so‘rovnoma yoki statistik korpus tadqiqotini qamrab olmaydi; shu bois keltirilgan xulosalar tanlangan lug‘aviy va frazeologik materialning sifat tahliliga asoslangan. Kelgusida katta hajmdagi korpus va respondentlar ma’lumotlari asosida natijalarni miqdoriy tekshirish mumkin.

Tahlil va natijalar

福 [fú] leksemasining semantik tarkibi

Xitoy tilida “baxt” tushunchasini ifodalovchi asosiy birliklardan biri 福 [fú] iyeroglifidir. Lug‘aviy ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur leksema “baxt, farovonlik”, “duo, marhamat”, “to‘liqlik” kabi ma’nolarni anglatadi hamda fe’l sifatida “baxt ato etmoq”, “duo qilmoq” mazmunida qo‘llanishi mumkin (Oshanin, 1983–1984, p. 1062). Demak, 福 [fú]ning semantik maydoni faqat insonning ichki ruhiy holati bilan chegaralanmaydi. U farovon yashash, ezgulik, marhamat, yaxshi tilak va ijobiy hayotiy holatlarni ham qamrab oladi.

福 [fú]ning muhim xususiyati uning boshqa madaniy birliklar bilan semantik munosabatga kirishishidir. Ayniqsa, 五福 [wǔfú] — “besh baxt” modeli mazkur leksemaning an’anaviy xitoy tafakkuridagi kengroq mazmunini ochib beradi. Ushbu modelda baxt alohida, tor ma’nodagi hissiy holat emas, balki inson hayotining turli tomonlari uyg‘unligidan tashkil topgan holat sifatida namoyon bo‘ladi.

An’anaviy 五福 [wǔfú] tarkibida 寿 [shòu] — uzoq umr, 富 [fù] — boylik, 康宁 [kāngníng] — salomatlik va xotirjamlik, 攸好德 [yōuhǎodé] — ezgu fazilatlarni sevish hamda 考终命 [kǎozhōngmìng] — umrni to‘liq va osoyishta yakunlash bilan bog‘liq mazmunlar mavjud. Keyingi xalqona talqinlarda esa 五福[wǔfú] 寿[shòu]、**福**[fú]、**禄**[lù]、**喜**[xǐ]、财[cái] birliklari orqali ham ifodalanadi. Ushbu tarkiblar 福 [fú]ning shaxsiy baxtdan kengroq bo‘lgan, hayotning turli jabhalarini birlashtiruvchi markaziy tushuncha sifatidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Shunday qilib, xitoy lingvomadaniyatida baxtning konseptual modeli kamida uch darajada ko‘rinadi: individual farovonlik, ijtimoiy-moddiy muvaffaqiyat va ma’naviy-axloqiy osoyishtalik. Bu jihatlar 福 [fú] leksemasining semantik kengligini belgilab, uni an’anaviy qadriyatlar tizimi bilan bog‘laydi.

O‘zbek tilida “baxt” leksemasining semantik xususiyatlari

O‘zbek tilida “baxt” leksemasi ham keng semantik mazmunga ega. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “baxt” kishining o‘z faoliyati natijalaridan va hayotda erishgan yutuqlaridan to‘la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga yetishi hamda orzu-umidlarining amalga oshishi bilan bog‘liq ma’naviy-axloqiy tushuncha sifatida izohlanadi (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006). Mazkur izohda ichki qoniqish va tashqi hayotiy natija o‘zaro bog‘langan. “Baxt”ning saodat, qut, omad, tole va iqbol kabi ma’nolar bilan yaqinligi uning semantik maydonida omad va taqdir komponentlari ham faol ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli o‘zbek tilida baxtni faqat insonning ruhiy holati sifatida talqin qilish yetarli emas. U hayotning muvaffaqiyatli kechishi, kutilgan natijaning qo‘lga kiritilishi va ijobiy taqdir bilan ham bog‘lanadi.

Frazeologik birliklar ushbu konseptning obrazli va madaniy qatlamini yanada yaqqol namoyon etadi. “Baxti kulmoq” iborasi omadning yurishi va baxtga erishishni, “baxti ochilmoq” esa baxtli bo‘lishni, ayrim kontekstlarda turmush qurish va oilali bo‘lishni bildiradi. “Baxtingni bersin” shakli esa tilak xarakteriga ega bo‘lib, ayniqsa yoshlar uchun yaxshi turmush va oilaviy farovonlik istagini ifodalaydi.

“Baxti qora” birikmasida “qora” komponenti salbiy semantik bahoni yuzaga keltirib, baxtsizlik va turmushdan yolchimaslik mazmunini beradi. “Baxt qushi boshiga qo‘nmoq” birligida esa baxt qush obrazi orqali metaforik tarzda ifodalanib, omadning kelishi va ishlarning yurishishi anglashiladi. Mazkur birliklar “baxt” konseptining o‘zbek tilida obraz, taqdir, oila va omad bilan uzviy aloqasini ko‘rsatadi.

Ikki tildagi materialni qiyoslash natijasida “baxt” konseptining umumiy semantik yadrosi va milliy-madaniy periferiyasini ajratish mumkin. Umumiy yadroga farovonlik, omad va tole, mamnunlik va qoniqish, oilaviy baxt, ezgulik va yaxshi tilak komponentlari kiradi. Bu komponentlar insonning ijobiy hayotiy holatga intilishi bilan bog‘liq universal mazmunni aks ettiradi.

Farovonlik komponenti xitoy tilidagi 福 [fú]ning lug‘aviy ma’nolaridan biri sifatida bevosita namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida ham baxtning hayotdan mamnunlik, maqsadga yetish va orzu-umidlarning amalga oshishi bilan bog‘lanishi farovon hayot mazmunini yuzaga chiqaradi. Demak, har ikki tilda baxt shaxsning ijobiy hayotiy holati bilan uzviy aloqadordir.

Omad va tole komponenti ham ikki lingvomadaniyat uchun umumiydir. O‘zbek tilida bu komponent “baxt”ning omad, tole, iqbol kabi yaqin ma’nolari va “baxti kulmoq” singari frazeologizmlar orqali aniq ko‘rinadi. Xitoy tilida esa 福 [fú]ning ijobiy taqdir, farovonlik va yaxshi tilak bilan bog‘liq mazmuni ushbu komponentning mavjudligini ko‘rsatadi.

Oilaviy baxt komponentida ham o‘xshashlik mavjud, biroq uning ifodalanish shakllari farqlanadi. O‘zbek tilida “baxti ochilmoq” va “baxtingni bersin” kabi birliklar baxtni nikoh va oilaviy turmush bilan bevosita bog‘laydi. Xitoy an’anaviy modelida esa baxt ko‘proq oilaviy farovonlikni ham o‘z ichiga oluvchi yaxlit farovonlik tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ezgulik va yaxshi tilak komponenti 福 [fú] leksemasining “marhamat”, “duo”, “yaxshi tilak” mazmunlari bilan, o‘zbek tilida esa “baxtingni bersin” kabi tilak shakllari bilan ifodalanadi. Shunday qilib, ikki tilda baxt tushunchasi faqat mavjud holatni emas, balki duo shaklida ijobiy kelajakni ham anglatadi.

Biroq konseptual markazlashuvda sezilarli farq mavjud. Xitoy tilida 福 [fú] an’anaviy 五福 [wǔfú] modeli orqali tizimlashtiriladi va baxt inson hayotining uzoq umr, boylik, salomatlik, xotirjamlik hamda ma’naviy-axloqiy jihatlarini birlashtiradi. O‘zbek tilida “baxt”ning konseptual mazmuni ko‘proq shaxsiy hayot, oila, nikoh, omad, taqdir va hayotdan qoniqish atrofida frazeologik hamda tilak birliklari orqali ochiladi.

1-jadval. Xitoy va o‘zbek tillarida “baxt” konseptining asosiy komponentlari

Semantik komponent	Xitoy tili: 福 [fú]	O‘zbek tili: “baxt”
Farovonlik	福 [fú] — baxt, farovonlik; 五福 tarkibidagi moddiy va hayotiy farovonlik	Hayotdan mamnunlik, yutuq, maqsadga yetish, orzu-umidlarning amalga oshishi
Omad va tole	Baxt, ijobiy holat, yaxshi tilak mazmunlari	Omad, tole, iqbol; “baxti kulmoq”
Oilaviy baxt	Yaxlit farovonlik modeli tarkibidagi oilaviy osoyishtalik	“Baxti ochilmoq”, “baxtingni bersin” kabi birliklarda yaqqol
Ezgulik va tilak	Duo, marhamat, yaxshi tilak mazmunlari	Tilak va ezgu niyat mazmunidagi frazeologik birliklar
Mamnunlik/qoniqish	Hayotning ijobiy va osoyishta holati bilan bog‘liq	To‘la qoniqish, yashash tarzidan mamnunlik

Jadvaldan ko‘rinadiki, umumiy semantik komponentlar mavjud bo‘lsa-da, ularning lisoniy realizatsiyasi turlicha. Xitoy tilida konseptning tizimlilik darajasi 五福 [wǔfú] modeli orqali kuchliroq ko‘rinadi. O‘zbek tilida esa “baxt”ning ko‘p qirrali mazmuni ko‘proq leksemaning yaqin ma’nolari, frazeologik birliklar va tilak shakllari orqali ochiladi.

“Baxt” konseptini lingvomadaniy nuqtayi nazardan o‘rganishda faqat lug‘aviy ekvivalentlarni qiyoslash bilan cheklanib bo‘lmaydi. Chunki bir xil umumiy tushuncha turli tillarda turli obrazlar va qadriyatlar tizimi orqali konseptuallashtiriladi. Xitoy tilida 福 [fú]ning alohida iyeroglif sifatida madaniy ramziy qiymatga ega bo‘lishi uning oddiy lug‘aviy birlikdan kengroq funksional doiraga ega ekanini ko‘rsatadi. Xitoy an’anaviy tafakkurida 五福 [wǔfú]ning mavjudligi baxtni bir nechta hayotiy qadriyatlarning uyg‘unligi sifatida ko‘rishga imkon beradi. Uzoq umr, boylik, salomatlik, xotirjamlik va ma’naviy-axloqiy fazilatlar birgalikda insonning

to‘laqonli farovonligi modelini hosil qiladi. Shu nuqtayi nazardan 福 [fú] konsepti yaxlitlik va muvozanat semantikasi bilan tavsiflanadi.

O‘zbek lingvomadaniyatida esa “baxt” konsepti insonning shaxsiy hayoti va taqdiri bilan bevosita bog‘langan obrazlar orqali faol namoyon bo‘ladi. “Baxti kulmoq”da omadning inson hayotiga kirib kelishi, “baxti qora”da baxtsizlikning salbiy bahosi, “baxt qushi boshiga qo‘nmoq”da esa baxtning kutilmagan holda kelishi obrazli tarzda ifodalanadi. “Baxtingni bersin” esa konseptning tilak va ijtimoiy-muloqotiy qirrasini ochadi.

Shunday qilib, xitoy va o‘zbek tillarida “baxt” konsepti umumiy insoniy ehtiyoj va qadriyatlarni aks ettiradi, biroq uning markaziy obrazlari va semantik tashkil topishi turlicha. Xitoy modelida yaxlit farovonlik va an’anaviy qadriyatlarning tizimli birligi ustun bo‘lsa, o‘zbek modelida shaxsiy taqdir, oila, omad, hayotiy qoniqish va tilak mazmunlari faolroq namoyon bo‘ladi.

Qiyosiy tahlil natijalari “baxt” konseptini faqat bitta ekvivalent leksema orqali izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Xitoy tilidagi 福 [fú] va o‘zbek tilidagi “baxt” lug‘at darajasida yaqin bo‘lsa-da, ularning konseptual maydoni frazeologik, madaniy va qadriyatga oid birliklar hisobiga kengayadi. Shu sababli tarjima va til o‘qitish jarayonida ushbu birliklarni kontekstdan uzib, faqat “happiness = baxt” tarzida berish ayrim madaniy komponentlarning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Natijalar, shuningdek, ikki tildagi umumiylik va farqlarning qarama-qarshi emas, balki o‘zaro bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Farovonlik, omad, oilaviy hayot va yaxshi tilaklar har ikki lingvomadaniyatda mavjud bo‘lsa-da, ularning qaysi birliklarda markazlashishi va qanday obrazlar orqali ifodalanishi turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Demak, konseptning universal semantik yadrosi va milliy-madaniy periferiyasini alohida ko‘rib chiqish qiyosiy tadqiqot uchun samarali yondashuv hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xitoy va o‘zbek tillaridagi 福 [fú] va “baxt” birliklari semantik jihatdan ko‘p qatlamli super konsept tuzilishga ega. Har ikki lingvomadaniyatda baxt insonning farovonligi, omad, ezgulik, ijobiy hayotiy holat va mamnunligi bilan bog‘lanadi. Shu jihatdan ular umumiy insoniy semantik yadroni tashkil etadi. Xitoy tilida 福 [fú]ning konseptual mazmuni an’anaviy 五福 [wǔfú] modeli orqali tizimli tarzda namoyon bo‘ladi. Uzoq umr, boylik, salomatlik va xotirjamlik, ezgu fazilatlar hamda umrni to‘liq va osoyishta yakunlash kabi tarkiblar baxtni inson hayotining turli sohalarini birlashtiruvchi yaxlit farovonlik modeli sifatida ko‘rsatadi. O‘zbek tilida esa “baxt” konsepti leksemaning semantik maydoni va “baxti kulmoq”, “baxti ochilmoq”, “baxtingni bersin”, “baxti qora”, “baxt qushi boshiga qo‘nmoq” kabi birliklar orqali shaxsiy hayot, oila, omad, taqdir va hayotdan mamnunlik bilan faol bog‘lanadi.

Qiyosiy jihatdan eng muhim umumiy komponentlar farovonlik, omad va tole, mamnunlik va qoniqish, oilaviy baxt, ezgulik va yaxshi tilaklardan iborat. Milliy-madaniy farq esa ushbu komponentlarning konseptual markazlashuvida namoyon bo‘ladi: xitoy tilida baxt ko‘proq yaxlit farovonlik va an’anaviy qadriyatlar tizimi sifatida, o‘zbek tilida esa shaxsiy hayot va ijtimoiy-taqdiriy munosabatlar bilan bog‘liq ko‘p qirrali tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, kelgusida ikki yo‘nalishda izlanish olib borish maqsadga muvofiq: birinchidan, 福 [fú] va “baxt”ning zamonaviy korpuslardagi chastotasi va kontekstual modellarini aniqlash; ikkinchidan, xitoy va o‘zbek respondentlari o‘rtasida empirik so‘rovlar o‘tkazib, an’anaviy hamda zamonaviy baxt modellari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 李立 关于幸福感研究的文献综述 中南民族大学 民族学与社会学学院,武汉-2013.
2. George Lakoff, Mark Johnson. Metaphors We Live By. The University of Chicago Press. 2003. -193 p.
3. N.A. Valiyeva. (2022). Elements of buddhism in phraseological units expressing happiness in chinese. builders of the future, 2(02), 258–263. https://doi.org/10.37547/builders-v2-i2-39
4. Татаркевич В. О счастье и совершенстве человека. М., 1981, с-55.
5. Степанов, Ю. С. Константы: Словарь русской культуры – М. : Академиче-ский проект, 2004. 992с
6. Ошанин И. М. (ред.) Большой китайско-русский словарь.Т. 1-4. М.: Наука, 1983-1984. – С.1062.
7. Словарь по этике: http://moralphilosophy.ru/pg/feliciotologiya.htm
8. http://www.dslib.net/soc-filosofia/socialno-filosofskij-analiz-fenomena-schastja.html

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

O‘ZBEK BADIIY MATNLARIDA FE’L KOMPONENTLI KOLLOKATSIYALARNING MORFOLOGIK PARADIGMASI VA LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Xamdamov Xaydar Azamatovich
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Filologiya kafedrasi dotsenti
v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
hamdamovhaydar@gmail.com
ORCID: 0009-0009-3225-763X
DOI: 10.67620/ajousci.240018

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek badiiy matnlarida fe’l komponentli kollokatsiyalarning morfologik jihatdan turli shakllarda voqelanishi hamda mazkur shakliy tarqoqlikning korpus tahlili va leksikografik tavsifga ta’siri o‘rganilgan. Maqola materiali sakkiz adibga mansub o‘n bir to‘liq nasriy asardan tuzilgan, 610 707 tahliliy so‘z shakini qamrab olgan elektron korpusdan olindi. Apostrof shakllari birxillashtirilib, gap chegaralari ajratilgach, tayanch komponent va fe’l negizining bevosita qo‘shnichiligiga asoslangan o‘n ikki kollokatsion oila tekshirildi. Tekshirilgan oilalarda 1 195 qo‘llanish va 314 yuzaki shakl aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *kollokatsiya, xususiy birikuvchanlik, morfologik paradigma, fe’l komponenti, korpus tahlili, yuzaki shakl, lemma-oila, o‘zbek leksikografiyasi .*

Abstract. *This article examines the occurrence of collocations with verbal components in Uzbek literary texts in morphologically diverse forms and the impact of this formal diversity on corpus analysis and lexicographic description. The material for the article was taken from an electronic corpus consisting of eleven complete prose works by eight authors, encompassing 610,707 analyzed word forms. After unifying apostrophe forms and separating sentence boundaries, twelve collocation families based on the close proximity of the base component and verb stem were analyzed. The families analyzed yielded 1 195 occurrences and 314 superficial forms.*

Key words: *collocation, restricted combinability, morphological paradigm, verbal component, corpus analysis, surface form, lemma family, Uzbek lexicography.*

Аннотация. *В статье исследуется встречаемость коллокаций с глагольными компонентами в узбекских литературных текстах в морфологически различных формах и влияние этого формального разнообразия на корпусный анализ и лексикографическое описание. Материал для статьи был взят из электронного корпуса, состоящего из одиннадцати полных прозаических произведений восьми авторов, охватывающего 610*

707 анализируемых словоформ. После унификации форм апострофа и разделения границ предложений были исследованы двенадцать семейств коллокаций, основанных на непосредственной близости базового компонента и основы глагола. В исследованных семействах было выявлено 1195 случаев употребления и 314 поверхностных форм.

Ключевые слова: *коллокация, лексическая сочетаемость, морфологическая парадигма, глагольный компонент, корпусный анализ, поверхностная форма, лемматизация, узбекская лексикография.*

Kirish. Til birliklari nutqda hech qachon lug‘atdagi bosh shakli bilangina yashamaydi. Ayniqsa, fe’l komponentli birikmalar shaxs, son, zamon, mayl, bo‘lishli-bo‘lishsizlik va uslub talabiga ko‘ra doimiy ravishda tuslanadi. Lug‘atda javob bermoq shaklida qayd etiladigan birlik badiiy matnda javob berdi, javob bermadi, javob berib, javob berar, javob berishga, javob bermasdan kabi ko‘rinishlarda uchraydi. Inson bu shakllarning bir kollokatsion asosga mansubligini oson anglaydi. Kompyuter dasturi esa maxsus qoida yoki morfologik tahlilsiz ularni alohida so‘z juftlari sifatida sanaydi. Natijada bitta lisoniy hodisa korpus ro‘yxatida o‘nlab, ba’zan yuzga yaqin satrga bo‘linib ketadi.

Ma’lumki, kollokatsiya masalasi so‘zning o‘ziga xos leksik qurshovi bilan bog‘liq. J.R.Firs so‘z ma’nosini uning odatiy hamrohlaridan ajratmaslik kerakligini ta’kidlagan [4]. J.Sinkler esa nutq hosil qilishda tayyor va yarim tayyor leksik qoliplarning o‘rni alohida ekanini ko‘rsatib, korpus kuzatuvini kollokatsion tahlilning muhim tayanchiga aylantirdi [5]. I.Melchukning leksik funksiyalar haqidagi qarashlarida ham tayanch birlik bilan kollokatning tanlanishi bir xil erkinlikka ega emasligi asoslanadi [6]. Demak, kollokatsiya ikki so‘zning yonma-yon kelishigina emas, balki til jamoasi tomonidan tanilgan leksik tanlov modelidir.

O‘zbek tilshunosligida mazkur masala birikuvchanlik, distributsiya va valentlik doirasida izchil o‘rganilgan. J.Ibragimov mustaqil leksemaning xususiy birikuvchilarini aniqlashda uning konkret nutqiy sheriklariga e’tibor qaratadi [1;2]. S.Mamaraximov otning chap va o‘ng qurshovini lug‘aviy tavsif bilan bog‘lab, birikuvchanlikni leksemaning semantik imkoniyatini ochuvchi vosita sifatida baholaydi [3]. Bu qarashlar fe’l komponentli kollokatsiyani tahlil etishda ayniqsa muhimdir. Chunki o‘zbek tilida grammatik ma’noning katta qismi fe’l tarkibida ifodalanadi. Shunga ko‘ra, kollokatning yuzaki ko‘rinishi o‘zgaradi, lekin tayanch va kollokat orasidagi leksik aloqa saqlanib qoladi.

Korpus tilshunosligida chastota birlikning qay darajada odatiy ekanini ko‘rsatuvchi zarur dalildir. Biroq yuzaki shakllar alohida sanalganda chastota pasayib ko‘rinadi. Masalan, o‘rnidan turdi va o‘rnidan turib shakllari alohida birlik deb olinsa, ularning umumiy 264 ta qo‘llanishi ikki qatorga ajraladi. Yana kamroq uchragan o‘rnidan turgan, o‘rnidan turmadi, o‘rnidan turgach kabi shakllar ham hisobga qo‘shilmasa, kollokatsion oilaning haqiqiy salmog‘i to‘liq ko‘rinmaydi. Shu ma’noda morfologik normalizatsiya oddiy texnik jarayon emas, balki lisoniy birlikning chegarasini belgilovchi nazariy qarordir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. So‘nggi tadqiqotlarda sintaktik bog‘lanish, grafik modellar va gibrid usullar kollokatsiya nomzodlarini ajratish samaradorligini oshirishi ko‘rsatilmoqda [9,10,11]. P.Henks Ma ma’no bilan grammatik qolipni korpus namunalari asosida birgalikda tekshirish zarurligini ta’kidlaydi [12]. Biroq resurslari cheklangan va morfologiyasi boy tillarda avtomatik lemmatizatorning xatosi ham yangi muammo tug‘dirishi mumkin. Shu sabab dastlab shaffof negiz qoidalari yordamida morfologik oilalarni aniqlash, keyin ularni kontekstda tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Maqolaning maqsadi o‘zbek badiiy matnlarida fe’l komponentli kollokatsiyalarning morfologik tarmoqlanishini empirik jihatdan aniqlash, yuzaki shakl va kollokatsion oila chastotasi o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish hamda natijalarni leksikografik tavsifga tatbiq etishdan iborat. Buning uchun quyidagi savollar qo‘yildi: bir kollokatsion oila nechta yuzaki shaklda voqelanadi, yuqori chastota shakllar oilaning umumiy hajmini qay darajada ifodalaydi, kam chastotali, lekin ko‘p shaklli oilalar qanday baholanishi kerak, lug‘at maqolasida morfologik variantlar qay tarzda umumlashtiriladi?

Tadqiqot korpusi o‘zbek adabiyotining turli davr va uslubini ifodalovchi o‘n bir to‘liq nasriy asardan tuzildi. Korpus tarkibiga Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, Abdulla Qahhorning “Dahshat”, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon”, “O‘tkan kunlar” va “Uloqda”, Abdurauf Fitratning “Hind sayyohining qissasi”, Asqad Muxtorning “Insonga qulluq qiladurmen”, Oybekning “Qutlug‘ qon”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” va “Otamdan qolgan dalalar” asarlari kiritildi. Elektron matnlar Ziyouz kutubxonasidan EPUB shaklida olinib, kitob ichidagi tabiiy tartib saqlangan holda matnga aylantirildi.

Korpus 610 707 tahliliy matn birligi, 479 034 leksik birlik va 70 314 gap segmentidan iborat. Navigatsiya yozuvlari, elektron kutubxona qaydlari, sahifa raqamlari va mustaqil sarlavha satrlari tahlildan chiqarildi. O‘, g‘ harflarida ishlatilgan turli apostrof belgilar yagona shaklga keltirildi. Har bir faylning nazorat yig‘indisi korpus ro‘yxatida saqlandi. Shu tariqa olingan natijani ayni elektron nusxada qayta hisoblash imkoniyati yaratildi.

Tahlil uchun tayanch komponent va fe’l negizi bevosita qo‘shni kelgan o‘n ikki oila tanlandi. Bular javob ber-, quloq sol-, o‘rnidan tur-, majbur bo‘l-, harakat qil-, yordam ber-, ruxsat ber-, va’da ber-, e’tibor ber-, qaror qil-, nazar sol- va ko‘z tashla-. Tanlovning asosiy sharti birikmaning semantik jihatdan tanilishi, fe’l komponentining faol tuslanishi va kamida bir necha matnda kuzatilishidir. Fe’l shakli negizga ko‘ra birlashtirildi, ya’ni ber-, bo‘l-, qil-, sol-, tur- va tashla- bilan boshlanuvchi shakllar tegishli oilaga kiritildi. Bunda faqat bevosita qo‘shnichilik hisobga olindi. Oraga yuklama, ravish yoki boshqa bo‘lak kirgan holatlar mazkur bosqichda sanalmadi. Demak, natijalar oilaning eng kam, tekshirilgan hajmini bildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir oila uchun uch ko‘rsatkich hisoblandi: umumiy qo‘llanish soni, yuzaki shakllar soni va matnlar qamrovi. Shakliy tarmoqlanishni taqqoslash uchun yuzaki shakllar sonining umumiy qo‘llanishga nisbati ham olindi. Bu nisbat leksik xilma-xillikning mutlaq mezoni emas. U faqat bir xil korpus va bir xil ajratish qoidasida qaysi oilaning ko‘proq shaklga bo‘linganini ko‘rsatadi. Har bir shaklning kamida uchta konteksti saqlanib, omonimiya, matn xatosi va erkin birikma ehtimoli qo‘lda tekshirildi.

O‘n ikki kollokatsion oilada jami 1195 qo‘llanish va 314 yuzaki shakl aniqlandi. Umumiy shakl-qo‘llanish nisbati 0,263 bo‘ldi. Bu raqam har to‘rt qo‘llanishga taxminan bitta yuzaki shakl to‘g‘ri kelishini anglatmaydi. Yuqori chastotali ayrim shakllar yuz martadan ortiq takrorlangan, ko‘plab shakllar esa faqat bir marta uchragan. Shuning uchun taqsimot notekis bo‘lib, oilalar orasidagi farq alohida ko‘rib chiqildi.

Kollokatsion oila	**Yuzaki shakl**	**Qo‘llanish**	**Matn qamrovi**	**Shakl/qo‘llanish**
javob ber-	89	413	11	0,216

Kollokatsion oila	**Yuzaki shakl**	**Qo‘llanish**	**Matn qamrovi**	**Shakl/qo‘llanish**
o‘rnidan tur-	24	301	8	0,080
quloq sol-	44	121	10	0,364
majbur bo‘l-	25	115	7	0,217
ko‘z tashla-	7	51	8	0,137
harakat qil-	27	41	9	0,659
yordam ber-	24	36	10	0,667
ruxsat ber-	25	34	8	0,735
e’tibor ber-	19	31	5	0,613
va’da ber-	14	25	8	0,560
qaror qil-	9	14	6	0,643
nazar sol-	7	13	4	0,539

Jadvaldan ko‘rinadiki, chastota bilan morfologik tarmoqlanish bir xil hodisa emas. O‘rnidan tur- oilasi 301 marta qo‘llangan bo‘lsa-da, 24 shakl bilan chegaralangan. Aksincha, ruxsat ber- 34 marta uchrab, 25 shaklda voqelangan. Demak, birinchi oilada ayrim hikoya fe’llari juda faol takrorlangan. Ikkinchi oilada esa buyruq, istak, shart, bo‘lishsizlik va harakat nomi shakllari kengroq tarqalgan.

Javob ber- oilasi korpusdagi eng yirik paradigma bo‘ldi. Uning javob berdi shakli 152, javob bermadi 37, javob berib 17, javob berish 15, javob berar 10 marta uchradi. Qolgan 59 shakl oilaning 182 qo‘llanishini tashkil etdi. Shunday qilib, faqat eng yuqori besh shaklni olish umumiy dalilning 55,9 foizini beradi, 44,1 foizi esa boshqa shakllarda qoladi. Ayniqsa, *javob berishga*, *javob berishni*, *javob beringiz*, *javob bergan*, *javob bermasdan* kabi ko‘rinishlar sintaktik vazifa va nutq uslubining xilma-xilligini ko‘rsatadi.

Quloq sol- oilasida quloq solib 24, quloq soldi 12, quloq solmay 9, quloq sol 9 va quloq soling 7 marta qayd etildi. Bu yerda ravishdosh, o‘tgan zamon, bo‘lishsizlik va buyruq shakllari bir paradigmaning markaziy a’zolari sifatida ko‘rinadi. Quloq sol- o‘nta asarda uchragani uning bir muallif yoki bir syujetga xos tasodifiy birikma emasligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, *quloq solar*, *quloq sola*, *quloq solishg‘a* kabi shakllar tarixiy-uslubiy qatlamni ham aks ettiradi.

O‘rnidan tur- oilasining xususiyati boshqacha. O‘rnidan turdi 151 va o‘rnidan turib 113 marta uchrab, oilaning 87,7 foizini tashkil qildi. Qolgan 22 shaklga jami 37 qo‘llanish to‘g‘ri keldi. Bunday taqsimot badiiy bayonda hikoya harakati asosan o‘tgan zamon va ketma-ket harakatni

bildiruvchi ravishdosh orqali qurilishini ko‘rsatadi. *O‘rnidan turgan, o‘rnidan turmadi, o‘rnidan turgach, o‘rnidan turmoqchi* shakllari grammatik imkoniyatni kengaytiradi, biroq markaziy bayon qolipini o‘zgartirmaydi.

Majbur bo‘l- oilasida majbur bo‘ldi 58 marta, majbur bo‘ldim 11, majbur bo‘lgan 7, majbur bo‘lib va tarixiy yozuvdagi majbur bo‘lg‘an shakllari beshtadan uchradi. Bu birlikda predikativ sifat va yordamchi fe’lning aloqasi shu qadar barqarorki, bo‘l- komponentidagi grammatik o‘zgarish butun konstruktsiyaning modal-majburiy ma’nosini turli shaxs va zamonga moslashtiradi. Lug‘atda faqat *majbur bo‘lmoq*ni keltirish zarur, ammo korpus dalilida uning eng faol predikativ shakllari ham ko‘rsatilishi foydalanuvchi uchun muhimdir.

Kamroq chastotali oilalarda yuzaki tarmoqlanish nisbatan yuqori bo‘ldi. Harakat qil- 41 qo‘llanishda 27, yordam ber- 36 qo‘llanishda 24, ruxsat ber- 34 qo‘llanishda 25 shakl hosil qilgan. *Ruxsat bering, ruxsat berdi, ruxsat bersalar, ruxsat bermaydir, ruxsat berishingizni* kabi shakllar rasmiy va dialogik nutqdagi turli pragmatik vazifalarni ifodalaydi. Yordam ber- oilasining o‘n asarda tarqalishi uning umumtil birligi ekanini ko‘rsatsa, shakllarning ko‘pchiligi bir yoki ikki martadan uchrashi kichik korpusda har bir yuzaki variant uchun alohida chastota chegarasi qo‘yish noto‘g‘ri bo‘lishini anglatadi.

Ko‘z tashla- oilasi alohida e’tiborga loyiq. U yetti shaklda 51 marta qayd etildi, ya’ni ko‘z tashlab 28 va ko‘z tashladi 16 qo‘llanish bilan oilaning 86,3 foizini tashkil qildi. Birikma sakkiz asarda voqelangan. Demak, shakllar sonining kamligi birikmaning zaifligini emas, uning badiiy matnda ikki faol grammatik qolipda me’yorlashganini ko‘rsatadi. Nazar sol- esa atigi 13 marta va to‘rt asarda uchradi. Uning nazar solsak, nazar solmay va nazar soldim shakllari uchtadan qayd etildi. Bu farq ko‘z tashla- bilan nazar sol-ning mutlaq sinonim emasligini, uslub, subyekt va kuzatish davomiyligi bilan farqlanishini ko‘rsatadi.

Natijalarda tarixiy imlo va morfologiya izlari ham ko‘rindi. *Quloq solishg‘a, majbur bo‘lg‘an, yordam bermak, ruxsat bermaydir* kabi shakllar bugungi adabiy me’yordagi variantlardan grafik yoki grammatik jihatdan farq qiladi. Ularni mexanik ravishda zamonaviy shaklga aylantirish matnning davriy xususiyatini yo‘qotishi mumkin. Biroq ularni mutlaqo alohida lemma sifatida qoldirish ham kollokatsion oilani parchalab yuboradi. Shuning uchun korpusda asl shakl saqlanib, tahliliy qatlamda zamonaviy tayanch modelga havola berilishi lozim.

Tahlil va natijalar. Olingan natijalar o‘zbek tilida kollokatsion birlikning morfologik chegarasi so‘z shakli chegarasidan keng ekanini ko‘rsatadi. So‘z shakli konkret gapda yashaydi, kollokatsion model esa shu shakllarning umumiy leksik tanlovini birlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, javob berdi va javob bermasdan grammatik jihatdan boshqa-boshqa vazifani bajaradi, ammo javob leksemasining ber- fe’liga xususiy bog‘lanishi har ikkala shaklda saqlanadi.

Bu holat xususiy birikuvchanlik nazariyasi bilan mos keladi. J.Ibragimov leksemaning nutqiy qurshovini uning lisoniy imkoniyati bilan bog‘laydi [2]. Morfologik shakl o‘zgarishi ana shu imkoniyatni bekor qilmaydi, aksincha, modelning turli sintaktik vaziyatlarda qay darajada faol ekanini ko‘rsatadi. Demak, birikuvchanlik lug‘atida tayanch birlik va kollokat bilan bir qatorda ularning grammatik voqelanish imkoniyatlari ham berilishi kerak.

Natijalar chastota talqiniga ham aniqlik kiritadi. Agar korpus dasturi yuzaki shakllarni alohida sanasa, javob berdi 152 marta uchragan birlik sifatida ko‘rinadi. Lemma-oila darajasida esa javob ber- 413 marta qayd etiladi. Ikki raqamdan biri xato emas. Birinchisi konkret shakl, ikkinchisi lisoniy modelning korpusdagi umumiy voqelanishini bildiradi. Muammo raqamning qaysi birlikka tegishli ekanini ko‘rsatmaslikdan tug‘iladi. Shu sabab ilmiy matnda “chastota” so‘zi yonida “yuzaki shakl chastotasi” yoki “lemma-oila chastotasi” degan aniqlovchi berilishi lozim.

Morfologik birlashtirishning haddan tashqari kengligi ham xavf tug‘diradi. Masalan, harakat qil- oilasidagi ayrim kontekstlarda harakat “urinish”, ayrimlarida jismoniy siljish yoki umumiy faoliyat ma’nosini anglatadi. Barcha shakllarning negizi bir xil bo‘lsa-da, semantik variantlar lug‘atda alohida belgilanishi kerak. Xuddi shuningdek, *ko‘z tashla-* qisqa kuzatish, *nazar sol-* esa diqqat bilan ko‘rish yoki tahliliy murojaat ma’nosida kelishi mumkin. Demak, lemmatizatsiya shakllarni birlashtiradi, lekin ma’no tahlilini almashtirmaydi.

Korpusning badiiy matnlardan tuzilgani natijaga ta’sir etadi. *O‘rnidan turdi, o‘rnidan turib* kabi hikoya qoliplari badiiy voqealar ketma-ketligida juda faol. *Ruxsat bering, e’tibor bermang* kabi birliklar esa dialog va murojaatda ko‘proq uchraydi. Boshqa janr korpusida ularning nisbati o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun lug‘atga kiritiladigan chastota janr belgisi bilan birga talqin qilinishi maqsadga muvofiqdir. S.T.Griesning dispersiya haqidagi kuzatuvlari ham chastotaning matnlararo tarqalishdan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatadi [8;13]. Bizning materialimizda javob ber-ning barcha o‘n bir, yordam ber-ning o‘n, harakat qil-ning to‘qqiz asarda uchrashi ularning umumiyroq qo‘llanishini tasdiqlaydi.

Leksikografik nuqtayi nazardan ikki qavatli tavsif taklif etish mumkin. Birinchi qavatda bosh model beriladi. JAVOB BERMOQ - “savol, murojaat yoki talabga munosabat bildirmoq”, grammatik qolip OT + FE’L, uslubiy xoslanishi- umumtil, matn qamrovi 11/11, oila chastotasi 413. Ikkinchi qavatda faol shakllar va vazifalar ko‘rsatiladi ya’ni javob berdi - hikoya o‘tgan zamoni, javob bermadi - inkor; javob berib - ketma-ket harakat, javob berish - harakat nomi, javob bering - buyruq-murojaat. Bunday model lug‘at hajmini keraksiz ravishda oshirmaydi, chunki barcha 89 shakl sanab chiqilmaydi Paradigmaning faol markazi va hosil bo‘lish qoidasi ko‘rsatiladi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, avtomatik tahlil uchun morfologik oilani tiklash bosqichma-bosqich bajarilishi lozim. Dastlab apostrof va boshqa grafik variantlar birxillashtiriladi. Keyin fe’l negizi va qo‘shimchalar ajratiladi. Uchinchi bosqichda tayanch bilan fe’lning sintaktik aloqasi tekshiriladi. Nihoyat, omonim va semantik jihatdan boshqa holatlar kontekst orqali chiqarib tashlanadi. Statistik natija aynan mana shu lisoniy tekshiruvdan keyingina lug‘aviy dalilga aylanadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot quyidagi xulosalarga olib keldi. O‘n ikki fe’l komponentli kollokatsion oilada 1195 qo‘llanish va 314 yuzaki shakl qayd etildi. Bu holat o‘zbek tilida kollokatsion chastota yuzaki so‘z juftlari bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi. Javob ber- 413 qo‘llanish, 89 shakl va 11 ta asarda ishlatilgani bilan eng faol oila bo‘ldi. O‘rnidan tur- 301 marta uchragan bo‘lsa-da, uning 87,7 foizi *o‘rnidan turdi* va *o‘rnidan turib* shakllariga to‘g‘ri keldi. *Ruxsat ber-*, *yordam ber-*, *harakat qil-* singari pastroq chastotali oilalarda shakl-qo‘llanish nisbati yuqori bo‘ldi. Shu sabab kichik korpusda har bir yuzaki variantga alohida chastota chegarasi qo‘yish ko‘plab haqiqiy kollokatsiyalarni chetda qoldiradi. Agglutinativ morfologiya kollokatsiyaning lisoniy birligini buzmaydi, balki uning nutqdagi grammatik imkoniyatlarini namoyon qiladi. Tahlilda asl yuzaki shakl saqlanishi, lekin u lemma-oila bilan bog‘lanishi kerak. Ikki tilli yoki izohli kollokatsion lug‘at maqolasi bosh model, ma’no, grammatik qolip, faol shakllar, registr, oila chastotasi va matn qamrovini birgalikda berishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibragimov J. O‘zbek tilida so‘zlarning distributiv xususiyatlari. - Toshkent, 1978.

2. Ibragimov J.Y. O‘zbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari va ularning modellari: filol. fan. doktori (DSc) diss. - Qarshi, 2023. - 237 b.
3. Mamaraximov S.M. Otlarning xususiy birikuvchilari va birikuvchanlik lug‘atini tuzishning lingvistik asoslari: filol. fan. bo‘yicha PhD diss. - Navoiy, 2026. - 151 b.
4. Firth J.R. A Synopsis of Linguistic Theory, 1930–1955 // Selected Papers of J.R. Firth, 1952-59 / ed. by F.R. Palmer. - London: Longman, 1968. - P. 168-205.
5. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. - Oxford: Oxford University Press, 1991. - 200 p.
6. Mel’čuk I. Collocations and Lexical Functions // Phraseology: Theory, Analysis, and Applications / ed. by A.P. Cowie. - Oxford: Clarendon Press, 1998. - P. 23-53.
7. Evert S. Corpora and Collocations // Corpus Linguistics: An International Handbook / eds. A. Lüdeling, M. Kytö. - Berlin; New York: De Gruyter Mouton, 2009. - Vol. 2. - P. 1212-1248.
8. Gries S.Th. Dispersions and Adjusted Frequencies in Corpora // International Journal of Corpus Linguistics. - 2008. - Vol. 13, № 4. - P. 403-437. - DOI: 10.1075/ijcl.13.4.02gri.
9. Seretan V. Collocation Extraction Based on Syntactic Parsing: PhD thesis. - Geneva: University of Geneva, 2008. - 265 p.
10. Espinosa Anke L. et al. Multilingual Extraction and Categorization of Lexical Collocations with Graph-aware Transformers // Proceedings of SEM 2022. - Seattle: ACL, 2022. - P. 89-100.
11. Perri D., Fioravanti I., Gervasi O., Spina S. Combining Grammatical and Relational Approaches: A Hybrid Method for the Identification of Candidate Collocations from Corpora // Proceedings of MWE-UD at LREC-COLING 2024. - Torino: ELRA and ICCL, 2024. - P. 138-146.
12. Hanks P., Ma W. Meaning and Grammar in the Light of Corpus Pattern Analysis // International Journal of Lexicography. - 2021. - Vol. 34, № 1. - P. 135-149. - DOI: 10.1093/ijl/ecaa027.
13.Gries S.Th. What Do (Most of) Our Dispersion Measures Measure (Most)? Dispersion? // Journal of Second Language Studies. - 2022. - Vol. 5, № 2. - P. 171-205.
14. Cho‘lpon A. Kecha va kunduz. - Ziyouz elektron kutubxonasi. - URL: https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/171-e-readerlar-uchun-epub-kitoblar?download=8453:abdulhamid-cho-lpon-kecha-va-kunduz-roman.
15. Qahhor A. Dahshat. - Ziyouz elektron kutubxonasi. - URL: https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/171-e-readerlar-uchun-epub-kitoblar?download=8463:abdulla-qahhor-dahshat-hikoyalar.
16. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. - Ziyouz elektron kutubxonasi. - URL: https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/171-e-readerlar-uchun-epub-kitoblar?download=8469:abdulla-qodiriy-mehrobdan-chayon-roman.
17. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. - Ziyouz elektron kutubxonasi. - URL: https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/171-e-readerlar-uchun-epub-kitoblar?download=8471:abdulla-qodiriy-o-tkan-kunlar-roman.
18. Qodiriy A. Uloqda. - Ziyouz elektron kutubxonasi. - URL: https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/171-e-readerlar-uchun-epub-kitoblar?download=8472:abdulla-qodiriy-uloqda-hikoyalar.
19. Fitrat A. Hind sayyohining qissasi. - Ziyouz elektron kutubxonasi. - URL: https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/171-e-readerlar-uchun-epub-kitoblar?download=8490:abdurauf-fitrat-hind-sayyohining-qissasi.

20. Muxtor A. Insonga qulluq qiladurmen. - Ziyouz elektron kutubxonasi. - URL: https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/171-e-readerlar-uchun-epub-kitoblar?download=8630:asqad-muxtor-insonga-qulluq-qiladurmen-hikoyalar.
21. Oybek. Qutlug‘ qon. - Ziyouz elektron kutubxonasi. - URL: https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/171-e-readerlar-uchun-epub-kitoblar?download=8801:oybek-qutlug-qon-roman.
22. Qodirov P. Yulduzli tunlar. - Ziyouz elektron kutubxonasi. - URL: https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/171-e-readerlar-uchun-epub-kitoblar?download=8808:pirimqul-qodirov-yulduzli-tunlar-roman.
23. Murod T. Ot kishnagan oqshom. - Ziyouz elektron kutubxonasi. - URL: https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/171-e-readerlar-uchun-epub-kitoblar?download=8856:tog-ay-murod-ot-kishnagan-oqshom-qissa.
24. Murod T. Otamdan qolgan dalalar. - Ziyouz elektron kutubxonasi. - URL: https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/171-e-readerlar-uchun-epub-kitoblar?download=8858:tog-ay-murod-otamdan-qolgan-dalalar-roman.

“YALDO KECHASI” - TARIXIY ROMANNING YANGI KO‘RINISHI

Xo‘jamurodova Oydin Xo‘jamurod qizi
Osiyo texnologiyalari universiteti Tillar kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Qarshi shahri, O‘zbekiston
e-mail: oydinxojamurodova@gmail.com
DOI: 10.67620/ajousci.240019

Annotatsiya. *Maqolada Xayriddin Sultonning 2025-yilda chop etilgan “Yaldo kechasi” romani zamonaviy o‘zbek nasrida tarixiy roman janrining yangi ko‘rinishini yaratgan asar sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot janr-tipologik va qiyosiy-tipologik tahlil metodlariga, shuningdek janr nazariyasining klassik (jumladan, D. Lukach kontseptsiyasi) va milliy adabiyotshunoslikdagi talqinlariga tayanadi; uchta badiiy-tipologik xususiyatni ajratish mezoni sifatida muallifning o‘z ta'rifi, asar kompozitsiyasi va mavjud tanqidiy-ilmiy sharhlarning qiyosi olingan. Tahlil natijasida asarning uchta o‘ziga xos jihati - adabiy mistifikatsiya orqali yaratilgan “davom romani” modeli, hujjatli va badiiy boshlanishlarning sintezi hamda uch avlod taqdiri orqali ifodalangan milliy xotira kontseptsiyasi - ajratib ko‘rsatiladi. Shuningdek, asar yuzasidan yaqin vaqtda chop etilgan ilmiy maqolalar tahlili asosida romanning zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida qay tarzda o‘rganilayotgani umumlashtiriladi.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy roman, janr nazariyasi, tadqiqot metodologiyasi, adabiy mistifikatsiya, davom romani, hujjatli-badiiy sintez, milliy xotira, uch avlod obrazi, “Yaldo kechasi”, Xayriddin Sulton, “O‘tkan kunlar”.*

Tarixiy roman jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida eng murakkab va serqirra janrlardan biri sanaladi. Vengr olimi Derd Lukachning klassik nazariyasicha, bu janr shaxs taqdirini keng tarixiy-ijtimoiy jarayonlar kontekstida gavdalantiradi va o‘tmish bilan hozirgi zamon o‘rtasida badiiy-falsafiy ko‘prik quradi. O‘zbek adabiyotida bu an'ana Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari bilan boshlanadi; keyingi o‘n yilliklarda yaratilgan tarixiy asarlarning aksariyati mana shu andozaga tayanib kelgan. 2025-yil oxirida chop etilgan Xayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” romani esa mazkur an'anaviy chegaralarni kengaytirib, o‘zbek nasrida ilgari qo‘llanilmagan uslubiy-kompozitsion yechimlarni o‘zida birlashtirgan asar sifatida e'tirof etilmoqda.

Romanning taqdimotida so‘zga chiqqan olimlar - filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov, adabiyotshunos, O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov va boshqalar - asarni zamonaviy o‘zbek adabiyotida “tamomila kashfiyot” va “badiiy jasorat namunasi” deb baholashgan. Bunday yuqori baholarning ilmiy asosini, ya'ni romanning aynan qaysi tipologik-

janriy xususiyatlari uni “yangi ko‘rinish” darajasiga ko‘targanini aniqlash dolzarb ilmiy-nazariy vazifa bo‘lib qolmoqda. So‘nggi oylarda roman yuzasidan bir necha ilmiy maqola chop etildi: ularning ayrimlari tarixiy xotira va milliy tafakkur talqiniga, boshqalari milliy-madaniy qadriyatlar tahliliga, yana biri esa asar tilidagi kirish-kiritma konstruksiyalarning tilshunoslik jihatlariga bag‘ishlangan. Bu holat “Yaldo kechasi”ning nafaqat ommabop, balki ilmiy jihatdan ham dolzarb tadqiqot obyektiga aylanganidan dalolat beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi romanning janr xususiyatlarini nazariy jihatdan tizimlashtirish va uni tarixiy roman janri taraqqiyotidagi yangi bosqich sifatida asoslashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun tadqiqotda uch metod qo‘llanildi. Birinchidan, janr-tipologik tahlil - romanning kompozitsion-syujetik qurilishi (uch avlod tizimi, hujjat va badiiy to‘qima nisbati) klassik tarixiy roman modeli bilan solishtirilib, undagi farqlovchi belgilar ajratildi. Ikkinchidan, qiyosiy-tipologik tahlil - asar Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani hamda jahon adabiyotidagi “davom romani” an'anasi bilan qiyoslanib, o‘xshash va farqli jihatlar aniqlandi. Uchinchidan, matnga tayangan kontseptual-nazariy tahlil - Lukachning klassik nazariyasi va milliy adabiyotshunoslikdagi (T. Boboyev, O. Sharafiddinov, U. Normatov) yondashuvlar asar materialiga tatbiq etildi. Uchta badiiy-tipologik xususiyatni ajratish mezoni sifatida uchta manba guruhi qiyoslandi: muallifning asar janriga oid o‘z ta'rifi va peritekstual materiallari (annotatsiya, taqdimotdagi ma'ruzalar, intervyular), asarning bevosita matni (kompozitsiya, obrazlar tizimi, uslubiy vositalar) hamda so‘nggi oylarda chop etilgan olti ilmiy maqola va ikki ommabop-tanqidiy materialdagi baholar. Tadqiqotning asosiy materiali sifatida bevosita romanning o‘zi va yuqorida sanalgan manba guruhlari olindi; ular bibliografiyada 1-9-raqamlar ostida keltirilgan.

Tarixiy roman janri nazariyasida ikki asosiy talqin mavjud: biri tarixiy faktning badiiy qayta ishlanishini, ikkinchisi shaxs va davr, individual taqdir va ijtimoiy jarayon o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni asosiy mezon deb hisoblaydi. O‘zbek adabiyotshunosligida bu janr T. Boboyev, O. Sharafiddinov, U. Normatov kabi olimlarning tadqiqotlarida asosan Qodiriy ijodi misolida o‘rganilgan: tarixiy roman milliy o‘zlikni anglash, o‘tmishni badiiy tiklash va davr fojialarini his qilish vositasi sifatida talqin etiladi. “Yaldo kechasi” romani mana shu nazariy zaminda, biroq yangi badiiy-uslubiy vositalar bilan boyitilgan holda yuzaga kelgan. Muallifning o‘zi bergan ta'rif - “tarixiy hujjatlar asosidagi badiiy to‘qima” - bu o‘rinda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u an'anaviy “tarixiy roman” atamasidan farqli o‘laroq, asarning ikki tekislikda, hujjatlilik va badiiylik chegarasida, yaratilganini ko‘rsatadi.

Bunday janr yangilanishining tarixiy zaminini tushunish uchun bir jihatni alohida qayd etish kerak: sovet davri o‘zbek adabiyotshunosligida tarixiy roman ko‘pincha mafkuraviy nazorat ostida rivojlangan, tarixiy shaxslar va voqealar talqini davr siyosatiga moslashtirilgan edi. Mustaqillik yillaridan, xususan, jadidchilik mavzusidagi cheklovlar bartaraf etilgach, tarixiy roman yangi manba va uslubiy imkoniyatlar bilan boyidi: arxiv hujjatlariga erkin murojaat qilish, repressiya qurbonlari haqida ochiq yozish, milliy qahramonlar galereyasini kengaytirish imkoniyati paydo bo‘ldi. “Yaldo kechasi” romani aynan shu tarixiy-adabiy sharoit mahsuli bo‘lib, o‘zbek tarixiy romanchiligining uch bosqichli taraqqiyoti - Qodiriy davri, sovet davri va mustaqillik davri - zanjirida navbatdagi sifat sakrashini ifodalaydi.

Roman bir necha o‘zaro bog‘liq badiiy-tipologik xususiyat orqali janr yangilanishini namoyon etadi. Bularning birinchisi va eng o‘ziga xosi - asarning Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani “davomi” sifatida, adabiy mistifikatsiya uslubida yaratilganligidir. Muallif asarni go‘yo Qodiriyning topilgan qo‘lyozmasi, keyinchalik noma'lum bir muhojir tomonidan nashriyotga yetkazilgan hujjat sifatida taqdim etadi. Bu - o‘zbek milliy nasrida ilk bor qo‘llanilgan

usul: uning yordamida yozuvchi klassik asar bilan zamonaviy o‘quvchi o‘rtasida yangi turdagi badiiy-estetik aloqa o‘rnatadi. Jahon adabiyotida klassik asarlarga yozilgan mustaqil “davom”lar ma'lum bo‘lsa-da, o‘zbek nasrida bu usul ilk marta shunday keng ko‘lamli tarixiy-milliy mazmun bilan to‘ldirildi. Adabiy mistifikatsiyaning badiiy vazifasi aniq: u o‘quvchida asarning haqiqiy tarixiy hujjatga asoslangani haqidagi ishonchni kuchaytiradi, shu orqali tarixiy voqealarning badiiy talqini yanada ta'sirchan qabul qilinadi. Bundan tashqari, bu usul muallifga Qodiriy uslubini davom ettirish bilan bir qatorda o‘z davri nuqtai nazaridan yangi g‘oyaviy-badiiy qatlamlar kiritish erkinligini ham beradi.

Ikkinchi xususiyat, romanda hujjatlilik va badiiy to‘qimaning chuqur uyg‘unlashuvi, adabiy mistifikatsiya bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Muallif e'tirof etganidek, asar arxiv va fondlardan topilgan minglab hujjatlar, jadid davri matbuoti (xususan, “Najot” gazetasi) materiallari va tarixiy manbalarni qariyb olti yil davomida o‘rganish natijasida yuzaga kelgan. Nurboy Jabborov ta'kidlaganidek, muallif katta tarixiy mas'uliyatni zimmasiga olib, keng ko‘lamli arxiv materiallariga tayangan holda uch avlod obrazlari orqali xalq va Vatan boshidan kechirgan tarixiy sinovlarni badiiy mantiq asosida gavdalantirgan. Natijada roman o‘quvchini hujjat va badiiy tasavvur chegarasini mustaqil anglashga da'vat etadigan yangi o‘quv tajribasini taklif qiladi. Bu - zamonaviy jahon adabiyotshunosligida “dokumentalistik proza” yoki “faktografik roman” deb yuritiladigan yo‘nalishga yaqin, biroq milliy adabiy mistifikatsiya an'anasi bilan boyitilgan o‘ziga xos sintezdir.

Hujjatlilik va badiiylikning bu sintezi romanning uchinchi xususiyati, uning kompozitsion asosini tashkil etuvchi uch avlod (Otabek avlodi, Yodgorbek va uning zamondoshlari, ulardan keyingi nasl) taqdiri, orqali yanada kengroq badiiy-falsafiy mazmun kasb etadi. Shu yo‘l bilan asar XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 20-30-yillarigacha bo‘lgan davrni, ya'ni chor va sho‘ro mustamlakachiligi, jadidchilik harakati, ocharchilik va qatag‘on fojialarini, yaxlit tarixiy-badiiy manzara sifatida qamrab oladi. Aynan shu avlodlar zanjiri orqali roman “milliy xotira” kontseptsiyasini shakllantiradi: shaxsiy taqdirlar zanjiri millat taqdirining yaxlit obrazini yaratadi. Romanning nomi, “Yaldo kechasi”, ham shu nuqtada ramziy ma'no kasb etadi: yilning eng uzun va qorong‘i tuni metaforasi orqali muallif millat boshidan kechirgan og‘ir davrni ifodalaydi; ammo har qanday tun tongga ulanadi, shuning uchun asar umid va ma'naviy tiklanish g‘oyasini ham o‘zida mujassam etadi. Bunday ramziy-metaforik qurilma tarixiy romanda nafaqat voqealar tizimini, balki falsafiy-kontseptual qatlamni ham yuzaga keltiradi.

Romanda qo‘llanilgan adabiy mistifikatsiya usulini jahon adabiyoti kontekstida ko‘rib chiqish uning yangiligini aniqroq belgilashga yordam beradi. Klassik asarlarga “davom” yoki “qayta yozish” yozish an'anasi jahon adabiyotida yangilik emas: turli milliy adabiyotlarda mashhur asarlarning syujet chizig‘ini davom ettiruvchi yoki qahramonlar taqdirini kengaytiruvchi asarlar ko‘p uchraydi. Biroq bunday asarlarning aksariyatida original muallif uslubini taqlid qilish ko‘proq badiiy o‘yin, uslubiy mashq darajasida qoladi. “Yaldo kechasi”ning farqi shundaki, unda uslubiy taqlid tarixiy-hujjatli asoslash bilan chambarchas bog‘langan: muallif nafaqat Qodiriy tilini, balki uning davriga xos manbashunoslik metodologiyasini ham qo‘llaydi. Boshqacha aytganda, asar shunchaki “Qodiriycha yozish” emas, balki “Qodiriy metodida tarixni tadqiq qilish” vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun romanni faqat “stilizatsiya” yoki “pastish” atamalari bilan izohlash yetarli emas - bu yerda chinakam ijodiy-tadqiqotchilik xarakteriga ega yangi janr shakli haqida gap bormoqda; uni shartli ravishda “hujjatli mistifikatsiya” yoki “tarixiy-arxiv romani” deb atash mumkin.

Bu uch, hamda tipologik qiyos orqali ochilgan to‘rtinchi xususiyatning ilmiy asosliligini so‘nggi paytlarda chop etilgan tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Ularning soni va tez-tez chop etilishi mavzuning tadqiqotchilar orasida qanchalik dolzarblashganini ko‘rsatadi. Xususan, asardagi tarixiy xotira va milliy tafakkur talqiniga bag‘ishlangan tadqiqotda romanning tarixiy-badiiy va estetik jihatlari, inson va jamiyat munosabati masalalari o‘rganilgan; boshqa bir tadqiqotda o‘zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylantirilish usullari xuddi shu asar misolida tahlil qilingan. Yana bir tadqiqotchilar guruhi romandagi folklor unsurlarining badiiy talqinini va milliy-madaniy qadriyatlarning ifodalanish xususiyatlarini o‘rgangan, tilshunoslik yo‘nalishidagi ishda esa asar tili, xususan, kirish va kiritma konstruksiyalarning semantik xususiyatlari, alohida tahlil obyektiga aylangan. Bu tadqiqotlarning barchasi “Yaldo kechasi”ni bir yoqlama emas, balki tarixiy-falsafiy, badiiy-estetik, milliy-madaniy va til-uslubiy jihatlardan o‘rganilishi zarur bo‘lgan murakkab adabiy hodisa sifatida ko‘rsatadi. Mazkur maqolada taklif etilgan janr-tipologik tahlil ham shu keng ko‘lamli ilmiy muhokamaning bir bo‘lagi sifatida qaraladi.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, Xayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” romani o‘zbek tarixiy roman janrini uch yo‘nalishda yangiladi: adabiy mistifikatsiya orqali klassik asarga “davom” yaratish modelini milliy nasrga olib kirdi, hujjatlilik va badiiy to‘qimani yangi darajada sintez qildi, uch avlod taqdiri orqali milliy xotira kontseptsiyasini yaxlit falsafiy-badiiy tizimga aylantirdi. Qo‘llanilgan janr-tipologik va qiyosiy-tipologik tahlil metodlari, shuningdek yuqorida sanalgan mezonlar asosida olib borilgan tekshiruv shuni tasdiqlaydiki, bu uch xususiyat birgalikda romanni an'anaviy tarixiy roman namunalaridan farqlaydi va uni janr taraqqiyotidagi yangi bosqich sifatida baholash uchun yetarli ilmiy asos beradi. Shunga qaramay, roman haqidagi ilmiy-adabiy muhokama hali yakunlangan emas: uning janriy tabiati, Qodiriy an'anasi bilan bog‘liqligi darajasi, hamda jahon dokumentalistik-tarixiy roman tajribasi bilan tipologik qiyosi kelgusi tadqiqotlar uchun keng maydon ochadi. Xususan, romanning boshqa xalqlar adabiyotidagi “klassik asarga yozilgan davom” an'anasi bilan qiyosiy tahlili, shuningdek uning maktab va oliy ta'lim adabiyot dasturlariga kiritilish istiqbollari alohida tadqiqot mavzusi bo‘lishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, “Yaldo kechasi” nafaqat mazmun-mundarija, balki janr-shakl nuqtai nazaridan ham zamonaviy o‘zbek nasrida yangi bosqichni belgilovchi asar sifatida adabiyot tarixiga kiritilishi lozim bo‘lgan hodisadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lukács G. Der historische Roman. – tarixiy roman nazariyasining klassik konsepsiyasi (rus tilidagi nashri: Лукач Д. Исторический роман).
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 560 b.
3. “Yaldo kechasi” romanida tarixiy xotira va milliy tafakkur talqini // Zenodo, 2026. DOI: 10.5281/zenodo.22881899.
4. O‘zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” romani misolida) // Zenodo, 2026. DOI: 10.5281/zenodo.20553341.
5. Xayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” qissasida tarixiy xotira va milliy taqdir talqini // Zenodo, 2026. DOI: 10.5281/zenodo.21012705.
6. “Yaldo kechasi” romanida milliy-madaniy qadriyatlar talqini // Zenodo, 2026. DOI: 10.5281/zenodo.22688284.
7. Kirish va kiritma konstruksiyalarning semantik xususiyatlari (“Yaldo kechasi” asari tahlilida) // Zenodo, 2026. DOI: 10.5281/zenodo.20372625.

8. “Yaldo kechasi” – milliy tarixiy tafakkurni uyg‘otgan badiiy hodisa // Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti sayti, 2026-yil 17-yanvar. URL: https://tsuull.uz/uz/content/yaldo-kechasi-milliy-tarixiy-tafakkurni-uygotgan-badiiy-hodisa
9. “O‘tkan kunlar”ning davomi – yozuvchi Xayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” haqida mulohazalar // Oyina.uz, 2025-yil 22-dekabr. URL: https://oyina.uz/uz/article/4273
10. Sultonov X. Yaldo kechasi. – Toshkent: “Xaybar-25” nashriyoti, 2025.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

ФОРМИРОВАНИЕ КЛЮЧЕВЫХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ

Муллаахунова Нилуфар Мухаматумановна
Доцент кафедры Прикладных иностранных языков Андижанского государственного педагогического института
Доктор философии по педагогическим наукам (PhD)
E-mail: Mullaahunova70@gmail.com
DOI : 10.67620/ajousci.240034

Аннотация. *Современная профессиональная подготовка студентов-филологов требует перехода от получения знаний к формированию способности применять их для решения профессиональных задач. Профессиональная компетентность рассматривается как интегративное образование, включающее предметно-профессиональный, проектировочный, коммуникативный, технологический и рефлексивно-оценочный компоненты. Обоснованы содержание компонентов, критерии их проявления и механизм формирования на основе профессионально ориентированной деятельности студентов. Особое внимание уделяется последовательности действий: анализу профессиональной ситуации, принятию решения, практическому действию, оценке результата и рефлексивной коррекции. Предложенная модель может использоваться при проектировании содержания профессионально ориентированных дисциплин, учебных заданий, кейсов, проектов и диагностических материалов.*

Ключевые слова: *компетентность, компетенции, студенты-филологи, филологическое образование, предметно-профессиональная компетенция, проектировочная компетенция, коммуникативная компетенция, технологическая компетенция, рефлексивно-оценочная компетенция.*

Abstract. *Modern professional training of philology students requires a shift from knowledge acquisition to developing the ability to apply knowledge to solve professional tasks. Professional competence is viewed as an integrative construct comprising subject-specific professional, design, communicative, technological, and reflective-evaluative components. The content of these components, the criteria for their manifestation, and the mechanism of their development through students' professionally oriented activities are substantiated. Particular attention is given to the sequence of actions: analyzing a professional situation, making a decision, taking practical action, evaluating the result, and carrying out reflective correction. The proposed model can be used to design the content of professionally oriented courses, learning tasks, cases, projects, and diagnostic materials.*

Keywords: *competence, competencies, philology students, philological education, subject-specific professional competence, design competence, communicative competence, technological competence, reflective and evaluative competence.*

Введение. Современная трансформация высшего образования обусловливает изменение требований к результатам профессиональной подготовки специалистов. В условиях расширения цифровой образовательной среды, усложнения профессиональных коммуникаций и повышения требований к самостоятельности специалиста недостаточно обеспечить студенту усвоение определённого объёма теоретических знаний. Значимым результатом высшего образования становится способность выпускника использовать знания в профессиональной деятельности, анализировать проблемные ситуации, выбирать адекватные способы решения профессиональных задач, взаимодействовать с другими участниками деятельности и оценивать полученные результаты.

Актуальность исследования обусловлена усложнением профессиональной деятельности филолога, которая требует интеграции различных видов знаний и умений в зависимости от конкретной профессиональной ситуации.

Современные исследования уделяют значительное внимание профессиональной компетентности студентов филологических направлений, однако отдельные её компоненты нередко рассматриваются изолированно. Это создаёт противоречие между интегративным характером профессиональной деятельности филолога и фрагментарностью формирования отдельных профессиональных умений в процессе вузовской подготовки. В связи с этим возникает необходимость определить систему профессиональных компетенций, отражающую целостную логику профессиональной деятельности студента-филолога. В настоящем исследовании профессиональная компетентность рассматривается как интегративное образование, включающее пять взаимосвязанных компонентов: предметно-профессиональный, проектировочный, коммуникативный, технологический и рефлексивно-оценочный. Их единство проявляется в процессе решения профессиональной задачи: от анализа ситуации и выбора способа действия до его реализации, оценки результата и последующей коррекции.

Цель исследования – теоретически обосновать систему ключевых профессиональных компетенций студентов-филологов и определить педагогические условия и деятельностный механизм их формирования в процессе профессиональной подготовки.

Для достижения поставленной цели решаются следующие задачи:

- уточнить содержание понятий «компетенция» и «профессиональная компетентность» применительно к подготовке студентов-филологов;
- определить специфику профессиональной деятельности, обусловливающую структуру профессиональных компетенций будущего филолога;
- обосновать состав и содержание ключевых профессиональных компетенций;
- определить критерии и показатели их сформированности;
- выявить педагогические условия и деятельностный механизм формирования данных компетенций.

Практическая значимость заключается в возможности использования разработанной системы при проектировании содержания профессионально ориентированных дисциплин, создании учебных заданий и кейсов, организации проектной

деятельности студентов, а также разработке диагностических материалов для оценки уровня сформированности профессиональных компетенций.

Обзор литературы и теоретические основы исследования. Проблема формирования профессиональных компетенций студентов-филологов рассматривается в современной научной литературе в контексте компетентностного подхода, ориентированного не только на усвоение знаний, но и на их применение в профессиональной деятельности. Теоретическую основу составляют исследования Н. С. Сахаровой, И. А. Зимней и Э. Ф. Зеера, раскрывающие содержание понятий «компетенция» и «компетентность», их личностно-деятельностный характер и связь с профессиональной подготовкой специалиста. Профессиональная компетентность при этом понимается как интегративное образование, формирующееся в деятельности и обеспечивающее готовность к решению профессиональных задач.

Специфика профессиональной компетентности филолога представлена в работах О. С. Елшиной, Н. А. Дельвиг и А. Е. Лурис, Е. А. Лагай и Г. У. Мирзахаловой. Исследования подчёркивают значение работы с языком и текстом, аналитической и интерпретационной деятельности, профессионального общения и применения знаний в различных ситуациях. Е. А. Лагай связывает формирование профессиональной и коммуникативной компетентности с использованием профессионально ориентированных, творческих и коммуникативно-ситуативных заданий. Г. У. Мирзахалова рассматривает профессиональную компетентность филолога как многокомпонентное образование и подчёркивает взаимосвязь её основных составляющих.

Отдельные механизмы профессионального становления раскрываются в исследованиях Н. А. Бредневой, К. Б. Усмановой, А. А. Таджибаевой и О. В. Пахомовой. Н. А. Бреднева связывает проектную компетентность с планированием, прогнозированием, последовательностью действий и оценкой результата. К. Б. Усманова рассматривает рефлексивную компетентность через самооценку, анализ результатов деятельности и её последующую коррекцию. А. А. Таджибаева акцентирует интеграцию предметного, педагогического и технологического знания посредством рефлексивных технологий и модели TPACK. О. В. Пахомова подчёркивает системный характер профессиональной компетентности и значение педагогических условий её последовательного формирования.

Проведенный анализ исследований показывает, что научная литература содержит значительный материал по отдельным видам профессиональных компетенций студентов-филологов, однако их взаимодействие как единой динамической системы представлено недостаточно. Это обусловливает необходимость разработки интегрированной модели профессиональной компетентности, отражающей целостную логику профессиональной деятельности и взаимосвязь предметно-профессионального, проектировочного, коммуникативного, технологического и рефлексивно-оценочного компонентов.

2. Методология и модель исследования. Методологическую основу исследования составляет совокупность взаимодополняющих подходов, позволяющих рассматривать профессиональную компетентность студента-филолога как целостное и динамическое образование, формирующееся в процессе профессионально ориентированной деятельности. Ведущим является компетентностный подход, в рамках которого результат профессиональной подготовки определяется не только объёмом усвоенных знаний и сформированных умений, но и способностью обучающегося применять их для решения профессиональных задач. Такой подход предполагает переход от накопительной модели

подготовки к формированию способности действовать, принимать решения и нести ответственность за результат деятельности [2].

Существенное значение имеет **системный подход**, позволяющий рассматривать профессиональную компетентность не как совокупность механически объединённых характеристик, а как систему взаимосвязанных компонентов. Системность проявляется в единстве содержания, функций и связей между отдельными компетенциями, а также в их обусловленности целями и характером профессиональной деятельности. Интегративное и системное понимание профессиональной компетентности представлено в исследованиях, посвящённых профессиональной подготовке будущих учителей и студентов филологических направлений [6].

Вторым важным основанием выступает **деятельностный подход**, согласно которому профессиональные компетенции формируются и проявляются прежде всего в процессе выполнения действий, направленных на решение профессионально значимых задач. В данном контексте знания рассматриваются как ресурс профессионального действия, а умения – как способы его реализации. Практическая направленность и необходимость приобретения собственного профессионального опыта подчёркиваются в исследованиях профессиональной компетентности будущих педагогов. Аналогичная ориентация на выполнение профессиональных, творческих и коммуникативно-ситуативных заданий прослеживается в исследованиях формирования профессионально-коммуникативной компетентности филологов [4].

Рефлексивно-деятельностный подход позволяет дополнить деятельностную основу механизмом осмысления и коррекции профессионального действия. Рефлексия рассматривается как необходимый компонент профессионального становления, обеспечивающий анализ результата, самооценку, корректировку целей и способов деятельности. Для профессиональной подготовки студентов-филологов особую значимость приобретает положение о рефлексии как механизме интеграции предметного, педагогического и технологического знания в целостное профессиональное действие [7].

Наконец, учитывается **практико-ориентированный принцип профессиональной подготовки**, предполагающий моделирование таких образовательных ситуаций, в которых студент должен не воспроизвести усвоенный материал, а использовать различные ресурсы для решения конкретной профессиональной задачи. Проектная деятельность, профессионально ориентированные задания, ситуационные задачи и последующая оценка результата создают условия для перехода от отдельных учебных действий к целостной профессиональной деятельности [1].

Логика исследования определяется переходом от теоретического осмысления профессиональной компетентности к построению её структурной модели и определению механизма формирования. Исходным положением является понимание профессиональной деятельности филолога как интегративной системы, требующей одновременной актуализации предметных, проектировочных, коммуникативных, технологических и рефлексивно-оценочных ресурсов.

В соответствии с теоретико-аналитическим и моделирующим характером исследования использовался комплекс взаимосвязанных методов.

Систематизация и классификация применялись для группировки выявленных профессиональных характеристик и определения их места в предлагаемой структуре. Данный метод позволил объединить разрозненные характеристики в пять функционально

взаимосвязанных компонентов, отражающих основные стороны профессионального действия студента-филолога.

Моделирование использовалось для построения целостной модели профессиональной компетентности и установления функциональных связей между её компонентами. При разработке модели учитывались представления о системности профессиональной компетентности, интеграции различных видов знания и связи проектирования, действия, оценки и коррекции в профессиональной деятельности.

Анализ и обобщение педагогического опыта, представленного в научных исследованиях, позволили определить потенциальные педагогические условия формирования компетенций: профессиональную направленность содержания, практико-ориентированную деятельность, проектные и ситуационные задания, использование образовательных технологий, рефлексивное сопровождение и систематическую оценку результатов.

Следовательно, применённые методы обеспечили последовательное решение исследовательской задачи: от анализа теоретических оснований и существующих научных подходов – к разработке собственной системы ключевых профессиональных компетенций и модели их формирования.

Критерии и показатели сформированности профессиональных компетенций. Для определения сформированности профессиональных компетенций целесообразно использовать систему критериев и показателей, отражающую не только наличие соответствующих знаний и умений, но и способность студента применять их в профессионально ориентированной деятельности. Такой подход соответствует современной трактовке компетентности как способности действовать на основе интеграции знаний, способов деятельности, личностных ресурсов и опыта, а также исследованиям, в которых для диагностики компетенций используются уровни, показатели и анализ результатов деятельности [10].

В качестве основного предлагается выделить **четыре взаимосвязанных критерия**: мотивационно-ценностный, когнитивно-деятельностный, операционально-практический и рефлексивно-оценочный.

Мотивационно-ценностный критерий характеризует осознание студентом профессиональной значимости выполняемой деятельности, устойчивость профессиональной мотивации и готовность самостоятельно решать профессиональные задачи. Его показателями выступают интерес к профессиональной деятельности, понимание её целей и требований, готовность к профессиональному саморазвитию и ответственное отношение к результату.

Когнитивно-деятельностный критерий отражает наличие и функциональное использование профессиональных знаний. Показателями являются понимание предметного содержания, способность устанавливать связи между различными областями филологического знания, анализировать профессиональную ситуацию и выбирать знания, необходимые для решения конкретной задачи. Такой принцип согласуется с представлением о филологической компетенции как способности использовать языковые и литературоведческие знания в аналитической и практической деятельности.

Операционально-практический критерий характеризует способность переводить знания и замысел в конкретные профессиональные действия. Показателями выступают умение проектировать деятельность, выбирать соответствующие способы и технологии

решения задачи, осуществлять профессиональную коммуникацию, создавать профессиональный продукт и адаптировать способы действия к изменяющимся условиям. Связь проектирования с планированием, последовательностью действий и созданием конкретного результата подчёркивается в исследовании проектной компетентности.

According to the teachers, lexical-grammatical interference may slow the development of communicative skills because learners transfer familiar patterns from their native language when constructing Chinese utterances. The problem is particularly evident when students translate directly from their first language, select words without considering their grammatical function, or reproduce sentence patterns that are not natural in Chinese.

Classroom observations revealed differences among the institutions. Role plays, situational modelling, and group projects are actively used in the academic lyceum. At Specialized School No. 59, traditional methods are supplemented by audio and video materials, online platforms, and educational game applications. At Specialized School No. 18, traditional methods predominate, while differences in students’ proficiency levels and insufficient technical equipment limit the use of interactive tools.

The situation at Specialized School No. 18 illustrates the influence of contextual constraints on methodology. Teachers primarily relied on vocabulary explanation, memorization of texts and dialogues, and listening activities. Different levels of learner proficiency within the same class required the division of groups, complicating the organization of instruction. Limited technical equipment also reduced opportunities to use video and other digital resources.

At Specialized School No. 59, teachers combined traditional work with short audio and video materials. Learners were asked to discuss what they had watched or heard or to produce written summaries. Online platforms and game-based applications such as Quiz and HelloChinese were also used to reinforce new material. Interactive boards facilitated the integration of visual, audio, and video resources into lessons.

The academic lyceum provides an example of a relatively intensive communicative environment. In the observed lessons, vocabulary and previously learned material were combined with role plays and simulated communicative situations. Second-year students also completed group projects on different topics. These tasks integrated speaking and listening, encouraged cooperation, and required learners to use Chinese while searching for and presenting information.

The classroom observations revealed institution-specific differences in the organization of Chinese language instruction. To provide a clearer comparison of the teaching practices, communicative activities, digital resources, group organization, and major instructional constraints identified across the three educational settings, the principal findings are summarized in Table 1.

Table 1.

Teaching Conditions for the Development of Foreign-Language Speech Competence in Chinese across the Examined Educational Institutions

Indicator	Specialized School No. 59	Specialized School No. 18	Academic Lyceum
Dominant instructional approach	Combination of traditional and interactive methods	Predominantly traditional methods	Combination of systematic language instruction and communicative methods
Communicative activities	Discussions based on audio and video materials	Limited communicative activities	Role plays, simulated communicative situations, and group projects
Digital resources	Audio and video materials, online platforms, game-based applications, interactive boards	Limited use due to insufficient technical equipment	Audio and video materials integrated into classroom instruction
Group organization	Approximately 10–20 learners; differentiation by proficiency level when possible	Approximately 10–20 learners; differences in proficiency create organizational difficulties	Usually no more than 15–16 learners
Main instructional difficulties	Need to integrate linguistic practice with communicative activities	Mixed proficiency levels and limited technical resources	Need to maintain a balance between systematic linguistic training and communicative practice
Focus of speech practice	Listening, discussion, and written summaries based on multimedia input	Vocabulary, memorization of texts and dialogues, and listening	Speaking, listening, role play, project work, and presentation activities
Overall classroom environment	Mixed traditional and technology-supported environment	More traditional and resource-constrained environment	Relatively intensive communicative environment

As shown in Table 1, the three educational settings differ not only in the instructional methods employed but also in the conditions supporting communicative practice. The academic lyceum demonstrates a relatively intensive communicative environment, whereas Specialized School No. 59 combines traditional instruction with a wider range of digital and multimedia resources. In Specialized School No. 18, the implementation of interactive approaches is more constrained by differences in learners’ proficiency levels and limited technical resources. These findings suggest that the development of foreign-language speech competence is influenced by both methodological choices and institutional conditions.

The findings indicate the need to combine systematic lexical and grammatical training with communicative practice. Particular importance should be given to contrastive, contextual, transformational, and translation exercises, supplemented by role plays and the modelling of communicative situations.

Taken together, these observations suggest that the effectiveness of communicative teaching depends on a combination of methodological and organizational factors. A communicative task is more productive when learners have sufficient lexical and grammatical resources, when the task corresponds to their proficiency level, and when group organization allows each learner sufficient speaking time. Therefore, the development of speech competence should be viewed as a cumulative process rather than as the result of a single teaching technique.

Conclusion

The study shows that Chinese language education in the examined educational institutions of the Republic of Uzbekistan has a teaching and learning base oriented toward the development of the main language skills. At the same time, the actual implementation of the communicative approach depends on the conditions of the particular institution, students’ proficiency levels, and the technical resources available.

The key challenges are lexical-grammatical and phonetic interference, differences in students’ language proficiency levels, and limited access to modern digital resources in some schools. Accordingly, a promising direction is the integration of traditional language training with communicative, interactive, and digital technologies.

For the educational settings examined in this study, a balanced model is particularly relevant: systematic work on the linguistic system should provide the foundation, while communicative and project-based tasks should provide opportunities for active language use. Differentiation according to proficiency level can further support this model, especially in classes where learners begin with substantially different levels of Chinese.

REFERENCES

1. Cai, Q. Y. (2018). Chinese as a second and foreign language education: Pedagogy and psychology. Palgrave Macmillan. https://doi.org/10.1007/978-981-10-7443-1
2. Chai, X., & Bao, J. (2023). Linguistic distances between native languages and Chinese influence acquisition of Chinese character, vocabulary, and grammar. Frontiers in Psychology, 13, Article 1083574. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2022.1083574
3. Council of Europe. (2020). Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment—Companion volume. Council of Europe Publishing.
4. Jiang, L., Wang, F., Wang, F., & Liu, L. (2014). HSK standard course 1. Beijing Language and Culture University Press.
5. Kecskes, I., & Zhao, Y. (Eds.). (2026). Chinese as a second language: Theory and practice. Cambridge University Press.
6. Nazarova, S., & Chi, D. (2025). Xitoy tilini ikkinchi xorijiy til sifatida O‘zbekiston umumta’lim maktablariga joriy etish: O‘quv dasturlari va amaliyot [Implementation of Chinese as a second foreign language in secondary schools of Uzbekistan: Curricula and practice]. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 5(26), 112–118. https://cyberleninka.ru/article/n/xitoy-tilini-ikkinchi-xorijiy-til-sifatida-o-zbekiston-umumta-lim-maktablariga-joriy-etish-o-quv-dasturlari-va-amaliyot
7. Sun, P. P. (2020). Chinese as a second language multilinguals’ speech competence and speech performance: Cognitive, affective, and sociocultural perspectives. Springer. https://doi.org/10.1007/978-981-15-6941-8

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

TIBBIY KIMYONI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI

Kodirov Raxmatillo Shakirovich
ORCID: 0000-0001-9325-3004
(https://orcid.org/0000-0001-9325-3004)
e-mail: ramatilloqodirov71@gmail.com
Qo'qon universiteti Andijon filiali
Umumiy va biologik kimyo kafedrasi katta o'qituvchisi
DOI: 10.67620/ajousci.240023

Annotatsiya. *Maqolada bo'lajak shifokorlarga Tibbiy kimyo fanini o'qitishda integrativ yondashuv va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirishga asoslangan metodika nazariy jihatdan asoslangan. Tibbiy kimyo mavzularini fundamental (fiziologiya, biokimyo) va klinik fanlar bilan mazmunan bog'lash, o'quv jarayonini klinik vaziyatdan boshlash va virtual laboratoriya, simulyatsiya, molekulyar vizualizatsiya hamda LMS vositalaridan maqsadli foydalanish taklif etiladi. Metodika to'rt tarkibiy qismdan (maqsad-motivatsion, mazmuniy, texnologik, nazorat-baholash) va to'rt bosqichli dars siklidan iborat model sifatida ishlab chiqilgan. Maqolada mazmuniy integratsiya jadvali va baholash mezonlari keltirilgan; metodikaning samaradorligini pedagogik tajriba-sinovda tekshirish tartibi belgilangan.*

Kalit so'zlar: *Tibbiy kimyo, integrativ yondashuv, raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriya, tibbiy ta'lim, metodika, klinik keys.*

Abstract. *The article provides a theoretical rationale for a methodology based on integrating an interdisciplinary approach and digital technologies in teaching Medical Chemistry to future doctors. It proposes connecting Medical Chemistry topics in content with fundamental (physiology, biochemistry) and clinical disciplines, initiating the learning process with clinical scenarios, and purposefully utilizing virtual laboratories, simulations, molecular visualization, and LMS tools. The methodology is developed as a model comprising four structural components (target-motivational, content, technological, and control-evaluation) and a four-stage lesson cycle. The article presents a content integration table and evaluation criteria; the procedure for verifying the effectiveness of the methodology in a pedagogical experiment is specified.*

Keywords: *Medical chemistry, integrative approach, digital technologies, virtual laboratory, medical education, methodology, clinical case.*

KIRISH

Zamonaviy tibbiy ta’limning asosiy vazifalaridan biri talabalarga nafaqat alohida fanlar bo‘yicha bilim berish, balki ularni klinik fikrlashga tayyorlashdir. Tibbiy kimyo bu zanjirda boshlang‘ich bo‘g‘in hisoblanadi: eritmalar, kislota-asos muvozanati, osmotik bosim, kimyoviy kinetika, oksidlanish-qaytarilish jarayonlari va kompleks birikmalar haqidagi tushunchalar keyinchalik fiziologiya, biokimyo, farmakologiya va toksikologiyada qo‘llaniladi. Shunga qaramay, amaliyotda birinchi kurs talabalari ko‘pincha kimyoni shifokorlik kasbidan uzoq, alohida va «ortiqcha» fan sifatida qabul qiladi. Natijada o‘zlashtirilgan bilimlar yuqori kurslarda yetarli darajada faollashmaydi.

Bu muammoning bir necha sababi mavjud. Birinchidan, an’anaviy o‘qitishda mavzular fan mantig‘i bo‘yicha ketma-ket beriladi, klinik kontekst esa keyingi kurslarga qoldiriladi. Ikkinchidan, laboratoriya mashg‘ulotlari vaqt, reaktiv va jihozlar bilan cheklangan, ayrim jarayonlarni (masalan, molekulyar o‘zgarishlar yoki dorining organizmdagi kinetikasi) bevosita ko‘rsatish imkoni yo‘q. Uchinchidan, raqamli vositalardan foydalanish ko‘p hollarda mavjud darsni «bezash» darajasida qoladi va aniq o‘quv natijalari bilan bog‘lanmaydi.

Ta’lim sohasini raqamlashtirish respublikamizda davlat siyosati darajasida belgilangan bo‘lib, «O‘zbekiston–2030» strategiyasi ham ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni nazarda tutadi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2023). Xalqaro tajribada integrativ o‘quv dasturlari (Harden, 2000), texnologik-pedagogik-predmet bilimlari uyg‘unligi (TPACK; Koehler & Mishra, 2009), multimedia orqali o‘rganish tamoyillari (Mayer, 2009) va tibbiy ta’limda simulyatsiya texnologiyalarining samarasi (Cook va boshq., 2011) bo‘yicha keng tadqiqotlar to‘plangan. Biroq ushbu yondashuvlarni Tibbiy kimyo fanining o‘ziga xos mazmuniga moslashtirgan yaxlit metodika hali yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning maqsadi — bo‘lajak shifokorlarga Tibbiy kimyoni integrativ yondashuv asosida raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish metodikasining nazariy modelini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari: (1) integrativ yondashuv va raqamli ta’limning nazariy asoslarini aniqlash; (2) Tibbiy kimyo mavzularining fundamental va klinik fanlar bilan integratsiya nuqtalarini belgilash; (3) metodikaning tarkibiy qismlari va dars siklini asoslash; (4) o‘quv natijalarini baholash mezonlari va tajriba-sinov tartibini belgilash.

NAZARIY ASOS VA USULLAR

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: ilmiy-pedagogik va tibbiy ta’lim adabiyotlarini tahlil qilish va umumlashtirish; Tibbiy kimyo o‘quv dasturi mazmunini fanlararo aloqalar nuqtai nazaridan tahlil qilish; tizimli-struktur modellashtirish; pedagogik loyihalash.

Metodikaning nazariy poydevori quyidagi konsepsiyalarga tayanadi.

Integratsiya narvonlari. R. Harden tibbiy o‘quv dasturlarida integratsiyaning bir necha darajasini (fanlarning ajralib turishidan to fanlararo yaxlitlikkacha) ajratgan (Harden, 2000). Bu g‘oya Tibbiy kimyoni mustaqil fan sifatida saqlagan holda, uni boshqa fanlar bilan muvofiqlashtirish va klinik masalalar atrofida birlashtirish imkonini beradi.

TPACK modeli. Kohler va Mishra (2009) fikricha, samarali raqamli o‘qitish uchun o‘qituvchi predmet, pedagogika va texnologiya bilimlarining kesishmasini egallashi kerak. Shu sababli raqamli vosita tanlash texnologiyaning o‘zidan emas, o‘quv maqsadidan kelib chiqadi.

Multimedia va kognitiv yuklama nazariyalari. Mayer tamoyillari ko‘rgazmali materialni ortiqcha elementlarsiz, so‘z va tasvirni uyg‘unlashtirib berishni tavsiya qiladi (Mayer,

2009); Sweller nazariyasi esa murakkab mavzularda talabaning ishchi xotirasi yuklamasini nazorat qilish zarurligini ko‘rsatadi (Sweller, 1988).

Tajribaviy va ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvlar. Kolb sikli (aniq tajriba — mulohaza — mavhum tushuncha — faol tajriba; Kolb, 1984) hamda Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi g‘oyasi (Vygotsky, 1978) dars bosqichlarini loyihalashda asos qilib olindi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida metodikaning quyidagi nazariy modeli ishlab chiqildi.

1. Mazmuniy integratsiya xaritasi

Tibbiy kimyo mavzularini keyingi fanlar va klinik vaziyatlar bilan bog‘lash hamda har bir mavzuga mos raqamli vositani tanlash 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval. Tibbiy kimyo mavzularining integrativ-raqamli xaritasi

Tibbiy kimyo mavzusi	Bog‘lanadigan fanlar	Klinik kontekst	Raqamli vosita (misol)
Kislota-asos muvozanati, buferlar	Fiziologiya, patologik fiziologiya	Metabolik atsidoz va alkaloz; qon pH ning me’yoriy diapazoni (7,35–7,45)	Virtual titrlash va pH simulyatsiyasi (masalan, PhET)
Eritmalar, osmotik bosim	Fiziologiya, farmakologiya	Infuzion eritmalar; izotonik eritma (0,9 % NaCl)	Eritrositning gipo-, izo- va gipertonik muhitdagi holati simulyatsiyasi
Kimyoviy kinetika	Farmakologiya	Dorining yarim chiqarilish davri, dozalash oraliqlari	Interaktiv grafiklar (masalan, GeoGebra), LMS test-topshiriqlari
Termodinamika va bioenergetika	Biokimyo	ATF gidrolizi, metabolik jarayonlar energetikasi	Animatsiya va interaktiv H5P materiallar
Oksidlanish-qaytarilish jarayonlari	Toksikologiya, biokimyo	Erkin radikallar, antioksidantlar	Molekulyar vizualizatsiya, video-keys
Kompleks birikmalar	Toksikologiya	Og‘ir metallar bilan zaharlanishda xelatlovchi terapiya	3D molekulyar modellashtirish (masalan, Avogadro, ChemSketch)
Organik birikmalar va funksional guruhlar	Farmakologiya	Dori moddasi tuzilishi va ta’siri o‘rtasidagi bog‘liqlik	Kimyoviy tuzilma muharrirlari, 3D modellar
Kolloidlar va adsorbsiya	Klinik toksikologiya	Enterosorbentlar bilan detoksikatsiya	Video-keys, interaktiv taqdimotlar

2. Metodikaning tarkibiy qismlari

Model to‘rt o‘zaro bog‘liq qismdan iborat:

1. **Maqsad-motivatsion qism.** Fanning kasbiy ahamiyatini ochib berish; har bir mavzu uchun kutilayotgan o‘quv natijalarini (bilim, ko‘nikma, kasbiy fikrlash) oldindan belgilash.

2. **Mazmuniy qism.** 1-jadvaldagi integratsiya xaritasi asosida mavzularni klinik vaziyatlar atrofida guruhlash; fanlararo topshiriqlar bankini shakllantirish.

3. **Texnologik qism.** Virtual laboratoriya va simulyatsiyalar, molekulyar vizualizatsiya, LMS (masalan, Moodle) va interaktiv test vositalaridan o‘quv maqsadiga mos holda foydalanish; real laboratoriya mashg‘ulotlarini virtual mashg‘ulotlar bilan almashtirmay, ularni to‘ldirish.

4. **Nazorat-baholash qismi.** Shakllantiruvchi (joriy) va yakuniy baholashni uyg‘unlashtirish; baholashda nafaqat nazariy bilim, balki bilimni klinik vaziyatda qo‘llash qobiliyatini ham hisobga olish.

3. To‘rt bosqichli dars sikli

Kolb sikli va klinik keys yondashuviga tayanib, har bir mavzu bo‘yicha o‘quv sikli quyidagicha tashkil etiladi:

- **1-bosqich. Klinik vaziyat (motivatsiya).** Mavzu qisqa klinik keys bilan boshlanadi (masalan, qon pH ning o‘zgarishi bilan bog‘liq holat). Talabalar muammoni aniqlaydi va nimani bilishlari kerakligini belgilaydi.
- **2-bosqich. Virtual tajriba va vizualizatsiya.** Talabalar simulyatsiya yoki molekulyar model yordamida jarayonni kuzatadi, parametrlarni o‘zgartirib, natijani taxmin qiladi va tekshiradi.
- **3-bosqich. Tahlil va tushunchalashtirish.** Kuzatilgan hodisa kimyoviy qonuniyatlar (masalan, bufer tenglamasi, Le Shatelye prinsipi) orqali izohlanadi; fanlararo bog‘lanishlar aniqlanadi.
- **4-bosqich. Qo‘llash va refleksiya.** Talaba yangi klinik vaziyatli masalani yechadi, LMS orqali o‘z-o‘zini tekshiradi va o‘qituvchidan tezkor qayta aloqa oladi.

4. Baholash mezonlari va tajriba-sinov rejasi

Metodikaning samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonlar taklif etiladi: (a) kimyoviy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi (kirish va yakuniy test); (b) bilimlarni klinik vaziyatda qo‘llash ko‘nikmasi (keys-topshiriqlar rubrikasi); (c) fanlararo bog‘lanishlarni tushunish (kontsept-xarita yoki og‘zaki himoya); (d) o‘quv motivatsiyasi va raqamli vositalardan qoniqish (so‘rovnoma).

Tajriba-sinov nazorat va tajriba guruhlarida o‘tkaziladi: nazorat guruhida an’anaviy usul, tajriba guruhida taklif etilgan metodika qo‘llanadi. Guruhlarning dastlabki tengligi kirish testi bilan tekshiriladi, natijalar esa tegishli statistik mezonlar bilan qiyoslanadi.

5. Tajriba-sinov natijalari

Pedagogik tajriba-sinov 2025–2026 o‘quv yilida Qo‘qon universiteti Andijon filialida o‘tkazildi. Unda 60 nafar talaba qatnashdi: tajriba guruhida 30, nazorat guruhida 30 nafar. Kirish testida guruhlar o‘rtasida statistik farq aniqlanmadi ($p = 0,74$). Yakuniy testda tajriba guruhining o‘rtacha bali 59,1 dan 81,6 gacha o‘zgardi, nazorat guruhida esa 58,4 dan 67,1 gacha ($p < 0,001$). Keys-topshiriqlar bahosi tajriba guruhida 82,4, nazorat guruhida 69,1 ni tashkil etdi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, tajriba guruhi talabalarining 86,7 foizi fanning kasbiy ahamiyatini yuqori baholadi (nazorat guruhida 68,3 foiz).

2-jadval. Nazorat va tajriba guruhlari ko‘rsatkichlari (namuna)

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi (n = 30) oldin	Nazorat guruhi keyin	Tajriba guruhi (n = 30) oldin	Tajriba guruhi keyin	Statistik ahamiyatlilik (p)
Test bo‘yicha o‘rtacha ball	58,4	67,1	59,1	81,6	0,001
Keys-topshiriqlar bahosi	61,8	69,1	63,0	82,4	0,001
Fanlararo bog‘lanishni tushunish	2,9	3,5	3,0	4,3	0,001
Motivatsiya darajasi (so‘rovnoma)	3,2	3,6	3,3	4,3	0,002

MUHOKAMA

Ishlab chiqilgan model integrativ yondashuv va raqamli texnologiyalarni alohida-alohida emas, yagona o‘quv jarayoni doirasida birlashtiradi. Bunda raqamli vosita mavzuning o‘ziga emas, kutilayotgan o‘quv natijasiga qarab tanlanadi, bu TPACK g‘oyasiga mos keladi (Koehler & Mishra, 2009). Dars siklining klinik keysdan boshlanishi Tibbiy kimyoning kasbiy ahamiyatini o‘quv jarayonining boshidanoq ko‘rsatadi va Harden tavsiflagan fanlararo integratsiyani amaliy darajada ta’minlashga xizmat qiladi (Harden, 2000).

Virtual laboratoriya va simulyatsiyalarning o‘rni tibbiy ta’limdagi sistematik tahlillar bilan mos tushadi: Kuk va hammualliflarining meta-tahlilida texnologiya asosidagi simulyatsiya o‘qitish bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishda aralashuvsiz holatga nisbatan yuqori samara berishi ko‘rsatilgan (Cook va boshq., 2011). Shu bilan birga bu natijalar asosan klinik simulyatsiyalarga tegishli, shuning uchun ularni Tibbiy kimyo uchun bevosita ko‘chirish emas, balki mahalliy sharoitda alohida tekshirish lozim.

Metodikaning muhim jihati — kognitiv yuklamani hisobga olish. Murakkab simulyatsiyalar yangi boshlovchi talabaga qo‘shimcha yuklama bo‘lishi mumkin, shu sababli vositalar bosqichma-bosqich, aniq topshiriq va yo‘riqnoma bilan joriy etilishi kerak (Mayer, 2009; Sweller, 1988). Virtual mashg‘ulotlar real laboratoriya ishini almashtirmasligi, balki uni to‘ldirishi lozim: ayrim ko‘nikmalar (reaktivlar bilan ishlash, xavfsizlik qoidalari) faqat amaliy mashg‘ulotda shakllanadi.

Tadqiqot bitta muassasada va 60 nafar talaba bilan o‘tkazildi, shu sababli natijalarni boshqa muassasalarga ko‘chirishda biroz ehtiyot bo‘lish kerak. Yakuniy o‘lchov o‘qitish tugagach darhol olindi, bilimlarning uzoq muddatli saqlanishi esa keyingi bosqichda o‘rganiladi. Bundan tashqari, ayrim raqamli vositalar pullik bo‘lishi va internet sifati muassasalarda turlicha bo‘lishi mumkin, shuning uchun bepul muqobillardan foydalanish tavsiya etiladi.

XULOSA

Bo‘lajak shifokorlarga Tibbiy kimyoni integrativ yondashuv asosida raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish metodikasi mazmuniy integratsiya xaritasi, to‘rt tarkibiy qism va to‘rt bosqichli dars sikli asosida ishlab chiqildi va 60 nafar talaba ishtirokida sinovdan o‘tkazildi. Dastlabki bilim darajasi teng bo‘lgan guruhlarda (p = 0,74) yakuniy test bo‘yicha tajriba guruhining o‘rtacha bali 59,1 dan 81,6 gacha (22,5 ball), nazorat guruhida esa 58,4 dan 67,1 gacha

(8,7 ball) oshdi. Tajriba guruhida keys-topshiriqlar bahosi (82,4 va 69,1), fanlararo bog‘lanishni tushunish va o‘quv motivatsiyasi ham yuqori bo‘ldi; talabalarning 86,7 foizi fanning kasbiy ahamiyatini yuqori baholadi (nazorat guruhida 68,3 foiz). Natijalar taklif etilgan metodikaning an’anaviy o‘qitishga nisbatan samaraliroq ekanini ko‘rsatadi va uni Tibbiy kimyo o‘qitishda qo‘llashni tavsiya etishga asos beradi. Keyingi tadqiqotlarda metodikani boshqa muassasalarda sinash, bilimlarning uzoq muddatli saqlanishini baholash va uni yuqori kurs fanlari bilan bog‘lash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cook, D. A., Hatala, R., Brydges, R., Zendejas, B., Szostek, J. H., Wang, A. T., Erwin, P. J., & Hamstra, S. J. (2011). Technology-enhanced simulation for health professions education: A systematic review and meta-analysis. *JAMA, 306*(9), 978–988
2. Harden, R. M. (2000). The integration ladder: A tool for curriculum planning and evaluation. *Medical Education, 34*(7), 551–557
3. Koehler, M. J., & Mishra, P. (2009). What is technological pedagogical content knowledge? *Contemporary Issues in Technology and Teacher Education, 9*(1), 60–70.
4. Kolb, D. A. (1984). *Experiential learning: Experience as the source of learning and development*. Prentice Hall.
5. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023, 11-sentabr). *“O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida* (PF-158-son Farmon).
7. Sweller, J. (1988). Cognitive load during problem solving: Effects on learning. *Cognitive Science, 12*(2), 257–285
8. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes* (M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, & E. Souberman, Eds.). Harvard University Press.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Mamatova Gulshan Amankulovna
PROFI universitetining "Boshlang'ich talim" kafedrasi dotsenti, PhD
DOI: 10.67620/ajousci.240024

Annotatsiya. *Maqolada ona tili darslarining samaradorligini oshirish omillaridan biri sifatida badiiy matn asosidagi topshiriqlar ustida ishlashning o'ziga xos metodikasi yoritib berilgan. Mavzu yuzasidan boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*
Kalit so'zlar: *badiiy asarning til xususiyatlari, lingvistik va ekstralingvistik, evrika, aql xaritasi, Blum kubigi.*

Abstract. *The article highlights specific methodologies for working with tasks based on literary texts as one of the key factors in enhancing the effectiveness of mother tongue classes. Methodological recommendations on the topic have been developed for primary school teachers.*
Keywords: *linguistic features of a literary work, linguistic and extralinguistic, eureka, mind map, Bloom's cube.*

KIRISH

Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi bo'lishi bilan birga, badiiy adabiyotning asosiy qurolidir. Badiiy adabiyot so'z san'ati, yozuvchi esa so'z san'atkoridir. U xalq tomonidan yaratilgan, ko'p yillik ijodiy ishining ajoyib mahsuli bo'lgan boy, rang-barang, o'tkir, ifodali, puxta va sinchiklab tanlangan so'zlardan foydalanib obraz yaratadi, peyzaj chizadi, syujetni hikoya qilib beradi va kompozitsion jihatdan yaxlit badiiy asar yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi yozuvchi tomonidan yaratilgan badiiy asarning til xususiyatlarini, ya'ni muallif va qahramonlar tilini, tasviriy vositalarni o'quvchilarga puxta tushuntirishga erisha olsa, o'quvchi o'zbek adabiy tili lug'at tarkibining doimiy o'sib borishi to'g'risida amaliy tasavvurga ega bo'ladi, badiiy asarning tilini o'rganish jarayonida «go'zal va yaxshi narsalar»ga mehri ortadi. Olijanob tushunchalar, fikrlar uning ongidan tobora kengroq o'rin oladi, og'zaki va yozma nutqi ham, estetik didi ham, fikrlash qobiliyati ham rivoj topadi. Badiiy asarning tilini o'rganish uning asl mohiyatini, g'oyasini, qatnashuvchilarning xarakter-xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shu tufayli darsda badiiy asarning tilini o'rganishga boshlang'ich sinflardan boshlab jiddiy e'tibor berish muhim ahamiyatga egadir.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Buyuk so‘z san’atkorlari inson, predmet yoki biron-bir hodisaning xususiy tomonlarini so‘z yoki so‘z birikmalari orqali shunday aniq tasvirlashga erishadilarki, o‘quvchining ko‘z o‘ngida haligacha namoyon bo‘lmagan yangi, oldingilaridan tubdan farq qiladigan harakatdagi jonli obraz gavdalanadi. O‘qituvchi badiiy asar hamda undagi obrazlarni o‘rganish jarayonida so‘z va so‘z birikmalari vositasida yaqqol tasvirlangan ana shu yangi, oldingilaridan farq qiladigan jonli obrazlarni asar tilini o‘rganish orqali o‘quvchilarga tushuntiradi.

Yozuvchi o‘zining dunyoqarashini, voqelikka bo‘lgan munosabatini, nimani tanqid yoki targ‘ib qilayotganligini obrazlar vositasi orqali yoritib beradi. Obrazlar esa so‘z va so‘z birikmalarining birikib, bir butun gap bo‘lib, ma’lum bir ma’noni anglatishidan vujudga keladi. Badiiy matn tilining emotsionalligi - tasvirlanayotgan shaxs, predmet yoki voqealarga mos so‘z va iboralarning tanlab ishlatilishi - asarning g‘oyaviy yo‘nalishini ifodalashda muhim vazifani bajaradi.

Badiiy matn ko‘p bosqichli tuzilishga ega, shuning uchun uni tahlil qilish ancha murakkab. N.S. Bolotnovaning fikricha, badiiy matnning tuzilishi ikki darajaga ega: axborot-ma’no va pragmatik. Undagi matnning quyi darajalarini o‘rganish lingvistik (tilga oid) va ekstralingvistik (tilga oid bo‘lmagan parametrlar) jihatdan amalga oshiriladi.[13]

So‘nggi o‘n yilliklarida ona tilini o‘qitish metodikasida o‘quvchilarni nutq muloqotiga jalb etishdan iborat bo‘lgan o‘quv nutq vaziyatlarini yaratish qo‘llanilib kelinadi. T.A. Ladjenskaya fikricha, kommunikativ nutq vazifalari til bo‘limlarini o‘rganishdan tashqari, nutq madaniyatini ham o‘z ichiga olgan bog‘langan nutqni rivojlantirish ishining bir qismini tashkil etadi. Kommunikativ-vaziyatli vazifa deganda “o‘quvchilar muloqot madaniyati bo‘yicha yangi bilimlarga ega bo‘ladigan va nutq vaziyatini tahlil qilish, vaziyat asosida o‘z fikr-mulohazalarini yaratish orqali kommunikativ ko‘nikmalarini takomillashtiradigan vazifa turi” tushuniladi.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Badiiy matn inson ongiga ta’sir qilishidan tashqari, eshitilishi jihatidan ham yoqimlidir. Badiiy asarda puxta, ixcham iboralardan tashkil topgan jumlalar kishi fikrini o‘ziga tortadi. Badiiy matn asosida boshlang‘ich sinf ona tili fani uchun mo‘ljallangan tizimli topshiriqlar o‘quvchilarda mazmunli o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uning maqsadi nafaqat asar mazmunini imkon qadar aniq va to‘liq tushunish, balki olingan ma’lumotni amalda tushunib olishga zamin yaratadi. O‘z fikrini to‘g‘ri ifodalash zaruriyatini, isbotlash mashaqqatini tuyadi, ya’ni o‘z *“evrika”*siga ega bo‘ladi. Bu esa ta’limda tarbiyaviylik prinsipining amaliy samarasi hisoblanadi. Tadqiqotimizning amaliy bosqichida 1-4-sinflar kesimida ana shunday tizimli topshiriqlarni ishlab chiqdik. Quyida ana shu topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

1. Badiiy matnni o‘qish va notanish so‘zlarni marker yordamida ajratib bo‘yab chiqish.
2. Lug‘at ustida ishlash va ajratilgan so‘zlarni ma’nosini izohlash.
3. O‘qilgan matn asosida rasm chizish.
4. Matnni qismlarga bo‘lish va har bir qismga sarlavha qo‘yish.
5. Badiiy matnning har bir qismiga savollar tuzish.
6. Har bir qismdagi tayanch so‘zlarni ajratib chiqish.
7. Matndan xulosada maqol keltirib chiqarish mumkin bo‘lgan qismini toping.
8. Matndan maqollar keltirib chiqarish mumkin bo‘lgan so‘zlarni toping.

[13] Болотнова Н.С. Филологический анализ текста. Методы исследования: Пособие для филологов. Ч. 4. Томск: ТГПУ, 2003. Большой словарь иностранных слов. М.: Изд-во ИДДК. 2007. URL: https://dic.academic.ru//dic.nsf/dic_fwords/14559/ГИАТУС, 239-240-стр.

9. Matndagi turli so‘zlarga ma’nodosh, qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni topiib jadvalga yoylang

10. Badiiy matndan bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlarni aniqlang va quyidagi jadvalga joylang.

So‘zlar	Bir ma’noli	Ko‘p ma’noli	Ma’nosi

11. Badiiy matndagi eskirgan-tarixiy so‘zlarni toping.

12. She’r matn mazmunini o‘z so‘zingiz bilan gapirib bering.

13. Asar g‘oyasini bir-ikki gap orqali izohlang.

14. Badiiy matn asosida grammatik mavzuga oid krassvord tuzing.

15. Asar qahramonlarining xatti-harakatlari asosida “Aql xaritasini” tuzing.



16. Matndan eng uzun so‘zlarni topib bo‘g‘inlarga ajrating. (*Xazonrezgilik- Xa-zon-rez-gi-lik. “Kuz” matnidan*)

17. Matndan bir, ikki, uch, to‘rt bo‘g‘inli so‘zlarni topib jadvalga joylang.

Bir bo‘g‘nli so‘zlar	Ikki bo‘g‘nli so‘zlar	Uch bo‘g‘nli so‘zlar	To‘rt bo‘g‘nli so‘zlar

18. Matndan 1) ot; 2) sifat; 3) fe’l; 4) son; 5) kishilik olmoshini topib jadvalga joylashtiring. Gapda qanday vazifani bajaryapti? Qanday ma’no anglatganini izohlang.

So‘zlar	Ma’nosi	So‘z turkumi	Gapdagi vazifasi

1-sinf

“Lingvistik mikroskop” usul: gap qaysi ertak haqida ketayotganini aniqlash maqsadida ertakdagi bitta-ikkita gapni batafsil tahlil qilish. Ertakni topishda qaysi ma’lumotlar yordam berdi.

Masalan, 1-sinfda “Ur to‘qmoq” ertagidan quyidagi gaplarni olish mumkin.

1-gap. Laylakvoy meni bu yil ham aldading.

2-gap. Menga “Ur to‘qmoq”ni ber.

2-sinf.

“Rejissyorlik tahlili” usuli. O‘quvchilarga vaqt yoki o‘rnini almashtirish muallif tasvirlagan manzarani butunlay o‘zgartirish topshirig‘i beriladi. Masalan, Zafar Diyorning “Bahor yaqin” she’rida parcha tavsiya qilinadi. Bu topshiriqni juftlikda ishlashga bersa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

She’r asl ko‘rinishi

O‘tib ketdi qishning sovuq *Endi quyosh ko‘proq boqar,*
Ham bo‘ronli kunlari. *Dalalarga, bog‘larga.*
Ortda qoldi oy, yulduzsiz, *Quchoq-quchoq yog‘du sochar,*
Tim qorong‘i tunlari. *Adirlarga, tog‘larga.*

O‘quvchilar tomonidan o‘zgartirilgan ko‘rinishi

*O‘tib ketdi **yozning** sovuq* *Endi quyosh ko‘proq boqar,*
Ham bo‘ronli kunlari. ***Daryolarga, ko‘llarga**.*
Ortda qoldi oy, yulduzsiz, *Quchoq-quchoq yog‘du sochar,*
*Tim qorong‘i **kun**lari.* *Adirlarga, **cho‘llarga**.*

Bolalar she’rdagi vaqt yoki joy o‘rnini almashtirish orqali muallif tasvirlagan manzarani butunlay o‘zgartirib yuboradilar. Buning natijasida shoir tasvirlagan vaqt va makonni ifodalovchi so‘zlar o‘zgartirilsa mavzu va mazmunda uzilish yuzaga kelishini va she’r matnida mantiq buzilishini tushunib yetishadi.

3-sinf.

So‘z turkumlari uchun **“Blum kubigi”** usuli: Kubning tomonlariga quyidagi savollar yozilgan:



O‘quvchilar **“Blum kubigi”ni** tashlaydilar va matnda ajratilgan so‘zlarni birma-bir og‘zaki tahlil qiladilar.

4-sinf. “Yo‘qolgan so‘z turkumi” keys-usuli: Muammoli vaziyat. Kutubxonadan kitobdagi barcha bog‘lovchilar yoki olmoshlar o‘g‘irlab ketildi. Bolalarning vazifasi - maktab direktoriga bunday kitobni o‘qish imkonsiz bo‘lib qolgani haqida tushuntirish xati yozish (so‘z turkumlarining sintaktik rolini aniqlash).

4. NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bunday ish turlari o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Biroq gap shoirona o‘xshatishlar haqida borar ekan, yozuvchilar tomonidan asarning ma’lum qismiga doir tasvirni aniqlash, hislarni paydo qilish o‘quvchilarning ma’naviy-estetik tarbiyasiga xizmat qiladi.

O‘quvchilarni o‘rganilayotgan tasviriy vosita bilan shunday tanishtirish kerakki, ular matndan shu xildagi ifodalarni topib, mohiyatini anglashsin va o‘z tushunchalari haqida so‘zlab bera olishsin. O‘qituvchi tomonidan bu vazifa o‘rganilayotgan asar tili tahlilida amalga oshirilishi mumkin. Bu holatda o‘quvchilar o‘xshatish va uning fikr va hislarni ifodalashdagi ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga ifoda usullari, ularning qurilishi haqida hali ma’lumot bermaydi. Chunki bunda badiiy tahlil badiiy asarni o‘rganish maqsadlaridan ancha yiroqlab ketadi. Lekin ona tilini o‘rgatishda har doim badiiy matndagi til vositalarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

4. XULOSA VA TAKLIFLAR

Ona tilini o‘qitish metodikasidagi yetakchi yondashuvlardan biri ona tili darslarida badiiy matn bilan ishlashni birinchi o‘ringa qo‘yadigan matnga yo‘naltirilgan yondashuv hisoblanadi. Ona tili darslarida badiiy matn ko‘plab didaktik vazifalarni bajaradi: o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘rganish, rivojlantirish, tarbiyalash, nazorat qilishga yordam beradi, ularni milliy madaniyatga yaqinlashtiradi, ona tilini o‘rganishga va o‘z nutqini takomillashtirishga undaydi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha olib borilgan izlanishlar yuzasidan
TAVSIYALAR:

1. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarga badiiy adabiyot vositasida ona tili o‘rgatishda izchillik va tizimlilik tamoyiliga qat’iy amal qilinsa, nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

2. Ta’lim jarayonida badiiy matnlar vositasida o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish ehtimoli yuqoridir.

3. O‘quvchilarni ona tilidan mustahkam savodxonlik malakalari bilan qurollantirishda ta’limning suhbat, bahs-munozara, muammoli tahlil, qiyosiy tahlil singari mantiqiy metod va interfaol usullaridan bevosita badiiy matnning lingvistik tahlili jarayonida foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Болотнова Н.С. Филологический анализ текста. Методы исследования: Пособие для филологов. Ч. 4. Томск: ТГПУ, 2003. Большой словарь иностранных слов. М.: Изд-во ИДДК. 2007.
2. Ладыженской Т.А. Методика развития речи на уроках русского языка: Книга для учителя:–2-е изд., испр. и доп. – М.: Просвещение, 1991. – 240 с.
3. Yuldasheva D.N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) / Toshkent, 2020. – 434 b.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

DEVELOPING ENGLISH LANGUAGE PROFICIENCY IN MIXED-LEVEL UNIVERSITY EFL CLASSES THROUGH DIFFERENTIATED INSTRUCTION

Muratova Marxabo Safarovna
The University of World Economy and Diplomacy in Tashkent, Teacher
E-mail: mmuratova@uwed.uz
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-0627-8313
DOI: 10.67620/ajousci.240025

Abstract. *Mixed-proficiency classrooms constitute a significant challenge for university English as a Foreign Language (EFL) instruction because students studying within the same academic programme may demonstrate substantial differences in linguistic competence, communicative confidence, learning pace, and readiness to perform particular tasks independently. This study examines differentiated instruction as a flexible approach to addressing mixed-proficiency levels in university EFL classrooms. The study was conducted over a 15-week semester with 18 students enrolled in a General English course at the University of World Economy and Diplomacy in Tashkent, Uzbekistan. Differentiated handouts, tiered tasks, adaptive scaffolding, peer modelling, and flexible grouping were integrated into regular classroom instruction. Initial communicative assessment was used diagnostically, while students' progress and classroom performance were monitored through observations, task completion, presentations, and instructional records. The findings indicate increased opportunities for participation, peer interaction, and task completion across different levels of readiness. All 18 students successfully met the department's mandatory end-of-term proficiency benchmark. The findings suggest that differentiated instruction can accommodate learner diversity while maintaining common academic expectations.*

Key words: *English as a Foreign Language, differentiated instruction, mixed-proficiency classroom, university EFL, scaffolding, flexible grouping, tiered tasks, language learning, learner differences.*

Introduction. In contemporary linguistics and English language studies, the investigation of individual differences in language learning, communicative competence, and effective language use remains an important and relevant area of research. Particular attention is given to differences in learners' linguistic readiness, language proficiency, communicative performance, and pace of second-language development. These differences become especially significant in university EFL classrooms, where students with different levels of English proficiency may study within the same academic group and follow common course requirements.

The relevance of the present study is determined by the need to identify effective ways of addressing linguistic diversity in university EFL instruction while maintaining common language-learning objectives. Differentiated instruction provides opportunities to adapt tasks, language support, learning materials, and interaction according to learners' readiness. Tiered tasks, scaffolding, differentiated handouts, and flexible grouping can create conditions in which students with different linguistic profiles participate in common learning activities.

Although learner differences and differentiated instruction have been examined in second-language research, the practical implementation of flexible differentiation in mixed-proficiency university EFL classrooms requires further investigation. In particular, there is a need for classroom-based studies demonstrating how differentiated pathways can be integrated into a regular semester course without permanent separation of students according to proficiency level.

The present study examines the use of differentiated instruction in a mixed-proficiency General English course involving 18 university students at the University of World Economy and Diplomacy in Tashkent, Uzbekistan. During a 15-week semester, differentiated handouts, tiered tasks, adaptive scaffolding, peer modelling, and flexible grouping were used to respond to differences in students' linguistic readiness. The study focuses on the observed classroom outcomes of these practices and on students' achievement of the common end-of-term proficiency requirement.

Literature Review. Differentiated instruction (DI) is rooted in Vygotsky's (1978) Zone of Proximal Development (ZPD) and Krashen's (1985) Input Hypothesis (i+1), which emphasize that language acquisition occurs when input is slightly above a learner's current capacity and accompanied by appropriate social and cognitive support (Tomlinson, 2014). Swain's (1995) Output Hypothesis further highlights that producing language under scaffolded conditions forces learners to process syntax deeply, bridging the gap between receptive competence and active fluency.

In university language settings, relying on initial communicative screening often creates diverse skill profiles within a single group (Fulcher, 2010; Brown, 2019). Dörnyei (2005) notes that individual learner variables—including language aptitude, working memory, and anxiety—cause students with identical entry scores to progress at markedly different rates. When instructors apply one-size-fits-all methodologies, lower-acquisition learners experience high affective filters and cognitive overload (Ellis, 2008), while higher-acquisition learners face disengagement (Lightbown & Spada, 2013).

Recent literature emphasizes that differentiation should not alter primary curriculum targets, but rather vary the pathways to achieve them (Harmer, 2015; Richards, 2015; Ur, 2012). Tomlinson and McTighe (2006) argue that varying instructional process and student product allows all learners to engage with high-level content. Furthermore, scaffolding techniques—such as graphic organizers, sentence frames, and strategic peer interaction—allow low-performing students to participate in complex academic tasks alongside more proficient peers (Gibbons, 2015; Mercer & Sams, 2006).

Methodology. The study employed a classroom-based descriptive and reflective research design. The purpose was to examine the implementation of differentiated instruction under authentic university EFL classroom conditions.

The design was selected because the study focused primarily on instructional processes, classroom interaction, learner participation, and the feasibility of differentiation within an existing course rather than on establishing a causal experimental relationship.

The study lasted 15 weeks and involved 18 university students enrolled in a General English course.

Participants and Context. The sample consisted of 18 undergraduate students assigned to the same course band based on institutional communicative interviews. Diagnostic classroom observations during weeks 1–2 revealed distinct internal variations across specific sub-skills, ranging from lower-intermediate structural writing to advanced analytical fluency. These differences became particularly visible during communicative activities, independent tasks, group work, and presentations. The class was therefore treated as a mixed-proficiency learning environment.

Instructional Framework. To achieve required end-of-term outcomes without modifying the official syllabus, a three-tier differentiation framework was implemented across the 15-week period:

1. Tiered Task Architecture: Lessons shared a single communicative objective, but tasks offered varying degrees of complexity. Basic tiers included structural sentence frames; intermediate tiers required independent analytical responses; advanced tiers required synthesis and peer evaluation.

2. Adaptive Flexible Grouping: Students rotated between homogenous groups (for targeted skill remediation) and heterogeneous groups (where advanced peers provided implicit modeling).

3. Dynamic Scaffolding: Real-time micro-scaffolds (e.g., lexical mats, discourse markers) were provided dynamically based on ongoing observational needs rather than static entry scores.

Data Collection. Data were collected via baseline communicative profiles (Week 1), mid-term observations (Week 8), end-of-term summative exams (Week 15), bi-weekly performance logs, and a structured student reflection survey.

Findings and Results

The implementation of the differentiated framework yielded measurable improvements in task completion and classroom dynamics over the 15-week semester, summarized by observed acquisition group in Table 1.

Table 1. Student performance growth across observed acquisition groups (15-week term)

Observed acquisition group	Sample (n)	Baseline task completion (week 1)	Mid-term task completion (week 8)	End-of-term task completion (week 15)	Primary area of growth
Emerging (Lower Receptive)	5	38%	61%	82%	Structural accuracy, reduced anxiety
Developing (Intermediate)	9	62%	77%	90%	Cohesion, functional range
Fluent (Advanced)	4	82%	91%	98%	Critical discourse, peer mentoring

Key empirical findings from classroom observation and student reflection include the following.

Addressing skill variances: students who initially faced challenges balancing oral fluency with academic writing demonstrated a 44% overall increase in task completion by Week 15 once dynamic scaffolding tools were sustained (Emerging group, Table 1).

Affective filter reduction: reflection surveys conducted at the end of the term indicated that 88% of students felt less classroom anxiety when given tiered options, reporting that flexible grouping over the semester built a more collaborative learning environment.

Achievement of term standards: all 18 participants (100%) successfully met the department's mandatory end-of-term proficiency benchmark on the final semester examination, indicating that the differentiated pathways used in this course were compatible with maintaining common academic expectations.

Conclusions and Recommendations. The study examined the implementation of differentiated instruction in a mixed-proficiency university EFL classroom over a 15-week semester.

The findings indicate that differentiated handouts, tiered tasks, adaptive scaffolding, peer modelling, and flexible grouping can be integrated into a common university EFL syllabus without modifying its core objectives. The initial communicative assessment provided a useful diagnostic starting point, but ongoing classroom observation proved essential because students' needs varied across activities and language skills.

The study also demonstrated the practical value of flexible grouping. Rather than permanently assigning students to ability groups, the instructor used different grouping arrangements according to task requirements, observed needs, and student preferences. The most measurable outcome was that all 18 students achieved the department's mandatory final examination benchmark.

Nevertheless, the study does not establish that differentiated instruction alone caused this achievement. While baseline, mid-term, and end-of-term task-completion rates were tracked across the semester, these were derived from classroom observation and diagnostic profiling rather than a standardized, validated pre/post language-proficiency instrument. The absence of individual-level pre/post test scores and the absence of a control or comparison group limit the strength of causal conclusions that can be drawn from the observed gains.

The study's principal contribution is therefore practical and analytical: it demonstrates a feasible model for addressing proficiency variation while maintaining common academic expectations, and it identifies concrete directions for more rigorous follow-up research.

Recommendations. Based on the findings, the following recommendations are proposed for university EFL programmes.

The proposed cognitive-discursive exercise system links contextual interpretation with communicative action through reflection, strategy selection, repair, mediation and transfer to new situations. Its methodological logic moves from identifying relevant contextual and pragmatic cues to comparing possible interpretations, selecting a communicative strategy and revising that strategy when new information becomes available.

A distinctive feature of the system is the integration of human judgment with generative AI. Students first formulate their own response, then examine AI-generated alternatives, identify missing contextual information, detect potentially stereotypical or overgeneralised cultural explanations and justify the revisions they accept. AI therefore functions as a resource for comparison and critical analysis rather than as an authority on linguistic or cultural norms.

The system connects the cognitive-interpretive, affective-value and behavioural-discursive components of intercultural communicative competence with observable learner actions. Requests, refusals, ambiguous replies, digital messages and recorded interactions provide material for examining how intention, status, distance, prosody and nonverbal behaviour shape meaning in context. Formative assessment consequently focuses not only on the linguistic form of the final response but also on the learner’s ability to explain, reconsider and adapt a communicative decision.

The main contribution of the article is the specification of a classroom procedure that integrates intercultural interpretation, communicative practice and critical use of generative AI within one instructional sequence. The proposed model is methodological in nature; its effectiveness in developing intercultural communicative competence should be examined in further empirical research using independent diagnostic measures, unfamiliar transfer tasks and repeated observation of learner performance over time.

REFERENCES

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence: Revisited. 2nd ed. Multilingual Matters, 2021.
2. Deardorff D. K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization. Journal of Studies in International Education. 2006. 10(3). P. 241-266. DOI: 10.1177/1028315306287002.
3. Gu Y. Politeness Phenomena in Modern Chinese. Journal of Pragmatics. 1990. 14(2). P. 237-257. DOI: 10.1016/0378-2166(90)90082-O.
4. Kendon A. Gesture: Visible Action as Utterance. Cambridge University Press, 2004.
5. Su Y. Yes or no: Ostensible versus genuine refusals in Mandarin invitational and offering discourse. Journal of Pragmatics. 2020. 162. P. 1-16. DOI: 10.1016/j.pragma.2020.03.007.
6. Liu M., Chen Y., Schiller N. O. Context Matters for Tone and Intonation Processing in Mandarin. Language and Speech. 2022. 65(1). P. 52-72. DOI: 10.1177/0023830920986174.
7. Jia M. Evaluations of Chinese compliment responses: Accounting for individual differences in attributed pragmatic reasons. Journal of Pragmatics. 2026. 255. P. 71-82. DOI: 10.1016/j.pragma.2026.01.013.
8. Li Z. The “Slightly Smiling Face” Emoji in WeChat: A Conversation Analytic Investigation. Studies in Applied Linguistics and TESOL. 2025. 25(1). DOI: 10.52214/salt.v25i1.14082.
9. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. DOI: 10.54675/EWZM9535.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

OLIY TA'LIM MUASSASASIDA O'QUV YUKLAMASI VA DARS JADVALINI BOSHQARISHDA KO'P DARAJALI RAQAMLI MONITORINGNI TASHKIL ETISH

Narziyev Umidjon Zaripovich
Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: unarziyev@bstu.uz
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-0284-7411
DOI: 10.67620/ajousci.240026

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta'lim muassasasida o'quv yuklamasi va dars jadvalini boshqarishda ko'p darajali raqamli monitoringni tashkil etish masalasi tadqiq etilgan. Tadqiqot bitta oliy ta'lim muassasasi misolida, dars jadvali, professor-o'qituvchilar yuklamasi va auditoriyalar bandligini yagona muhitda yurituvchi ikki platformali dasturiy tizim asosida olib borildi. O'quv-uslubiy boshqarma, kafedra mudiri, rahbariyat va ta'lim sifati bo'limi darajalari uchun monitoring obyektlari, ko'rsatkichlari va javob choralari tizimi ishlab chiqildi hamda 2026–2027 o'quv yilining kuzgi semestri ma'lumotlarida sinovdan o'tkazildi. Jadvaldagi 799 nafar professor-o'qituvchining o'rtacha haftalik auditoriya yuklamasi 17,8 soatni tashkil etgani, ulardan 96 nafarida (12,0%) yuklama belgilangan 30 soatlik chegaradan oshgani, mashg'ulotlarning 10,3 foizida esa talabalar soni auditoriya sig'imidan ortiqligi aniqlandi. Natijalar monitoringni darajalar bo'yicha taqsimlash va me'yordan chetga chiqish holatlariga javob qaytarish tartibini belgilash boshqaruv qarorlarining tezkorligi va asosliligini oshirishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *ta'limda menejment, o'quv yuklamasi, dars jadvali, raqamli monitoring, ko'p darajali boshqaruv, monitoring ko'rsatkichlari, auditoriya fondi, oliy ta'lim.*

Abstract. *The article examines the organization of multi-level digital monitoring in the management of teaching workload and class schedules in a higher education institution. The study was conducted as a single-institution case using a dual-platform software system that maintains class schedules, faculty workload, and classroom occupancy in one environment. A system of monitoring objects, indicators, and response measures was developed for the academic affairs office, department heads, university leadership, and the education quality department, and it was tested on data from the autumn semester of the 2026–2027 academic year. The average weekly classroom workload of the 799 scheduled faculty members was 17.8 hours; for 96 of them (12.0%) the workload exceeded the established 30-hour threshold, and in 10.3% of classes the number of students exceeded room capacity. The results show that distributing monitoring across management levels and defining a procedure for responding to deviations from norms increases the promptness and validity of managerial decisions.*

Key words: *educational management, teaching workload, class schedule, digital monitoring, multi-level management, monitoring indicators, teaching space, higher education.*

KIRISH

Oliy ta’lim muassasalari faoliyatida o‘quv jarayonini samarali boshqarish institutsional rivojlanishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon faqat dars jadvalini tuzish yoki yuklamani taqsimlash bilan cheklanmaydi; u ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, muvofiqlashtirish, tahlil qilish va turli boshqaruv darajalariga manzilli yetkazishni ham qamrab oladi. Shu ma’noda ta’limda menejment axborotga tayangan qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirishni talab qiladi.

Xalqaro tajribada ta’lim boshqaruvi uchun axborot tizimlari markaziy o‘rin tutadi. UNESCO ta’lim boshqaruvining axborot tizimlarini qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash, rejalashtirish va ma’muriy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi kompleks ma’lumotlar muhiti sifatida baholaydi (UNESCO, n.d.-a; UNESCO, n.d.-b). OECD esa ta’limning raqamli ekotizimini – talabalar axborot tizimlari, ta’lim boshqaruvi axborot tizimlari va boshqa raqamli vositalarni – alohida texnik yangilanish emas, balki boshqaruv sifati va ishonchliligi bilan bog‘liq yaxlit muhit sifatida ko‘rib chiqadi (OECD, 2023).

Respublikamizda professor-o‘qituvchilarning o‘quv yuklamasi hajmi va uni belgilash tartibi vazirlik buyrug‘i bilan tasdiqlangan qoidalar asosida belgilanadi, yuklama hajmini o‘zgartirish esa oliy ta’lim muassasasi kengashi vakolatiga kiradi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2018). Biroq yillik yuklama me’yorga mos holda taqsimlangani uning haftalik dars jadvalida ham muvozanatli joylashganini anglatmaydi. Ayrim o‘qituvchilarning haftalik auditoriya yuklamasi me’yordan oshib ketishi yoki auditoriyalar sig‘imining guruh kontingentiga mos kelmasligi kabi nomutanosibliklar o‘quv jarayoni boshlangandan keyin aniqlansa, ularni bartaraf etish dars jadvalini qayta tuzish va yuklamani qayta taqsimlashni talab qiladi.

Muammoning mohiyati shundaki, o‘quv yuklamasi va dars jadvaliga oid ma’lumotlar raqamli tizimda mavjud bo‘lsa-da, ularni qaysi boshqaruv darajasi, qaysi ko‘rsatkich bo‘yicha va qanday tartibda kuzatishi, chetga chiqish aniqlanganda kim va qanday javob qaytarishi tizimli belgilanmagan bo‘lishi mumkin. Natijada ma’lumot bor, lekin u o‘z vaqtida boshqaruv harakatiga aylanmaydi. Mazkur maqolada bu masala oliy ta’lim muassasasida amalda qo‘llanilayotgan ikki platformali dasturiy tizim misolida ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotning maqsadi – oliy ta’lim muassasasida o‘quv yuklamasi va dars jadvalini boshqarishda ko‘p darajali raqamli monitoringni tashkil etish modelini ishlab chiqish va uni muassasa ma’lumotlarida sinovdan o‘tkazish.

Maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** qo‘yildi: 1) o‘quv yuklamasi, dars jadvali va auditoriya fondini boshqarishga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish; 2) mavjud dasturiy tizim funksiyalarini monitoring nuqtai nazaridan baholash; 3) boshqaruv darajalari bo‘yicha monitoring obyektlari, ko‘rsatkichlari va javob choralarini belgilash; 4) ko‘rsatkichlarni bitta semestr ma’lumotlari asosida hisoblab, ularning boshqaruv uchun axborot qiymatini aniqlash; 5) ko‘p darajali raqamli monitoring modelini taklif etish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘quv jarayonini rejalashtirishga oid xorijiy tadqiqotlarning katta qismi dars jadvalini avtomatik tuzish masalasiga bag‘ishlangan. E. Burke va S. Petrovic universitet jadvalini tuzishning evristik va evolyutsion algoritmlarini, shuningdek uni ko‘p mezonli qaror qabul qilish masalasi

sifatida ko‘rib chiquvchi yondashuvlarni tahlil qilgan (Burke & Petrovic, 2002). Ushbu yo‘nalishning kuchli tomoni – cheklovlarni hisobga olgan holda maqbul jadval yaratish usullarining ishlab chiqilganidir. Biroq unda asosiy e’tibor jadvalni tuzish bosqichiga qaratilgan bo‘lib, tuzilgan jadval va yuklamaning semestr davomida boshqaruv darajalari tomonidan kuzatilishi masalasi kamroq yoritilgan.

Auditoriya fondidan foydalanish masalasini C. Beyrouthy va hammualliflar o‘rgangan. Ular amaliyotda o‘quv xonalaridan foydalanish darajasi ko‘pincha 20–40 foiz atrofida bo‘lishini, berilgan kurslar to‘plamini mavjud xonalarga joylashtirish mumkinligi esa foydalanish darajasiga keskin, “chegaraviy” tarzda bog‘liqligini ko‘rsatgan (Beyrouthy et al., 2009). Bu natija auditoriya fondini boshqarishda faqat bandlikni emas, balki sig‘imning kontingentga mosligini ham ko‘rsatkich sifatida kuzatish zarurligini asoslaydi.

Akademik yuklamani taqsimlash modellari bo‘yicha I. Vardi yirik universitetdagi modellarni uch turga ajratib, ularning har biri yuklamani adolatli taqsimlashga asos bo‘la olishi, ammo ayrimlari ish madaniyatiga salbiy ta’sir qiluvchi kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatgan (Vardi, 2009). J. Kenny va A. Fluck yuklama modellarining samaradorligi ularni ishlab chiqish va joriy etishda professor-o‘qituvchilarning to‘liq ishtirokiga, ya’ni jarayonning ochiqligi va adolatliligiga bog‘liq degan xulosaga kelgan (Kenny & Fluck, 2014). Ayniqsa, yillik yuqori chegarasi belgilangan yuklama modeli joriy etilgandan keyin ham ayrim o‘qituvchilar yuklamasi ushbu chegaradan sezilarli oshib ketganiga oid amaliy holat muhim ahamiyatga ega (Kenny et al., 2012): me’yorning mavjudligi uning bajarilishini kafolatlamaydi. Keyingi tadqiqotda mualliflar institutsional modellar haqiqiy yuklamani muntazam ravishda past baholashini aniqlagan (Kenny & Fluck, 2022). Ushbu ishlarning kamchiligi shundaki, ular asosan yillik yuklama hajmini taqsimlashga qaratilgan bo‘lib, yuklamaning haftalik dars jadvalidagi taqsimotini kuzatish masalasini qamrab olmaydi.

Ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish bo‘yicha E. Mandinach ma’lumotlardan samarali foydalanish faqat texnik vositalar bilan emas, balki tizimli yondashuv, xodimlarning tegishli salohiyati va tashkiliy madaniyat bilan ta’minlanishini asoslagan (Mandinach, 2012). Yevropa oliy ta’lim hududida sifatni ta’minlash standartlari ham oliy ta’lim muassasalaridan o‘z faoliyatini samarali boshqarish uchun tegishli ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va ulardan foydalanishni talab qiladi (ENQA et al., 2015). Bu talablar monitoringni ma’lumot yig‘ish bilan cheklamay, uni boshqaruv qarorlari bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Respublikamizda oliy ta’lim muassasalarida strategik va funksional menejmentni integratsiyalash (O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi, n.d.-c), ta’lim sifatini iyerarxik boshqarish (O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi, n.d.-b) hamda rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning axborot-metodik tizimi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi, n.d.-a) masalalari dissertatsiya tadqiqotlari doirasida o‘rganilmoqda. Ushbu ishlarda asosiy e’tibor oliy ta’lim muassasasini boshqarishning umumiy masalalariga qaratilgan. O‘quv yuklamasi va dars jadvalining boshqaruv darajalari bo‘yicha taqsimlangan raqamli monitoringi, ya’ni har bir darajaning ko‘rsatkichlari va chetga chiqishga javob qaytarish tartibi esa alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot yo‘nalishi va dizayni. Tadqiqot amaliy yo‘nalishda, bitta oliy ta’lim muassasasi misolidagi keys-tadqiqot (case study) sifatida olib borildi. Aralash dizayn qo‘llanildi: dasturiy

tizim funksiyalari sifat (kvalitativ) funksional tahlil orqali, monitoring ko‘rsatkichlari esa miqdoriy (kvantitativ) tavsifiy statistika orqali o‘rganildi.

Ma’lumot yig‘ish usullari. Ma’lumotlar uch manbadan olindi: 1) o‘quv yuklamasini belgilashga oid normativ hujjatlar; 2) «Dars jadvali va o‘qituvchi yuklamasi dasturi»ning funksional imkoniyatlari bo‘yicha hisobot va tizim interfeyslari; 3) tizim ma’lumotlar bazasining 2026-yil 29-sentabr holatidagi nusxasi (2026–2027 o‘quv yilining kuzgi semestri). Tahlilda shaxsni aniqlashga imkon beruvchi ma’lumotlardan foydalanilmadi, natijalar faqat umumlashtirilgan ko‘rinishda keltiriladi.

Tanlanma. Tanlov o‘tkazilmadi – yaxlit qamrov qo‘llanildi: jadvalga kiritilgan barcha 799 nafar professor-o‘qituvchi, 7 545 ta asosiy dars yozuvi, 741 ta akademik guruh (14 650 nafar talaba), 265 ta auditoriya va 24 ta kafedra. Bu tanlanma xatosini istisno qiladi, ammo natijalarni boshqa muassasalarga umumlashtirish imkonini cheklaydi.

Hisoblash qoidalari. Haftalik auditoriya yuklamasi har bir o‘qituvchi o‘tadigan juftliklar asosida hisoblandi: bir juftlik 2 akademik soatga teng olindi; bir vaqt katagidagi potok mashg‘uloti bir marta sanaldi; suratli va maxrajli haftalar alohida hisoblanib, ulardan og‘irrog‘i olindi; bo‘lingan guruhning ikkinchi o‘qituvchisi ham hisobga kiritildi. Fakultet kesimidagi tahlilda bir nechta kafedraga biriktirilgan o‘qituvchi asosiy kafedrasi (eng katta stavka) bo‘yicha bir marta sanaldi. Auditoriya sig‘imiga moslikni baholashda bo‘lingan guruh talabalari ikki xona o‘rtasida teng taqsimlandi deb olindi.

Tadqiqot strategiyasi. Tadqiqot to‘rt bosqichda olib borildi: tizim modullarini boshqaruv darajalari bo‘yicha guruhlash; har bir modul uchun monitoring obyekti, ko‘rsatkich va me’yorni aniqlash; ko‘rsatkichlarni ma’lumotlar bazasi asosida hisoblash; natijalar asosida monitoring modelini shakllantirish. Modullarni baholashda quyidagi savollarga tayanildi: modul qaysi boshqaruv darajasiga xizmat qiladi; qaysi obyektni kuzatadi; qanday ko‘rsatkich va me’yor bilan solishtiradi; chetga chiqish aniqlanganda qaysi qarorni qabul qilishni yengillashtiradi.

Ishonchlilik. Hisob-kitoblar takrorlanuvchan SQL so‘rovlari orqali bajarildi va ularning natijalari tizim interfeyslaridagi ko‘rsatkichlar bilan tanlab solishtirildi. Shu bilan birga, natijalarning ishonchliligiga ta’sir qiluvchi omillar ham qayd etildi: guruhlardagi talabalar soni va auditoriya sig‘imi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning dolzarbligi; sirtqi ta’lim mashg‘ulotlarining haftalik jadvalda aks ettirilishi; ma’lumotlar semestr boshidagi holatni ifodalashi. Shu sababli olingan miqdorlar tasdiqlangan qoidabuzarlik emas, balki boshqaruv e’tibori talab qilinadigan xavf holatlari sifatida talqin qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Funksional tahlil mavjud dastur o‘quv yuklamasi va dars jadvalini boshqarishning uch darajali raqamli monitoring konturini shakllantirishini ko‘rsatdi. Birinchi daraja – o‘quv-uslubiy boshqarma. Bu yerda semestr, yo‘nalish, fan, guruh va yuklamaga doir dastlabki ma’lumotlar markazlashgan holda shakllantiriladi, auditoriyalar bandligi va umumiy jadval holati nazorat qilinadi. Ikkinchi daraja – kafedra. Dasturda kafedra kesimida professor-o‘qituvchilar ro‘yxati, ularning stavkasi, yuklamasi va haftalik jadvali aks ettiriladi; dars soatlari biriktirilgan guruhlar va mashg‘ulot turlari asosida avtomatik hisoblanadi. Uchinchi daraja – rahbariyat. Bu darajada fakultet, kafedra va professor-o‘qituvchi kesimidagi yig‘ma ma’lumotlar, shuningdek KPI ko‘rsatkichlari bilan bog‘langan tahlil taqdim etiladi.

Tahlil natijasida har bir daraja uchun monitoring obyektlari, ko‘rsatkichlari va chetga chiqish aniqlanganda ko‘riladigan javob choralari belgilandi (1-jadval). Ko‘rsatkichlarni darajalar

bo‘yicha taqsimlashdan maqsad – har bir boshqaruv bo‘g‘ini o‘z vakolatidagi qarorni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotni oshiqcha axborotsiz olishidir.

1-jadval

Monitoring darajalari, obyektlari, ko‘rsatkichlari va javob choralari

Daraja	Monitoring obyekti	Ko‘rsatkichlar	Javob choralari
O‘quv-uslubiy boshqarma	Dars jadvali, auditoriya fondi	Jadvalning to‘liqligi (auditoriya yoki o‘qituvchi biriktirilmagan mashg‘ulotlar); vaqt to‘qnashuvlari; talabalar sonining auditoriya sig‘imiga mosligi	Jadvalni tuzatish, auditoriyani almashtirish, potokni qayta tashkil etish
Kafedra mudiri	Professor-o‘qituvchilar yuklamasi	Yuklamaning stavkaga mosligi; haftalik auditoriya yuklamasining chegaraga mosligi; kafedra ichida taqsimotning bir tekisligi	Yuklamani kafedra ichida qayta taqsimlash
Rahbariyat	Fakultet va kafedralar yuklamasi	Yig‘ma yuklama; chegaradan oshgan o‘qituvchilar ulushi va uning dinamikasi; KPI bilan qiyos	Kadrlar siyosati, shtat birliklari va rag‘batlantirish bo‘yicha qarorlar
Ta’lim sifati bo‘limi (nazorat bo‘g‘ini)	Me’yorlarga rioya etilishi	Chegaradan oshgan holatlar soni; ogohlantirishlar va ularga javoblar; ko‘rilgan choralar natijasi	Rasmiy ogohlantirish, javobni qayd etish, natijani qayta tekshirish

Manba: muallif ishlanmasi.

Ko‘rsatkichlarning axborot qiymatini aniqlash uchun ular kuzgi semestr ma’lumotlari asosida hisoblandi. Jadvalga kiritilgan 799 nafar professor-o‘qituvchining o‘rtacha haftalik auditoriya yuklamasi 17,8 soatni, eng yuqori qiymat esa 52 soatni tashkil etdi. Yuklamaning intervallar bo‘yicha taqsimoti 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Professor-o‘qituvchilarning haftalik auditoriya yuklamasi bo‘yicha taqsimoti (n = 799)

Haftalik yuklama, soat	O‘qituvchilar soni	Ulushi, %
0–12	301	37,7
13–20	234	29,3
21–24	90	11,3
25–30 (xavf zonasi)	78	9,8
31–40	72	9,0
40 dan ortiq	24	3,0
Jami	799	100,0

Manba: muassasa dars jadvali ma’lumotlar bazasi asosida muallif hisob-kitobi (2026-yil 29-sentabr holatiga).

Muassasada haftalik auditoriya yuklamasining yuqori chegarasi 30 soat etib belgilangan. Bu chegara yillik taxminan 600 soatlik auditoriya yuklamasini 30 o‘quv haftasiga taqsimlashdan kelib chiqadigan o‘rtacha 20 soatga sirtqi ta’lim mashg‘ulotlari uchun 50 foizlik zaxira qo‘shish

asosida aniqlangan. Natijalarga ko‘ra, 96 nafar o‘qituvchida (12,0%) haftalik yuklama ushbu chegaradan oshgan, yana 78 nafari (9,8%) 25–30 soatlik xavf zonasida joylashgan. Chegaradan oshganlarning 76 nafari sirtqi guruhlarda ham dars o‘tadi. Biroq 30 nafar o‘qituvchida yuklama sirtqi mashg‘ulotlarsiz, faqat kunduzgi va kechki ta’lim mashg‘ulotlarining o‘zida ham 30 soatdan oshgan. Demak, chegaradan oshish holatlarini faqat sirtqi ta’lim bilan izohlab bo‘lmaydi va ular kafedra darajasida maqsadli qayta taqsimlashni talab qiladi.

Chegaradan oshgan o‘qituvchilarning fakultetlar bo‘yicha taqsimoti bir tekis emas (3-jadval). Ularning ulushi 8,6 foizdan 16,7 foizgacha o‘zgaradi, ya’ni muammo ayrim fakultetlarda ikki baravar o‘tkirroq namoyon bo‘ladi. Bu ko‘rsatkichni rahbariyat darajasida kuzatish zarurligini asoslaydi.

3-jadval

Haftalik yuklamasi 30 soatdan oshgan o‘qituvchilarning fakultetlar bo‘yicha taqsimoti

Fakultet	O‘qituvchilar soni	O‘rtacha haftalik yuklama, soat	30 soatdan oshganlar	Ulushi, %
1-fakultet	174	16,3	15	8,6
2-fakultet	268	16,1	25	9,3
3-fakultet	249	19,9	38	15,3
4-fakultet	108	19,4	18	16,7
Jami	799	17,8	96	12,0

Manba: muallif hisob-kitobi. Bir nechta kafedraga biriktirilgan o‘qituvchi asosiy kafedrasi bo‘yicha bir marta sanalgan.

O‘quv-uslubiy boshqarma darajasidagi ko‘rsatkichlar ham boshqaruv uchun muhim axborot berdi. Talabalar soni auditoriya sig‘imidan ortiq bo‘lgan holatlar 5 916 ta mashg‘ulot katagidan 611 tasida (10,3%) qayd etildi. Bu ko‘rsatkich ma’ruza mashg‘ulotlarida 14,5 foizni, amaliy mashg‘ulotlarda 11,0 foizni, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlarida esa 1,3 va 2,6 foizni tashkil etdi. Ma’ruzalardagi yuqori ulush bir nechta guruhni birlashtiruvchi potok mashg‘ulotlari uchun yetarli sig‘imli auditoriyalar tanqisligidan dalolat beradi. Shuningdek, kunduzgi ta’lim mashg‘ulotlarining 25,7 foizida tadqiqot sanasida auditoriya biriktirilmagan edi. Bu holat jadvalning hali to‘liq shakllantirilmaganini yoki auditoriya talab qilinmaydigan mashg‘ulotlar (masalan, sport) mavjudligini anglatishi mumkin va uni aniqlashtirishning o‘zi monitoringning amaliy natijasidir.

Tahlil ma’lumotlar sifatiga oid muammoni ham aniqladi: 52 nafar xodim bir vaqtda ikki kafedraga biriktirilgan. Agar yig‘ma hisobotlarda yuklama kafedra kesimida ajratilmasdan yig‘ilsa, bunday xodimlarning yuklamasi har ikki kafedra jamiga to‘liq qo‘shilib, fakultet ko‘rsatkichlarini oshirib ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli monitoring ko‘rsatkichlarini hisoblash qoidalarini oldindan belgilash va ularni hujjatlashtirish monitoring tizimining ajralmas qismi bo‘lishi lozim.

Olingan natijalar asosida o‘quv yuklamasi va dars jadvalini boshqarishning ko‘p darajali raqamli monitoring modeli taklif etildi. Model to‘rt elementni birlashtiradi: monitoring obyektlari (o‘quv yuklamasi, dars jadvali, auditoriya fondi); har bir daraja uchun ko‘rsatkichlar va me’yoriy chegaralar; darajalar o‘rtasidagi vakolat va mas’uliyat taqsimoti; chetga chiqish aniqlanganda

axborotni tegishli darajaga yetkazish va javob qaytarish tartibi. Mavjud uch darajaga qo‘shimcha ravishda modelga yuklama va jadvalning me’yorlarga muvofiqligini mustaqil kuzatuvchi nazorat bo‘g‘ini – ta’lim sifati bo‘limi kiritildi. U chegaradan oshgan holatlarni aniqlaydi, kafedraga rasmiy ogohlantirish yuboradi, kafedra mudiri javobini va ko‘rilgan chora natijasini qayd etadi. Shu tariqa monitoring axborot to‘plashdan boshqaruv harakatiga o‘tuvchi yopiq siklga aylanadi.

Natijalar adabiyotlardagi xulosalar bilan uyg‘un. Kenny va hammualliflar yuklamaning yuqori chegarasi belgilangan bo‘lsa ham, u amalda oshib ketishi mumkinligini ko‘rsatgan edi (Kenny et al., 2012); tadqiqotimizda ham chegaraning mavjudligiga qaramay o‘qituvchilarning 12,0 foizida yuklama undan oshgan. Bu me’yorni belgilashning o‘zi yetarli emasligini, uning bajarilishini muntazam kuzatuvchi va javob choralarini qo‘llovchi monitoring mexanizmi zarurligini tasdiqlaydi. Nazorat bo‘g‘inining yuklamani taqsimlovchi bo‘g‘indan ajratilishi esa monitoringning xolisligini oshiradi, chunki yuklamani taqsimlovchi va uning me’yorga muvofiqligini baholovchi funksiyalar turli subyektlarga yuklatiladi.

Shu bilan birga, tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, KPI ko‘rsatkichlari tizimda mustaqil hisoblanmaydi, balki tashqi tizimdan olinadi. Ikkinchidan, baholash, davomat va kontingent harakati bilan bog‘liq jarayonlar ushbu monitoring konturiga kirmagan. Uchinchidan, 30 soatlik chegara muassasa darajasida belgilangan bo‘lib, uni normativ jihatdan asoslash alohida tadqiqot talab qiladi. To‘rtinchidan, natijalar bitta muassasa va bitta semestr ma’lumotlariga asoslangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari qo‘yilgan vazifalar bajarilganini ko‘rsatdi. Adabiyotlar tahlili jadval tuzish va yillik yuklamani taqsimlashga oid ishlar ko‘p bo‘lgani holda, yuklama va jadvalning boshqaruv darajalari bo‘yicha taqsimlangan monitoringi yetarlicha o‘rganilmaganini aniqladi. Mavjud dasturiy tizim o‘quv yuklamasi va dars jadvalini boshqarishning uch darajali raqamli monitoring konturini shakllantirishi va ko‘p darajali monitoringni tashkil etish uchun asos bo‘la olishi aniqlandi. Boshqaruv darajalari bo‘yicha monitoring obyektlari, ko‘rsatkichlari va javob choralari tizimi ishlab chiqildi.

Ko‘rsatkichlar kuzgi semestr ma’lumotlarida sinovdan o‘tkazilganda, belgilangan chegara mavjud bo‘lishiga qaramay o‘qituvchilarning 12,0 foizida haftalik yuklama undan oshgani, bu ulush fakultetlar kesimida ikki baravargacha farq qilishi, mashg‘ulotlarning 10,3 foizida esa auditoriya sig‘imi yetarli emasligi aniqlandi. Bu natijalar ko‘rsatkichlarning boshqaruv uchun real axborot qiymatiga ega ekanini tasdiqlaydi. Taklif etilgan model monitoring obyektlari, darajalar bo‘yicha ko‘rsatkichlar va me’yorlar, vakolatlar taqsimoti hamda chetga chiqishga javob qaytarish tartibini birlashtiradi; nazorat bo‘g‘inining ajratilishi esa monitoringni yopiq boshqaruv sikliga aylantiradi.

Natijalar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi: 1) haftalik auditoriya yuklamasining yuqori chegarasini oliy ta’lim muassasasi kengashi qarori bilan tasdiqlash va uni raqamli tizimda o‘zgartiriladigan parametr sifatida saqlash; 2) yuklama va jadval monitoringini semestr boshlanishidan oldin, jadval yakunlangan zahoti o‘tkazish; 3) kunduzgi va sirtqi ta’lim yuklamasi uchun alohida chegaralar belgilash; 4) guruhlardagi talabalar soni va auditoriya sig‘imi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har semestr boshida yangilash; 5) me’yorlarga rioya etilishini kuzatish vazifasini yuklamani taqsimlovchi bo‘g‘indan mustaqil bo‘lgan ta’lim sifati bo‘limiga yuklash.

Kelgusida monitoring natijalarining semestrlar bo‘yicha dinamikasini o‘rganish, ko‘rsatkichlar chegaralarini normativ asoslash hamda modelni davomat, baholash va talabalar fikri

bilan bog‘lash orqali o‘quv yuklamasi va dars taqsimotini boshqarishning yaxlit tashkiliy-pedagogik mexanizmini shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beyrouthy, C., Burke, E. K., Landa-Silva, D., McCollum, B., McMullan, P., & Parkes, A. J. (2009). Towards improving the utilization of university teaching space. *Journal of the Operational Research Society*, *60*(1), 130–143. https://doi.org/10.1057/palgrave.jors.2602523
2. Burke, E. K., & Petrovic, S. (2002). Recent research directions in automated timetabling. *European Journal of Operational Research, 140*(2), 266–280.
3. ENQA, ESU, EUA, & EURASHE. (2015). *Standards and guidelines for quality assurance in the European Higher Education Area (ESG)*. http://www.enqa.eu/wp-content/uploads/2015/11/ESG_2015.pdf
4. Kenny, J., & Fluck, A. (2014). The effectiveness of academic workload models in an institution: A staff perspective. *Journal of Higher Education Policy and Management, 36*(6), 585–602. https://doi.org/10.1080/1360080X.2014.957889
5. Kenny, J., & Fluck, A. E. (2022). Life at the academic coalface: Validation of a holistic academic workload estimation tool. *Higher Education*. https://doi.org/10.1007/s10734-022-00912-x
6. Kenny, J., Fluck, A., & Jetson, T. (2012). Placing a value on academic work. *Australian Universities’ Review, 54*(2), 50–60.
7. Mandinach, E. B. (2012). A perfect time for data use: Using data-driven decision making to inform practice. *Educational Psychologist*, *47*(2), 71–85. https://doi.org/10.1080/00461520.2012.667064
8. OECD. (2023). *OECD digital education outlook 2023: Towards an effective digital education ecosystem*. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/c74f03de-en
9. Vardi, I. (2009). The impacts of different types of workload allocation models on academic satisfaction and working life. *Higher Education*, *57*(4), 499–508. https://doi.org/10.1007/s10734-008-9159-8

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

METHODOLOGICAL SYSTEM FOR DEVELOPING STUDENTS' TECHNICAL AND TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

N. Ornbetov
Head of the Department of Technological Education, Ajiniyoz Nukus State Pedagogical Institute, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor
DOI: 10.67620/ajousci.240027

Annotatsiya. *Maqolada kompetentsiya yondashuvi asosida talabalarning texnik va texnologik tayyorgarligini shaklandirish haqida fikr yuritilgan bo`lib, bunda talabalarning texnik va texnologik tayyorgarligini shaklandirishta o'quv jarayoniga sun'iy intellekt (AI), robototexnika va raqamli texnologiya vositalarini qo'llashning asosiy yo'nalishlari tahlil etilgan hamda ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*
Kalit so'zlar: *zamonaviy texnologiya va vositalar, zamonaviy laboratoriyalar, asbob-uskunalar va dasturiy ta`minotlar, texnik-texnologik tayyorgarlik, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, robototexnika, masofaviy ta'lim, onlayn platforma, raqamli texnologiya, virtual laboratoriya va trenajyor, zamonaviy asbob-uskunalar, dasturiy ta'minot va texnologiyalar.*

Abstract. *The article discusses the formation of technical and technological readiness of students based on the competence approach, and analyzes the main directions of applying artificial intelligence (AI), robotics and digital technology tools to the educational process in the formation of technical and technological readiness of students and recommendations on effective use of social networks are given.*
Key words: *modern technology and tools, modern laboratories, equipment and software, technical and technological training, artificial intelligence, cyber security, robotics, distance education, online platform, digital technology, virtual laboratory and simulator, modern equipment hardware, software and technology.*

Аннотация. *В статье рассматривается формирование технико-технологической готовности обучающихся на основе компетентностного подхода, а также анализируются основные направления применения инструментов искусственного интеллекта (ИИ), робототехники и цифровых технологий в образовательном процессе при формировании технико-технологической готовности обучающихся. и даны рекомендации по эффективному использованию социальных сетей.*
Ключевые слова: *современные технологии и инструменты, современные лаборатории, оборудование и программное обеспечение, техническая и технологическая*

подготовка, искусственный интеллект, кибербезопасность, робототехника, дистанционное обучение, онлайн-платформа, цифровые технологии, виртуальная лаборатория и симулятор, современное оборудование, аппаратное обеспечение, программное обеспечение и технологии.

Introduction.

In our country, considerable attention is being paid to improving the education system in order to train well-rounded, mature, independent-minded, determined, dedicated, and initiative-taking professionals. At present, the continuous renewal of machinery and technologies in production, along with the rapid development of science and knowledge, requires specialists to independently and systematically deepen, update, supplement, and broaden their professional knowledge and skills.

In the context of modern education, the task of preparing qualified specialists who are capable of adapting to rapidly changing technological and socio-economic conditions has become particularly relevant. One of the key competencies required of a modern technology teacher is not only the ability to use contemporary technical tools and technologies in their professional activities, but also the ability to develop relevant competencies among students. This, in turn, necessitates the development and implementation of effective methods for enhancing the technical and technological competencies of future technology teachers during their training at higher education institutions. Such an approach not only improves the quality of the educational process but also enables graduates to adapt more quickly to the conditions of professional activity and to the constantly changing technological landscape. From this perspective, the relevance of developing a methodology for enhancing the technical and technological competencies of future technology teachers is determined by the needs of the educational process and the requirements of the modern labor market.

Literature Review

The problem of developing technical and technological competence has been studied by numerous researchers.

The first group of researchers, including A.A. Verbitsky, N.N. Manko, V.E. Shteynberg, and L.A. Yadvirshis, examine the pedagogical aspects of technological competence.

The second group of researchers, including V.N. Gorbunov, D.V. Sannikov, and A.N. Sergeyev, examine the technical and technological aspects of technological competence.

The third group of researchers, including Yu.S. Dorokhin and A.N. Sergeev, propose considering the aforementioned aspects of technological competence in an integrated manner. Based on this approach, Yu.S. Dorokhin defines technological competence as an integral professional and personal characteristic of a teacher, encompassing knowledge of technologies, the integration of technological skills, and professionally significant personal qualities.

The achievements of digital education have been studied by such scholars as G. Gable, D. Sedera, T. Chan, A. Gaskell, S. Ghosh, J. Nath, Sh. Agarwal, A. Note, E. Mansour, D. Mupinga, A. Tomsic, D. Suthers, M. Weller, Doug Belshaw, and Y. Alghamdi. In particular, digital education provides extensive opportunities for the individualization of learning, interactivity, visualization, and gamification, thereby creating significant opportunities for AI-based educational management and for processing large amounts of data related to learning outcomes and learning difficulties [3:38].

Research Methodology

According to the research of N.N. Manko, technological competence includes the following:

1. It is a system of creative and technological knowledge, skills, and methods (patterns) of activity aimed at transforming objects of pedagogical reality.

2. It is also an integrative professional quality characterized by knowledge and understanding of technologies, methods, tools, and the conditions for their application.

3. These qualities are manifested in practice through creative abilities, design and analytical skills, as well as the ability to analyze the results of one’s own activities (reflective capacity).

4. According to L.A. Yadvirshis, technological competence consists of two components: first, a set of personal qualities and characteristics that contribute to the proficient performance of specific professional tasks; and second, the ability to work with a high level of efficiency. The main difference between the approaches of this group of authors lies in the use of didactic and instrumental tools in the formation of technological competence.

According to V.N. Gorbunov, the technological competence of a technology teacher includes the following elements:

1. Knowledge: Knowledge of relevant information and the conditions for its application.

2. Skills: The ability to apply knowledge creatively, design educational activities, analyze the results and effectiveness of one’s own activities, develop original technologies, and create methodologies for organizing the educational process.

This group of authors summarizes technological competence as a combination of technical and technological knowledge and skills, along with the ability of a technology teacher to apply them in educational practice.

The third group of researchers, Yu.S. Dorokhin and A.N. Sergeev, propose considering the aforementioned aspects of technological competence in an integrated manner. Based on this approach, Yu.S. Dorokhin defines technological competence as an integral professional and personal characteristic of a teacher, encompassing knowledge of technologies, the integration of technological skills, and professionally significant personal qualities.

N.A. Muslimov interprets technological competence as follows: first, it involves mastering advanced technologies to enrich professional and pedagogical knowledge and skills; second, it refers to the ability to use modern tools, equipment, and technologies [3:41–43].

Analysis and Results

The development of students’ technical and technological competence refers to a comprehensive system of education and development that provides them with the technical knowledge, skills, and abilities necessary to adapt to the requirements of the modern labor market. The primary objective of this process is to develop and enhance professional competencies, including the ability to analyze and solve complex technical problems, use modern technologies and tools, work effectively in a team, and demonstrate a commitment to continuous learning and self-improvement. A competency-based approach involves not only the acquisition of theoretical knowledge but also its active application in practice through project-based activities, workshops, internships, and other practice-oriented forms of education.

The formation of professional competencies among future technology teachers is a multifaceted process that involves not only the acquisition of knowledge and skills but also the development of the ability to apply them effectively in practical activities. In the context of this

study, competence is understood as the integration of knowledge, skills, personal qualities, and values that enables an individual to effectively solve professional problems in a particular field [1:24].

For the effective development of technical and technological competence, the following principles should be taken into account:

1. Systematicity and consistency – ensuring a gradual increase in the complexity and depth of knowledge and skills, as well as their integration into professional competence.

2. Student activity and independence – encouraging students to engage in research and project-based activities, while developing their critical thinking and self-directed learning skills.

3. Practice-oriented approach – establishing a close connection between theoretical material and practical activities, with the use of real-life situations and projects.

4. Interdisciplinarity – integrating knowledge and skills from various disciplines to solve specific professional problems.

5. Reflection and assessment – continuous self-assessment and adjustment of the educational process, as well as evaluation of the outcomes achieved.

Based on these principles, it is important to create an educational environment under new conditions that promotes the development not only of specific technical skills but also of general competencies, such as the ability to work in a team, analyze and synthesize information, and apply knowledge in new contexts [4:101–109].

The integration of artificial intelligence (AI) and robotics tools into the educational process in the development of students’ technical and technological training opens up new opportunities for improving the quality and accessibility of education, as well as preparing students to address the challenges of modern technological society. Integrating these technologies into the methodology for developing the competencies of future technology teachers not only enriches the educational process with new tools and methods but also contributes to the development of the skills necessary for students to work in a high-tech environment. The introduction of digital technologies and tools into the educational process is an important aspect that contributes to improving the quality and accessibility of education. The use of online platforms for distance learning, virtual and augmented reality for simulating professional activities, as well as various information systems and applications for project management, data analysis, and process modeling, makes education more interactive and brings it closer to real-world working conditions.

The integration of artificial intelligence (AI) and robotics tools into the educational process opens up new opportunities to improve the quality and accessibility of education, as well as to prepare students to address the challenges of modern technological society. The integration of these technologies into the methodology for developing the competencies of future technology teachers not only enriches the educational process with new tools and methods but also contributes to developing the skills necessary for students to work effectively in a high-tech environment.

Key areas of application of artificial intelligence (AI) and robotics in education:

1. Adaptive learning: AI can analyze data on a student’s learning process and adapt learning materials and the pace of learning to their individual needs and abilities. This helps students acquire and master the material more deeply and effectively.

2. Automation of administrative processes: The use of artificial intelligence to automate routine administrative tasks frees up teachers’ time for closer interaction with students and individualized instruction.

3. Virtual assistants and chatbots: The use of AI-powered virtual assistants and chatbots to support students outside the classroom enables them to receive answers to their questions in real time and facilitates a deeper understanding of course materials.

4. Robotics as an educational tool: Designing and programming robots through classroom projects develops students’ engineering skills, teamwork abilities, and capacity to solve complex technical problems.

5. Research projects in AI and robotics: Participation in research projects enables students to explore these technologies in greater depth while developing critical thinking and scientific research skills.

The role of digitalization in students’ technical and technological training cannot be overstated. In the modern educational process, digitalization technologies are becoming not only a means of instruction but also an integral component of preparing qualified specialists capable of working in the digital economy. The integration of digital technologies into curricula involves not only the use of online platforms and resources for distance learning but also the incorporation of digital technologies into the teaching process.

Furthermore, learning the fundamentals of programming and working with big data are becoming increasingly relevant for students in technological education. Proficiency in programming languages such as Python, Java, and C++, as well as the ability to work with databases and analytically process large volumes of data, opens up broad career opportunities for graduates in software development, data analysis, and machine learning.

The use of virtual laboratories and simulators plays a significant role in improving the quality of technical and technological training. These tools make it possible to simulate various production and technological processes and conduct experiments and tests in a safe and controlled environment. Virtual laboratories are particularly effective for demonstrating complex concepts and processes and for developing practical skills without the risk of damaging equipment or materials [2:68–101].

The use of social media in the educational process offers a number of benefits, including improved access to learning opportunities, encouragement of active learning and student engagement, and the expansion of professional networks. However, educational institutions face certain challenges, such as the need to monitor content, ensure privacy, and protect students from misinformation.

Recommendations for the effective use of social media:

- Developing a social media usage policy that establishes rules for online behavior and measures to ensure safety and privacy.

- Training students to use social media responsibly, including issues related to cybersecurity and the critical evaluation of information.

- Using social media not only as a channel for disseminating information but also as a tool for organizing interactive learning, project-based activities, and professional communication.

- Encouraging students to create their own professional digital footprint, which can assist them in seeking employment and promoting themselves professionally in the future.

Conclusion and Recommendations. Thus, the implementation of the proposed pedagogical conditions makes it possible to comprehensively develop technical and technological competence through the development of the technological component of the profession, as well as specialized knowledge, skills, and motivation for learning and mastery.

Based on this conclusion, we consider it appropriate to propose the following recommendations:

Integration in the educational process is carried out in three ways: by combining elements of different academic disciplines into a single, synthesized course (subject or section of a curriculum); by integrating scientific concepts and methods from different disciplines into general scientific concepts and methods of cognition; and by comprehensively systematizing and generalizing the foundations of individual disciplines while identifying interdisciplinary educational problems.

The multifaceted methodology we propose for developing technical and technological competence contributes to the comprehensive development of future technology teachers. The integration of general professional and specialized disciplines enables them to effectively address the challenges of modern education.

The primary objective of technical and technological training is to develop students’ in-depth professional knowledge and skills that ensure their competitiveness in the labor market, as well as their ability to create innovations and effectively solve complex technical problems in modern production environments. Achieving this objective requires an integrated approach across three key areas: updating the content of educational programs, improving the quality of education, and strengthening the practical aspects of professional training.

REFERENCES

1. Алдияров К.Т. Интеграция обучения информатике и общетехническим дисциплинам в системе технического и профессионального образования в Республике Казахстан: автореферат дисс. ... док. пед. наук. – М., 2013. - 47 с.
2. Борисов, А.В. Повышение качества технико-технологической подготовки будущих учителей технологии (на примере обучения токарной обработке конструкционных материалов) [Текст]: дис. ... канд. пед. наук.- Сыктывкар, 2003. - 133 с.
3. Orinbetov N.T. *Integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi* (texnologik ta’lim yo‘nalishi misolida): avtoreferat diss. ... ped. fan. dok. – N., 2026. - 221 b.
4. Худяков А.Ю. Технологическая компетентность – одно из важнейших качеств учителя трудового обучения// Актуальные проблемы гуманитар и естеств. наук. – 2017. – № 3. с. 101–109.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

O'QUVCHILARDA SUN'IY INTELLEKTDAN ONGLI FOYDALANISH MADANIYATINI BAHOLASH MEZONLARI VA DARAJALARI

Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich
p.f.f.d (PhD) Qo'qon davlat universiteti
e-mail: muhsinjonotaboyev@gmail.com
DOI: 10.67620/ajousci.240028

Annotatsiya. *Maqolada SI va raqamli muhitdan ongli foydalanish madaniyatining shakllanganligini baholashga doir mezon, ko'rsatkich va daraja tushunchalari aniqlashtiriladi. Maqsad o'quvchining umumiy natijasini uning tarkibiy rivojlanish profili bilan birga talqin qilish imkonini beradigan baholash tizimini asoslashdir. Mezonga asoslangan tahlil, mazmuniy muvofiqlashtirish va darajaviy tavsiflash metodlari qo'llanildi. Natijada anglanganlik, asoslanganlik, qadriyatli munosabat, amaliy barqarorlik va mustaqil boshqaruv belgilari tizimlashtirildi. Yuqori, o'rta va past darajalar bilim miqdori bilan emas, mustaqillik, qaror asoslanganligi va xulq izchilligi bilan farqlandi. Profil bo'yicha tahlil umumiy ball ortida yashirinadigan nomutanosiblikni aniqlashga xizmat qilishi asoslandi. Natijalar maktabdagi raqamli tarbiya monitoringi uchun nazariy mezonlar beradi.*

Kalit so'zlar: *baholash mezoni, ko'rsatkich, shakllanganlik darajasi, rivojlanish profili, mustaqillik, amaliy barqarorlik, raqamli tarbiya monitoringi.*

Abstract. *The article clarifies the concepts of criteria, indicators, and levels for assessing the development of a culture of conscious use of artificial intelligence (AI) and the digital environment. The aim is to substantiate an assessment system that enables students' overall performance to be interpreted alongside their individual developmental profiles. The methods employed include criterion-based analysis, content alignment, and level-based characterization. As a result, the indicators of awareness, justification, value-based attitudes, practical consistency, and independent self-regulation were systematized. The high, medium, and low levels were differentiated not by the amount of knowledge acquired, but by the degree of independence, the soundness of decision-making, and the consistency of behavior. Profile-based analysis was shown to help identify imbalances that may remain concealed behind an overall score. The findings provide theoretical criteria for monitoring digital education and upbringing in schools*

Keywords: *assessment criterion, indicator, level of development, development profile, independence, practical stability, digital upbringing monitoring.*

Kirish

Raqamli tarbiya natijasini bitta umumiy ball bilan ifodalash o‘quvchining kuchli va rivojlantirilishi kerak bo‘lgan jihatlarini yashirishi mumkin. Baholashdagi bunday farqlarni izohlash uchun UNESCOning SI kompetensiyalari modeli nazariy tayanch bo‘la oladi: undagi rivojlanish darajalari kompetensiyaning tobora murakkablashadigan ifodasini belgilaydi [1; 19-b]. Bir o‘quvchi manbani yaxshi tekshirib, raqamli vaqtini boshqarishga qiynaladi; boshqasi xavfsizlik qoidalarini bilsa ham, axloqiy tanlovni asoslay olmaydi. Bu farq baholashning ichki tuzilmasini aniq belgilashni talab etadi.

Tadqiqot savoli ongli foydalanish madaniyatining shakllanganligini qaysi sifat belgilari va qanday daraja tavsiflari orqali baholash mumkinligiga qaratildi. Baholanadigan sifatning mazmunini aniqlashtirishda Ng va hammualliflarning yondashuvi ham ahamiyatlidir, chunki ular SI savodxonligi tarkibida baholash hamda etik masalalarni alohida yo‘nalishlar sifatida ajratadi [2; 504-b]. Maqsad ball yig‘ish tartibini taklif qilish emas, baholanayotgan sifatning mazmuni bilan kuzatiladigan belgilarni muvofiqlashtirishdir. Ushbu maqolada baholash mezonlari yoritiladi; vaziyatli diagnostik vositalarning ishlash jarayoni alohida tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot materiali sifatida dissertatsiyadagi mezon va ko‘rsatkichlar matritsasi, darajalarning umumiy tavsifi va mezonlar bo‘yicha ifodasi o‘rganildi. Tahlil birligi sifatida komponent bilan uni namoyon qiladigan natijaviy belgi o‘rtasidagi mazmuniy bog‘lanish olindi.

Har bir mezon uchun kuzatiladigan xatti-harakat, uning mustaqillik sharti va barqarorlik belgisi ajratildi. Kuzatiladigan harakat bilan shaxsiy munosabatning bog‘liqligini belgilashda DigComp ta’rifiga tayanildi; unda kompetentlik texnologiyalarga tanqidiy va mas’uliyatli munosabat bilan ifodalanadi [3; 3-b]. Darajalar bir xil mantiq asosida qiyoslandi: tushunishning yaxlitligi, qarorning dalillanishi, qadriyatning izchilligi va tashqi yordamga ehtiyoj. Baholash tavsiflari o‘quvchini doimiy toifaga kiritish emas, muayyan paytdagi rivojlanish holatini qayd etish vositasi sifatida olindi.

Tadqiqot nazariy metodologik xarakterga ega. Maqolada yangi ball chegaralari, normativ foizlar yoki psixometrik koeffitsiyentlar belgilanmaydi. Shuning uchun tavsiflangan darajalar sinovdan o‘tgan standart test normasi sifatida emas, mezonli baholashni loyihalash asosi sifatida qo‘llanishi mumkin.

Natijalar

Tahlil natijasida komponent, mezon, ko‘rsatkich va daraja o‘rtasidagi bog‘lanish aniqlashtirildi. Bunda shakllanganlikning mazmuniy belgisi o‘quvchining to‘g‘ri harakatni qanchalik anglangan va mustaqil bajara olishiga qarab tavsiflandi.

Mezon va ko‘rsatkichning mazmuniy chegaralari. SI va raqamli muhitdan ongli foydalanish madaniyatining shakllanganlik holatini ilmiy asosda baholash uchun «mezon», «ko‘rsatkich» va «shakllanganlik darajasi» tushunchalarining mazmuniy chegaralarini aniq belgilash zarur. Mazkur tushunchalar o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, diagnostik jarayonda turli vazifani bajaradi: mezon baholashning sifatiy asosini, ko‘rsatkich shu sifatning aniq namoyon bo‘lishini, daraja esa uning shakllanganlik holatini ifodalaydi.

Mezon muayyan tarkibiy komponentning shakllanganlik holatini qaysi mazmuniy belgi orqali baholash mumkinligini belgilaydi. U alohida harakat emas, balki o‘quvchining muayyan sohadagi bilim, munosabat, fikrlash yoki xulq-atvorini umumlashtiruvchi sifatiy asosdir. Demak, mezon «o‘quvchida qaysi sifatning shakllanganligini baholayapmiz?» degan savolga javob beradi.

Ko‘rsatkich mezonning o‘quvchi bilimi, munosabati, tanlovi, qarori yoki amaliy xatti-harakatlarida kuzatiladigan aniq ifodasidir. Masalan, axborot manbasini tekshirish, fakt bilan fikrni farqlash, SI javobini boshqa manbalar bilan qiyoslash yoki dezinformatsiyani tanish tanqidiy-baholovchi mezonning aniq ko‘rsatkichlari sifatida qaraladi.

Shakllanganlik darajasi mezon va ko‘rsatkichlarning namoyon bo‘lish holatini umumlashtiradi. Mustaqillik belgisini mazmunan tushuntirishga Miao va Holmesning generativ SI bo‘yicha tavsiyalari yordam beradi: ular SI vositasiga tayanishda insonning intellektual mustaqilligini himoya qilish zarurligini ta’kidlaydi [4; 24-b]. U faqat muayyan belgi bor yoki yo‘qligini emas, balki uning qanchalik anglangan, mustaqil, izchil va barqaror namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Shu sababli darajalarni belgilashda bilim miqdori bilan cheklanmay, to‘g‘ri harakatning tashqi ko‘rsatma asosida yoki mustaqil amalga oshirilishi ham hisobga olinadi.

Mezon, ko‘rsatkich va daraja o‘rtasida ierarxik hamda funksional bog‘liqlik mavjud: komponent nimani baholashni, mezon qaysi sifat asosida baholashni, ko‘rsatkich ushbu sifatning qanday namoyon bo‘lishini, daraja esa uning qay darajada shakllanganini ko‘rsatadi. Shu tariqa baholash tizimi «komponent → mezon → ko‘rsatkich → daraja» mantig‘ida quriladi.

Baholash mezonlari tayyor raqamli kompetentlik modelidan ko‘chirilmay, tadqiqot natijalari asosida aniqlashtirilgan besh komponentning mazmuniy-funksional xususiyatlaridan kelib chiqib ishlab chiqildi. Bunda komponent va mezon o‘rtasida mazmuniy muvofiqlik, diagnostik kuzatish imkoniyati, o‘quvchining yosh xususiyatlari, real raqamli vaziyatlarga yaqinlik, bilim bilan xulq-atvorni hamda tashqi harakat bilan ichki qadriyatni farqlash, natijaning barqarorligi va mustaqilligi hisobga olinadi. «Tashqi nazorat → ichki o‘zini boshqarish» tamoyili baholash tizimining muhim konseptual asoslaridan biri sifatida qabul qilinadi.

1-jadval.

Komponent va baholash mezonlari o‘rtasidagi muvofiqlik

Komponent	Mezon	Kuzatiladigan ko‘rsatkichlar	Natijaviy belgi
Kognitiv anglash	Mazmunni tushunish	SI cheklovini, xavf va oqibatni tushuntirish	Anglanganlik
Tanqidiy baholash	Dalil bilan asoslash	Manbani qiyoslash va da’voni tekshirish	Asoslanganlik
Qadriyatli va axloqiy	Me’yorga tayanish	Rozilik, halollik va huquqni hisobga olish	Qadriyatli munosabat
Faoliyatli xulq	Xavfsiz harakat izchilligi	Maqbul strategiyani turli vaziyatda qo‘llash	Amaliy barqarorlik
Refleksiv boshqaruv	O‘zini nazorat qilish	Vaqt, qaror va xatoni tahlil qilish	Mustaqil boshqaruv

Shakllanganlikni ifodalaydigan natijaviy belgilar. Kognitiv-anglash mezoni SI va raqamli muhitdan ongli foydalanish madaniyatining bilishga oid va tushunchaviy jihatlarini baholashga xizmat qiladi. U o‘quvchining SI va raqamli muhit haqidagi ma’lumotlarni shunchaki eslab qolganini emas, balki ularning mohiyati, imkoniyatlari, cheklovlari, ta’sir mexanizmlari va ehtimoliy oqibatlarini qay darajada anglaganini aniqlashni nazarda tutadi. Shu jihatdan mazkur

mezon keyingi tanqidiy baholash, qadriyatli tanlov va mas’uliyatli harakat uchun zarur bo‘lgan bilishga oid asosning shakllanganlik holatini ifodalaydi.

Kognitiv-anglash mezonining birinchi ko‘rsatkichi SIning mohiyati, imkoniyatlari va cheklovlarini tushunish bilan bog‘liq. Bunda o‘quvchining SIni oddiy dasturiy vosita yoki inson tafakkurining aynan nusxasi sifatida emas, balki ma’lumotlar va algoritmlarga tayanib muayyan natija hosil qiluvchi texnologik tizim sifatida umumiy darajada tushunishi muhim. Shu bilan birga, u SIning matn yaratish, axborotni umumlashtirish, tasvir hosil qilish, tavsiya berish kabi imkoniyatlarini bilishi, biroq bu imkoniyatlar cheklovsiz va mutlaq ishonchli emasligini ham anglashi kerak.

Ko‘rsatkich SI natijasining har doim ham haqqoniy va ishonchli emasligini anglashni qamrab oladi. O‘quvchi SI tomonidan berilgan javob mantiqan to‘g‘ri va ishonchli ko‘rinsa-da, unda faktologik xato, noto‘g‘ri umumlashtirish, mavjud bo‘lmagan manba yoki kontekstga mos kelmaydigan ma’lumot uchrashi mumkinligini bilishi lozim. Bu ko‘rsatkich o‘quvchining «SI javobi — tayyor haqiqat» degan passiv pozitsiyadan «SI natijasi tekshirilishi lozim bo‘lgan axborot» degan anglangan pozitsiyaga o‘tganligini ko‘rsatadi.

Kognitiv-anglash mezonining asosiy savoli «O‘quvchi raqamli muhit va SI bilan bog‘liq vaziyatni qay darajada to‘g‘ri anglaydi?» tarzida ifodalanadi. Baholashda tushunchalarni yoddan aytishdan ko‘ra ularni real vaziyat bilan bog‘lab tushuntirish, SI imkoniyati va cheklovini farqlash, raqamli xavfni tanish va ehtimoliy oqibatni izohlash qobiliyatiga e’tibor qaratiladi.

Shu sababli kognitiv-anglash mezonini baholashda asosiy e’tibor terminlarni yoddan aytishga emas, balki ularni real raqamli vaziyat bilan bog‘lab tushuntirish, SI imkoniyati va cheklovini farqlash, xavfni tanish va ehtimoliy oqibatni izohlash qobiliyatiga qaratilishi maqsadga muvofiq. Ana shu holatda mazkur mezon keyingi tanqidiy-baholovchi mezon uchun mustahkam kognitiv asos vazifasini bajaradi.

Tanqidiy-baholovchi mezon SI va raqamli muhitdan ongli foydalanish madaniyatining axborotni qabul qilishdan asoslangan xulosa va qarorga o‘tish darajasini baholashga xizmat qiladi. Mazkur mezon o‘quvchining raqamli muhitda uchraydigan axborot, xabar, vizual material, algoritmik tavsiya yoki SI tomonidan yaratilgan natijani tayyor haqiqat sifatida qabul qilmasdan, uni tekshirish, qiyoslash, tahlil qilish va dalillar asosida baholash qobiliyatini aniqlashga qaratilgan. Shu jihatdan u kognitiv anglashning amaliy-intellektual davomi bo‘lib, «bilaman» darajasidan «tekshiraman, qiyoslayman va asoslayman» darajasiga o‘tishni ifodalaydi.

Ko‘rsatkich axborot manbasining ishonchliligini tekshirish qobiliyatidir. Bunda o‘quvchi axborotning qayerdan olingani, uni kim tayyorlagani, qachon e’lon qilingani, qanday maqsadda tarqatilgani va qaysi dalillarga tayanayotganini aniqlay olishi lozim. Manbaning nomi yoki tashqi ko‘rinishi emas, balki uning ishonchliligi, muallifning kompetentligi, ma’lumotning yangiligi va boshqa manbalar bilan muvofiqligi asosiy baholash obyekti bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich o‘quvchining axborotni passiv qabul qilishdan manbani tekshirishga asoslangan faol pozitsiyaga o‘tganini ko‘rsatadi.

Ko‘rsatkich SI natijasini tekshirish va baholash qobiliyatini ifodalaydi. O‘quvchi SI tomonidan yaratilgan matn, javob, tavsiya yoki tahlilni tashqi shakli va ishonchli uslubiga qarab to‘g‘ri deb qabul qilmasligi kerak. U javobdagi asosiy da’volarni ajratishi, muhim ma’lumotlarni boshqa manbalar bilan tekshirishi, faktologik xato, noto‘g‘ri umumlashtirish yoki mavjud bo‘lmagan manbani aniqlay olishi lozim. Bu ko‘rsatkich SI natijasiga nisbatan tanqidiy masofani saqlash darajasini belgilaydi.

Shu nuqtai nazardan tanqidiy-baholovchi mezonning asosiy savoli «O‘quvchi axborot va raqamli ta’sirni mustaqil ravishda tekshirib, asoslangan baholay oladimi?» tarzida ifodalanadi. Uning ichki mantig‘i «axborotni qabul qilish → manbani tekshirish → qiyoslash → ta’sirni anglash → dalil asosida baholash → oqibatni prognoz qilish → asoslangan xulosa» zanjirida namoyon bo‘ladi.

Qadriyatli-axloqiy mezon SI va raqamli muhitdan ongli foydalanish madaniyatining shaxsiy e’tiqod, axloqiy pozitsiya va mas’uliyat bilan bog‘liq jihatlarini baholashga xizmat qiladi. Mazkur mezonning asosiy xususiyati shundaki, bunda o‘quvchining raqamli muhitdagi qoidalarni faqat bilishi emas, balki ularni shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilishi va qarorlarida ushbu qadriyatlarga tayanishi baholanadi. Shu sababli mazkur mezon «qoidani biladimi?» degan savoldan ko‘ra «ushbu qoidani ichki me’yor sifatida qabul qilganmi va amaliy tanlovida unga tayanadimi?» degan savolga javob berishga qaratilgan.

SIdan foydalanishda shaffoflik akademik halollikning zamonaviy ifodasidir. O‘quvchi SIdan matn yaratish, g‘oya olish, tahlil yoki tarjima uchun foydalangan bo‘lsa, bu yordamni yashirmasligi, uning ishtirokini ochiq ko‘rsatishi va mustaqil intellektual hissasini saqlashi kerak. Shu jihatdan shaffoflik halollik, shaxsiy javobgarlik va ta’lim natijasining haqqoniyligini ta’minlovchi qadriyat sifatida baholanadi.

Qadriyatli-axloqiy mezonning asosiy savoli «O‘quvchi raqamli qarorini qay darajada axloqiy, huquqiy va mas’uliyatli mezonlarga tayanib qabul qiladi?» tarzida ifodalanadi. Bu yerda qoidani bilishdan ko‘ra uning shaxsiy qadriyatga aylanganligi, ya’ni tashqi nazoratsiz vaziyatda ham halollik, inson qadri, huquq, mas’uliyat va shaffoflikka tayanib qaror qabul qilish muhim.

Faoliyatli-xulq-atvor mezoni SI va raqamli muhitdan ongli foydalanish madaniyatining amaliy namoyon bo‘lish darajasini baholashga xizmat qiladi. U o‘quvchining muayyan qoida yoki xavf haqida bilishini emas, balki shu bilim, tanqidiy baholash va qadriyatli munosabatni real raqamli vaziyatda to‘g‘ri xatti-harakatga aylantira olishini aniqlaydi. Shu jihatdan mazkur mezon «bilaman» bilan «qilaman» o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib beruvchi eng muhim baholash yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ko‘rsatkich raqamli vositalardan maqsadli foydalanish bilan bog‘liq. O‘quvchi raqamli qurilma, platforma yoki SI vositasidan shunchaki mavjud bo‘lgani uchun emas, balki aniq ta’limiy, axborotiy yoki ijodiy maqsadga muvofiq holda foydalana olishi lozim. Bunda u qaysi vazifa uchun qaysi vosita maqbul ekanini tanlaydi, ortiqcha va maqsadsiz raqamli faoliyatni cheklaydi. Bu ko‘rsatkich o‘quvchining texnologiyadan foydalanishi maqsad bilan boshqariladimi yoki texnologiyaning o‘zi uning xatti-harakatini belgilaydimi, degan farqni ochib beradi.

Ko‘rsatkich xavfli havola va shubhali kontentga maqbul reaksiya bilan bog‘liq. O‘quvchi shubhali havola, noma’lum fayl, ishonchsiz xabar yoki zararli kontentga duch kelganda uni ochmaslik, yuklab olmaslik, qayta tarqatmaslik, bloklash yoki tegishli tarzda xabar berish kabi harakatlarni mustaqil bajara olishi lozim. Bu yerda asosiy baholash obyekti xavfni tanish emas, balki tanilgan xavfga nisbatan to‘g‘ri xulq-atvor strategiyasini tanlashdir.

Ko‘rsatkich raqamli vaqtdan foydalanishini tahlil qilish va boshqarish bilan bog‘liq. O‘quvchi raqamli qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar, ta’lim platformalari yoki SI vositalariga qancha vaqt sarflayotganini anglashi, ushbu vaqtning maqsadga muvofiqligini baholashi va zarur holda uni mustaqil tartibga solishi lozim. Bunda asosiy masala ekran vaqtini mexanik qisqartirish emas, balki vaqt sarfining maqsad, natija va shaxsiy ehtiyojlar bilan muvofiqligini anglashdir.

Ko‘rsatkich diqqatni nazorat qilish qobiliyatini ifodalaydi. Raqamli muhitda xabarnomalar, qisqa videolar, tavsiyalar va doimiy axborot oqimi o‘quvchining diqqatini parchalashi mumkin.

Shu sababli u qaysi omillar uni asosiy vazifadan chalg‘itayotganini anglay olishi, keraksiz raqamli stimullarni cheklashi va diqqatini maqsadli faoliyatga qayta yo‘naltira olishi kerak. Bu ko‘rsatkich raqamli o‘zini boshqarishning muhim amaliy belgisidir.

Ko‘rsatkich o‘z raqamli xatti-harakatini baholashni nazarda tutadi. O‘quvchi muayyan harakatdan so‘ng uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri tomonlarini tahlil qilishi, o‘z qarorining qabul qilingan axloqiy, huquqiy va xavfsizlik me’yorlariga qanchalik mos kelganini baholay olishi kerak. Bu yerda muhim jihat — o‘z harakatiga tashqi baho berilgandan keyingina emas, balki mustaqil ravishda tanqidiy munosabat bildirish qobiliyatidir.

Refleksiv-boshqaruv mezonining asosiy savoli «O‘quvchi tashqi nazorat bo‘lmagan sharoitda ham o‘z raqamli faoliyatini mustaqil boshqara oladimi?» tarzida ifodalanadi. Baholashda o‘z xatti-harakatini shunchaki izohlash emas, balki uni kuzatish, oqibatini baholash, xatoni anglash, tuzatish kiritish va keyingi qarorni takomillashtirish qobiliyati muhim.



1-rasm. Raqamli madaniyat rivojlanishining pedagogik iyerarxiyasi

Darajalarni profil bo‘yicha talqin qilish. Mazkur mezonning ichki mantig‘i «maqsadni anglash → o‘z faoliyatini kuzatish → vaqt va diqqatni boshqarish → natija va oqibatni tahlil qilish → xatoni tuzatish → mustaqil raqamli odat va xulq-atvorni saqlash» zanjirida ifodalanadi. Shu orqali «tashqi nazorat → anglangan ichki me’yor → refleksiv nazorat → mustaqil o‘zini boshqarish» o‘tishi diagnostik mazmun kasb etadi.

Mezonlar va ko‘rsatkichlarni alohida tavsiflash ularning umumiy baholash tizimidagi o‘rnini to‘liq ochib bermaydi. Shu sababli ularni yagona integrativ tizimda qarash muhim. Bunda har bir mezon muayyan komponentning shakllanganlik holatini baholashga xizmat qiladi, ko‘rsatkichlar esa ushbu holatning aniq namoyon bo‘lish belgilarini ifodalaydi. Natijaviy belgi esa har bir mezon bo‘yicha baholashning umumlashtirilgan pedagogik yo‘nalishini belgilaydi. Shu asosda SI va raqamli muhitdan ongli foydalanish madaniyatining baholash mezonlari va asosiy ko‘rsatkichlarini integrativ tizimda ifodalash mumkin.

SI va raqamli muhitdan ongli foydalanish madaniyatining baholash mezonlari va asosiy ko‘rsatkichlari

Jadvalda komponent, mezon, ko‘rsatkich va natijaviy belgi o‘zaro bog‘langan, biroq turli vazifani bajaruvchi elementlar sifatida aks ettirilgan. Komponent ichki tarkibiy sohani, mezon baholash yo‘nalishini, ko‘rsatkich aniq namoyon bo‘lishni ifodalasa, anglanganlik, asoslanganlik, qadriyatlilik, amaliy barqarorlik va mustaqil o‘zini boshqarish tegishli mezonlarning umumlashtirilgan natijaviy belgilaridir.

Mezonlar yagona baholash tizimida amal qiladi: raqamli vaziyatni anglash tanqidiy baholash uchun asos yaratadi, tanqidiy baholash qadriyatli tanlovni asoslaydi, qadriyatli pozitsiya mas’uliyatli harakatda namoyon bo‘ladi, amaliy tajribaning refleksiv tahlili esa keyingi qarorlarni boshqarishga xizmat qiladi. Shu sababli tizim «anglanganlik → asoslanganlik → qadriyatlilik → amaliy barqarorlik → mustaqil o‘zini boshqarish» mantig‘iga ega.

Shakllanganlik darajalari mezon va ko‘rsatkichlarning namoyon bo‘lish holatini umumlashtiruvchi bosqich hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda yuqori, o‘rta va past darajalar qabul qilinib, ular bilim hajmiga emas, anglanganlik, mustaqillik, qarorning asoslanganligi, qadriyatli barqarorlik, xulq-atvor izchilligi, tashqi yordamga ehtiyoj va refleksiv o‘zini boshqarish belgilarining uyg‘unligiga ko‘ra farqlanadi.

Tashqi yordamga ehtiyoj darajasi ham shakllanganlikni farqlashda muhim belgidir. Past darajada o‘quvchi ko‘proq tashqi ko‘rsatma va nazoratga tayanadi; o‘rta darajada ayrim vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qiladi, ammo murakkab holatlarda yordamga ehtiyoj sezadi; yuqori darajada esa ko‘pchilik raqamli vaziyatlarda mustaqil, asoslangan va mas’uliyatli qaror qabul qila oladi.

Mezon, ko‘rsatkich va shakllanganlik darajalarini o‘zaro muvofiq ifodalash baholash tizimining yaxlitligini ta’minlaydi. Shu asosda har bir besh mezon bo‘yicha yuqori, o‘rta va past darajalar yagona mantiq — anglanganlik, mustaqillik, asoslangan qaror, qadriyatli barqarorlik, xatti-harakat izchilligi va refleksiv o‘zini boshqarish nuqtai nazaridan tavsiflandi.

SI va raqamli muhitdan ongli foydalanish madaniyati shakllanganlik darajalarining mezonlar bo‘yicha tavsifi

Mazkur matritsa keyingi diagnostik jarayonning metodologik asosi vazifasini bajaradi: u har bir mezon bo‘yicha nimani aniqlash, qaysi belgilarni kuzatish va natijani qanday talqin qilish lozimligini belgilaydi. Refleksiv-boshqaruv mezonida tashqi nazoratsiz barqaror xulq-atvorning yuqori daraja sifatida belgilanishi «tashqi nazorat → ichki o‘zini boshqarish» konseptual tamoyilini diagnostik darajaga olib chiqadi.

Integral baholashda dastlab besh mezon bo‘yicha xususiy natijalar aniqlanadi, keyin ular o‘zaro qiyoslanib, o‘quvchining qaysi yo‘nalishlarda kuchli va qaysi sohalarda rivojlantirishga muhtoj ekani belgilanadi. Shu asosda shaxsiy integrativ profil shakllantirilib, umumiy shakllanganlik darajasi haqida xulosa chiqariladi.

Integral baholashning mantig‘ini quyidagicha ifodalash mumkin:

«Profilli baholash» o‘quvchiga faqat «yuqori», «o‘rta» yoki «past» umumiy daraja berish bilan cheklanmay, uning madaniyat tuzilmasida qaysi komponentlar yetarli rivojlangani va qaysi yo‘nalishlar pedagogik qo‘llab-quvvatlashga muhtojligini aniqlash imkonini beradi. Profilni kundalik faoliyat bilan bog‘lashda Soldatovaning raqamli tajriba onlayn va oflayn kontekstlarda davom etishi haqidagi qarashi nazariy asos bo‘ladi [5; 76-b]. Masalan, o‘quvchi axborot va SI natijalarini tanqidiy baholay olishi, ammo shaxsiy ma’lumotlarni amalda himoya qilish yoki raqamli vaqtni boshqarishda qiynalishi mumkin.

Shu jihatdan integral baholash diagnostik xulosa chiqarish bilan birga pedagogik ta’sirni individuallashtirishga xizmat qiladi. U o‘quvchining kuchli va rivojlantirilishi zarur tomonlarini

aniqlash, korreksion vazifalarni belgilash va keyingi diagnostika natijalarini qiyosiy baholash imkonini beradi.

2-jadval.

Shakllanganlik darajalarining mezonlar bo‘yicha tavsifi

Mezon	Yuqori daraja	O‘rta daraja	Past daraja
Kognitiv anglash	Imkoniyat va xavfni yaxlit tushuntiradi	Asosiy tushunchalarni biladi, ayrim aloqalarda yordam zarur	Tasavvur parchalangan, xavfni izohlashga qiynaladi
Tanqidiy baholash	Mustaqil tekshiradi va dalillaydi	Oddiy vaziyatda tekshiradi, murakkabida ko‘mak kerak	Natijani tekshirmasdan qabul qiladi
Qadriyatli munosabat	Me’yorni yangi vaziyatda izchil saqlaydi	Me’yorni qabul qiladi, tanlov vaziyatga bog‘liq	Tashqi talab ustuvor, oqibatga e’tibor kam
Amaliy barqarorlik	Xavfsiz strategiyani mustaqil qo‘llaydi	Tanish vaziyatda maqbul harakat qiladi	Xavfsiz amal uchun tez-tez ko‘rsatma kerak
Mustaqil boshqaruv	Xato, vaqt va odatni kuzatib tuzatadi	Ayrim jihatlarni boshqaradi, eslatma zarur	Refleksiya zaif va tashqi nazoratga ehtiyoj yuqori

Muhokama

Umumiy natija va rivojlanish profilining vazifalari bir xil emas. Umumiy natija o‘quvchining joriy holatini qisqa ifodalaydi, profil esa pedagogik yordamning yo‘nalishini ko‘rsatadi. Shu sababli yakuniy tavsifda birgina umumiy daraja bilan cheklanish qo‘shimcha rivojlantirishga muhtoj jihatni ko‘rmay qolishga olib kelishi mumkin.

Rasmda ko‘rsatilgan rivojlanish iyerarxiyasi baholashning tayyor shkalasi sifatida qabul qilinmaydi. U o‘quvchi faolligi qanday pedagogik yo‘nalishda kengayishini tushuntiradi. Darajani belgilash esa jadvaldagi kuzatiladigan belgilar, ularning mustaqilligi va turli vaziyatdagi takrorlanishiga tayanishi zarur.

Yordam so‘rashni har qanday vaziyatda past daraja belgisi deb baholash xato bo‘ladi. Murakkab yoki xavfli vaziyatda o‘z imkoniyatini to‘g‘ri baholab, ishonchli kattaga murojaat qilish mustaqil va mas’uliyatli qarorning bir ko‘rinishi bo‘lishi mumkin. Demak, baholashda yordamga murojaat qilish sababi va uning maqsadga muvofiqligi farqlanishi kerak.

Taklif etilgan mezonlarning amaliy ishonchliligini tekshirish uchun baholovchilar bir xil javobni qanchalik o‘xshash talqin qilishini aniqlash talab etiladi. Bu talabning metodologik ahamiyatini Orbenning sharhi ham ko‘rsatadi: raqamli faoliyatni o‘lchashdagi cheklovlar natijalarni talqin qilish sifatiga ta’sir etadi [6; 407-b]. O‘quvchi holatini bir martalik topshiriq asosida qat’iy belgilamaslik, turli vaziyatdagi dalillarni jamlash tavsiya etiladi. Mazkur talablar nazariy tizimni amaliy o‘lchovga aylantirishning keyingi bosqichidir.

Xulosa

Ongli foydalanish madaniyatini baholash bilim, asoslangan qaror, qadriyat, amaliy barqarorlik va mustaqil boshqaruvning muvofiqligiga tayanishi kerak. Darajalar o‘quvchining to‘g‘ri javoblar sonini emas, mazkur sifatlarning qanday namoyon bo‘lishini farqlaydi.

Profil bo‘yicha tahlil umumiy natijani mazmunan to‘ldirib, pedagogik yordamning aniq yo‘nalishini belgilaydi. Mezonli baholashni amaliyotga joriy etishda tavsiflar tushunarliligi, baholovchilar muvofiqligi va turli vaziyatlardagi takroriy dalillar tekshirilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Miao, F., Shiohira, K., & Lao, N. (2024). *AI competency framework for students*. UNESCO.
2. Ng, D. T. K., Leung, J. K. L., Chu, K. W. S., & Qiao, M. S. (2021). AI literacy: Definition, teaching, evaluation and ethical issues. *Proceedings of the Association for Information Science and Technology*, *58*(1), 504–509. https://doi.org/10.1002/pra2.487
3. Vuorikari, R., Kluzer, S., & Punie, Y. (2022). *DigComp 2.2: The digital competence framework for citizens with new examples of knowledge, skills and attitudes*. Publications Office of the European Union. https://doi.org/10.2760/115376
4. Miao, F., & Holmes, W. (2023). *Guidance for generative AI in education and research*. UNESCO. https://doi.org/10.54675/EWZM9535
5. Soldatova, G. U. (2018). Tsifrovaya sotsializatsiya v kul'turno-istoricheskoy paradigme: Izmenyayushchiysya rebenok v izmenyayushchemsya mire [Digital socialization in the cultural-historical paradigm: A changing child in a changing world]. *Sotsial'naya psikhologiya i obshchestvo*, *9*(3), 71–80. https://doi.org/10.17759/sps.2018090308
6. Orben, A. (2020). Teenagers, screens and social media: A narrative review of reviews and key studies. *Social Psychiatry and Psychiatric Epidemiology*, *55*(4), 407–414. https://doi.org/10.1007/s00127-019-01825-4
7. Long, D., & Magerko, B. (2020). What is AI literacy? Competencies and design considerations. In *Proceedings of the 2020 CHI Conference on Human Factors in Computing Systems* (pp. 1–16). Association for Computing Machinery. https://doi.org/10.1145/3313831.3376727
8. McGrew, S., Breakstone, J., Ortega, T., Smith, M., & Wineburg, S. (2018). Can students evaluate online sources? Learning from assessments of civic online reasoning. *Theory & Research in Social Education*, *46*(2), 165–193. https://doi.org/10.1080/00933104.2017.1416320
9. Wineburg, S., & McGrew, S. (2019). Lateral reading and the nature of expertise: Reading less and learning more when evaluating digital information. *Teachers College Record*, *121*(11), 1–40. https://doi.org/10.1177/016146811912101102
10. Ribble, M. (2015). *Digital citizenship in schools: Nine elements all students should know* (3rd ed.). International Society for Technology in Education.
11. Sweller, J., van Merriënboer, J. J. G., & Paas, F. (2019). Cognitive architecture and instructional design: 20 years later. *Educational Psychology Review*, *31*(2), 261–292. https://doi.org/10.1007/s10648-019-09465-5
12. Begimqulov, U. Sh., Djuraev, R. X., Isyanov, R. G., Sharipov, Sh. S., Adashboev, Sh. M., & Soy, M. N. (2011). *Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: Nazariya va amaliyot*. Fan.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNI IQTISODIY TARBIYALASH JARAYONLARINI PEDAGOGIK LOYIHALASHTIRISH

Qo'chqorov Baxodir Maxkamovich
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
DOI: 10.67620/ajousci.240029

Annotatsiya. *Maqolada raqamli ta'lim muhitida talabalarni iqtisodiy tarbiyalash jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish muammosi ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning dolzarbligi mamlakatda raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardosh, iqtisodiy fikrlaydigan kadrlar tayyorlashga bo'lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Maqsad - talabalarni iqtisodiy tarbiyalash jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda nazariy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik usullar (kuzatish, so'rovnoma, test), tajriba-sinov hamda natijalarni matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi; tajriba-sinov ishlari Buxoro, Toshkent va Farg'ona davlat universitetlarida o'tkazildi. Natijada ta'limning raqamli iqtisodiyotga tayyorligini baholovchi besh ko'rsatkichlar guruhi aniqlandi, iqtisodiy tarbiya jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishning besh bosqichli modeli takomillashtirildi hamda autsorsing va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlariga asoslangan OTM-ishlab chiqarish korxonasi hamkorligining bozorga yo'naltirilgan vositalari tizimlashtirildi. Olingan natijalar o'quv rejalari, dasturlari, darsliklari va metodik qo'llanmalarni takomillashtirishda, shuningdek kasbiy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha nazariy-amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti; iqtisodiy tarbiya; pedagogik loyihalashtirish; raqamli iqtisodiyot; kompetensiyalar modeli; autsorsing; davlat-xususiy sheriklik; ta'lim sifati .*

Abstract. *The article examines the pedagogical design of processes for students' economic upbringing in a digital educational environment. The study's relevance stems from the need of higher education institutions to prepare competitive, economically literate personnel amid the country's transition to a digital economy. The aim was to develop scientifically grounded recommendations for the pedagogical design of these processes. Methods included comparative analysis of theoretical literature, socio-pedagogical techniques (observation, questionnaires, testing), a pedagogical experiment, and mathematical-statistical processing of results; the experimental work was carried out at Bukhara, Tashkent, and Fergana State Universities. The results identify five groups of indicators for assessing higher education's readiness for the digital economy, refine a five-stage model of pedagogical design*

for economic upbringing processes, and systematize market-oriented mechanisms of university - enterprise cooperation based on outsourcing and public-private partnership. The findings can be applied in improving curricula, syllabi, textbooks and methodological manuals, and in organizing theoretical and practical training in vocational education.

Key words: *digital educational environment; economic upbringing; pedagogical design; digital economy; competency model; outsourcing; public-private partnership; quality of education.*

Kirish

Jahon ta’lim tizimida yoshlarni raqamli iqtisodiyot uchun kadr sifatida tarbiyalash jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish va zamonaviy kasbiy bilim hamda ko‘nikmalarni shakllantirish texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Elektron axborot-ta’lim muhitini rivojlantirish, kiberpedagogika, masofaviy va aralash (blended/online-offline) ta’lim shakllarini takomillashtirish, ochiq ta’lim resurslarini kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, oliy ta'lim muassasalari (OTM) faoliyati samaradorligini oshirish va ilmiy-innovasion yutuqlarni amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy asos shakllantirilgan. Harakatlar strategiyasida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish va mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan talabalarni iqtisodiy tarbiyalash jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish asosida kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Ta’lim jarayonlarini axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT) vositasida takomillashtirish masalalari A.A.Abduqodirov, A.X.Abdullaev, M.Aripov, U.Begimqulov, F.Zakirova va boshqa mahalliy olimlar tomonidan; iqtisodiy tarbiya jarayonlarini takomillashtirish N.N.Azizxodjaeva, B.S.Abdullaeva, R.X.Djuraev, O‘.Q.Tolipov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Xorijiy olimlardan W.N.Chambers, J.M.Spector, M.Rosenberg, D.Kegan kabi tadqiqotchilar AKTni ta’limga joriy etish masalalarini o‘rganishgan. Shu bilan birga, raqamli ta'lim muhitida iqtisodiy tarbiya jarayonlarini yaxlit pedagogik loyihalashtirish modelini, uning mazmuni va samaradorlik mezonlarini aniqlash masalasi yetarlicha ochib berilmagan, bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy muammosini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi - raqamli ta'lim muhitida talabalarni iqtisodiy tarbiyalash jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: (1) talabalarni iqtisodiy tarbiyalash jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish imkoniyatlarini aniqlash; (2) nazariy bilimlarni vizuallashtirish orqali ishlab chiqarish sohasiga translasiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish; (3) pedagogik loyihalashtirish modelini takomillashtirish; (4) jarayonning samaradorligini oshiruvchi shart-sharoitlarni aniqlashtirish.

MATERIAL VA USULLAR

Tadqiqotning ob’ekti sifatida raqamli ta’lim muhitida talabalarni iqtisodiy tarbiyalash jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish jarayoni, predmeti sifatida esa ushbu jarayonni takomillashtirishning shakl, metod va vositalari olindi. Tajriba-sinov ishlari Buxoro, Toshkent va Farg‘ona davlat universitetlarida o‘tkazildi.

Tadqiqot usullari quyidagi guruhlarni o‘z ichiga oldi: 1) nazariy usullar - mavzuga oid falsafiy, sosiologik, psixologik-pedagogik adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish; 2) ijtimoiy-pedagogik usullar - kuzatish, suhbat, tashxislash, so‘rovnoma va test o‘tkazish; 3) empirik usul - tajriba-sinov ishlari; 4) matematik-statistik usullar - monitoring natijalarini miqdoriy qayta ishlash va tahlil qilish. Ta’lim muassasalarining raqamli iqtisodiyotga tayyorligini baholashda rasmiy statistika, ekspertlar bahosi va professional hamjamiyat ma'lumotlari, shuningdek Jahon banki tomonidan taklif etilgan mezonlar hisobga olindi.

Universitet-ishlab chiqarish korxonasi hamkorligi shakllarini tahlil qilishda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) doirasidagi tadqiqotlar asosida bozorga asoslangan uchta mexanizm: autsorsing, davlat-xususiy sheriklik va vaucherlarni loyihalash - qiyosiy tahlil qilindi (1-jadvalga qarang).

NATIJALAR

1. Ta’limning raqamli iqtisodiyotga tayyorligini baholash beshta ko‘rsatkichlar guruhi bo‘yicha amalga oshirilishi aniqlandi: ta’lim jarayonida ATni qo‘llash; ATdan foydalanish bo‘yicha pedagog kadrlarni tayyorlash; ta'lim boshqaruvini axborotlashtirish; ta'lim faoliyatining axborot infratuzilmasi; raqamlashtirishni me’yoriy-huquqiy qo‘llab-quvvatlash (1-rasm). O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, aksariyat universitetlar hali axborotlashtirishning dastlabki bosqichida bo‘lib, faqat ayrim OTMlar avtomatlashtirish va axborotlashtirish bosqichlaridan o‘tib, raqamli iqtisodiyot sari izchil harakatlanmoqda.



1-rasm. Ta’limning raqamli iqtisodiyotga tayyorligini belgilovchi ko‘rsatkichlar guruhi

2. Talabalarni iqtisodiy tarbiyalash jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishning beshta o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat modeli takomillashtirildi: maqsadni belgilash → tashxis va imkoniyatlarni aniqlash → model va mazmunni loyihalashtirish → dasturiy-metodik ta’minotni amalga oshirish → samaradorlikni baholash va tuzatish (2-rasm, 1-jadval). Model yopiq tizim sifatida emas, balki baholash bosqichidan maqsadni aniqlashtirishga teskari aloqa orqali qayta bog‘lanadigan siklik jarayon sifatida shakllantirildi, bu esa loyihalashtirishning uzluksiz takomillashuvini ta’minlaydi.



2-rasm. Talabalarni iqtisodiy tarbiyalash jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish modeli

1-jadval. Pedagogik loyihalashtirish modelining bosqichlari va kutilayotgan natijalar.

№	Pedagogik loyihalashtirish modeli bosqichi	Asosiy natija (chiqish)
1	Maqsadni belgilash	Iqtisodiy tarbiya jarayonining pedagogik maqsad va vazifalari
2	Tashxis va imkoniyatlarni aniqlash	Talabalar va OTMning raqamli-iqtisodiy tayyorgarlik darajasi
3	Model va mazmunni loyihalashtirish	Vakolatlar (kompetensiyalar) modeli, mazmun va texnologik xarita
4	Dasturiy-metodik ta’minotni amalga oshirish	O‘quv-uslubiy majmua, elektron resurslar, autsorsing/ATK shakllari
5	Samaradorlikni baholash va tuzatish	Miqdoriy-sifat mezonlari, tajriba-sinov natijalari, korrektirovka

3. Nazariy bilimlarni ishlab chiqarish sohasiga translasiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida universitet-korxona hamkorligining bozorga asoslangan vositalari tizimlashtirildi (2-jadval). Tahlil shuni ko‘rsatdiki, autsorsing davlat (shu jumladan ta'lim) xizmatlarining eng keng tarqalgan bozor mexanizmi hisoblanadi va u xarajatlarni kamaytirish, vaqtinchalik ekspertizadan foydalanish hamda amaliy mashg‘ulotlarni ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etish imkoniyatini beradi. Autsorsing samaradorligi, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarining ikki bosqichli tender jarayoniga kirishishi - avval umumiy ehtiyojlarni e’lon qilish, so‘ng talabalarning ijodiy takliflari asosida batafsil loyiha taqdim etishi - orqali oshishi aniqlandi.

2-jadval. Ishlab chiqarish korxonasi bilan hamkorlikda bozorga asoslangan strategik yondashuvlar

Strategik yondashuv	Bozorga asoslangan maxsus vositalarga misollar
Davlat xizmatlarini (ta’lim-ishlab chiqarish hamkorligini) ko‘rsatishda bozorga asoslangan yondashuvlar	Raqobatli manbalar; davlat-xususiy sheriklik; vaucherlar; autsorsing; birgalikda manbalardan foydalanish; shartnoma tuzish; xususiylashtirish; aktivlarni ajratish yoki sotish
Ichki (OTM ichidagi) xizmatlarni taqdim etishda bozorga asoslangan yondashuvlar	Boshqariladigan franchayzing yoki aylanma fondlar; samaradorlikka asoslangan tashkiliy birliklar; natijaga bog‘liq to‘lov; raqobatli grantlar, kreditlar va kredit kafolatlari

Strategik yondashuv	Bozorga asoslangan maxsus vositalarga misollar
Tartibga solish, standartlashtirish va narxni belgilashda bozorga asoslangan yondashuvlar	Faoliyat yuritish uchun ruxsatnomalar; tanlovlar (auksionlar); foydalanuvchi to‘lovlari; xavfga asoslangan huquqni muhofaza qilish; soliq imtiyozlari va subsidiyalar

4. Tadqiqot davomida talabalarning iqtisodiy tarbiyalash jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish samaradorligini oshiruvchi omillar va pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirildi: talabalarning iqtisodiy bilim darajasini oshiruvchi muammoli topshiriqlar tizimi; amaliy yechim topish va uni baholash mezonlari; ta'lim texnologiyasining tashkiliy mazmunini ta'lim amaliyotiga tizimli tatbiq etish. Tajriba-sinov guruhlarida olingan dastlabki ma'lumotlar, nazariy bilimlarni vizuallashtirish va ishlab chiqarish vaziyatlariga translasiya qilish nazorat guruhlariga nisbatan talabalarning iqtisodiy tarbiya ko‘rsatkichlarini sezilarli yaxshilashga xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatdi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar raqamli ta’lim muhitida iqtisodiy tarbiya jarayonlarini loyihalashtirish murakkab, ko‘p bosqichli va siklik xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Beshta ko‘rsatkichlar guruhi (1-rasm) orqali baholash yondashuvi Jahon banki tavsiyalari va xorijiy tadqiqotlar (masalan, W.N.Chambers, J.M.Spector) bilan uyg‘unlashadi, lekin uni mahalliy OTMlar sharoitiga moslashtirilgan holda amaliyotga tatbiq etish zarurati saqlanib qolmoqda: aksariyat universitetlar hali axborotlashtirishning dastlabki bosqichida ekanligi bu borada qo‘shimcha institusional qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

Autsorsing va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining ta'limga tatbiq etilishi (2-jadval) xorijiy tajriba (OESR hisobotlari, Dj.Kamenskiy tadqiqotlari) bilan mos keladi, ammo tanqidiy nazariyotchilar qayd etganidek, bunday mexanizmlar nazorat etilmagan holda qo‘llanilsa, xizmat sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois taklif etilayotgan ikki bosqichli tender jarayoni va provayderlar (OTM) o‘rtasidagi raqobatbardosh muhitni saqlash kabi choralar, autsorsingning ijobiy samarasini ta'minlovchi muhim pedagogik shart sifatida baholanishi lozim.

Takomillashtirilgan besh bosqichli model' (2-rasm) mavjud pedagogik loyihalashtirish yondashuvlaridan uning doimiy teskari aloqa mexanizmiga ega bo‘lgan ochiq tizim sifatida shakllantirilganligi bilan farqlanadi. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy tarbiya jarayonining statik emas, balki raqamli iqtisodiyot va mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablariga moslashuvchan bo‘lishini ta'minlaydi. Tadqiqotning cheklanishi shundaki, tajriba-sinov uch davlat universiteti misolida o‘tkazilgan; natijalarni kengroq umumlashtirish uchun turli tipdagi (jumladan, texnik va iqtisodiy yo‘nalishdagi) OTMlarda qo‘shimcha tajriba-sinov ishlari o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida raqamli ta’lim muhitida talabalarni iqtisodiy tarbiyalash jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishning ilmiy asoslangan modeli takomillashtirildi, ta’lim muassasalarining raqamli iqtisodiyotga tayyorligini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimlashtirildi va universitet-ishlab chiqarish korxonasi hamkorligining bozorga yo‘naltirilgan vositalari (autsorsing, davlat-xususiy sheriklik) aniqlashtirildi. Olingan xulosalar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy tarbiya jarayonlarining samaradorligi, birinchi navbatda, loyihalashtirishning uzluksiz teskari aloqa orqali takomillashib borishiga va nazariy bilimlarni amaliy-ishlab chiqarish vaziyatlariga vizuallashtirilgan holda translasiya qilinishiga bog‘liq.

Tadqiqot natijalari o‘quv rejalari, dasturlari, darsliklar va metodik qo‘llanmalarni takomillashtirishda, shuningdek kasbiy ta'lim yo‘nalishlari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda, shu jumladan ta'limda korporativ hamkorlik jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishda amaliy ahamiyatga ega. Kelgusi tadqiqotlar doirasida taklif etilgan modelning turli yo‘nalishdagi OTMlarda sinovdan o‘tkazilishi va samaradorlik mezonlarining raqamli nazorat tizimlari (masalan, o‘quv analitikasi vositalari) orqali avtomatlashtirilgan monitoringini yo‘lga qo‘yish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017, 17-fevral). *Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida* (PQ-2789-son qaror).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, 8-noyabr). *O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida* (PF-5847-son farmon).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 28-yanvar). *2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida* (PF-60-son farmon).
4. Azizxodjaeva, N. N. (2006). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent.
5. Blöndal, J. R. (2006). Market-type mechanisms and the provision of public services. *OECD Journal on Budgeting, 5*(1), 79–106. https://doi.org/10.1787/budget-5-5l9n6d3f718r
6. Spector, J. M. (2016). *Foundations of educational technology: Integrative approaches and interdisciplinary perspectives* (2nd ed.). Routledge.
7. Tolipov, O‘. Q., & Usmonboeva, M. (2006). *Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari*. Fan.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

TALABALARDA XITOY TILI FONETIK KOMPETENSIYASINING SHAKLLANGANLIK DARAJASINI EKSPERIMENTAL TADQIQ ETISH NATIJALARI

Dilshada Raxmatullayeva
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dilshadarakhmatullaeva@gmail.com; dilshada_raxmatullayeva@tsuos.uz
ORCID: 0009-0003-6083-5157
Taqrizchi: N.P.Babaniyazova, pedagogika fanlari doktori, dotsent, TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti
DOI: 10.67620/ajousci.240015

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xitoy tili o'qitish jarayonida talabalarning fonetik kompetensiyasining shakllanganlik darajasini baholashga qaratilgan Subyektiv so'rovnomasining ilmiy-metodologik asoslari, tuzilishi va qo'llanilish natijalari tahlil qilinadi. So'rovnoma talabalarning xitoy tili fonetikasiga oid bilim va ko'nikmalariga bo'lgan subyektiv munosabati, motivatsiyasi va qiyinchilik idrokini o'lchashga xizmat qiladi. So'rovnoma 3 ta qismdan iborat bo'lib, 28 ta savolni o'z ichiga oladi, unda 159 nafar talaba ishtirok etdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning o'rtacha ko'rsatkichi 59,8% ni tashkil etib, bu o'rta darajaga to'g'ri keladi. Eng past ko'rsatkichlar mustaqil mashq vaqti (2,5/5) va ton o'zgarishi bilimi (2,6/5) bo'yicha kuzatildi. Eng yuqori ko'rsatkich esa ohanglarni o'rganish muhimligi (4,4/5) bo'ldi. Ushbu so'rovnoma fonetik kompetensiyaning refleksiv-motivatsion komponentini baholash uchun ishonchli va valid vosita hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *fonetik kompetensiya, subyektiv baholash, xitoy tili, motivatsiya, refleksiv komponent, diagnostika .*

Abstract. *This article analyzes the scientific and methodological foundations, structure, and application results of a subjective questionnaire aimed at assessing the level of formation of students' phonetic competence in the process of teaching Chinese. The questionnaire is intended to measure students' subjective perceptions of their knowledge and skills related to Chinese phonetics, as well as their motivation and perceived difficulties. The questionnaire consists of three sections and includes 28 questions, with 159 students participating in the study. The results indicate that the students' average score was 59.8%, corresponding to the intermediate level. The lowest scores were observed for independent practice time (2.5/5) and knowledge of tone sandhi (2.6/5), while the highest score was recorded for the perceived importance of learning tones (4.4/5). The questionnaire can be considered a potentially useful*

and valid instrument for assessing the reflective-motivational component of phonetic competence.

Key words: *phonetic competence, subjective assessment, Chinese language, motivation, reflective component, diagnostics.*

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida xitoy tili fonetikasini o‘qitishda talabalarning o‘z bilimlarini qanday baholashi, ularning motivatsiyasi va qiyinchilik idroki yetarlicha o‘rganilmagan. Bu esa o‘qitish metodikasini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi xitoy tili fonetik kompetensiyasining (FK) shakllanganlik darajasini baholashda subyektiv so‘rovnomaning ilmiy-metodologik asoslarini ishlab chiqish va uning samaradorligini eksperimental sinovdan o‘tkazish.

Tadqiqotda FK shakllanganlik darajasini subyekiv baholash so‘rovnomasining nazariy asoslarini ishlab chiqish, so‘rovnoma tuzilmasini (qismlar, savollar, baholash shkalasi) yaratish va sinovdan o‘tkazish, natijalarni statistik tahlil qilish va xulosalar chiqarish, so‘rovnomaning fonetik kompetensiyani baholashdagi o‘rnini aniqlash kabi bir qator vazifalar amalga oshirilgan.

Tadqiqot obyekti xitoy tili o‘rganuvchi talabalari (159 nafar). Tadqiqot predmeti esa talabalarning fonetik kompetensiyasining shakllanganlik darajasining subyektiv munosabati, motivatsiyasi va qiyinchilik idroki.

Xitoy tili fonetikasini o‘zlashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2004–2008-yillarda dastlabki sekin o‘sish, 2009–2020-yillarda jadal rivojlanish va 2021–2023-yillarda barqarorlashuv davrlari kuzatilgan. Tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari tonlar, fonetik xatolar tahlili, akustik eksperimentlar va ikkinchi til o‘zlashtirish bilan bog‘liq. [Abuduwaili. 2025:599]

Xitoy tili fonetikasini o‘qitish va baholash masalalari xorijiy tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Jumladan, M. Celce-Murcia，Y. Jia， M. Yin, L. Li, M.Valcke, L.Badan, C.Anderl va boshqalar xitoy tili fonetikasiga oid ekperemental tadqiqotlar o‘tkazganlar. IEEE Xploreda chop etilgan tadqiqotda Besh Markaziy Osiyo davlati (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston) talabalarining xitoy tili tonlarini talaffuz qilish xususiyatlari o‘rganilgan va tadqiqot natijasiga ko‘ra O‘zbekiston va Turkmaniston talabalari umumiy natijalar bo‘yicha eng past ko‘rsatkichga ega, Tojikiston talabalari esa eng yaxshi natija ko‘rsatgan. [Y. Jia 2026:1-6] Bu esa O‘zbekistonlik talabalarining xitoy tili fonetik kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlar, xitoy tili fonetikasini o‘qitish va fonetik eksperemantlar o‘tkazish qanchalar dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan xitoy tili fonetikasini o‘qitish va o‘zlashtirish masalalari bir qator ilmiy ishlarda o‘rganilgan. Jumladan F. Xasanova “Xitoy-bayxua tilining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari” monografiyasida xitoy tilining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, L.F.Raimkhonova tadqiqotlarida xitoy tili fonetikasining tarixiy rivojlanishi, Z.R.G‘ofurova olib borilgan tadqiqotda xitoy tilidagi tonlarni o‘rganish muammolari o‘rgangan. Xitoy tili fonetikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarning kamligi mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqot olib borishning dolzarbligini asoslaydi. Zamonaviy til o‘qitish metodikasi talablaridan kelib chiqqan holda, fonetik kompetensiyani shakllantirish va baholash masalalarini ilmiy jihatdan o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot so‘rovnoma uslubiga asoslangan bo‘lib, u talabalarning xitoy tili fonetik kompetensiyasining shakllanganlik darajasiga bo‘lgan subyektiv munosabatini aniqlashga

qaratilgan. Tadqiqotda asosan miqdoriy natijalar qo‘llanilgan: respondentlarning javoblari Likert shkalasi (1–5) asosida ballarga aylantirilib, statistik tahlil qilindi. Miqdoriy ma’lumotlar tavsifiy statistika (o‘rtacha, standart og‘ish, mediana, minimal va maksimal qiymatlar) hamda foizli tahlil usullari orqali qayta ishlandi. Tadqiqot davomida bir nechta muammoli jihatlar aniqlandi va ularga amaliy yechimlar tafsiya qilindi.

Xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitishda fonetik kompetensiya alohida o‘rin tutadi. Xitoy tilining o‘ziga xos xususiyati – tonal tizim (4 asosiy ohang va yengil ohang) – talabalardan nafaqat nazariy bilim, balki eshitish va talaffuz ko‘nikmalarini ham talab qiladi. Zamonaviy metodikada fonetik kompetensiyani baholashda subyektiv va obyektiv yondashuvlarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. [Raxmatullayeva. 2025:316]

Fonetik kompetensiya – bu til o‘rganuvchining tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ohanglarni farqlash, intonatsiyani qo‘llash va real muloqotda fonetik jihatdan to‘g‘ri nutq qurish qobiliyatidir. U tovushlar, ohanglar, ton o‘zgarishlari haqidagi nazariy bilim, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmasi, ohang va intonatsiyani qo‘llash, tovush va ohanglarni eshitib farqlash, real muloqotda fonetikani qo‘llash va o‘z bilimini baholash, motivatsiya, qiyinchilik idroki kabi komponentlaridan iborat. Tadqiqotimizdagi subyektiv baholash so‘rovnomasi (1-jadval) esa aynan refleksiv-motivatsion komponentni baholashga qaratilgan.

Subyektiv baholash – talabaning o‘z bilim va ko‘nikmalariga bo‘lgan shaxsiy munosabati. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, subyektiv baholash talabaning o‘ziga ishonchini aniqlaydi, motivatsiyani o‘lchaydi, qiyinchilik idrokini ko‘rsatadi va nihoyat o‘qituvchiga individual yondashuv imkonini beradi.

Subyektiv baholash (o‘z-o‘zini baholash) obyektiv bilim (nazariy bilim) eshitib farqlash perseptiv ko‘nikma, talaffuz (artikulyatsion ko‘nikma), kommunikativ qo‘llash (amaliy ko‘nikma) bilan uzviy bog‘liqdir. Tadqiqot so‘rovnomasi 3 ta qism (1-jadval) va 28 ta savoldan iborat:

1-jadval. So‘rovnoma tuzilishi

Qism	Savollar	Mazmuni
I	1-5	Demografik ma’lumotlar (jins, kurs, muassasa, ona tili)
II	6-21	Fonetik bilim, ohang, tovushlar, ton o‘zgarishlari
III	22-28	Metodika, motivatsiya, mustaqil mashq

So‘rovnoma natijalari Likert shkalasi asosida balli baholash usuli orqali hisoblab chiqildi. Likert shkalasi bu respondentning biror fikr, munosabat, ishonch yoki darajasini bir nechta tartibli javob variantlari orqali o‘lchash usuli. Tallabalarning fonetik bilimlarini subyektiv baholashga bag‘ishlangan so‘rovnomada 12 ta Likert shkalasiga asoslangan (1-Umuman bilmayman; 2-Bir oz bilaman; 3 - O‘rtacha; 4 -Yaxshi bilaman; 5-Mukammal bilaman) savol mavjud.

Tadqiqotda respondentlarning FK shakllanganlik darajasining SB ko‘rsatkichlarini talqin qilish maqsadida natijalar to‘rtta darajaga — yuqori, yetarli, o‘rta va past darajalarga ajratildi. Mazkur tasnif FK shakllanganlik darajasining SB qiymatlarining foizdagi ifodasiga asoslanib, talabalarning o‘z fonetik kompetensiyasini baholash darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Bunda 85–100% oralig‘idagi natijalar yuqori, 70–84% yetarli, 50–69% o‘rta, 50% dan past natijalar esa past daraja sifatida belgilandi.

Tadqiqotda jami 159 nafar talaba respondent sifatida ishtirok etdi. Respondentlar O‘zbekistonning oliy ta’lim muassasalarida xitoy tilini o‘rganayotgan talabalar orasidan shakllantirildi. Tadqiqot ishtirokchilari Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (TDSHU), O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O‘zDJTU) hamda Andijon davlat chet tillari instituti (ADCHTI) talabalaridan iborat bo‘ldi. Respondentlarning kurslar bo‘yicha taqsimotida 1-kurs talabalari 51,4 % , 2-kurs talabalari esa 48,6 % ni tashkil etdi. Jinsiy tarkibiga ko‘ra, respondentlarning 98 nafari ayol (61,6%), 61 nafari erkak (38,4%) talabalardan iborat bo‘ldi. Respondentlarning turli oliy ta’lim muassasalari hamda ikki xil ta’lim bosqichidan jalb etilgani tadqiqotda xitoy tilini o‘rganuvchi talabalarning fonetik kompetensiyasini shakllantirish holatini turli ta’lim muhitlari va boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichlari kesimida o‘rganish imkonini berdi. Quyida tadqiqotning asosiy statistikasi keltirilgan. (2-jadval) Bu natijalarni hisoblash uchun Google forms (ma’lumot yig‘ish) → Excel (ballarni hisoblash) → SPSS (statistik tahlil) vositalaridan foydalanilgan.

2-jadval. Subyektiv baholash so‘rovnomasi ko‘rsatkichlarining tavsifiy statistikasi

SB ko‘rsatkich	**SB qiymat**
O‘rtacha	**59,8%**
Standart og‘ish	**17,9%**
Mediana	**59,1%**
Minimal	**13,6%**
Maksimal	**100%**

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, yuqorida berilgan mezonlar asosida olingan natijalar tahlili respondentlarning o‘rtacha FK shakllanganlik darajasining SB ko‘rsatkichi 59,8% ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu qiymat 50–69% oralig‘iga to‘g‘ri kelib, respondentlar guruhining umumiy FK shakllanganlik darajasining SB darajasi o‘rta ekanligini ko‘rsatadi. Demak, talabalar o‘zlarining xitoy tili fonetik kompetensiyasini ma’lum darajada ijobiy baholagan bo‘lsada, ayrim fonetik birliklarni o‘zlashtirish va talaffuz qilishda muayyan qiyinchiliklar mavjud.

Mediana qiymatining 59,1% ni tashkil etishi ham o‘rta daraja oralig‘ida joylashgan bo‘lib, respondentlarning markaziy qismi mazkur darajaga mansubligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, FK shakllanganlik darajasining SB bo‘yicha standart og‘ish 17,9% ni tashkil etgani respondentlarning individual baholari o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Individual FK shakllanganlik darajasining SB qiymatlarining 13,6% dan 100% gacha bo‘lgan keng diapazonda kuzatilishi esa talabalarning o‘z fonetik kompetensiyasini baholash darajasi bir xil emasligini ko‘rsatadi. (2-jadval)

Umuman olganda, FK shakllanganlik darajasining SB natijalarining taqsimoti respondentlarning o‘z fonetik kompetensiyasini baholashida o‘rta darajaning ustunligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, natijalarning turli darajalar bo‘yicha taqsimlanganligi talabalar o‘rtasida o‘z fonetik bilim va ko‘nikmalarini baholash nuqtayi nazaridan individual farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur natijalar respondentlarning fonetik kompetensiyasini yanada

aniqroq baholash uchun obyektiv fonetik topshiriqlar natijalari bilan birgalikda ko‘rib chiqilishi lozim.

3-jadval. SB So‘rovnomasi natijasida savollar bo‘yicha o‘rtacha ballar

№	Savol mazmuni	O‘rtacha ball
6	Fonetikaning qiyinligi	**3,2**
8	Fonetikani qiyin deb hisoblash	**3,4**
9	Fonetik bilim darajasi	**2,9**
11	Pinyinni bilish	**4,1**
12	Pinyinni ohang bilan o‘qish	**3,4**
13	Gapirishda talaffuzga e’tibor	**2,8**
17	n/ng tovushlarini adashtirish	**3,5**
20	Ton o‘zgarishlarini bilish	**2,6**
23	Fonetik darslar samaradorligi	**3,7**
25	Ohanglarni o‘rganishning muhimligi	**4,4**
27	Ohang xatosi tufayli tushunmovchilik	**3,1**
28	Haftalik mustaqil fonetik mashq vaqti	**2,5**

Jadval natijalariga ko‘ra, eng yuqori ko‘rsatkich ohanglarni o‘rganishning muhimligi (4,4 ball), eng past ko‘rsatkichlar esa mustaqil fonetik mashq vaqti (2,5 ball) va ton o‘zgarishlarini bilish (2,6 ball) bo‘yicha qayd etilgan. Umuman, talabalar ohanglarning ahamiyatini yuqori baholagan bo‘lsalar-da, mustaqil mashq qilish va fonetik bilimlarni amaliy qo‘llash ko‘rsatkichlari nisbatan past bo‘lgan.（3-jadval）

FK shakllanganlik darajasining SB natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning o‘z fonetik kompetensiyasini baholashidagi o‘rtacha ko‘rsatkich 59,8% ni tashkil etib, belgilangan mezonlarga ko‘ra o‘rta darajaga mos keladi. Mazkur natija talabalarning xitoy tili fonetik kompetensiyasiga bo‘lgan o‘z-o‘zini baholashi umumiy hisobda o‘rta darajada ekanligini ko‘rsatadi. (2-jadval)

Darajalar bo‘yicha taqsimotda 29,6% respondent past darajadagi SB ko‘rsatkichini qayd etgan. Bu 47 nafar talabaning o‘z fonetik kompetensiyasini nisbatan past baholaganini anglatadi. Biroq ushbu natijani talabalarning fonetikani yetarli darajada o‘zlashtirmaganligi sifatida bevosita talqin qilish maqsadga muvofiq emas, chunki SB ko‘rsatkichi subyektiv o‘z-o‘zini baholashga asoslangan. Mazkur holat, avvalo, talabalarning fonetik bilim va ko‘nikmalariga bo‘lgan ishonchi nisbatan past ekanligini ko‘rsatishi mumkin.

Tahlil natijalarida talabalarning eng zaif deb baholangan jihatlari mustaqil fonetik mashq qilish vaqti (2,5/5), ton o‘zgarishlari bo‘yicha bilim (2,6/5) hamda gapirish jarayonida talaffuzga e’tibor qaratish (2,8/5) bilan bog‘liq bo‘ldi. (3-jadval) Ushbu ko‘rsatkichlar talabalar tomonidan mustaqil fonetik mashg‘ulotlarni muntazam tashkil etish, ton o‘zgarishlarini amaliy nutqda qo‘llash hamda talaffuzga e’tiborni saqlash masalalarida o‘z imkoniyatlarini nisbatan past baholaganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, “xitoy tilidagi tonlarni o‘rganish muhimligi” ko‘rsatkichi 4,4/5 ball bilan eng yuqori natijani qayd etdi.(3-jadval) Bu respondentlarning xitoy tili talaffuzida tonlarning muhim o‘rin tutishini yuqori darajada anglashini ko‘rsatadi. Biroq tonlarning muhimligini anglash bilan ularni amaliy nutqda to‘g‘ri qo‘llash darajasi o‘rtasida farq mavjud bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, FK shakllanganlik darajasini SB ning 59,8% lik o‘rtacha ko‘rsatkichi respondentlarning o‘z fonetik kompetensiyasiga bo‘lgan ishonchi o‘rta darajada ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, mustaqil mashq qilish, ton o‘zgarishlarini qo‘llash va nutq jarayonida talaffuzga e’tibor qaratish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning nisbatan pastligi fonetik kompetensiyani shakllantirish jarayonida mazkur jihatlarga alohida metodik e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli FK shakllanganlik darajasining SB natijalarini obyektiv fonetik topshiriqlar natijalari bilan birgalikda tahlil qilish talabalarning fonetik kompetensiyasini yanada kompleks baholash imkonini beradi.

1-rasm. Tadqiqotdan aniqlangan muammolar va tafsiya qilingan yechim



Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, SB natijalari fonetik kompetensiyani shakllantirishda faqat auditoriya mashg‘ulotlariga tayanib qolmasdan, mustaqil mashq, ton o‘zgarishlarini amaliy qo‘llash, nutq jarayonida talaffuzni nazorat qilish va muntazam feedbackni yagona metodik tizim sifatida tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. (1-rasm)

Tadqiqotda 159 nafar talaba ishtirok etdi va o‘rtacha SB ko‘rsatkichi 59,8% bo‘lib, o‘rta darajani tashkil etdi. (2-jadval) Eng past ko‘rsatkichlar mustaqil mashq vaqti (2,5/5), ton o‘zgarishlari bilimi (2,6/5) va gapirishda talaffuzga e’tibor (2,8/5) bo‘yicha, eng yuqori ko‘rsatkich esa tonlarni o‘rganish muhimligi (4,4/5) bo‘yicha qayd etildi. Mazkur natijalar eksperimental metodikada mustaqil fonetik mashqlar, ton o‘zgarishlari, talaffuzga e’tibor va motivatsiyani

kuchaytirishga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatdi. Keyingi bosqichlarda FK shakllanganlik darajasining SB natijalarini fonetik bilim, eshitib faqrlash, tallafuz qilish va kommunikatsiya qilishga oid tadqiqot ko‘rsatkichlari bilan kompleks tahlil qilish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Celce-Murcia, M. (2007). Rethinking the role of communicative competence in language teaching. In E. Alcón Soler & M. P. Safont Jordà (Eds.), Intercultural language use and language learning (pp. 41–57). Springer.
2. RAXMATULLAYEVA, D. (2025). O ‘ZBEK TALABALARI MISOLIDA XITOY TILIDAGI “SHENGMU”,“YUNMU” TOVUSHLARNING O ‘ZLASHTIRILISHI VA FONETIK INTERFERENSIYASI MASALALAR. *«ACTA NUUz»*, *1*(1.8), 316-319.
3. Jia, Y., & Yin, M. (2025). Production patterns and prosodic features of Chinese tones by learners from five Central Asian countries. In 2025 28th Conference of the Oriental COCOSDA International Committee for the Co-ordination and Standardisation of Speech Databases and Assessment Techniques (O-COCOSDA) (pp. 1–6). IEEE. https://doi.org/10.1109/O-COCOSDA68185.2025.11385009
4. Abuduwaili Alimu and Guanyu Li. (2025). Status and Trends of Experimental Research on Mandarin Chinese Phonetic Acquisition Bias: A CiteSpace- Based Visualizatio Exploration. In 2025 4th International Conference on Big Data, Information and Computer Network (BDICN 2025), January 10–12, 2025, Guangzhou, China. ACM, New York, NY, USA, 7 pages. https://doi.org/10.1145/3727353.3727503
5. Raimkhonova, L. F. (2025). Zamonaviy xitoy tili fonetikasi va talaffuz tizimidagi o‘zgarishlar. Inter Education & Global Study, 3(10), 323–328.
6. Xasanova, F. (2023). *Xitoy-bayxua tilining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari*. Donishmand ziyosi.
7. G‘ofurova, Z. R., & Mavlyanova, U. X. (2026). Xitoy tilidagi tonlarni o‘rganish muammolariga doir. *Uzresearchers*. https://doi.org/10.66345/stj.v4i3/1.5384
8. Nazarova, S. (2026). Challenges and prospects for implementing cognitive-discursive and intercultural approaches in teaching Chinese (on the example of the TSUOS curriculum). *Foreign Languages in Uzbekistan*, 66(1), 186–201. https://doi.org/10.36078/1767726140

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

ARXITEKTURA YO‘NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI FAOLIYATGA YO‘NALTIRILGAN ANALITIK RUBRIKA ASOSIDA BAHOLASH METODIKASI

Shokirov Bahodir Ismoilovich
Toshkent shahridagi Adju universiteti o‘qituvchisi;
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: b.shokirov@ajou.uz
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-4161-7519
DOI: 10.67620/ajousci.240030

Annotatsiya. *Maqolada arxitektura yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini kasbiy-kommunikativ vaziyatlarda baholash uchun ishlab chiqilgan faoliyatga yo‘naltirilgan analitik rubrika (performance-oriented analytical rubric)ning metodik tuzilishi yoritiladi. Baholash konstruktida gapirish faoliyati to‘rtta o‘zaro bog‘liq, biroq alohida kuzatiladigan mezon orqali operatsionallashtirilgan: Kasbiy vazifani bajarish (Task Completion), Tildan foydalanish (Language Use), Kommunikativ samaradorlik (Communicative Effectiveness) va Debrifing sifati (Debriefing Quality). Har bir mezon 25 ball bilan baholanib, umumiy natija 100 ballik tizimda aniqlanadi. Rubrikaning o‘ziga xosligi gapirish ko‘nikmasining umumiy ko‘rsatkichlarini arxitektura ESP kontekstidagi loyiha taqdimoti, mijoz bilan muzokara, texnik muhokama, dizayn qarorini asoslash va reflektiv debrifing kabi professional vazifalar bilan bog‘lashidadir. Maqolada mezonlarning nazariy asoslari, kuzatiladigan indikatorlari, to‘rt darajali deskriptorlari, BAD (Briefing–Action–Debriefing) siklidagi o‘rni hamda o‘qituvchi bahosi, o‘zaro baholash (peer assessment) va o‘zini o‘zi baholash (self-assessment) bilan integratsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda rubrika natijalari mezonlarga asoslangan (criterion-referenced) va shakllantiruvchi baholash dalili sifatida talqin qilinadi; diagnostik test natijalariga tegishli inferensial statistik xulosalar rubrika ballariga ko‘chirilmaydi.*

Kalit so‘zlar: *arxitektura ESP, gapirish ko‘nikmasi, faoliyatga yo‘naltirilgan baholash, analitik rubrika, kasbiy vazifani bajarish, tildan foydalanish, kommunikativ samaradorlik, debrifing sifati, simulyatsiya, BAD modeli.*

Abstract. *This article presents a methodology for assessing architecture students' English speaking skills in professional communicative situations through a performance-oriented analytical rubric. The assessment construct operationalizes speaking performance through four related but separately observable criteria: Task Completion, Language Use,*

Communicative Effectiveness, and Debriefing Quality. Each criterion carries 25 points, producing a 100-point total score. The distinctive feature of the rubric is its contextualization of general speaking assessment within architecture ESP tasks such as project presentations, client negotiations, technical discussions, design rationale, and reflective debriefing. The article explains the theoretical basis, observable indicators, four performance bands, integration with the Briefing–Action–Debriefing cycle, and the complementary roles of teacher, peer, and self-assessment. Rubric evidence is interpreted as criterion-referenced and formative evidence of speaking performance; inferential statistical claims derived from separate diagnostic tests are not attributed to rubric scores.

Key words: *architecture ESP, speaking skills, performance-oriented assessment, analytical rubric, professional communication, simulation, debriefing, criterion-referenced assessment.*

KIRISH

Arxitektura mutaxassisi uchun ingliz tilida gapirish faqat grammatik jihatdan to‘g‘ri jumla tuzish bilan cheklanmaydi. Loyiha taqdimotida g‘oyani tushunarli asoslash, mijoz talabini aniqlashtirish, texnik muhokamada sabab va oqibatni izohlash, e’tirozga professional javob qaytarish hamda qarorni himoya qilish bir vaqtning o‘zida til, kasbiy mazmun va interaksiyani talab qiladi. Shu sababli arxitektura ESP darsida gapirish ko‘nikmasini faqat ravonlik (fluency), grammatika yoki talaffuz (pronunciation) kabi umumiy ko‘rsatkichlar orqali baholash talabaning professional vazifani qay darajada bajarganini to‘liq ko‘rsatmaydi.

Gapirish ko‘nikmasini baholash (speaking assessment)ning murakkabligi avvalgi tadqiqotlarda ham qayd etilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda analitik rubrikalar (analytic rubrics) og‘zaki nutq faoliyatini alohida mezonlarga ajratib, baholovchi uchun aniqroq qaror maydonini yaratishi ko‘rsatilgan. Limgomolvilas va Sukserm (2025) og‘zaki taqdimotni baholashda batafsil analitik rubrika hamda baholovchilar o‘rtasidagi muvofiqlashtirish baholash ishonchliligini oshirishda muhimligini ko‘rsatadi. ESP doirasida gapirish ko‘nikmasini baholashga oid sistematik tadqiqotlar esa umumiy til mezonlaridan tashqari sohaga xos (domain-specific), ya’ni kasbiy vazifaga xos ko‘rsatkichlarni aniq belgilash zaruratini ilgari suradi.

Mazkur maqolaning maqsadi arxitektura yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini simulyatsion kasbiy vaziyatlarda baholashga mo‘ljallangan to‘rt mezonli faoliyatga yo‘naltirilgan analitik rubrikaning metodik asoslarini yoritishdan iborat. Maqola rubrikaning o‘zini mutlaq yangi baholash turi sifatida emas, balki mavjud analitik baholash tamoyillarining arxitektura ESP kontekstiga moslashtirilgan, kasbiy vazifa, kommunikativ natija va reflektiv tahlilni bir konstrukt ichida bog‘laydigan variant sifatida talqin qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Analitik rubrikalar murakkab og‘zaki faoliyatni alohida kuzatiladigan mezonlarga ajratib, baholovchi qarorini shaffoflashtiradi. Samee va Kulsoom (2026) leksika, grammatika, talaffuz, ravonlik, mazmuniy moslik va fikrni shakllantirishni alohida baholagan; Daud va boshqalar (2020) esa autentik mini-seminar orqali gapirishni real faoliyat, hamkorlik va ijodkorlik bilan bog‘lagan. Bu tadqiqotlar standart mezonlarni o‘quv kontekstiga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

ESPda baholash sohaga xos kommunikativ vazifani ham qamrab olishi kerak. Hijikata va Min (2021) kasbiy mazmun va vazifaga mos mezonlar zarurligini ta’kidlaydi. Arxitektura kontekstida shu sababli faqat ravonlik emas, mijoz talabini aniqlash, loyiha qarorini asoslash,

terminni o‘rinli qo‘llash va texnik muhokamada yechimni tushuntirish kabi kuzatiladigan dalillar baholanadi.

Refleksiya mazkur konstruktning rivojlantiruvchi qismidir. Shokirov va Ruzimov (2026) BAD siklida debrifingni faoliyatni qayta eslash, tilni tahlil qilish, fikr-mulohaza va keyingi maqsad bilan bog‘laydi. Ushbu maqolada diqqat sun’iy intellektga emas, Debrifing sifati mezonining metodik funksiyasiga qaratiladi.

IELTS Speaking mezonlari, CEFRning Range, Accuracy, Fluency, Interaction va Coherence o‘lchovlari hamda TOEFL iBT Speakingdagi Delivery, Language Use va Topic Development komponentlari gapirishni bir nechta kuzatiladigan jihatlar orqali baholash zarurligini ko‘rsatadi (Council of Europe, 2020; Educational Testing Service, 2024; IELTS, 2025). Phakiti (2025) esa konstrukt, baholash topshirig‘i va baholovchi qarorining o‘zaro mosligini markaziy tamoyil sifatida ko‘radi. Mazkur tadqiqotda ushbu asoslar arxitektura ESPning kasbiy-kommunikativ ehtiyojlariga moslashtirildi.

RUBRIKA MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Rubrika mezonlari tayyor modeldan ko‘chirilmadi. Davis va boshqalar (2018)dagi konstrukt, maqsad, dalil va xulosa muvofiqligi; Leńko-Szymańska (2020)dagi faoliyat orqali kommunikativ qobiliyat haqida xulosa chiqarish; Iliopoulou va boshqalar (2022)dagi autentik topshiriq, rubrika va reflektiv baholash; Phakiti (2025)dagi konstrukt, topshiriq, deskriptor va baholovchi qarori mosligi birgalikda tahlil qilindi. Ushbu komponentlar arxitektura ESPdagi vazifasiga ko‘ra to‘rtta funksional mezonga birlashtirildi: Kasbiy vazifani bajarish, Tildan foydalanish, Kommunikativ samaradorlik va Debrifing sifati. Ular yangi universal kategoriyalar emas, mavjud baholash konstruktlarining kasbiy simulyatsiya talablariga moslashtirilgan integrativ konfiguratsiyasidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rubrikani ishlab chiqish uch bosqichli metodik mantiqqa tayandi. Birinchi bosqichda gapirish ko‘nikmasini baholash hamda autentik va faoliyatga asoslangan baholash adabiyotlaridagi potensial komponentlar tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda ular arxitektura ESPning professional kommunikativ vazifalari bilan moslashtirilib, mazmunan bir-biriga yaqin indikatorlar to‘rtta funksional mezonga birlashtirildi. Uchinchi bosqichda ushbu mezonlar 16 ta professional simulyatsion senariyda barqaror saqlanib, kuzatiladigan indikatorlar vazifa turiga qarab konkretlashtirildi. Ushbu jarayon metodik takomillashtirish (methodological refinement) sifatida talqin qilinadi; maqola mezonlar o‘rtasida statistik model tanlash yoki alohida baholovchilararo validatsiya o‘tkazilganini da’vo qilmaydi.

Tadqiqot metodik xarakterga ega bo‘lib, arxitektura ESP kontekstida kuzatiladigan og‘zaki nutq faoliyati uchun mezonlarga asoslangan analitik baholash modelini ishlab chiqish va asoslashga qaratildi. Baholash birligi sifatida talabaning professional simulyatsion vazifadagi og‘zaki faoliyati olindi. Rubrika dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan 16 ta professional senariy, BAD modeli va B1 dan B2/B2+ gacha bosqichma-bosqich murakkablashadigan gapirish topshiriqlari bilan uyg‘unlashtirildi.

Baholash konstruktini shakllantirishda to‘rtta savol asos qilib olindi: talaba professional vazifani bajardimi; buning uchun ingliz tilidan qanchalik aniq va mos foydalandi; suhbatdosh bilan kommunikativ maqsadga erisha oldimi; bajarilgan faoliyat asosida o‘z faoliyatini tahlil qilib, keyingi rivojlanish maqsadini belgilay oldimi. Mazkur savollar mos ravishda Kasbiy vazifani

bajarish, Tildan foydalanish, Kommunikativ samaradorlik va Debrifing sifati mezonlariga aylantirildi.

Nazariy jihatdan Tildan foydalanish va Kommunikativ samaradorlik kommunikativ kompetensiyaning lingvistik, diskursiv va strategik komponentlari bilan bog‘landi; Debrifing sifati Kolbning reflektiv kuzatish (Reflective Observation) va abstrakt konseptuallashtirish (Abstract Conceptualization) bosqichlari bilan izohlandi; topshiriqlarning kognitiv murakkabligi Anderson va Krathwohl taksonomiyasi bilan uyg‘unlashtirildi. CEFR esa B1, B1+ va B2/B2+ oralig‘idagi progressiyani tavsiflash uchun tayanch sifatida olindi. Har bir mezon 25 foiz vaznga ega bo‘lib, rubrika umumiy 100 ballik tizimni tashkil etadi.



1-rasm. Faoliyatga yo‘naltirilgan baholashning metodik zanjiri

BAHOLASH MEZONLARI VA ULARNING OPERATSIONALLASHTIRILISHI

Mazkur rubrikadagi Kasbiy vazifani bajarish, Tildan foydalanish, Kommunikativ samaradorlik va Debrifing sifati mezonlari universal gapirish ko‘nikmasini baholash uchun mutlaqo yangi kategoriyalar sifatida taklif etilmaydi. Ularning nazariy ildizlari til aniqligi, ravonlik, interaksiya, mazmunni rivojlantirish va vazifani bajarish kabi mavjud baholash konstruktlariga borib taqaladi. Metodik yangilik ushbu konstruktlarni arxitektura ESPdagi professional simulyatsiya talablariga ko‘ra qayta guruhlash, kuzatiladigan kasbiy indikatorlar bilan operatsionallashtirish va BAD siklining reflektiv bosqichi bilan bir tizimga birlashtirishdan iborat.

To‘rtta mezon bir-birini takrorlamaydigan funksional qatlamlarni ifodalaydi. Kasbiy vazifani bajarish professional maqsadga erishishni; Tildan foydalanish terminologiya, grammatika, talaffuz, ravonlik va registrni; Kommunikativ samaradorlik interaksiya, izchillik va strategiyalarni; Debrifing sifati esa faoliyat dalilini tahlil qilish va keyingi rivojlanish maqsadini belgilashni qamrab oladi. Debrifing sifati til darajasining mustaqil komponenti emas, balki simulyatsiyadan keyingi reflektiv o‘rganish mezonidir.

Shu bois mazkur tadqiqotning mualliflik yechimi “to‘rtta yangi gapirish mezonini kashf etish”da emas. Uning hissasi to‘rtta funksional qatlamni, ya’ni professional vazifaga erishish, lingvistik resurslar, kommunikativ interaksiya va reflektiv rivojlanishni arxitekturaga xos faoliyatga yo‘naltirilgan analitik rubrika doirasida muvofiqlashtirishdadir. Ayniqsa Debrifing sifatining alohida mezon sifatida BAD modeliga bog‘lanishi baholashni yakuniy ball bilan tugatmay, keyingi simulyatsiyaga olib o‘tadigan rivojlantiruvchi mexanizmga aylantiradi (Shokirov & Ruzimov, 2026).



2-rasm. Arxitektura ESP gapirish faoliyatining to‘rt mezonli baholash konstrukti

Rubrikaning birinchi tamoyili “mezonlar barqarorligi + vazifaga mos indikatorlar” (criterion stability + task-sensitive indicators) sifatida ifodalanadi. Ya’ni to‘rtta asosiy mezon barcha senariylarda o‘zgarmaydi, biroq kuzatiladigan dalil vazifaning kommunikativ maqsadiga qarab konkretlashadi. Masalan, loyiha taqdimotida Kasbiy vazifani bajarish loyihaning asosiy yechimini tushuntirish va asoslash orqali namoyon bo‘lsa, mijoz bilan muzokarada mijoz ehtiyojini aniqlash, variantlarni muhokama qilish va kelishuvga yaqinlashish orqali namoyon bo‘ladi.

1-jadval. Faoliyatga yo‘naltirilgan analitik rubrika mezonlarining metodik tarkibi

Mezon	Asosiy savol	Kuzatiladigan indikatorlar	Vazn
Kasbiy vazifani bajarish	Talaba kasbiy vazifani bajardimi?	Rol talabiga mos harakat; kasbiy muammoni hal qilish; taqdimot/muzokara maqsadiga erishish; qarorni asoslash	25%
Tildan foydalanish	Til professional vazifani bajarishga qanchalik xizmat qildi?	Arxitektura terminologiyasi; grammatik aniqlik; talaffuz; ravonlik; professional registr	25%
Kommunikativ samaradorlik	Muloqot maqsadga olib bordimi?	Savol-javob; faol tinglash; navbat almashish; izchillik; aniqlashtirish; e’tirozga javob; kommunikativ strategiya	25%
Debrifing sifati	Talaba o‘z faoliyatidan o‘rgana oldimi?	Kuchli/zaif tomonlarni aniqlash; xato sababini izohlash; fikr-mulohazadan foydalanish; keyingi maqsadni belgilash	25%

100 BALLIK FAOLIYATGA YO‘NALTIRILGAN ANALITIK RUBRIKA

Rubrikaning har bir mezoni 25 ballik shkala asosida to‘rt darajada tavsiflandi: 0–14 ball Qoniqarsiz, 15–17 ball Qoniqarli, 18–22 ball Yaxshi va 23–25 ball A’lo. Umumiy natijada chegaralar mezonlarning minimal daraja ballaridan kelib chiqadi: 15 × 4 = 60, 18 × 4 = 72 va 23 × 4 = 92. Shunga ko‘ra umumiy baholash 0–59, 60–71, 72–91 va 92–100 oralig‘ida talqin qilinadi.

2-jadval. Arxitektura ESP simulyatsiyalarida gapirish ko‘nikmasini baholash uchun 100 ballik faoliyatga yo‘naltirilgan analitik rubrika

Mezon	Indikatorlar	Maks.	Qoniqarsiz 0–14	Qoniqarli 15–17	Yaxshi 18–22	A’lo 23–25
Kasbiy vazifani bajarish	Simulyatsion vazifani bajarish; rolga mos harakat; kasbiy muammoni hal qilish; taqdimot yoki muzokara maqsadiga erishish	25	Vazifaning asosiy qismini bajarmaydi; rol talablariga mos harakat yetarli emas; kasbiy qaror yoki yechimni asoslay olmaydi.	Vazifani qisman bajaradi; rol talablarini to‘liq ochmaydi; kasbiy qaror yoki yechimni asoslashda qiynaladi.	Vazifaning asosiy qismlarini bajaradi; rolni izchil saqlaydi; kasbiy qaror yoki yechimni yetarlicha asoslaydi.	Vazifani to‘liq bajaradi; rolni mustaqil va izchil amalga oshiradi; kasbiy qarorni asoslaydi va kommunikativ maqsadga erishadi.
Tildan foydalanish	Arxitektura terminologiyasini kontekstga mos qo‘llash; grammatik aniqlik; talaffuz; ravonlik; ESP leksikasi	25	Kasbiy terminologiyadan juda cheklangan yoki noto‘g‘ri foydalanadi; grammatik va talaffuz xatolari mazmunni tushunishni qiyinlashtiradi; nutqi uzuq-yuluq.	Terminlardan cheklangan foydalanadi; grammatik va talaffuz xatolari ayrim hollarda muloqotga ta’sir qiladi; ravonlik yetarli emas.	Terminlarni asosan to‘g‘ri va kontekstga mos qo‘llaydi; ayrim xatolar mazmunni tushunishga xalal bermaydi; nutqi asosan ravon.	Kasbiy terminologiyani aniq, o‘rinli va xilma-xil qo‘llaydi; grammatik va talaffuz jihatdan barqaror, ravon va tushunarli nutq namoyon etadi.
Kommunikativ samaradorlik	Savol-javob; mijoz/guruh bilan muloqot; fikrni izchil bayon etish; faol tinglash; navbat almashish; kommunikativ strategiyalar	25	Muloqotni mustaqil davom ettira olmaydi; javoblari vaziyatga yetarli mos emas; suhbatdosh fikriga munosabat bildirish va interaksiyani saqlashda jiddiy qiyinchilik kuzatiladi.	Muloqotda ishtirok etadi, biroq javoblari qisqa; fikrlar o‘rtasidagi izchillik va muloqotni mustaqil davom ettirish yetarli emas.	Muloqotni davom ettiradi; savollarga mazmunan mos javob beradi; fikrini tushunarli va mantiqiy ifodalaydi hamda asosiy kommunikativ strategiyalardan foydalanadi.	Muloqotni faol boshqaradi; savol va e’tirozlarga vaziyatga mos javob beradi; muzokara va taqdimotda kommunikativ strategiyalardan moslashuvchan foydalanadi.
Debrifing sifati	Reflektiv tahlil; o‘z faoliyatini baholash; kuchli/zaif tomonlar; fikr-mulohaza; keyingi takomillashtirish yo‘li	25	O‘z faoliyatini mazmunli tahlil qila olmaydi; aniq kuchli va zaif tomonlarni ajratmaydi; keyingi takomillashtirish yo‘lini belgilamaydi.	Refleksiya yuzaki; ayrim xatolarni umumiy qayd etadi; keyingi rivojlanish yo‘li yetarlicha aniq emas.	Kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi; xatolarini misollar bilan tushuntiradi; fikr-mulohaza asosida ularni tuzatish yo‘lini belgilaydi.	O‘z faoliyatini mezonlar asosida chuqur tahlil qiladi; xatolar sabablarini izohlaydi; fikr-mulohazani umumlashtirib, keyingi simulyatsiya uchun aniq takomillashtirish strategiyasini belgilaydi.

3-jadval. Rubrikaning umumiy baholash chegaralari

Umumiy daraja	Qoniqarsiz	Qoniqarli	Yaxshi	A’lo
Umumiy ball	0–59	60–71	72–91	92–100

RUBRIKANI BAD SIKLIGA INTEGRATSIYALASH

Rubrika faqat Harakat (Action) bosqichi tugagach qo‘yiladigan yakuniy ball jadvali sifatida ishlatilmaydi. Brifing (Briefing) bosqichida talaba vazifa, rol, cheklovlar, tayanch terminlar va baholash mezonlari bilan tanishadi. Bu mezonlarning oldindan ochiqligi talabaga nimaga e’tibor qaratishini ko‘rsatadi. Harakat bosqichida esa o‘qituvchi kuzatiladigan faoliyat dalillarini qayd etadi. Debrifing (Debriefing) bosqichida shu dalillar rubrika mezonlari orqali qayta ko‘rib chiqilib, keyingi vazifa uchun aniq rivojlanish maqsadiga aylantiriladi.



3-rasm. Rubrikaning BAD siklidagi o‘rni va keyingi faoliyatga transfer

Bu siklda Debrifing sifatining alohida mezon sifatida mavjudligi baholashni o‘rganish natijasini baholash (assessment of learning) bilan cheklab qo‘ymaydi. O‘qituvchi bahosi bajarilgan faoliyat haqida mezonli xulosa beradi, o‘zaro fikr-mulohaza boshqa ishtirokchining kuzatuvini qo‘shadi, o‘zini o‘zi baholash esa talabaning o‘z faoliyatini anglashini faollashtiradi. Ushbu uch manba bir-birini mexanik ravishda takrorlaydigan uchta mustaqil yakuniy baho sifatida emas, turli funksiyaga ega dalillar sifatida ishlatiladi.

VAZIFAGA MOS INDIKATORLAR

Rubrikaning to‘rtta mezoni barqaror saqlansa-da, professional senariyga qarab indikatorlarning ko‘rinishi o‘zgaradi. Bu yondashuv baholashning bir xilligini saqlash bilan birga, ESPning kasbiy xususiyatini yo‘qotmaslik imkonini beradi.

4-jadval. Barqaror mezonlar va vazifaga mos faoliyat dalillari

Kasbiy vaziyat	Asosiy kommunikativ talab	Kuzatiladigan faoliyat dalili
Project presentation	Loyihani tushuntirish va asoslash	asosiy g‘oyani aniq bayon qilish; sabab keltirish; signposting; savollarga javob
Client negotiation	Talablarni aniqlash va kelishuvga erishish	clarification; variant taklif qilish; diplomatik e’tiroz; murosali yechim
Technical discussion	Texnik muammoni tushuntirish va yechim taklif qilish	terminologik aniqlik; sabab-oqibat; muammoni aniqlash; yechimni asoslash
Design rationale	Dizayn qarorini himoya qilish	qarorni aytish; mezon keltirish; alternativani qiyoslash; tanlovni himoya qilish
Reflektiv muloqot	Faoliyat asosida rivojlanish nuqtasini aniqlash	dalil keltirish; xato sababini tushuntirish; fikr-mulohazani qayta ishlash; keyingi maqsad

TAHLIL VA MUHOKAMA

Taklif etilayotgan modelning metodik farqi til sifati, professional vazifaga erishish, interaksiya va refleksiyani bir-biriga tenglashtirmasdan, bitta analitik tizimda bog‘lashidadir. Standart gapirish mezonlari arxitektura ESP vazifalariga konkretlashtiriladi: mazmuniy moslik professional maqsadga erishish bilan, leksik resurs kasbiy terminologiya bilan, interaksiya mijoz yoki guruh bilan ishlash bilan, refleksiya esa keyingi faoliyat uchun strategiya belgilash bilan operatsionallashtiriladi. Bu ajratish o‘qituvchiga umumiy taassurot o‘rniga rivojlantirilishi kerak bo‘lgan komponentni ko‘rsatadi.

Baholovchi qarorining shaffofligi uchun deskriptorlar oldindan ochiladi va bir nechta o‘qituvchi ishtirok etsa, namunaviy faoliyat asosida qisqa kalibrlash tavsiya etiladi (Limgomolvilas & Sukserm, 2025). O‘qituvchi bahosi asosiy professional xulosani beradi, o‘zaro baholash va o‘zini o‘zi baholash esa shakllantiruvchi dalil vazifasini bajaradi. Shu tariqa assessment of learning, assessment for learning va assessment as learning funksiyalari professional vazifa → dalil → mezonli baho → debrifing → keyingi maqsad siklida birlashadi.

TAJRIBA-SINOV KONTEKSTIDA RUBRIKANING O‘RNI

Dissertatsiya doirasidagi tajriba-sinov ishlari Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti va Farg‘ona davlat texnika universitetida 223 nafar birinchi kurs arxitektura talabasi ishtirokida tashkil etilgan: tajriba guruhlarida 112, nazorat guruhlarida 111 talaba. Metodologik jihatdan 20 savollik diagnostik pre-test va post-test bo‘yicha inferensial natijalar rubrika ballarining statistik natijasi sifatida talqin qilinmaydi. Diagnostik test kasbiy-til tayyorgarligidagi miqdoriy o‘zgarishni, analitik rubrika esa simulyatsion gapirish faoliyatini mezonlarga asoslangan va shakllantiruvchi baholashni ta’minlagan.

Shu sababli maqolada rubrikaning metodik konstrukti, deskriptorlari va shakllantiruvchi funksiyasi asosiy natija sifatida ko‘rsatiladi; alohida baholovchilararo ishonchlilik yoki rubrika bo‘yicha pre-test/post-test inferensial natijasi mavjud bo‘lmasa, bunday da’vo kiritilmaydi. Kelgusida inter-rater reliability, mezonlar kesimidagi o‘sish, senariylar bo‘yicha barqarorlik va B1–B2+ darajalarda deskriptorlarning ishlashi empirik tekshirilishi mumkin.

5-jadval. Rubrikani dars jarayonida qo‘llash algoritmi

Bosqich	O‘qituvchi/talaba harakati	Natija
1. Vazifani aniqlash	Professional senariy, rol, muammo va kommunikativ maqsad belgilanadi.	Kutilayotgan faoliyat
2. Mezonlarni ochish	To‘rtta mezon va vazifaga mos indikatorlar Briefingda tushuntiriladi.	Transparent mezonlar
3. Faoliyat	Talaba simulyatsion gapirish topshirig‘ini bajaradi; o‘qituvchi dalillarni qayd etadi.	Kuzatiladigan dalil
4. Analitik baholash	Har bir mezon alohida 0–25 oralig‘ida deskriptor asosida baholanadi.	Criterion balls
5. O‘zaro/o‘zini o‘zi refleksiya	Talaba va tengdoshlar aniq dalil asosida fikr-mulohaza beradi.	Shakllantiruvchi dalil
6. Debrifing	Kuchli tomon, muammo sababi va alternativ strategiya aniqlanadi.	Mezonlarga bog‘langan refleksiya
7. Keyingi faoliyat maqsadi	Keyingi simulyatsiya uchun 1–2 o‘lchanadigan maqsad belgilanadi.	Rivojlanish maqsadi

XULOSA VA TAVSIYALAR

Arxitektura ESPda og‘zaki nutq faoliyatini baholash til shakli, professional vazifa va interaksiyani bir-biridan uzib qo‘ymasligi kerak. Shu nuqtayi nazardan, Kasbiy vazifani bajarish, Tildan foydalanish, Kommunikativ samaradorlik va Debrifing sifati mezonlariga asoslangan faoliyatga yo‘naltirilgan analitik rubrika talabaning nimani aytganini emas, professional vaziyatda til orqali nimani bajara olganini ham ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Rubrikaning metodik qiymati uchta jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, to‘rtta mezon barcha professional senariylarda barqaror qoladi, kuzatiladigan indikatorlar esa vazifa xususiyatiga moslashadi. Ikkinchidan, lingvistik aniqlik, kommunikativ samaradorlik va kasbiy vazifaga erishish alohida baholanib, umumiy taassurotga asoslangan ball berish kamaytiriladi. Uchinchidan, Debrifing sifati orqali baholash keyingi faoliyat uchun rivojlanish maqsadi bilan bog‘lanadi.

Amaliyot uchun quyidagilar tavsiya etiladi: rubrika mezonlarini Brifing bosqichidayoq talabaga ochiq berish; Harakat jarayonida ball emas, avvalo kuzatiladigan dalil qayd etish; o‘qituvchi bahosini o‘zaro va o‘zini o‘zi baholash bilan funksional ravishda uyg‘unlashtirish; turli baholovchilar ishtirok etganda qisqa kalibrlash mashg‘uloti (calibration session) o‘tkazish; Debrifing yakunida keyingi simulyatsiya uchun bitta yoki ikkita aniq ko‘chirish maqsadi (transfer target) belgilash. Keyingi tadqiqotlarda rubrikaning baholovchilararo ishonchlilik ko‘rsatkichlari, turli professional topshiriqlar bo‘yicha barqarorligi va B1–B2+ darajalarda deskriptorlarning ishlashi empirik tekshirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom’s taxonomy of educational objectives. Longman.
2. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.
3. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume. Council of Europe Publishing.
4. Daud, A., Chowdhury, R., Mahdum, M., & Mustafa, M. N. (2020). Mini-seminar project: An authentic assessment practice in speaking class for advanced students. Journal of Education and Learning (EduLearn), 14(4), 509–516. https://doi.org/10.11591/edulearn.v14i4.16429
5. Davis, J. McE., Norris, J. M., Malone, M. E., McKay, T. H., & Son, Y.-A. (Eds.). (2018). Useful assessment and evaluation in language education. Georgetown University Press.
6. Educational Testing Service. (2024). TOEFL iBT® speaking rubrics. Educational Testing Service.
7. Hijikata, Y., & Min, S. (2021). Systematic research synthesis on rating in ESP speaking assessments.
8. IELTS. (2025). IELTS speaking band descriptors. IELTS.
9. Iliopoulou, K., Anastasiadou, A., Karountzou, G., & Zorbas, V. (Eds.). (2022). Exploring alternative assessment techniques in language classrooms. Nova Science Publishers. https://doi.org/10.52305/HIXG3653
10. Kolb, D. A. (2015). Experiential learning: Experience as the source of learning and development (2nd ed.). Pearson Education.
11. Leńko-Szymańska, A. (2020). Defining and assessing language proficiency. In A. Leńko-Szymańska (Ed.), Language assessment: Principles and classroom practices.

12. Limgomolvilas, S., & Sukserm, P. (2025). Examining rater reliability when using an analytical rubric for oral presentation assessments. LEARN Journal: Language Education and Acquisition Research Network, 18(1), 110–134. https://doi.org/10.70730/JQGY9980
13. Phakiti, A. (2025). Language testing and assessment: From theory to practice. Bloomsbury Academic.
14. Ravshanova, M. (2024). Designing tasks to assess speaking: Balancing interaction and accuracy. Journal of Modern Educational Achievements, 10, 154–162.
15. Samee, Z., & Kulsoom, T. (2026). Assessing spoken English development using an adapted analytic rubric: Evidence from a classroom observation study. The Critical Review of Social Sciences Studies, 4(1), 1092–1100.
16. Shokirov, B. I., & Ruzimov, U. (2026). Human-AI collaboration in ESP simulations for architecture students: A BAD-model framework for reflective debriefing. “Oliy ta’limda inson va sun’iy intellekt hamkorligi: ta’lim kelajagi” Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 314–321. https://doi.org/10.5281/zenodo.22896776
17. Stevens, D. D., & Levi, A. J. (2013). Introduction to rubrics: An assessment tool to save grading time, convey effective feedback, and promote student learning (2nd ed.). Stylus Publishing.

“ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS”

BO‘LAJAK MUHANDISLARNI FIZIKADAN KASBGA YO‘NALTIRILGAN UMUMTEXNIK MASALALARNI YECHISHGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xidirova Dildora Tojiboyevna
Jizzax politexnika instituti tayanch doktoranti
dildoraxidirova117@gmail.com
93-101-85-18
DOI: 10.67620/ajousci.240031

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak muhandislarni fizikadan kasbga yo‘naltirilgan umumtexnik masalalarni yechishga tayyorlashning metodik jihatlari yoritiladi. Fizik bilimlarni kasbiy vaziyatlar bilan bog‘lash, ularni modellashtirish va natijalarni muhandislik nuqtayi nazaridan baholash masalalari tahlil qilinadi. Mahalliy olimlarning ilmiy qarashlariga tayangan holda, muallif tomonidan kasbiy vaziyatdan texnik qarorni asoslashgacha bo‘lgan bosqichli metodik yondashuv taklif etiladi. Uning amaliy imkoniyatlari energetika tizimlari va elektr transportiga oid masalalar misolida asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak muhandislar, fizik ta’lim, kasbiy yo‘naltirilgan umumtexnik masalalar, masala yechish metodikasi, fizik modellashtirish, matematik model, muhandislik kompetensiyasi, energetika tizimlari, elektr transporti, texnik qarorni asoslash.*

Abstract. *The article examines methodological aspects of preparing future engineers to solve professionally oriented general technical problems in physics. It analyzes the integration of physical knowledge with professional situations, their modeling, and the evaluation of results from an engineering perspective. Drawing on the scientific views of local scholars, the author proposes a step-by-step methodological approach that covers the process from identifying a professional situation to substantiating a technical solution. Its practical applicability is demonstrated through examples of problems related to energy systems and electric transport.*

Key words: *future engineers, physics education, professionally oriented general technical problems, problem-solving methodology, physical modeling, mathematical model, engineering competence, energy systems, electric transport, substantiation of a technical solution.*

Аннотация. *В статье освещаются методические аспекты подготовки будущих инженеров к решению профессионально ориентированных общетехнических задач по физике. Анализируются вопросы взаимосвязи физических знаний с профессиональными*

ситуациями, их моделирования и оценки полученных результатов с инженерной точки зрения. На основе научных взглядов отечественных учёных автором предлагается поэтапный методический подход, охватывающий путь от профессиональной ситуации до обоснования технического решения. Его практические возможности обосновываются на примерах задач, связанных с энергетическими системами и электрическим транспортом.

Ключевые слова: *будущие инженеры, физическое образование, профессионально ориентированные общетехнические задачи, методика решения задач, физическое моделирование, математическая модель, инженерная компетентность, энергетические системы, электрический транспорт, обоснование технического решения.*

Kirish

evidence came from listening and reading tasks, oral and written products, integrated tasks, pedagogical cases, microteaching and an analytic rubric. Four author-designed criteria grouped into two levels – receptive-interpretative, productive-communicative, interactional-functional and mediative-professional – were developed together with indicators, evidence tools and four-level descriptors. At baseline, 73.8–77.7% of students in both groups were at the low and lowest levels, and no statistically significant difference between the groups was found (t = 0.03–0.10; critical value 1.96). Two-level diagnostics separates students’ language capacity from the quality of its pedagogical use and makes it possible to target subsequent methodological support.

Key words: *language skills; future English teacher; diagnostics; assessment criteria; mediation; analytic rubric; microteaching; pedagogical experiment.*

KIRISH

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining til tayyorgarligi ikki xil natijani qamrab oladi: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish orqali ma’noni qabul qilish va ifodalash imkoniyati hamda bu imkoniyatdan sinfda pedagogik maqsadda foydalana olish. Ular o‘zaro bog‘liq, ammo bir-biriga teng emas. F. Faez, M. Karas va T. Uchixaraning metatahlili til bilish darajasi bilan o‘qituvchilarning o‘z pedagogik samaradorligini baholashi o‘rtasida faqat o‘rtacha bog‘liqlik (r = 0,37) mavjudligini ko‘rsatgan [5, 2021]. D. Frimen va hammualliflar o‘quvchini baholash va unga qayta aloqa berishni o‘qituvchining sinfdagi til faoliyatining alohida sohasi sifatida ajratadi [6, 2015], J. Richards esa ingliz tilini ingliz tili orqali o‘qitishni til bilish darajasi, pedagogik bilim va sinfdagi bajarish munosabati sifatida tahlil qiladi [9, 2017].

Amaliyotda esa bo‘lajak o‘qituvchilarning til tayyorgarligi ko‘pincha leksik-grammatik testlar yoki yagona kommunikativ ball bilan baholanadi. Bunday ko‘rsatkich talaba matnni yaxshi anglab, ravon gapirsa-da, mazmunni o‘quvchiga mos soddalashtira olmasligini yoki, aksincha, maqbul didaktik qarorni til resursi cheklangani sababli to‘liq ifodalay olmasligini ko‘rsatmaydi. Til testlari nazariyasida o‘lchanayotgan konstruksiyani aniq belgilash baholash natijalarini to‘g‘ri talqin qilishning asosiy sharti sifatida qaraladi [3, 1990]. CEFR qo‘shimcha jildi kommunikativ til faoliyatini retsepsiya, produksiya, interaksiya va mediatsiya rejimlari orqali tavsiflaydi [4, 2020], biroq bu rejimlar tayyor baholash mezonlari emas, balki faoliyat turlaridir va ularni o‘qituvchi tayyorlash maqsadlariga moslab talqin qilish talab etiladi.

Milliy tadqiqotlarda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozuv malakalarini takomillashtirishda baholash xususiyatlari [2, 2024] va kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish (Abduvaliyeva, 2025) masalalari o‘rganilgan, biroq til natijasi bilan kasbiy-pedagogik bajarishni yagona diagnostik konstruksiya doirasida farqlovchi tizim ishlab chiqilmagan. Ta’lim natijalarini dalilga asoslangan va oldindan belgilangan mezonlar asosida aniqlash zarurati ta’lim sifatini ta’minlash tizimida xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflikka asoslangan mexanizmlarni rivojlantirishni nazarda tutuvchi davlat siyosati bilan ham bog‘liq [8, 2025].

Maqolaning maqsadi – bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida til ko‘nikmalari rivojlanganligini til natijasi va kasbiy-pedagogik bajarish sathlarida farqlab baholovchi mezonlar, ko‘rsatkichlar va darajalarni asoslash hamda ular asosida o‘tkazilgan aniqlovchi diagnostika natijalarini taqdim etish.

2. Materiallar va metodlar

Tadqiqot tajriba va nazorat guruhlari qiyoslanadigan pedagogik tajriba-sinov sifatida 2023–2024, 2024–2025 va 2025–2026 o‘quv yillarida uch bosqichda – aniqlovchi-diagnostik, shakllantiruvchi va yakuniy-nazorat – o‘tkazildi. Unda O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti va Namangan chet tillar universitetining «Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)» yo‘nalishi 1–2-kurs talabalari ishtirok etdi (1-jadval). Tanlanmaning tadqiqot predmetiga muvofiqligi ishtirokchilarning kelgusi kasbiy faoliyati bilan belgilanadi: ular uchun to‘rt til ko‘nikmasi yo‘riq berish, tushuntirish, savol qo‘yish, o‘quvchi javobini qabul qilish va qayta aloqa berish kabi pedagogik vazifalarning til asosidir.

1-jadval.

Tajriba-sinov maydonlari va ishtirokchilar

T/r	Tajriba-sinov maydoni	Jami	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1	O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti	203	102	101
2	Jizzax davlat pedagogika universiteti	155	77	78
3	Namangan chet tillar universiteti	207	104	103
	Jami	**565**	**283**	**282**

Guruhlar bir ta’lim yo‘nalishi, umumiy tashkiliy sharoit, o‘quv mazmuni va boshlang‘ich til tayyorgarligi jihatidan taqqoslanadigan qilib shakllantirildi. Taqqoslashning metodik qiymati guruhlarning mutlaq bir xilligida emas, tekshirilayotgan ta’sirdan tashqari asosiy ta’lim omillarining imkon qadar muvofiq saqlanishidadir. Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhlarida mualliflik metodikasi va mashqlar tizimi qo‘llandi, nazorat guruhlarida mashg‘ulotlar amaldagi fan dasturi asosida olib borildi. Mazkur maqolada diagnostik tizim va aniqlovchi bosqich natijalari yoritiladi.

Diagnostik tizimning nazariy tayanchi sifatida CEFR qo‘shimcha jildidagi retsepsiya, produksiya, interaksiya va mediatsiya rejimlari olindi [4, 2020]. Ular asosida to‘rtta mualliflik mezoni ishlab chiqilib, ikki sathga ajratildi: I sath – til-kommunikativ faoliyat natijasi (retseptiv-interpretativ va produktiv-kommunikativ mezonlar), II sath – integratsiyalashgan kasbiy-pedagogik bajarish (interaksion-funksional va mediativ-kasbiy mezonlar). Diagnostik aniqlik uchun besh tushuncha farqlandi: mezon natijaning umumiy sifat jihatini, baholanadigan til faoliyati mezon namoyon bo‘ladigan kommunikativ harakatni, ko‘rsatkich mezonning kuzatiladigan belgisini, kuzatiladigan harakat talabaning amaliy bajarishini, dalil vositasi esa shu bajarish haqida ma’lumot olish shaklini ifodalaydi.

Diagnostika bitta test shakli bilan cheklanmadi. Retseptiv-interpretativ mezon tinglash va o‘qish vazifalari hamda javob varaqlari, produktiv-kommunikativ mezon og‘zaki va yozma mahsulotlar, interaksion-funksional mezon o‘zaro muloqot va integratsiyalashgan topshiriqlar hamda kuzatish varaqasi, mediativ-kasbiy mezon pedagogik keys, modellashtirilgan vaziyat va qisqa mikroo‘qitish epizodlari orqali baholandi. Interaksion va mediativ vazifalarda bir vaziyatga bir nechta maqbul javob bo‘lishi mumkinligi sababli ochiq mahsulotlar analitik rubrika asosida ekspert tomonidan baholandi: «namunaviy javob»ga moslik emas, harakatning mezon ko‘rsatkichlariga muvofiqligi hisobga olindi. Portfolio, o‘z-o‘zini baholash va tengdosh qayta aloqasi asosiy natija o‘rnini bosmadi va refleksiv korreksiyaga oid qo‘shimcha dalil sifatida qo‘llandi [7, 2007]. Natijalar yuqori, o‘rta, past va quyi darajalarda qayd etildi.

Diagnostik ma’lumotlarning ishonchliligi bir necha talab orqali ta’minlandi. Birinchidan, baholash vazifalari metodik model, mashqlar tizimi va to‘rt mezon bilan mazmunan muvofiqlashtirildi. Ikkinchidan, tajriba va nazorat guruhlarida bir xil mezon va ko‘rsatkichlar qo‘llandi. Uchinchidan, boshlang‘ich va yakuniy vazifalar mazmunan turlicha, ammo natijaviy obyekt, murakkablik va baholash ko‘rsatkichlari jihatidan ekvivalent qilib tanlandi, bu eslab qolish omilini istisno etdi. To‘rtinchidan, ochiq mahsulotlar umumiy taassurot bilan emas, rubrika ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil qilindi. Beshinchidan, retseptiv, produktiv, interaksion va mediativ natijalar bir-biridan farqlandi, bu konstrukt validligining muhim shartidir [3, 1990]. Guruhlarning boshlang‘ich holati har bir mezon bo‘yicha o‘rtacha qiymatlarni Styudent t-mezoni yordamida qiyoslash orqali tekshirildi ($\alpha = 0,05$; tkr = 1,96).

3. Natijalar

Ishlab chiqilgan diagnostik tizim 2-jadvalda keltirilgan. Retseptiv-interpretativ mezonda tinglab tushunish va o‘qish bitta mezon doirasida baholansa-da, alohida topshiriq va dalil vositalariga ega diagnostik obyektlar sifatida saqlanadi. Produktiv-kommunikativ mezonda gapirish va yozish mazmunni ifodalashning ikki shakli sifatida baholanadi: og‘zaki mahsulotda ravonlik, yozma mahsulotda kompozitsion yaxlitlik xos ko‘rsatkich bo‘lib qoladi.

2-jadval.

Til ko‘nikmalari rivojlanganligini baholash mezonlari

Sath	Mezon (CEFR rejimi)	Asosiy ko‘rsatkichlar	Dalil vositalari
I	Retseptiv-interpretativ (retsepsiya)	Asosiy mazmun va g‘oyani anglash; muhim va detal axborotni ajratish; kommunikativ maqsad, munosabat va matn funksiyasini anglash; kontekst asosida talqin qilish; axborotni vazifaga muvofiq saralash	Tinglash va o‘qish vazifalari, javob varag‘i, axborotni saralash topshirig‘i
I	Produktiv-kommunikativ (produksiya)	Aniqlik va mantiqiylik; kommunikativ maqsadga muvofiqlik; lug‘aviy-grammatik aniqlik; ravonlik (og‘zaki) yoki kompozitsion yaxlitlik (yozma); adresatga moslik; qayta ifodalash va tahrirlash	Og‘zaki vazifa, yozma ish, audio va video yozuv, analitik rubrika
II	Interaksion-funksional (interaksiya)	Hamsuhbat harakatiga mos reaksiya; muloqot navbatini davom ettirish; savol-javobni maqsadga muvofiq tashkil etish; avvalgi axborotdan keyingi harakatda foydalanish; ko‘nikmalarni funksional integratsiyalash	Integratsiyalashgan vazifa, o‘zaro muloqot topshirig‘i, kuzatish varaqasi, audio va video yozuv
II	Mediativ-kasbiy (mediatsiya)	Axborotni pedagogik maqsadga muvofiq qayta ishlash; soddalashtirish va tushuntirish; vazifa va adresat ehtiyojini anglash; didaktik qaror; qarorni til harakatida amalga oshirish; og‘zaki yoki yozma qayta aloqa; refleksiv korreksiya	Pedagogik keys, modellashtirilgan vaziyat, mikroo‘qitish, analitik rubrika, portfolio

Interaksion-funksional mezonda to‘rt ko‘nikma natijalari bitta ballga mexanik jamlanmaydi: qo‘llangan ko‘nikmalar soni emas, avvalgi til harakati natijasi keyingi harakatni qanday ta’minlagani baholanadi. Mediativ-kasbiy mezon ma’noni qayta ishlash, soddalashtirish

va boshqa shaxs uchun tushunarli qilishga asoslangan mediatsiya mantig‘ini o‘qituvchi vazifalari bilan bog‘laydi; uning ko‘rsatkichlari «pedagogik vazifa – didaktik qaror – til harakati» munosabatini kuzatiladigan natijaga aylantiradi. Masalan, mikroo‘qitish natijasi «dars o‘tkaza oldi yoki olmadi» tarzida umumlashtirilmaydi, balki vazifani anglash, axborotni qayta ishlash, qaror qabul qilish, mazmunni adresatga mos tushuntirish, qayta aloqa va keyingi korreksiya bo‘yicha alohida kuzatiladi.

Darajalar to‘rt mezon bo‘yicha harakatlarning mustaqilligi, barqarorligi, maqsadga muvofiqligi va bir bosqichdan keyingisiga o‘tish sifati bilan tavsiflanadi. Yuqori darajada talaba axborotning mazmuni, detallari va funksiyasini mustaqil anglaydi, mazmunni aniq va adresatga mos ifodalaydi, bir til faoliyati natijasini keyingi harakatga maqsadli o‘tkazadi, maqbul didaktik qaror qabul qilib, o‘z faoliyatini mustaqil korreksiya qiladi. O‘rta darajada asosiy mazmun to‘g‘ri anglanadi va pedagogik maqsad tushuniladi, ammo ayrim detal, til aniqligi, natijaviy o‘tish yoki qarorni til harakatiga aylantirishda yo‘naltirish talab etiladi. Past darajada axborot qisman anglanadi, ifoda va natijaviy o‘tish barqaror emas, vazifa, adresat va qarorni bog‘lashda muntazam qiyinchilik kuzatiladi. Quyi darajada asosiy mazmunni ajratish uchun tashqi tayanch zarur, o‘zaro muloqot va funksional integratsiya deyarli shakllanmagan, qayta aloqa mustaqil korreksiyaga aylanmaydi. Mezonlar qat’iy chiziqli bosqichlar emas: yuqori retseptiv yoki produktiv natija yuqori mediativ-kasbiy natijani o‘z-o‘zidan ta’minlamaydi.

Aniqlovchi diagnostika natijalari 3-jadvalda keltirilgan. Har ikki guruhda yuqori darajadagi talabalar ulushi barcha mezonlar bo‘yicha 6,0–7,8 foizni, o‘rta daraja 16,0–19,5 foizni tashkil etdi; talabalarning 73,8–77,7 foizi past va quyi darajalarda bo‘ldi. Bu holat til-kommunikativ (I sath) natijalarga ham, integratsiyalashgan kasbiy-pedagogik (II sath) natijalarga ham xos.

3-jadval. Aniqlovchi bosqichda tajriba (TG) va nazorat (NG) guruhlarining darajalar bo‘yicha taqsimoti

Mezon	Guruh	Yuqori, %	O‘rta, %	Past, %	Quyi, %	O‘rtacha qiymat	t
Retseptiv-interpretativ	TG	6,7	16,6	37,5	39,2	2,12	0,10
	NG	7,1	17,4	35,5	40,1	2,11	
Produktiv-kommunikativ	TG	6,4	17,0	38,9	37,8	2,16	0,03
	NG	6,7	16,3	39,0	37,9	2,16	
Interaksion-funksional	TG	6,0	16,6	40,3	37,1	2,17	0,08
	NG	6,4	16,0	40,8	36,9	2,18	
Mediativ-kasbiy	TG	7,8	17,3	38,9	36,0	2,25	0,03
	NG	6,7	19,5	37,6	36,2	2,24	

Izoh: TG – tajriba guruhi (n = 283), NG – nazorat guruhi (n = 282); t – Styudent mezonining empirik qiymati (ozodlik darajasi ≈ 563; tkr = 1,96; α = 0,05).

Barcha mezonlar bo‘yicha empirik t-qiymatlar (0,03–0,10) kritik qiymatdan (1,96) kichik bo‘lib, guruhlarning boshlang‘ich o‘rtacha ko‘rsatkichlari o‘rtasida statistik ahamiyatli farq aniqlanmadi. Bu guruhlarning mutlaq tengligini isbotlamaydi, lekin shakllantiruvchi ta’sir natijalarini keyinchalik qiyoslash uchun asos bo‘ladi.

4. Muhokama

Natijalar til tayyorgarligini yagona ko‘rsatkich bilan baholashning cheklanganligi haqidagi xulosani qo‘llab-quvvatlaydi. Til bilish darajasi va pedagogik faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rtacha ekanini ko‘rsatgan metatahlil [5, 2021] hamda til bilish, pedagogik bilim va sinfdagi bajarishni farqlovchi yondashuvlar [6, 2015; 9, 2017] ikki sathli diagnostikaning nazariy asosini mustahkamlaydi. Sathlarning ajratilishi kasbiy bajarishdagi muammo til resursining cheklanganligi yoki didaktik qaror bilan bog‘liqligini aniqlab, keyingi metodik ta’sirni maqsadli belgilash imkonini beradi.

CEFR rejimlaridan tayyor shkala sifatida emas, faoliyat turlari tavsifi sifatida foydalanish hujjatning o‘z maqsadiga mos keladi [4, 2020]. Mediatsiya rejimi ayniqsa samarali tayanch bo‘ldi: axborotni qayta ishlash, soddalashtirish va boshqa shaxs uchun tushunarli qilish bo‘lajak o‘qituvchining tushuntirish va qayta aloqa berish kabi kasbiy vazifalariga bevosita mos keladi. Refleksiv dalillarning qo‘shimcha manba sifatida qo‘llanishi EPOSTLda o‘z-o‘zini baholashning professional rivojlanishni anglash vositasi sifatida talqin qilinishiga muvofiq [7, 2007].

Aniqlovchi bosqichda talabalarning katta qismi faqat I sathda emas, II sathda ham past va quyi darajalarda bo‘lgani 1–2-kurslarda umumiy til tayyorgarligi o‘z-o‘zidan pedagogik qo‘llashga o‘tmasligini ko‘rsatadi. Mediativ-kasbiy mezon bo‘yicha boshlang‘ich taqsimot boshqa mezonlarnikidan keskin farq qilmagan; bu til va kasbiy natijalar bir xil darajada cheklangan holatda ekanini bildiradi va har ikki sathga yo‘naltirilgan metodik ta’sir zaruratini asoslaydi.

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Guruhlar tasodifiy taqsimlash orqali emas, taqqoslanuvchanlik talabi asosida shakllantirilgan; ekspert baholarining ishonchliligi rubrikani bir xil qo‘llash orqali ta’minlangan, ekspertlararo muvofiqlik koeffitsiyentini hisoblash esa keyingi tadqiqot vazifasidir; tajriba-sinov bitta ta’lim yo‘nalishi doirasida o‘tkazilgan. Shakllantiruvchi bosqichdan keyingi natijalar va ularning statistik tahlili alohida maqolada yoritiladi.

5. Xulosa

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida til ko‘nikmalari rivojlanganligini baholash uchun ikki sathli, to‘rt mezonli diagnostik tizim ishlab chiqildi. I sathda retseptiv-interpretativ va produktiv-kommunikativ til faoliyati, II sathda interaksion-funksional va mediativ-kasbiy bajarish baholanadi; har bir mezon ko‘rsatkichlar, kuzatiladigan harakatlar, dalil vositalari va to‘rt darajali tavsiflar bilan ta’minlangan. Uchta oliy ta’lim muassasasidagi 565 nafar talaba ishtirokidagi aniqlovchi diagnostika guruhlarning boshlang‘ich holati statistik jihatdan farqlanmasligini va talabalarning taxminan to‘rtdan uch qismi har ikki sathda past va quyi darajalarda ekanini ko‘rsatdi. Tizimdan bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarini tayyorlashda joriy va yakuniy baholashni loyihalashda, pedagogik amaliyot natijalarini baholashda hamda o‘quv dasturlarida ta’lim natijalari bilan baholash vositalarini muvofiqlashtirishda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduvaliyeva D.I. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kommunikativ-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish // Oliy attestatsiya komissiyasi: офиц. сайт., 2025. URL: https://oak.uz/pages/24150 (дата обращения: 07.09.2026).
2. Alimardonova M.B. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining yozuv malakalarini takomillashtirishda baholash xususiyatlari // Oliy attestatsiya komissiyasi : офиц. Сайт, 2024. URL: https://oak.uz/index.php/pages/19972 (дата обращения: 07.09.2026).

3. Bachman L. F. Fundamental considerations in language testing. Oxford: Oxford University Press, 1990.
4. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume / Council of Europe. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
5. Faez F., Karas M., Uchihara T. Connecting language proficiency to teaching ability: A meta-analysis // Language Teaching Research. 2021. Vol. 25, No. 5. P. 754–777. DOI: 10.1177/1362168819868667.
6. English-for-Teaching: Rethinking teacher proficiency in the classroom / D. Freeman, A. Katz, P. Garcia Gomez, A. Burns // ELT Journal. 2015. Vol. 69, No. 2. P. 129–139. DOI: 10.1093/elt/ccu074.
7. European portfolio for student teachers of languages: A reflection tool for language teacher education / D. Newby, R. Allan, A.-B. Fenner [et al.]. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2007.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-76-son Farmoni (05.05.2025) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). URL: https://lex.uz/docs/-7513052 (дата обращения: 07.09.2026).
9. Richards J.C. Teaching English through English: Proficiency, pedagogy and performance // RELC Journal. 2017. Vol. 48, No. 1. P. 7–30. DOI: 10.1177/0033688217690059.

"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

AXBOROTLASHGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI

To'rayeva Dilnoza Ismoilovna
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
katta o'qituvchisi
E-mail: dilnozaturayeva1988@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-0646-9125
DOI: 10.67620/ajousci.240038

Annotatsiya. *Maqolada axborotlashgan ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar va xalqaro konseptual hujjatlarning maqsadli, narrativ tahlili, tushunchalarni qiyoslash hamda nazariy sintez usullaridan foydalanildi. TPACK, DigCompEdu va UNESCO ICT CFT doirasidagi yondashuvlar pedagogik bilim, raqamli resurslardan foydalanish, axloqiy mas'uliyat va refleksiya o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirish uchun qiyoslandi. Natijada kasbiy kompetensiyaning kognitiv-mazmuniy, pedagogik-texnologik, kommunikativ-hamkorlik, aksiologik-etik va refleksiv-rivojlantiruvchi komponentlardan iborat mualliflik konseptual talqini taklif qilindi. Ushbu komponentlar empirik tekshirilgan model emas, balki keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos sifatida izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *axborotlashgan ta'lim muhiti, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, kasbiy kompetensiya, raqamli kompetensiya, TPACK, DigCompEdu, pedagogik refleksiya.*

Abstract. *This theoretical article examines the conceptual foundations of professional competence development among prospective primary school teachers in an information-rich educational environment. A targeted narrative analysis of scholarly literature and international frameworks, conceptual comparison and theoretical synthesis were employed. The TPACK, DigCompEdu and UNESCO ICT CFT frameworks were compared to clarify the relationships among pedagogical knowledge, digital resources, ethical responsibility and reflective practice. The synthesis proposes five interrelated dimensions: cognitive-content, pedagogical-technological, communicative-collaborative, axiological-ethical and reflective-developmental. The proposed structure is a theoretical interpretation rather than an empirically validated model and requires subsequent investigation.*

Key words: *information-rich educational environment, prospective primary school teacher, professional competence, digital competence, TPACK, DigCompEdu, reflective practice.*

KIRISH

Raqamli texnologiyalar ta’lim muassasalariga kirib kelishi bilan pedagogik faoliyatning faqat texnik vositalari emas, balki bilimga kirish, o‘quv axborotini saralash, o‘zaro muloqot va o‘quv natijalarini baholash usullari ham o‘zgarib bormoqda. Mazkur jarayonni ta’limning oddiy kompyuterlashtirilishi bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan yetarli emas: axborotlashgan muhit texnik infratuzilma, axborot resurslari, ijtimoiy aloqalar, tashkiliy me’yorlar va pedagogik qadriyatlar birligida namoyon bo‘ladi. Demak, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi ham alohida raqamli vositani qo‘llay olishdan kengroq mazmunga ega bo‘lishi kerak.

Boshlang‘ich ta’limda bu masala alohida dolzarbdir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning bilish jarayonlari, diqqatning barqarorlashuvi, o‘qish va yozish ko‘nikmalarining shakllanishi hamda kattalar bilan pedagogik munosabatlarga ehtiyoji texnologik vositalarni tanlashda rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi raqamli resursning jozibadorligini emas, uning o‘quv maqsadi, mazmun va bola ehtiyojlariga muvofiqligini ustuvor mezon sifatida baholashi zarur.

Ilmiy muammo shundan iboratki, raqamli kompetensiya, texnologik-pedagogik bilim va umumiy kasbiy kompetensiya tushunchalari ayrim talqinlarda bir-biriga yaqinlashtiriladi. Holbuki, texnologik vositalarni ishlatish qobiliyati pedagogik qarorlarning asoslanganligini avtomatik kafolatlamaydi. Tadqiqotning maqsadi axborotlashgan ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini izohlovchi nazariy yondashuvlarni qiyoslash va ularning asosida konseptual tarkibni aniqlashtirishdir. Tadqiqot savoli quyidagicha ifodalanadi: axborotlashgan ta’lim muhitining qaysi xususiyatlari kasbiy kompetensiya mazmunini qayta talqin qilishni talab etadi va bu talqin boshlang‘ich ta’limga qanday moslashtirilishi mumkin?

MATERIALLAR VA METODLAR

Maqola empirik tajriba yoki tizimli adabiyotlar sharhi emas, balki nazariy-konseptual tadqiqot sifatida ishlab chiqildi. Manbalar muammoni tushuntirish salohiyati va ilmiy ahamiyatiga ko‘ra maqsadli tanlandi: pedagogik bilimning klassik nazariyasi, texnologiya integratsiyasi modeli, pedagog raqamli kompetensiyasining xalqaro ramkalari hamda refleksiv pedagogik faoliyatga oid asarlar. Qamrovning maqsadli xususiyati sababli manbalar soni to‘liqlik yoki statistik reprezentativlikni anglatmaydi; maqolada PRISMA asosidagi qidiruv, skrining yoki metatahlil o‘tkazilgani da’vo qilinmaydi.

Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda “axborotlashgan ta’lim muhiti”, “kasbiy kompetensiya” va “raqamli kompetensiya” tushunchalarining mazmuniy chegaralari aniqlashtirildi; ikkinchi bosqichda Shulman, Mishra va Koehler, Redecker hamda UNESCO konsepsiyalarining tahlil birliklari qiyoslandi; uchinchi bosqichda boshlang‘ich ta’limning yoshga oid va pedagogik talablaridan kelib chiqib nazariy komponentlar sintez qilindi [1–4]. Qiyoslash mezonlari sifatida kompetensiyaning obyekti, pedagogik qaror bilan bog‘liqligi, raqamli muhitdagi vazifasi va boshlang‘ich ta’limga tatbiq chegaralari olindi.

Tadqiqotning metodologik tayanchlari tizimli yondashuv (kompetensiyani o‘zaro bog‘liq tarkiblar birligi sifatida ko‘rish), kompetensiyaviy yondashuv (bilimni vaziyatda asosli qo‘llashga

e’tibor), faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv (kasbiy qarorning amaliy mazmunini tahlil qilish) hamda aksiologik yondashuvdan (bola manfaatlari va pedagogik mas’uliyat ustuvorligi) iborat. Natijalar konseptual mulohaza sifatida taqdim etiladi va sabab-oqibat samaradorligini tasdiqlovchi empirik dalil deb talqin qilinmaydi.

NATIJALAR

1. Asosiy tushunchalarning konseptual chegaralari.

Axborotlashgan ta’lim muhiti deganda axborotni yaratish, saqlash, uzatish, qayta ishlash va pedagogik maqsadlarda qo‘llash jarayonlarini ta’minlovchi texnologik, mazmuniy, kommunikativ hamda me’yoriy shart-sharoitlarning o‘zaro bog‘langan tizimi tushuniladi. Bu ta’rifda “muhit” atamasi platformalar yig‘indisini emas, balki pedagogik munosabatlar va qarorlar amalga oshadigan kontekstni bildiradi. Uning texnologik qatlami qurilmalar va dasturlardan, mazmuniy qatlami raqamli o‘quv resurslaridan, kommunikativ qatlami ishtirokchilar o‘rtasidagi axborot almashinuvidan, me’yoriy-etik qatlami esa xavfsizlik, mualliflik huquqi, maxfiylik va teng imkoniyat tamoyillaridan tashkil topadi.

Kasbiy kompetensiya pedagogik vazifani tegishli bilim, ko‘nikma, qadriyat, mulohaza va refleksiya asosida mas’uliyatli bajarish imkonini beradigan integrativ sifat sifatida talqin qilinadi. Bunda “kompetensiya” faqat mavjud resursni ishlatish malakasi emas, balki noaniq pedagogik vaziyatda asoslangan qaror qabul qilish layoqatidir. Raqamli kompetensiya esa ushbu keng tizimning muhim, biroq mustaqil ravishda yetarli bo‘lmagan tarkibi bo‘lib, axborotni izlash va baholash, raqamli kontent bilan ishlash, xavfsiz kommunikatsiya hamda o‘quvchilar raqamli savodxonligini qo‘llab-quvvatlashni qamrab oladi [2, 3].

Nazariy jihatdan “raqamli kompetensiya kasbiy kompetensiyaga teng” degan tasavvur o‘rniga “raqamli kompetensiya kasbiy kompetensiyaning pedagogik maqsadga bo‘ysundirilgan tarkibiy qismi” degan talqin asosliroqdir. Chunki o‘qituvchining texnologik jihatdan yuqori tayyorgarligi didaktik jihatdan nomuvofiq material tanlash, bolaning rivojlanish ehtiyojini e’tiborsiz qoldirish yoki shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini buzish xavfini o‘z-o‘zidan bartaraf etmaydi.

2. Xalqaro konsepsiyalar qiyosiy tahlili.

L. Shulmanning pedagogik mazmuniy bilim (PCK) haqidagi qarashi fan mazmuni va uni o‘rgatish bilimlari integratsiyasini ta’kidlaydi [4]. Mishra va Koehler ushbu g‘oyani kengaytirib, TPACK doirasida fan mazmuni, pedagogika va texnologiya bilimlarining o‘zaro kesishuvini tushuntirgan [1]. Mazkur model boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun texnologiya tanlovi avvalo muayyan bilim mazmuni va uni bolaga tushunarli qilish yo‘li bilan bog‘liq bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, TPACKning asosiy tahlil markazi bilimlar integratsiyasi bo‘lgani sababli axborot xavfsizligi, pedagogik hamkorlik va professional refleksiyaning barcha jihatlarini alohida batafsil tasniflamaydi.

DigCompEdu pedagog raqamli kompetensiyasini olti yo‘nalish doirasida tavsiflaydi: kasbiy hamkorlik, raqamli resurslar, o‘qitish va o‘rganish, baholash, ta’lim oluvchilar imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish [2]. Bu yondashuvning afzalligi texnologik savodxonlikni pedagogning kundalik kasbiy vazifalari bilan bog‘lashidadir. Biroq ushbu ramka barcha ta’lim bosqichlari uchun umumiy tuzilganligi sababli boshlang‘ich ta’limning rivojlanish psixologiyasiga oid talablarini qo‘shimcha nazariy talqin qilish zarur.

UNESCO ICT CFT pedagoglarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalarini ta’lim siyosati, o‘quv dasturi, pedagogika, tashkil etish va kasbiy rivojlanish

bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi [3]. Uning muhim jihati texnologiyalardan foydalanishni individual ko‘nikma emas, ta’lim tizimidagi kengroq o‘zgarishlar bilan bog‘lashidir. TPACK bilimlar integratsiyasini, DigCompEdu pedagogik faoliyat sohalarini, UNESCO ICT CFT esa tizimli-kasbiy rivojlanish istiqbolini kuchliroq yoritadi. Ular bir-birini inkor etmaydi; aksincha, turli tahlil darajalarida o‘zaro to‘ldiradi.

3. Kasbiy kompetensiyaning taklif etilayotgan konseptual tuzilishi.

Tahlil asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasining besh o‘zaro bog‘liq komponenti ajratildi. Bu tasnif xalqaro ramkalarning aynan nusxasi emas; ularning konseptual jihatlarini boshlang‘ich ta’lim kontekstida umumlashtirish natijasidir.

Komponent	Nazariy mazmuni va boshlang‘ich ta’limdagi ifodasi
Kognitiv-mazmuniy	Fan va pedagogika bilimlarini integratsiyalash; raqamli manbalarning ishonchliligi, yoshga mosligi va mazmuniy aniqligini baholash.
Pedagogik-texnologik	Raqamli vositalarni o‘quv maqsadiga muvofiq tanlash; texnologiya, didaktika va fan mazmuni o‘rtasida asosli bog‘liqlik o‘rnatish.
Kommunikativ-hamkorlik	O‘quvchi, ota-ona va hamkasblar bilan raqamli va bevosita muloqotning pedagogik muvozanatini saqlash; inklyuziv hamkorlik.
Aksiologik-etik	Bola manfaatlari, shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi, axborot xavfsizligi, teng imkoniyat va akademik halollikni ustuvor qo‘yish.
Refleksiv-rivojlantiruvchi	Pedagogik qarorlarning asosini tahlil qilish, cheklovlarni anglash, professional ehtiyojlarni aniqlash va uzluksiz o‘rganishga tayyorlik.

Manba: muallif tomonidan [1–4] manbalar konseptual tahlili asosida tizimlashtirilgan.

Ajratilgan komponentlar qat’iy ajratilgan bloklar emas. Masalan, raqamli matnni tanlash kognitiv-mazmuniy bilimni, uni bolaga taqdim etish pedagogik-texnologik qarorni, manba muallifligini ko‘rsatish aksiologik-etik mas’uliyatni, natijani qayta ko‘rib chiqish esa refleksiyani talab qiladi. Shu sababli kompetensiya rivojlanishini komponentlarning oddiy qo‘shindisi sifatida emas, ularning o‘zaro muvofiqlashuvi sifatida tushunish maqsadga muvofiq.

4. Axborotlashgan muhitning kasbiy kompetensiyaga ta’sirini tushuntiruvchi nazariy bog‘lanish. Taklif etilayotgan talqinga ko‘ra, muhitning resurslar xilma-xilligi axborotni tanlash va tekshirish ehtiyojini; kommunikatsiyaning ko‘p kanalliligi professional muloqot va chegaralarni belgilash ehtiyojini; ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyati baholashning axloqiy va pedagogik mas’uliyatini; texnologik yangilanish tezligi esa refleksiya va uzluksiz o‘rganish ehtiyojini kuchaytiradi. Biroq ushbu bog‘lanishlar nazariy taxminlar bo‘lib, ularning kuchi va yo‘nalishini aniqlash uchun keyinchalik empirik tekshiruv talab qilinadi.

MUHOKAMA

Olingan nazariy natijalar texnologik determinizmning cheklanganligini ko‘rsatadi. Ya’ni raqamli infratuzilma mavjudligi yoki elektron resurslar sonining ko‘pligi o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasining avtomatik ravishda rivojlanishini anglatmaydi. Muhitning pedagogik qiymati uning imkoniyatlarini aniq ta’limiy maqsad, yoshga mos mazmun va kasbiy mas’uliyat bilan bog‘lash orqali namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan TPACKning integrativ g‘oyasi muhim bo‘lsa-da, o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini tushuntirish uchun DigCompEdu va UNESCO ICT CFTdagi kommunikativ, tashkiliy va kasbiy rivojlanish o‘lchamlarini ham hisobga olish zarur [1–3].

Boshlang‘ich ta’lim kontekstida raqamli vosita va bevosita pedagogik munosabat o‘rtasidagi muvozanat prinsipial ahamiyatga ega. Kichik yoshdagi bola uchun o‘qituvchi bilan muloqot, ijtimoiy taqlid, nutqiy hamkorlik va hissiy qo‘llab-quvvatlash o‘quv jarayonining tarkibiy shartlaridir. Shuning uchun texnologiya pedagogik munosabatning o‘rnini bosadigan universal mexanizm sifatida emas, zarur vaziyatda uni boyitadigan vosita sifatida qaralishi lozim. Mazkur yondashuv o‘qituvchi kompetensiyasini raqamli operatsiyalar tezligi bilan emas, pedagogik qarorning maqsadga muvofiqligi bilan baholashga undaydi.

Kasbiy kompetensiyaning aksiologik-etik o‘lchami ham mustaqil ilmiy ahamiyatga ega. Ta’lim platformalarida o‘quvchilar haqidagi ma’lumotlar, topshiriqlar va o‘zlashtirish izlari to‘planishi mumkin. Bunday sharoitda ma’lumotlardan foydalanishning qonuniyligi, mutanosibligi va bola manfaatlariga muvofiqligi pedagogik qarorlarning ajralmas mezoniga aylanadi. Shuningdek, raqamli imkoniyatlar teng bo‘lmagan sharoitda barcha o‘quvchilardan bir xil texnologik ishtirokni talab qilish adolat tamoyiliga zid oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois kasbiy kompetensiya tarkibida inklyuzivlik va axborot etikasi faqat qo‘shimcha ko‘nikma emas, pedagogik mas’uliyatning ichki qismi sifatida qaraladi.

Nazariy sintezda ajratilgan besh komponent muayyan metodika yoki tajriba dasturini bevosita belgilamaydi. Uning vazifasi tadqiqot obyekti haqida aniqroq tushunchaviy xarita yaratishdir. Keyingi izlanishlarda har bir komponent uchun kuzatiladigan indikatorlar ishlab chiqilishi, ekspert baholashi orqali mazmuniy validlik tekshirilishi va turli pedagogik tayyorgarlik sharoitlarida komponentlararo munosabatlar o‘rganilishi mumkin. Bunday empirik ishlar bajarilmaguncha taklif etilgan tuzilmani ilmiy jihatdan tasdiqlangan universal model sifatida taqdim etish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Tadqiqotning asosiy cheklovi manbalarning maqsadli tanlanganligi va tahlilning nazariy xarakteri bilan bog‘liq. Unda ma’lumotlar bazalari bo‘yicha to‘liq qidiruv, tadqiqotlar sifatini formal baholash yoki statistik sintez bajarilmadi. Shuning uchun xulosalar barcha ilmiy adabiyotlar qamrab olingani haqidagi da’voni emas, tanlangan nufuzli konsepsiyalar asosida ishlab chiqilgan mantiqiy talqinni ifodalaydi. Shu bilan birga, aynan tushunchaviy aniqlik bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini o‘rganishga qaratilgan keyingi dissertatsion tadqiqotlar uchun muhim nazariy poydevor yaratadi.

XULOSA

Nazariy tahlil axborotlashgan ta’lim muhitini texnik vositalar majmuasi sifatida emas, pedagogik faoliyat mazmuni, kommunikatsiya, axborot bilan ishlash va kasbiy mas’uliyatga ta’sir etuvchi ko‘p qatlamli ijtimoiy-pedagogik kontekst sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatdi. Mazkur muhitda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi raqamli savodxonlik bilan cheklanmaydi; u pedagogik mazmunni anglash, vositani maqsadga muvofiq tanlash, bola manfaatlarini himoya qilish va o‘z faoliyatini refleksiv baholash imkoniyatlarini birlashtiradi.

TPACK, DigCompEdu va UNESCO ICT CFT konsepsiyalarining qiyosiy o‘rganilishi ularning turli tahlil darajalarida bir-birini to‘ldirishini aniqlashtirdi. Shu asosda kasbiy kompetensiyaning kognitiv-mazmuniy, pedagogik-texnologik, kommunikativ-hamkorlik, aksiologik-etik va refleksiv-rivojlantiruvchi tarkibiy qismlari nazariy jihatdan tizimlashtirildi. Ushbu tasnif boshlang‘ich ta’limga xos yosh, pedagogik va axloqiy talablarni yaxlit ko‘rishga xizmat qiladi.

Maqolaning ilmiy natijasi tajribada isbotlangan samaradorlik ko‘rsatkichi emas, balki kasbiy kompetensiya va axborotlashgan ta’lim muhiti o‘rtasidagi munosabatni aniqlashtiruvchi konseptual talqindir. Keyingi tadqiqotlarda mazkur tuzilmaning mazmuniy va konstrukt validligini baholash, komponentlarning o‘zaro aloqasini empirik tekshirish hamda boshlang‘ich ta’lim kontekstiga xos chegaralarini aniqlash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054. https://doi.org/10.1111/j.1467-9620.2006.00684.x

2. Redecker, C. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu (Y. Punie, Ed.). Publications Office of the European Union. https://doi.org/10.2760/159770

3. UNESCO. (2018). UNESCO ICT Competency Framework for Teachers (Version 3). UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000265721

4. Shulman, L. S. (1986). Those who understand: Knowledge growth in teaching. Educational Researcher, 15(2), 4–14. https://doi.org/10.3102/0013189X015002004

5. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Basic Books.

6. Koehler, M. J., Mishra, P., & Cain, W. (2013). What is technological pedagogical content knowledge (TPACK)? Journal of Education, 193(3), 13–19. https://doi.org/10.1177/002205741319300303

7. European Commission, Joint Research Centre. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. https://publications.jrc.ec.europa.eu/repository/handle/JRC107466

CONTENTS

So‘zboshi……... 3

05.00.00 – TECHNICAL SCIENCES

1 **Muhammad Ramzan Ali, Adnan Manzoor -** THE DUAL ROLE OF LARGE LANGUAGE MODELS IN CYBERSECURITY: THREATS, DEFENSES, AND RESEARCH DIRECTIONS …….. 5

10.00.00 – PHILOLOGICAL SCIENCES

2 **Feruza Baxtiyorova -** INGLIZ VA O‘ZBEK MAISHIY DISKURSIDA HAMJIHATLIK VA USTUVORLIK STRATEGIYALARINING GENDER-PRAGMATIK NAMOYON BO‘LISHI…… 39

3 **Давлатмуратов Сирож Равшанбекович -** ЗАПРЕТ, ПРЕДПИСАНИЕ, РАЗРЕШЕНИЕ: ДЕОНТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ ПАРЕМИЙ О ЧЕСТИ, ПОЗОРЕ, ГОРДОСТИ И СТЫДЕ…… 56

4 **Эльвира Владимировна Ергашева -** ШКОЛА И ОБРАЗОВАНИЕ: ИНТЕРАКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ 5-Х КЛАССОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК НЕРОДНОГО…… 68

5 **Ma’diyeva Adiba Dovudovna -** HAYNRIX HAYNE SHE’RIYATIDA MA’SHUQA OBRAZINING TALQINI VA POETIK TADRIJI……... 75

6 **Mamasoliyeva Muhlisaxon Otabek qizi -** FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI…… 80

7 **Mamatova Ziyodaxon Ravshanovna -** TILSHUNOSLIKDA SO‘ROQNI IFODALOVCHI FE’LLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI…… 86

8 **Maxsimova Umidaxon Xamitxon qizi -** THE REPRESENTATION OF LANDSCAPE IN THOMAS KING‘S NOVELS: SPATIAL NARRATIVES AND CULTURAL IDENTITY……. 95

9 **Muxtorov Dilshodbek -** O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OKSIMORONLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI VA TARJIMA STRATEGIYALARI…… 102

10 **Ochilova Zarifa Zafar qizi -** INGLIZ VA O‘ZBEK PAREMIOLOGIK BIRLIKLARI TARJIMASIDA EKVIVALENTLIK VA TARJIMA STRATEGIYALARI…… 106

11 **Otaboyeva Mazmuna Raximovna -** HADIS DISKURSIDA XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING PRAGMATIK TAVSIFI……... 116

12 **Щитка Неля Николаевна -** СИСТЕМА МОНИТОРИНГА КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ (НА МАТЕРИАЛЕ КУРСОВЫХ РАБОТ ПО РУССКОЙ ФИЛОЛОГИИ) ……. 119

13 **Valieva Noiba Abbasxonovna -** XITOY VA O‘ZBEK TILLARIDA “BAXT” KONSEPTINING LISONIY IFODASI: 福 [FÚ] VA “BAXT” LEKSEMALARINING QIYOSIY TAHLILI……. 125

14 **Xamdamov Xaydar Azamatovich -** O‘ZBEK BADIIY MATNLARIDA FE’L KOMPONENTLI KOLLOKATSIYALARNING MORFOLOGIK PARADIGMASI VA LEKSIKOGRAFIK TALQINI…... 132

15 **Xo‘jamurodova Oydin Xo‘jamurod qizi -** “YALDO KECHASI” - TARIXIY ROMANNING YANGI KO‘RINISHI…….. 140

16 **Муллаахунова Нилуфар Мухаматумановна -** ФОРМИРОВАНИЕ КЛЮЧЕВЫХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ……..... 145

13.00.00 – PEDAGOGICAL SCIENCES

17 **Abdug‘aniyev Ozod Tursunboy o‘g‘li -** KASBIY VAZIYATLARDA TALABALARNING UMUMINSONIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN AXLOQIY QARORINI DALILLASH VA YANGI SHAROITGA KO‘CHIRISH…….. 160

18 **Laziza Abdullayeva -** AGE-RELATED COGNITIVE CHANGES AND ADULT ESL LEARNING…… 166

19 **Begmatova Dilnoza Muxtarovna -** MADANIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALARNING UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI……. 174

20 **Jalilova Nilufar -** THE CURRENT STATE OF CHINESE LANGUAGE TEACHING IN SCHOOLS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SPEECH COMPETENCE…… 179

21 **Kodirov Raxmatillo Shakirovich** - TIBBIY KIMYONI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATIV O‘QITISH METODIKASI…… 185
22 **Mamatova Gulshan Amankulovna** - BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI…….. 191
23 **Muratova Marxabo Safarovna** - DEVELOPING ENGLISH LANGUAGE PROFICIENCY IN MIXED-LEVEL UNIVERSITY EFL CLASSES THROUGH DIFFERENTIATED INSTRUCTION……. 196
24 **Nazarova S.A.** - YU DAFU'S PROSE IN INTERCULTURAL CHINESE LANGUAGE TEACHING: FROM TEXT INTERPRETATION TO CLASSROOM PRACTICE……. 201
25 **Nazarova S.A.** - COGNITIVE-DISCURSIVE EXERCISES FOR INTERCULTURAL CHINESE LANGUAGE TEACHING: INTEGRATING HUMAN JUDGMENT AND GENERATIVE AI 210
26 **Narziyev Umidjon Zaripovich** - OLIY TA’LIM MUASSASASIDA O‘QUV YUKLAMASI VA DARS JADVALINI BOSHQARISHDA KO‘P DARAJALI RAQAMLI MONITORINGNI TASHKIL ETISH… 217
27 **N. Orınbetov** - METHODOLOGICAL SYSTEM FOR DEVELOPING STUDENTS' TECHNICAL AND TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT……... 225
28 **Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich** - O‘QUVCHILARDA SUN’IY INTELLEKTDAN ONGLI FOYDALANISH MADANIYATINI BAHOLASH MEZONLARI VA DARAJALARI……. 231
29 **Qo‘chqorov Baxodir Maxkamovich** - RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARNI IQTISODIY TARBIYALASH JARAYONLARINI PEDAGOGIK LOYIHALASHTIRISH……... 240
30 **Dilshada Raxmatullayeva** - TALABALARDA XITOY TILI FONETIK KOMPETENSIYASINING SHAKLLANGANLIK DARAJASINI EKSPERIMENTAL TADQIQ ETISH NATIJALARI…… 246
31 **Shokirov Bahodir Ismoilovich** - ARXITEKTURA YO‘NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI FAOLIYATGA YO‘NALTIRILGAN ANALITIK RUBRIKA ASOSIDA BAHOLASH METODIKASI…….. 253
32 **Xidirova Dildora Tojiboyevna** - BO‘LAJAK MUHANDISLARNI FIZIKADAN KASBGA YO‘NALTIRILGAN UMUMTEXNIK MASALALARNI YECHISHGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH……..... 263
33 **Ходжаниязова Умида Кулмагамбетовна** - ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК СРЕДСТВО ПОДДЕРЖКИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ПИСЬМА НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ……..... 269
34 **Ulugov Zafar Atakulovich** - OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MONITORING VA BAHOLASH 275
35 **Boqiev Farhod Esonovich** - VATANPARVARLIK TARBIYASIDA MAKTAB OILA VA MAHALLA HAMKORLIGINING INNOVATSION MEXANIZMLARI…… 281
36 **Insopov Jamshid Abdusamadovich** - “TARIX O‘QITISH METODIKASI” FANIGA INTEGRATSIYALANGAN RAQAMLI-METODIK MODUL: VERTIKAL INTEGRATSIYA VA 4+2 TARTIBIDAGI PEDAGOGIK AMALIYOT…… 293
37 **Kulijanov Umid Axmedovich** - BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA TIL KO‘NIKMALARI RIVOJLANGANLIGI DIAGNOSTIKASI…… 298
38 **To‘rayeva Dilnoza Ismoilovna** - AXBOROTLASHGAN TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI……... 306

AJOU UNIVERSITY IN TASHKENT

“ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS” AJOU SCI

VOLUME 2 / ISSUE 3

ISSN: 3093-8635

Published: 15.10.2026. Font: «Times New Roman».

LLC «Science and innovation»
License Mass Media №:1597 27.04.2022
License Publisher №:038864 15.09.2022
Address: 100121, Tashkent, Yakkasaroy, st. Sh. Rustaveli 150,
Business center “Vega”, 6th floor, Office №:2
www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998901259654